O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi O'RQ-400-son Qonuni bilan tasdiqlangan

Lotin yozuvidagi matn · mundarija bilan

Matn Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasidagi (lex.uz) kirill yozuvidagi tahrirdan lotin yozuviga o'girildi; o'zgartirish va qo'shimchalar haqidagi izohlar saqlandi, «Oldingi tahrirga qarang» havolalari olib tashlandi. Rasmiy matn — lex.uz dagi kirill yozuvidagi matn; amaliy qo'llashdan oldin amaldagi tahrirni lex.uz da tekshiring. Tayyorlagan: Hisobchi (buxgalteriya-eight.vercel.app).

Mundarija

I bo'lim. Umumiy qoidalar

1-bob. Asosiy qoidalar
2-bob. Ushbu Kodeksda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar
3-bob. Tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish

II bo'lim. Bojxona rejimlari

4-bob. Umumiy qoidalar
5-bob. Eksport
6-bob. Reeksport
7-bob. Vaqtincha olib chiqish
8-bob. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash
9-bob. Erkin muomalaga chiqarish (import)
10-bob. Reimport
11-bob. Vaqtincha olib kirish
12-bob. Bojxona hududida qayta ishlash
13-bob. Vaqtincha saqlash
14-bob. Bojxona ombori
15-bob. Erkin ombor
16-bob. Erkin bojxona zonasi
17-bob. Boj olinmaydigan savdo
18-bob. Bojxona tranziti
19-bob. Yo'q qilish
20-bob. Davlat foydasiga voz kechish
21-bob. Tovarni bojxona rejimlariga joylashtirilayotgandagi ruxsat berish tartib-taomillari

III bo'lim. Transport vositalariga va tovarlarning ayrim toifalariga nisbatan bojxona rejimlarining qo'llanilishi

22-bob. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalarini olib o'tish
23-bob. Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni va transport vositalarini notijorat maqsadlarda olib o'tish
24-bob. Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlar
25-bob. Bojxona chegarasidan quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlar
26-bob. Bojxona omborlari, boj olinmaydigan savdo do'konlari va erkin omborlar

IV bo'lim. Bojxona nazorati

27-bob. Bojxona nazoratining umumiy qoidalari
28-bob. Bojxona nazoratini amalga oshirish shakllari va tartibi
29-bob. Xavfni boshqarish tizimi
30-bob. Bojxona ekspertizasi
31-bob. Tovarlarni va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashish
32-bob. Transport vositasiga tovarlarni bojxona plombalari va muhrlari ostida tashishga ruxsat berish to'g'risidagi guvohnoma
33-bob. Bojxona tashuvchisining faoliyati

V bo'lim. Bojxona ishida valyuta nazorati va tashqi savdo operatsiyalarining monitoringi

34-bob. Valyuta nazorati
35-bob. Tashqi savdo operatsiyalari monitoringi

VI bo'lim. Bojxona rasmiylashtiruvi

36-bob. Umumiy qoidalar

37-bob. Deklaratsiyalash
38-bob. Tovarlarni va transport vositalarini chiqarib yuborish

VII bo'lim. Deklarant, bojxona brokeri va bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis

39-bob. Deklarant
40-bob. Bojxona brokeri
41-bob. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis

VIII bo'lim. Bojxona to'lovlari

42-bob. Asosiy qoidalar
43-bob. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar va tarif preferensiyalari
44-bob. Tovarning bojxona qiymati
45-bob. Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash
46-bob. Bojxona to'lovlarini to'lash tartibi va muddatlari
47-bob. Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash
48-bob. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik
49-bob. Bojxona to'lovlari summalarini qaytarish
50-bob. Tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash
51-bob. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi
52-bob. Dastlabki qarorlar

IX bo'lim. Bojxona statistikasi. Bojxona ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish

53-bob. Bojxona organlari tomonidan bojxona statistikasini yuritish
54-bob. Bojxona ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
55-bob. Axborot va maslahat berish
56-bob. Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish

X bo'lim. Chet ellik shaxslarning ayrim toifalari uchun bojxona imtiyozlari

57-bob. Chet davlatlarning vakolatxonalari va ularning xodimlari uchun bojxona imtiyozlari
58-bob. Chet ellik boshqa shaxslar uchun bojxona imtiyozlari
59-bob. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari hamda ularning xodimlari uchun bojxona imtiyozlari

XI bo'lim. Nazorat ostida yetkazib berish

XII bo'lim. Yakunlovchi qoidalar

Mazkur Kodeks O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 20 yanvardagi O'RQ-400-sonli «O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

I bo'lim. Umumiy qoidalar

1-bob. Asosiy qoidalar

1-modda. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi bilan tartibga solinadigan munosabatlar

Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish tartibini belgilash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

(1-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

2-modda. Bojxona to'g'risidagi qonunchilik

Bojxona to'g'risidagi qonunchilik ushbu Kodeksdan va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining bojxona to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikning vaqt bo'yicha amal qilishi

Bojxona ishida bojxona organi bojxona deklaratsiyasini va boshqa hujjatlarni qabul qilib olgan kuni amalda bo'lgan qonunchilik qo'llaniladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilik orqaga qaytish kuchiga ega emas va agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan bojxona to'g'risidagi qonunchilik orqaga qaytish kuchiga ega.

Bojxona to'lovlarini bekor qilish, bojxona to'lovlari stavkalarini kamaytirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining majburiyatlarini bekor qilish yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda yengillashtirishni nazarda tutuvchi bojxona to'g'risidagi qonunchilik orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi mumkin, agar bu bojxona to'g'risidagi qonunchilikda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan bo'lsa, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilik, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik bojxonaga oid huquqbuzarlik sodir etilgan kunda amalda bo'lgan qonunchilik hujjatlari asosida qo'llaniladi.

(3-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

4-modda. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi huquqlarining ustuvorligi

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikdagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining foydasiga talqin qilinadi.

(4-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

2-bob. Ushbu Kodeksda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar

5-modda. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi va bojxona chegarasi

O'zbekiston Respublikasining quruqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlari hamda ular ustidagi havo hududi O'zbekiston Respublikasining bojxona hududini (bundan buyon matnda bojxona hududi deb yuritiladi) tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin. Bunda ularga joylashtirilgan tovarlar bojxona to'lovlarini to'lash maqsadida, shuningdek iqtisodiy siyosat choralarini qo'llash uchun bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi.

(5-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Bojxona hududi sarhadlari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi hisoblanadi (bundan buyon matnda bojxona chegarasi deb yuritiladi).

(5-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

6-modda. Bojxona maqsadlari

Bojxona maqsadlari quyidagilardan iborat:

bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, tovarlarni tashish, saqlash va qayta ishlashda bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;

(6-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

bojxona to'lovlari o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishini ta'minlash;

iqtisodiy siyosat choralariga, bojxona rejimlarining talablari va shartlariga rioya etilishini ta'minlash;

bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hollariga chek qo'yish va ularning oldini olish.

(6-moddaning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

7-modda. Vakolatli shaxs

Tovarning va (yoki) transport vositasining egasi yoki tovarga va (yoki) transport vositasiga nisbatan bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq vakolatlarga ega bo'lgan yoxud tovarning va (yoki) transport vositasining egasi nomidan tegishli shartnoma yoki ishonchnoma asosida ish ko'ruvchi shaxs vakolatli shaxsdir.

(7-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

71-modda. Vakolatli iqtisodiy operator

Qonunchilikda belgilangan tegishli talablarga javob beruvchi yuridik shaxslar vakolatli iqtisodiy operator maqomini olishi mumkin.

Vakolatli iqtisodiy operator maqomini olish tartibi, Vakolatli iqtisodiy operatorlar reyestriga kiritish uchun tanlash mezonlari va vakolatli iqtisodiy operator tomonidan amalga oshiriladigan maxsus soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Vakolatli iqtisodiy operatorlar reyestrini yuritadi va uning o'z rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini hamda kamida har oyda yangilab borilishini ta'minlaydi.

(71-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

8-modda. Yuridik va jismoniy shaxslar

Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan tashkilot;

chet davlatning qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti;

O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonunchiligiga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

(8-modda birinchi qismining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) jismoniy shaxslar hisoblanadi.

9-modda. Tovarning kuzatuv hujjatlari

Tijorat va transport hujjatlari tovarning kuzatuv hujjatlari hisoblanadi.

Tijorat hujjatlari jumlasiga hisobvaraq-faktura (invoys), yuklab jo'natish va o'rov varaqlari hamda tashqi savdo faoliyati va o'zga faoliyat amalga oshirilayotganda bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tish bilan bog'liq bitimlar tuzilganligini tasdiqlash uchun foydalaniladigan boshqa hujjatlar kiradi.

Transport hujjatlari jumlasiga konosament, yuk xati yoki tovarlarni tashish shartnomasi borligini tasdiqlovchi hamda shunday tashishda kuzatib boruvchi boshqa hujjat kiradi.

10-modda. Tovarning o'zgarmas holati

Tovarning o'zgarmas holati tovar bojxona rejimiga joylashtirilayotgan paytdagi barcha xossalarining bojxona rejimi amal qilishining tugallanish paytida o'sha hajmlarda but saqlanib qolishidir, bundan tovarning tabiiy tarzda eskirishi yoki uni tashish va (yoki) saqlashning normal sharoitlarida kamayishi oqibatida ro'y bergan o'zgarishlar mustasno.

11-modda. Qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi

Qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi qayta ishlash jarayonida ishlatiladigan tovarlar miqdorining bitta birligidan ishlab chiqarish jarayoniga muvofiq olinadigan qayta ishlangan mahsulotlarning mutlaq qiymatdagi yoki foiz nisbatidagi miqdori hisoblanadi.

12-modda. Tovarning but saqlanishini ta'minlashga doir operatsiyalar

Tovarning but saqlanishini ta'minlashga doir operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

tozalash, shamollatish, quritish, shu jumladan iliq havoni vujudga keltirib quritish;

saqlashning maqbul harorat rejimini yaratish, shu jumladan sovutish, muzlatish, isitish;

himoya o'roviga o'rash, himoyalovchi moyni va konservantlarni surtish;

zanglashdan himoya qilish uchun bo'yash, muhofazalovchi moddalar bilan ihotalash;

korroziyaga qarshi qoplama surtish.

Tovarlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tovarning but saqlanishini ta'minlashga doir operatsiyalar jumlasiga qonunchilikka muvofiq boshqa turdagi operatsiyalar ham kiritilishi mumkin.

(12-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

13-modda. Tovar va transport vositasi

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan har qanday ko'char mol-mulk, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, valyuta boyliklari va boshqa qimmatli qog'ozlar, elektr, issiqlik energiyasi va energiyaning boshqa turlari, intellektual mulk ob'yektlari, transport vositasi tovar hisoblanadi, bundan ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan transport vositasi mustasno.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovar yoxud bojxona hududida erkin muomalaga chiqarilgan yoki ushbu Kodeksga muvofiq shunday maqomga ega bo'lgan tovar O'zbekiston tovaridir.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilmagan tovar, shuningdek ushbu Kodeksga muvofiq chet el tovari maqomini olgan tovar chet el tovaridir.

Tovarlarni va yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan vosita transport vositasidir. Transport vositasi har qanday suv kemasini, havo kemasini, avtotransport vositasini, temir yo'l transport vositasini (temir yo'lning harakatdagi tarkibini, temir yo'l harakatdagi tarkibining bir qismini) yoki konteynerni, shuningdek ularning o'z konstruksiyasiga muvofiq texnik pasportlarida yoki texnik formulyarlarida nazarda tutilgan ehtiyot qismlarni, anjomlarni va uskunalarni, suyuqlik saqlash idishlaridagi yoqilg'i-moylash materiallarini, sovutuvchi va boshqa xil texnik suyuqliklarni, agar ular mazkur transport vositalari bilan birga tashilayotgan bo'lsa, o'z ichiga oladi.

14-modda. Yengib bo'lmas kuch ta'siri

Tabiat hodisalari (zilzilalar, yer ko'chishlari, dovullar, qurg'oqchiliklar va hokazo) yoki yuridik va jismoniy shaxslarning xohish-irodasi hamda xatti-harakatlariga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar sababli kelib chiqqan, shuning oqibatida mazkur shaxslar qabul qilgan majburiyatlarini bajara olmaydigan favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan, kutilmagan holatlar yengib bo'lmas kuch ta'siri hisoblanadi.

15-modda. Ushbu Kodeksda qo'llaniladigan boshqa tushunchalar

Ushbu Kodeksda qo'llaniladigan boshqa tushunchalar:

bojxona brokeri — bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni deklarantning yoki vakolatli shaxsning topshirig'iga binoan va uning nomidan shartnoma asosida amalga oshiradigan, O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi;

(15-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

bojxona ishi — iqtisodiy, tartibga solish va huquqni muhofaza qilish maqsadlariga erishishga qaratilgan, bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlaydigan usullar va vositalar majmui;

(15-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

bojxona hamrohligida kuzatib borish — avtotransport vositalarining bojxona organlari tomonidan bojxona nazorati ostida kuzatib borilishi;

bojxona operatsiyasi — tovarlarning va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvida tovarlarga va transport vositalariga nisbatan bojxona organlarining mansabdor shaxsi va (yoki) vakolatli shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat;

bojxona rejimi — bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarning va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui;

bojxona tartib-taomili — bojxona maqsadlari uchun amalga oshiriladigan bojxona operatsiyalarining majmui;

deklarant — tovarlarni va (yoki) transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi shaxs yoxud uning nomidan tovarlar va (yoki) transport vositalari deklaratsiyalanayotgan shaxs;

deklaratsiyalash — bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va (yoki) bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va (yoki) transport vositalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni bojxona organlariga ma'lum qilish;

iqtisodiy siyosat choralari — tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirishga va ushbu hududdan olib chiqishga doir cheklovlar bo'lib, ular kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorligini tartibga solishning boshqa chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi;

tashuvchi — bojxona nazorati ostida turgan tovarlar tashilishini amalga oshiruvchi yoki transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul shaxs;

tovar turkumi — bitta oluvchining manziliga bitta transport hujjati bo'yicha kelayotgan yoki bitta pochta yuk xati bilan jo'natilayotgan yoxud bojxona chegarasi orqali o'tayotgan bitta jismoniy shaxsning qo'l yukida va bagajida olib o'tilayotgan tovar yoki uning bir qismi;

tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish — tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirish yoxud ushbu hududdan olib chiqish;

tovarlarning erkin muomalasi — bojxona hududida tovarlarning belgilangan taqiqlar va cheklovlarsiz aylanishi;

tovarni chiqarib yuborish — bojxona organlarining bojxona rasmiylashtiruvini yakunlovchi va ma'lum qilingan bojxona rejimi shartlaridan kelib chiqqan holda tovarlardan

foydalanishga va (yoki) ularni tasarruf etishga ruxsat berilganligini ifodalovchi harakati;

yuk operatsiyalari — bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ularning buzilgan o'rovlarini to'g'rilash, ularni o'rash, qayta o'rash va tashish uchun qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (bojxona organlarining axborot tizimi) — bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarning va transport vositalarining bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ularga doir hujjatlar va ma'lumotlarning kiritilishini, hisobga olinishini hamda monitoring qilinishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining avtomatlashtirilgan tizimi.

3-bob. Tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish

16-modda. Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish shartlari

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bevosita bojxona chegarasi orqali olib o'tishga qaratilgan harakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

bojxona chegarasini kesib o'tayotgan jismoniy shaxsning bojxona nazorati zonasiga kirishi;

transport vositasining bojxona chegarasini kesib o'tish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktiga kirishi;

(16-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 10 oktyabrdagi O'RQ-974-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024 y., 03/24/974/0804-son)

bojxona hududiga yo'llash yoki ushbu hududdan tashqariga jo'natish uchun tovarlarni transport tashkilotlariga yoxud xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini pochta aloqasi operatorlari va provayderlariga topshirish;

jismoniy shaxsning qonunchilikka muvofiq belgilanmagan joylardan tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan bojxona chegarasini amalda kesib o'tishga qaratilgan harakatlari.

(16-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirish shartlari tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan bojxona chegarasini amalda kesib o'tishdan hamda ushbu tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan keyingi barcha harakatlarni ular bojxona organlari tomonidan chiqarib yuborilguniga qadar amalga oshirishdan iborat.

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda tashuvchi ularni tayinlangan bojxona organi joylashgan yerga yoki boshqa joyga ushbu Kodeksning 218-moddasida belgilangan muddatlarda yetkazib berishi shart. Bunda tovarlarning holatini o'zgartirishga yoki ularning o'rovini buzishga, shuningdek qo'yilgan plombalarga, muhrlarga va bojxona identifikatsiyasining boshqa vositalariga shikast yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bojxona deklaratsiyasini berish yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan, tovarlarni va (yoki) transport vositalarini mazkur hududdan bevosita olib chiqishga qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish, shuningdek tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan keyingi barcha harakatlarni ular amalda

bojxona chegarasini kesib o'tguniga qadar bajarish tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududidan olib chiqish shartlari hisoblanadi.

Tovarlarni bojxona hududidan olib chiqishga ular ushbu Kodeksga muvofiq olib chiqilayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan tegishli bojxona rejimiga joylashtirilganidan so'ng yo'l qo'yiladi. Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona nazoratidan o'tkazilmasdan mazkur hududdan olib chiqilishi mumkin emas. Bojxona nazorati tashuvchining tovarlarni va (yoki) transport vositalarini olib chiqish niyati borligidan oldindan xabardor qilish asosida bojxona organi tomonidan o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini hamda valyuta boyliklarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

(16-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

17-modda. Tovarlar va (yoki) transport vositalari olib kirilishidan (olib chiqilishidan) bojxona organlarini xabardor qilish

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda tashuvchi bojxona organini bojxona chegarasini kesib o'tishidan xabardor qilishi shart.

Tashuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxs tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga amalda yetib kelguniga qadar ular to'g'risida bojxona organiga dastlabki axborotni taqdim etishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida va (yoki) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga amalda yetib kelguniga qadar tashuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxs ular to'g'risidagi dastlabki axborotni bojxona organiga taqdim etishi shart.

(17-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududidan tashqariga olib chiqilayotganda, ularni olib o'tayotgan shaxs ushbu tovarlarni va (yoki) transport vositalarini olib chiqish niyati borligidan bojxona organlarini oldindan xabardor qiladi. Bojxona organi bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun tovarlar va (yoki) transport vositalari yetib kelishi kerak bo'lgan vaqt va joyni tayinlaydi. Agar tovarlarni va (yoki) transport vositalarini olib o'tayotgan shaxs ko'rsatilgan xabardor qilishni amalga oshirmaydigan bo'lsa, bunday majburiyat tashuvchining zimmasiga yuklatiladi.

Bojxona chegarasi kesib o'tilayotganda bojxona organini xabardor qilish bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktida joylashgan bojxona organiga tovarlarni va (yoki) transport vositalarini, ularning tovar kuzatuv hujjatlarini taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bojxona organlari ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlarni qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Bojxona chegarasi orqali tovarlarning quvur transporti va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tilishi to'g'risida xabardor qilish ushbu Kodeksning 25-bobiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daryo portida yoki aeroportda to'xtamasdan bojxona hududini kesib o'tadigan daryo va havo kemalariga nisbatan ushbu modda talablari qo'llanilmaydi.

18-modda. Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda taqdim etiladigan hujjatlar

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda tashuvchi bojxona organiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

1) avtotransport vositasida xalqaro tashish chog'ida:

a) avtotransport vositasiga taalluqli quyidagi hujjatlarni:

Yo'l harakati to'g'risidagi konvensiyaga (Vena, 1968 yil 8 noyabr) muvofiq avtotransport vositasining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda chet el avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi, hududidan chiqishi va tranzit tarzida o'tishi uchun vakolatli organning ruxsatnomasi;

yuklar xalqaro yo'llarda tashish (bundan buyon matnda XYT deb yuritiladi) daftarchasini qo'llagan holda tashilgan taqdirda, XYT daftarchasini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi bojxona konvensiyasi (Jeneva, 1975 yil 14 noyabr) talablariga muvofiq avtotransport vositasiga yuklarni bojxona plombalari va muhrlari ostida xalqaro tashishga ruxsat berilganligi to'g'risidagi guvohnoma;

tez buziladigan mahsulotlar tashilayotganda, tez buziladigan mahsulotlarni tashish uchun avtotransport vositasiga ruxsat berilganligi to'g'risidagi guvohnoma;

xavfli yuklar tashilayotganda, xavfli yuklarni tashish uchun avtotransport vositasiga ruxsat berilganligi to'g'risidagi guvohnoma;

b) tovarga taalluqli quyidagi hujjatlarni:

Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish shartnomasi to'g'risidagi konvensiya (Jeneva, 1956 yil 19 may) talablariga muvofiq tovar-transport yuk xati;

yuklar XYT daftarchasi qo'llanilgan holda tashilgan taqdirda, XYT daftarchasini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi bojxona konvensiyasiga (Jeneva, 1975 yil 14 noyabr) muvofiq XYT daftarchasi;

tijorat hujjatlari;

xalqaro pochta jo'natmalarini kuzatib borish uchun Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlarida belgilangan hujjatlar;

v) ushbu bandning «a» va «b» kichik bandlarida nazarda tutilgan hujjatlarda ko'rsatilishi kerak bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni:

tashuvchining nomi va pochta manzili;

tashish uchun tovar qabul qilinadigan joy (mamlakat) va yetkazib berilishi mo'ljallangan joy (mamlakat);

tovarlar jo'natgan mamlakatning va tovarlar kelib tushadigan mamlakatning nomi;

tovarlarni jo'natuvchining va oluvchining nomi hamda pochta manzili;

Umumjahon bojxona tashkilotining Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimiga muvofiq tovarlarning nomi va kamida oltita belgi darajasidagi kodlari, bundan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari mustasno;

tovarning har bir ko'rsatilgan kodi bo'yicha tovarlarning brutto og'irligi (kilogrammlarda) va faktura qiymati;

yuk joylarining soni;

konteynerlarning identifikatsiya raqamlari;

2) suv transportida xalqaro tashish chog'ida:

a) quyidagilarni:

umumiy deklaratsiya;

tovarlarning deklaratsiyasi;

kema ashyo-anjomlari to'g'risidagi deklaratsiya;

kema ekipajining shaxsiy buyumlari to'g'risidagi deklaratsiya;

kema xizmatchilarining ro'yxati;

yo'lovchilar ro'yxati;

transport hujjatlari;

tijorat hujjatlari;

xalqaro pochta jo'natmalarini kuzatib borish uchun Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlarida belgilangan hujjatlar;

b) ushbu bandning «a» kichik bandida nazarda tutilgan hujjatlarda ko'rsatilishi kerak bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni:

kemaning ro'yxatdan o'tkazilganlik raqami va milliy mansubligi;

kemaning nomi;

kapitanning familiyasi;

kema agentining familiyasi va manzili;

kemadagi yo'lovchilarning soni, familiyasi, ismi, fuqaroligi (mansubligi), tug'ilgan sanasi va joyi, chiqish va tushish porti;

ekipaj a'zolarining soni va tarkibi;

kema jo'naydigan portning va kiradigan portning nomi;

Umumjahon bojxona tashkilotining Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimiga muvofiq tovarlarning nomi va kamida oltita belgi darajasidagi kodlari, bundan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari mustasno;

tovarning har bir ko'rsatilgan kodi bo'yicha tovarlarning brutto og'irligi (kilogrammlarda) va faktura qiymati;

yuk joylarining soni;

tovarlar yuklangan portning va tushiriladigan portning nomi;

konosamentlarning yoki ushbu portda tushirilishi lozim bo'lgan tovarlarga doir dengiz (daryo) orqali tashish shartnomasi mavjudligini va uning mazmunini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning raqamlari;

bortda qoladigan tovarlar tushiriladigan portlarning nomi;

kema ashyo-anjomlarining miqdori ko'rsatilgan holda ularning nomi;

tovarlarni kemada joylashtirish tavsifi;

3) havo transportida xalqaro tashish chog'ida:

a) Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi konvensiyaga (Chikago, 1944 yil 7 dekabr) muvofiq quyidagi hujjatlarni:

bosh deklaratsiya;

yuk qaydnomasi;

avia yuk xati;

avia yuk xatiga ilova qilinadigan tijorat hujjatlari. Tovar turkumlab tashilgan taqdirda mazkur hujjatlar tovarning birinchi turkumiga taqdim etiladi;

xalqaro pochta jo'natmalarini kuzatib borish uchun Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlarida belgilangan hujjatlar;

b) ushbu bandning «a» kichik bandida nazarda tutilgan hujjatlarda ko'rsatilishi kerak bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni:

havo kemasining milliy mansubligi belgilarini va ro'yxatdan o'tkazilganlik belgilarini ko'rsatish;

havo kemasining reys raqami, parvoz yo'nalishini, uchish punktini, yetib borish punktini ko'rsatish;

havo kemasi ekspluatantining nomi;

ekipaj a'zolarining soni;

Umumjahon bojxona tashkilotining Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimiga muvofiq tovarlarning nomi va kamida oltita belgi darajasidagi kodlari, bundan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari mustasno;

avia yuk xatining raqami, avia yuk xati va tovar turkumi bo'yicha o'rinlarning soni;

tovar jo'natiladigan va yetib boradigan punktlarning nomi;

parvoz qiladigan havo kemasining bortiga yuklanadigan bort ashyo-anjomlarining soni (har bir tovarning soni va nomi);

havo kemasi bortida xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarining mavjudligi;

tovarning har bir ko'rsatilgan kodi bo'yicha tovarlarning brutto og'irligi (kilogrammlarda) va faktura qiymati;

4) temir yo'l transportida xalqaro tashish chog'ida:

a) Xalqaro temir yo'l yuk yo'nalishlari to'g'risidagi bitimga (1951 yil 1 noyabr) muvofiq quyidagi hujjatlarni:

tovarning kuzatuv hujjatlari;

temir yo'lning harakatdagi tarkibiga doir topshirish qaydnomasi;

xalqaro pochta jo'natmalarini kuzatib borish uchun Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlarida belgilangan hujjatlar;

b) ushbu bandning «a» kichik bandida nazarda tutilgan hujjatlarda ko'rsatilishi kerak bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni:

tovarni jo'natuvchining nomi va pochta manzili;

tovarni oluvchining nomi va pochta manzili;

tovar jo'natiladigan stansiyaning va yetib boradigan stansiyaning nomi;

Umumjahon bojxona tashkilotining Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimiga muvofiq tovarlarning nomi va kamida oltita belgi darajasidagi kodlari, bundan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari mustasno;

tovarning har bir ko'rsatilgan kodi bo'yicha tovarlarning brutto og'irligi (kilogrammlarda) va faktura qiymati;

yuk joylarining soni;

konteynerlarning identifikatsiya raqamlari.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlar bojxona organlariga davlat tilida yoki xalqaro tashishlarda qo'llaniladigan boshqa tillarda taqdim etiladi. Xalqaro tashishlarda qo'llaniladigan boshqa tillarda taqdim etilgan hujjatlar, zarur hollarda, davlat tiliga tarjima qilinib, tashuvchi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlar olinishini talab etadigan tovarlarga va (yoki) transport vositalariga nisbatan bojxona organi bunday hujjatning bojxona organlarining axborot tizimida mavjudligini mustaqil ravishda tekshiradi.

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda bojxona organi ushbu moddada nazarda tutilganidan boshqa hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilishga haqli emas.

19-modda. Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilayotganda taqdim etiladigan hujjatlar

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilayotganda tashuvchi bojxona deklaratsiyasini yoki ularni bojxona hududidan olib chiqishga yo'l qo'yuvchi boshqa hujjatni, shuningdek tovarlarni tashish amalga oshirilayotgan transportning turidan kelib chiqqan holda, ushbu Kodeksning 18-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar va ma'lumotlarni bojxona organiga taqdim etishi shart.

20-modda. Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish joyi hamda vaqti

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda hamda ushbu hududdan olib chiqilayotganda ularni bojxona chegarasi orqali olib o'tishga bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktlarida yo'l qo'yiladi va transport vositalarini maxsus belgilangan joylarda to'xtatgan holda, bojxona organlarining ish vaqtida amalga oshiriladi. Mazkur talabga rioya etilmagan taqdirda bojxona organlari ushbu transport vositalarini majburiy to'xtatib qo'yadilar.

Tovarlar olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan quyidagi maxsus jihozlangan joylar bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktlari hisoblanadi:

havo transporti orqali olib o'tishda — bojxona hududidagi yetib kelinadigan (jo'natiladigan) aeroport yoki tovarlarni tashiyotgan havo kemasi qo'nadigan (parvoz qiladigan) va tovarlarni tushiradigan (yuklaydigan) birinchi (oxirgi) aeroport;

daryo transporti orqali olib o'tishda — bojxona hududidagi tovarlar tushiriladigan (ortiladigan) birinchi (oxirgi) daryo porti yoki qayta yuklanadigan daryo porti;

quvur transporti orqali va elektr uzatish liniyalari bo'yicha olib o'tishda — hisobga olish asboblarining O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi bilan kelishilgan holda

o'rnatilgan joylari;

ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilmagan boshqa turdagi transportda olib o'tishda — yo'nalishdagi birinchi (oxirgi) bojxona organi.

Bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktlari joylashgan yerlar, bojxona organlarining ish vaqti, transport vositalarining to'xtash va turish joylari, ular turishining davomiyligi, shuningdek mazkur joylarning o'tkazish punktlarida ko'rsatilishi tegishli vakolatli davlat organlari va tashkilotlari bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bojxona chegarasi bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi bir-biriga to'g'ri kelib qolgan joylarda bojxona chegarasidagi o'tkazish punktlari joylashadigan yerlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Transport vositalari to'xtab turishining davomiyligi bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi manfaatlariga zid ravishda qisqartirilishi mumkin emas.

Transport vositalarini belgilangan to'xtash va turish joylaridan jo'natish zarur bojxona tartib-taomillari tugallanganidan so'ng amalga oshiriladi.

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali belgilanmagan joylardan olib o'tish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu moddaning qoidalari O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daryo portida yoki aeroportda to'xtamasdan bojxona hududini kesib o'tayotgan daryo va havo kemalari orqali tashilayotgan tovarlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bojxona organlari bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktlari to'g'risida, belgilangan taqiqlar va cheklovlar, shuningdek bojxona organlarining ish vaqti haqida hammabop shaklda axborot taqdim etishi shart.

21-modda. Bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan hamda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi kerak.

Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir.

(21-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'tkaziladigan bojxona operatsiyalari majmui bojxona rasmiylashtiruvi hisoblanadi.

Bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda bojxona organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qonunchilikda nazarda tutilmagan taqiqlar va cheklovlarni belgilashga haqli emas.

(21-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

22-modda. Shartli chiqarib yuborilgan tovarlar

Shaxsning belgilangan talablar va shartlarga rioya etish majburiyatlariga bog'liq tarzda tovarning chiqarib yuborilishi shartli chiqarib yuborish hisoblanadi.

Quyidagilar shartli chiqarib yuborilgan tovarlar deb hisoblanadi:

a) bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar berilganligi munosabati bilan foydalanilishi va tasarruf etilishi cheklangan tovarlar;

b) boj olinmaydigan savdo, bojxona hududida qayta ishlash, vaqtincha olib kirish, bojxona tranziti bojxona rejimlariga joylashtirilgan tovarlar;

v) bojxona to'lovlari shartli bojxona qiymatini aniqlash asosida to'langan tovarlar;

g) bojxona to'lovlari davriy bojxona to'lovlari shaklida to'langan tovarlar;

d) zarur hujjatlar (bundan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar mustasno) va ma'lumotlar taqdim etilmagan tovarlar;

(22-modda ikkinchi qismining «d» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

j) bojxona yuk deklaratsiyasi topshirilguniga qadar chiqarib yuborilgan, shuningdek dastlabki, muvaqqat, to'liq bo'lmagan yoki davriy bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan holda tegishli bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar;

(22-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan «j» kichik band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

ye) bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berilgan holda erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga muvofiq rasmiylashtirilgan tovarlar.

Mazkur moddaning ikkinchi qismi «a» bandida ko'rsatib o'tilgan shartli chiqarib yuborilgan tovarlardan faqat bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar berish shartlariga muvofiq bo'lgan maqsadda foydalanilishi kerak. Mazkur tovarlardan ular shartli chiqarib yuborilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida boshqa maqsadlarda foydalanilgan taqdirda, berilgan bojxona imtiyozlari bekor qilinib, bojxona to'lovlarini to'lash majburiyati tiklanadi.

(22-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismi «d» bandida ko'rsatib o'tilgan shartli chiqarib yuborilgan tovarlar uchun taqdim etilmagan muvofiqlik sertifikatini yoki sanitariya-epidemiologiya xulosasini olish talab etilsa, ushbu tovarlardan foydalanish, ularni uchinchi shaxslarga berish, shu jumladan ularni sotish yoki o'zga usulda boshqa shaxsga o'tkazish orqali berish taqiqlanadi, mazkur tovarlarni olib kirishga doir cheklovlar ushbu tovarlarning sifati va xavfsizligi tekshirilishi munosabati bilan belgilangan hollarda esa har qanday shaklda foydalanish (ishlatish) taqiqlanadi.

(22-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Tovarlar, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, shartli chiqarib yuborishning shartlari bo'yicha majburiyatlar bajarilguniga qadar shartli chiqarilgan hisoblanadi.

(22-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

23-modda. Tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishga doir cheklovlar

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishga doir cheklovlar xalqaro majburiyatlardan, ichki bozorni himoya qilish zarurligidan kelib chiqqan holda, shuningdek chet davlatlar va ular ittifoqlarining O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini kamsituvchi yoki cheklovchi boshqa harakatlariga javob chorasi tariqasida qonunchilikka muvofiq belgilanishi mumkin. Mazkur cheklovlar kiritilishi munosabati bilan tovarlarni olib o'tayotgan shaxsda yoxud tashuvchida yuzaga kelgan xarajatlarning o'rni bojxona organlari tomonidan qoplanmaydi.

(23-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

24-modda. Tovarlar va transport vositalari olib kirilishini hamda olib chiqilishini taqiqlash

Davlat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini, inson hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish, milliy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklarini, mulk huquqini, shu jumladan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqni, olib kirilayotgan tovarlar iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq ayrim tovarlarni va (yoki) transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish hamda ushbu hududdan olib chiqish taqiqlanishi mumkin.

(24-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Olib kirilishi va olib chiqilishi taqiqlangan tovarlar va (yoki) transport vositalari, agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida yoki xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ular olib kirilganda — darhol bojxona hududidan tashqariga olib chiqilishi yoxud ular olib chiqilganda — darhol bojxona hududiga qaytarilishi shart.

(24-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tovarni olib chiqish yoki qaytarish, shuningdek yuk operatsiyalari tovarni olib o'tayotgan shaxs yoxud tashuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar tovar darhol olib chiqilmagan yoki qaytarilmagan bo'lsa, tovar bojxona organi egasi bo'lgan bojxona omboriga yoxud bojxona nazorati zonalariga tovarni olib o'tayotgan shaxs yoki tashuvchi hisobidan vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirilishi lozim. Bunday tovarni saqlashning eng ko'p muddati, agar qonunchilikda ayrim turdagi tovarlarga nisbatan boshqacha muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, uch sutkani tashkil etadi. Ushbu muddat tugagach, mazkur tovarni tasarruf etish davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

(24-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

II bo'lim. Bojxona rejimlari

4-bob. Umumiy qoidalar

25-modda. Bojxona rejimlarining turlari

Tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish maqsadlariga bog'liq holda ularning bojxona rasmiylashtiruvi bojxona rejimlarining quyidagi turlariga muvofiq amalga oshiriladi:

1) eksport;

2) reeksport;

3) vaqtincha olib chiqish;

4) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash;

5) erkin muomalaga chiqarish (import);

6) reimport;

7) vaqtincha olib kirish;

8) bojxona hududida qayta ishlash;

9) vaqtincha saqlash;

10) bojxona ombori;

11) erkin ombor;

12) erkin bojxona zonasi;

13) boj olinmaydigan savdo;

14) bojxona tranziti;

15) yo'q qilish;

16) davlat foydasiga voz kechish.

26-modda. Bojxona rejimini tanlash va o'zgartirish

Tovarlarning bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi vakolatli shaxslarning tovarlarni bojxona rejimlaridan biriga joylashtirish va mazkur bojxona rejimi talablari hamda shartlariga rioya etish majburiyatini keltirib chiqaradi.

Vakolatli shaxs tovarlarning va transport vositalarining xususiyati, miqdori, ishlab chiqarilgan mamlakati yoki qaysi maqsadga mo'ljallanganligidan qat'i nazar, istalgan bojxona rejimini tanlashga yoki uni boshqa bojxona rejimiga o'zgartirishga haqli.

Tanlangan bojxona rejimi bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun bojxona organiga taqdim etiladigan bojxona deklaratsiyasida deklarant tomonidan ma'lum qilinadi.

27-modda. Bojxona rejimida turgan tovarni olib qo'yish

Qonunchilik buzilgan taqdirda, bojxona rejimida turgan tovarlar belgilangan tartibda olib qo'yilishi mumkin.

(27-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tegishli bojxona rejimida turgan tovar olib qo'yilayotganda ushbu bojxona rejimining amal qilishi tovar olib qo'yilgan kunning ertasidan boshlab to'xtatib turiladi va ushbu tovarni davlat daromadiga o'tkazish nazarda tutilmagan qaror (hal qiluv qarori) kuchga kirgan kunning ertasidan boshlab qayta tiklanadi.

Agar olib qo'yilgan tovarlar davriy bojxona to'lovi to'langan holda vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilgan bo'lsa, bojxona rejimi to'xtatib turilgan davr uchun davriy bojxona to'lovi to'lanmaydi.

Bojxona rejimining amal qilishi quyidagi hollarda bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilganligiga doir ish bo'yicha tegishli qaror (hal qiluv qarori) kuchga kirgan kunning ertasidan boshlab o'n besh ish kuni ichida tugatilishi kerak, agar:

(27-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

tovarning olib qo'yilishi bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etmaslik bilan bog'liq bo'lsa va bu uni kelgusida qo'llashning imkoniyati bo'lmasligiga olib kelsa;

jismoniy shaxsning ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etmaslik bilan bog'liq bo'lsa va bu uni kelgusida qo'llashning imkoniyati bo'lmasligiga olib kelsa.

28-modda. Bojxona rejimi shartlari va talablariga rioya etilishiga javobgar shaxslar

Bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilishi uchun javobgarlik tovarni tegishli bojxona rejimiga joylashtirgan shaxsning zimmasida bo'ladi.

Vaqtincha saqlash, bojxona ombori yoki erkin ombor bojxona rejimlariga joylashtirilgan tovarlar bojxona nazoratini chetlab berilgan yoki yo'qotilgan taqdirda javobgarlik:

agar tovar bojxona omborida turgan bo'lsa, bojxona ombori egasining;

agar tovar bojxona ombori bo'lmagan omborlarda va boshqa joylarda turgan bo'lsa, tovarlarni mazkur joylarga bojxona ombori rejimiga joylashtirgan shaxsning;

agar tovar erkin omborda turgan bo'lsa, erkin ombor egasining zimmasida bo'ladi.

Bojxona tranziti bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilishi uchun tashuvchi javobgar bo'ladi.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilishi uchun boj olinmaydigan savdo do'konining egasi javobgar bo'ladi.

5-bob. Eksport

29-modda. Eksport bojxona rejimi

Eksport bojxona rejimi shunday rejimki, bunda O'zbekiston tovari uni qaytarib olib kirish majburiyatisiz bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladi.

Eksport bojxona rejimiga joylashtirilgan va amalda bojxona hududidan olib chiqilgan tovar O'zbekiston tovari maqomini yo'qotadi.

30-modda. Tovarni eksport bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Tovarni eksport bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari bojxona to'lovlarini to'lash hamda iqtisodiy siyosat choralariga rioya etishdan iboratdir.

Tovarni eksport bojxona rejimiga joylashtirish qonunchilikka muvofiq boshqa talablar va shartlarga rioya etgan holda ham amalga oshirilishi mumkin.

(30-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Eksport bojxona rejimiga muvofiq chiqarilgan tovar bojxona deklaratsiyasi ro'yxatdan o'tkazilgan kuni qanday holatda bo'lsa, amalda shunday holatda bojxona hududidan olib chiqilishi lozim, bundan tovar holatining tabiiy eskirishi yoki tashish va (yoki) saqlash normal sharoitlarida kamayishi oqibatida ro'y bergan o'zgarishlari mustasno.

31-modda. Tovarni eksport bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Eksport bojxona rejimiga nisbatan bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'ladigan hujjatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tegishli ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda eksport qilinadigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

6-bob. Reeksport

32-modda. Reeksport bojxona rejimi

Reeksport bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga ilgari olib kirilgan tovar yoxud bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni qayta ishlash mahsuloti bojxona hududidan bojxona bojlari va soliqlar to'lanmagan, tovarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda, ushbu Kodeksning 35-moddasida nazarda tutilgan hollarda esa, uni olib kirishda to'langan bojxona bojlari va soliqlar summalari qaytarilgan holda olib chiqiladi.

(32-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

(32-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

Reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni bojxona hududidan amalda olib chiqish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar ushbu Kodeks 218-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq belgilangan muddatlarda bojxona hududidan amalda olib chiqilishi kerak.

Agar tovarlar uchun tranzit deklaratsiyasi ular reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida taqdim etilmasa, tovarlar vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirilishi kerak.

(32-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son

— 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

33-modda. Tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Tovar yoki uni qayta ishlash mahsuloti bojxona organi identifikatsiya qila oladigan taqdirdagina tovar reeksport qilinishiga yo'l qo'yiladi, bundan ushbu Kodeks 74-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida shikastlangan yoki buzilgan tovarning reeksportiga yo'l qo'yiladi, bunday holat vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Ilgari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirishga ayni bir vaqtning o'zida quyidagi talablar va shartlarga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi:

kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlari bajarilmagan bo'lsa;

tovar bojxona hududida ishlatilmagan va ta'mirlanmagan bo'lsa, bundan tovarni qaytarishga sabab bo'lgan nuqsonlarni yoki boshqa holatlarni aniqlash uchun tovardan foydalanish zarur bo'lgan hollar mustasno;

tovar o'zgarmagan holatda turgan bo'lsa, bundan uning nuqsonlari aniqlangan hollar mustasno.

34-modda. Tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda reeksporti amalga oshiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

35-modda. Reeksport bojxona rejimida bojxona to'lovlarining qo'llanilishi

Reeksport bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovar bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan ozod etiladi.

Ilgari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar reeksport qilinayotganda, tovarning amalda reeksport qilinayotgan qismiga nisbatan to'langan bojxona bojlari va soliqlar summalarini qaytarish ushbu Kodeksning 49-bobida nazarda tutilgan tartibda, ayni bir vaqtning o'zida quyidagi talablar va shartlarga rioya etilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovarning reeksporti uni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish ma'lum qilingan kundan e'tiboran ikki yil ichida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

tovar bojxona hududida ishlatilmagan va ta'mirlanmagan bo'lsa, bundan tovarni qaytarishga sabab bo'lgan nuqsonlarni yoki boshqa holatlarni aniqlash uchun tovarni ishlatish zarur bo'lgan hollar mustasno.

(35-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan 2024 yil 28 maydan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son)

7-bob. Vaqtincha olib chiqish

36-modda. Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududida erkin muomalada turgan tovar ushbu hududdan tashqarida vaqtincha foydalanish maqsadida, bojxona bojlari va soliqlar to'lanishdan shartli ravishda ozod etilgan, iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda olib chiqiladi.

(36-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

37-modda. Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish quyidagi talablar va shartlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

vaqtincha olib chiqilayotgan tovarning bojxona organlari tomonidan identifikatsiyalashni amalga oshirish mumkinligi;

agar tovar vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lsa, ushbu organlarning ruxsatnomalari bojxona organlarining axborot tizimida mavjudligi;

tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirayotgan shaxs O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi yoxud vakolatli davlat organlarida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxs bo'lishi kerak.

Bojxona hududidan vaqtincha olib chiqilgan tovar o'zgarmas holatda qolishi kerak.

Quyidagi tovarlar vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilmaydi:

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi taqiqlangan tovarlar;

chiqindilar;

elektr energiyasi, suv, quvurlar orqali yetkazib beriladigan tovarlar (neft, gaz), shuningdek yoqilg'i;

olib chiqilishi kvotalanadigan tovarlar;

sarflash materiallari va sarf qilinadigan namunalar, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, oziq-ovqat mahsulotlari, alkogolsiz ichimliklar, alkogol va tamaki mahsuloti;

bir marta ishlatish uchun mo'ljallangan tovarlar.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan tovarlarni faqat reklama, namoyish qilish va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida bitta nusxadan vaqtincha olib chiqishga yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib chiqilgan tovar ustidan bojxona nazorati uning bojxona rasmiylashtiruvini bajargan bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

38-modda. Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini, shuningdek tovarni yetkazib berish yoki topshirish to'g'risidagi kontraktni (shartnomani, kelishuvni)

(tovar ijara, lizing shartnomasi, kafolatli xizmat ko'rsatish va investitsiya loyihasi doirasida vaqtincha olib chiqilgan hollarda) taqdim etadi.

(38-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda vaqtincha olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

39-modda. Tovarni vaqtincha olib chiqish muddati

(39-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

Tovarni vaqtincha olib chiqish muddati tovar vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan e'tiboran ikki yilni tashkil etadi.

Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs mazkur bojxona rejimining amal qilishi muddati tugamay ushbu Kodeksning 41-moddasiga muvofiq ushbu bojxona rejimini tugallash huquqiga ega.

Quyidagi tovarlarning vaqtincha olib chiqish muddati bojxona organi tomonidan vakolatli shaxsning arizasi asosida ikki yildan ko'proq muddatga uzaytirilishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlar hududida joylashgan ob'yektlarida, diplomatik vakolatxonalarida va konsullik muassasalarida foydalanish uchun olib chiqilgan tovarlar;

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari hamda chet davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasidagi ijara shartnomalari asosida vaqtincha olib chiqilgan temir yo'l va havo transporti vositalari, shuningdek ularning ehtiyot qismlari hamda ularga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan transport uskunalari. Bunda vaqtincha olib chiqish muddati ijara shartnomasi muddatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi;

lizing shartnomasi asosida olib chiqilgan tovarlar. Bunday tovarlarni vaqtincha olib chiqishga lizing shartnomasining amal qilish muddatiga ruxsat etiladi;

tovarlarni (ishlarni va xizmatlarni) eksport qilish kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) shartlari bo'yicha kafolat muddati ichida xizmat ko'rsatish va nuqsonlarni bartaraf etish uchun olib chiqilgan tovarlar (bojxona hududidan tashqarida qoldirish uchun mo'ljallangan tovarlar bundan mustasno). Bunday tovarlarni vaqtincha olib chiqishga kafolat davrining amal qilish muddatiga yo'l qo'yiladi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida vaqtincha olib chiqishning ko'proq muddati belgilangan tovarlar.

Tovarni vaqtincha olib chiqish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza vaqtincha olib chiqish bojxona rejimining amal qilish muddati tugaguniga qadar bojxona organiga berilishi lozim. Tovarni vaqtincha olib chiqish muddatini uzaytirish tovarni bojxona organiga taqdim etmasdan amalga oshiriladi.

(39-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovarni vaqtincha olib chiqish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berilishi tovarni vaqtincha olib chiqish muddatini uzib

qo'ymaydi va to'xtatib turmaydi.

Tovarni vaqtincha olib chiqish muddati uzaytirilayotganda boshqa bojxona deklaratsiyasi berilmaydi.

40-modda. Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqini O'zbekiston Respublikasining boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsiga yoxud vakolatli davlat organlarida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxsga o'tkazishga vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi tugaguniga qadar yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqi O'zbekiston Respublikasining boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsiga yoxud vakolatli davlat organlarida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxsga ushbu tovarni amalda bojxona organiga taqdim etmagan holda mazkur shaxs tomonidan taqdim qilingan vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish uchun bojxona yuk deklaratsiyasini bojxona organi qabul qilgan paytdan e'tiboran o'tkazilgan hisoblanadi.

(40-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqining ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsiga yoxud vakolatli davlat organlarida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxsga o'tkazilishi ushbu Kodeksning 39-moddasida belgilangan vaqtincha olib chiqish muddatini o'zgartirmaydi.

41-modda. Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimining tugallanishi

Vaqtincha olib chiqilgan tovar vaqtincha olib chiqish muddati tugaydigan kundan kechiktirmay bojxona hududiga qaytarib olib kirilishi kerak.

Vakolatli shaxs tovarni bojxona hududidan tashqarida qoldirgan holda uni boshqa bojxona rejimiga joylashtirish yo'li bilan vaqtincha olib chiqish bojxona rejimini tugallashi mumkin, bundan bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq vaqtincha olib chiqilgan tovar bojxona hududiga olib kirilishi shart bo'lgan hollar mustasno. Bunday holda vaqtincha olib chiqish bojxona rejimini tugallashga tovarni bojxona organiga amalda taqdim etmagan holda yo'l qo'yiladi.

(41-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi eksport bojxona rejimiga o'zgartirilgan taqdirda tovarning bojxona qiymati va miqdori tovar vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan kundagi holatga ko'ra belgilanadi, bojxona bojlari va soliqlarning stavkalari esa, tovarni eksport bojxona rejimiga joylashtirish to'g'risidagi bojxona deklaratsiyasi bojxona organi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundagi holatga ko'ra belgilanadi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi ushbu Kodeksning 39-moddasida belgilangan muddatda tugallanmagan taqdirda, tovarning olib chiqishdagi bojxona qiymatidan va (yoki) miqdoridan hamda tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish ma'lum qilingan kuni amalda bo'lgan bojxona bojlari va soliqlar stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan bojxona bojlari hamda soliqlar to'lanadi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi ushbu Kodeksning 39-moddasida belgilangan muddatda tugallanmasligiga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida tovarlarning yo'q bo'lishi yoki butunlay yo'q bo'lib ketishi;

tovarlar turgan chet davlat organlarining qarorlari yoki mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) natijasida tovarlarning vakolatli shaxs egaligidan chiqib ketishi.

Tovarlarning yo'q bo'lishiga yoki mutlaqo yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan holatlarni tasdiqlash majburiyati bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilishiga mas'ul shaxslarning zimmasiga yuklatiladi. Chet davlatlar hududida yuzaga kelgan holatlar O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va konsullik muassasalari tomonidan yoki hududida mazkur holatlar sodir bo'lgan davlatning vakolatli organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Ushbu moddaning beshinchi qismida ko'rsatilgan hollarda, tovarlarni vaqtincha olib chiqqan va ularni ushbu Kodeksning 39-moddasida belgilangan muddatda qaytarib olib kirmagan shaxs vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi talablari hamda shartlariga rioya etmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

8-bob. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash

42-modda. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimi

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimi shunday rejimki, bunda O'zbekiston tovarlari bojxona hududidan tashqariga qayta ishlash va ularning qayta ishlash mahsulotlarini keyinchalik bojxona hududiga olib kirish maqsadida olib chiqiladi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga muvofiq olib chiqilayotgan tovarga nisbatan bojxona bojlari va soliqlar to'lanishidan shartli ozod etish qo'llaniladi. Bu tovarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydi, bundan ushbu Kodeksning 54-moddasida nazarda tutilgan taqiqlar va cheklovlar mustasno.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish bojxona organining tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun ushbu Kodeks 21-bobining qoidalariga muvofiq beriladigan ruxsatnomasi asosida amalga oshiriladi.

43-modda. Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyalari

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyalari quyidagilardan iborat:

olib chiqilgan tovar uning dastlabki xossalarini va individual ko'rsatkichlarini o'zgartirib, lekin qayta ishlash mahsulotida uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi xususiyatlarini saqlagan holda mazkur tovarni bevosita qayta ishlash yoki unga ishlov berish, bundan ushbu Kodeks 46-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

olib chiqilgan tovardan foydalangan holda boshqa tovarni tayyorlash, shu jumladan montaj qilish, yig'ish yoki qismlarga ajratish;

tovarni ta'mirlash, shu jumladan uni tiklash, modernizatsiya qilish, uning buzilgan yoki eskirgan tarkibiy qismlarini (elementlarini) almashtirish yoxud tiklash, nuqsonlarini bartaraf etish.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyalari amalga oshirilayotganda qayta ishlashga ko'maklashuvchi yoxud qayta ishlashni yengillashtiruvchi

boshqa tovarlardan butunlay yoki qisman foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Quyidagilar tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyalari jumlasiga kirmaydi:

tovarning but saqlanishini ta'minlash, uni sotishga va tashishga tayyorlash operatsiyalari;

har qanday turdagi hayvonlarning naslini olish, ularni parvarishlash va klonlashtirish, bo'rdoqiga boqish va tutish (ushlash, ovlash), shuningdek ularning mahsullarini olish va to'plash;

har qanday o'simlik turlarini yetishtirish va yig'ish;

foydali qazilmalarni qazib olish;

axborotdan, audio- va video yozuvlardan istalgan turdagi axborot tashuvchi jismlarga nusxa ko'chirish va ko'paytirib olish.

44-modda. Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash talablari va shartlari

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga quyidagi talablarga va shartlarga rioya etilgan holda yo'l qo'yiladi:

olib chiqilgan tovarni bojxona organlari tomonidan uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash mumkin bo'lganda, bundan ushbu Kodeks 46-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

(44-moddaning birinchi qismi uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(44-moddaning birinchi qismi to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

agar tovar vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lsa, bojxona organlarining axborot tizimida ushbu organlarning ruxsatnomalari mavjudligi;

texnik-iqtisodiy asoslarning va amaldagi qayta ishlash jarayonining ko'rsatkichlari bir-biriga mos bo'lishi;

tovarni qayta ishlash operatsiyalarining ushbu Kodeks 43-moddasi talablariga muvofiq bo'lishi.

Quyidagi hollarda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimidan foydalanish mumkin emas:

agar tovarning olib chiqilishi to'langan bojxona bojlari va soliqlar summasini qaytarishni, ulardan ozod qilishni yoxud olib chiqishda taqdim etiladigan to'lovlarni undirishni talab qilishga asos bo'lsa;

bojxona to'lovlarini to'lashdan shartli ozod etilgan holda erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga ilgari joylashtirilgan tovarga nisbatan ushbu shartli ozod etishning amal qilish muddati tugaguniga qadar, bundan shunday tovarni ta'mirlash, shu jumladan uni tiklash, modernizatsiya qilish, uning buzilgan yoki eskirgan tarkibiy qismlarini (elementlarini) almashtirish yoki tiklash, nuqsonlarini bartaraf etish uchun olib chiqish mustasno.

Kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlari yoki qayta ishlash jarayonining texnik-iqtisodiy asoslanishi ko'rsatkichlari o'zgargan taqdirda tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta

ishlash ruxsatnomasini berish to'g'risida yangi ariza berilishi lozim. Bunda yuridik shaxs o'zgartirilganligi, uning nomi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgarganligi, shuningdek jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki faoliyat ko'rsatadigan joyi o'zgarganligi sababli kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlari o'zgargan taqdirda yangi ariza berish talab etilmaydi.

45-modda. Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash amalga oshiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

46-modda. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash

Tovarning va qayta ishlash bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning xususiyatidan kelib chiqqan holda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash quyidagi usullardan biri yoki bir nechtasi yordamida amalga oshirilishi mumkin:

qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarga vakolatli shaxs va (yoki) bojxona organi tomonidan muhrlar qo'yish va, zarur bo'lgan hollarda, shtamplar qo'yish, raqamli va (yoki) boshqa turda tamg'alash;

qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarni batafsil tavsiflash, uni suratga tushirish yoki boshqa o'lchamlarda tasvirlash;

qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarning oldindan olingan namunalarini yoki nusxalarini va uni qayta ishlash mahsulotini tadqiq etish natijalarini qiyoslash;

qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarning zavod va seriya raqamlari tarzida mavjud bo'lgan tamg'alashdan yoxud boshqacha tamg'alashdan foydalanish.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash qonunchilikka muvofiq boshqa usullarda ham amalga oshirilishi mumkin.

(46-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Vakolatli shaxsning so'roviga va bojxona organining roziligiga ko'ra, olib chiqilayotgan tovarni bojxona maqsadida identifikatsiyalash ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar haqida, shuningdek qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi to'g'risida taqdim etilgan batafsil ma'lumotlarni tadqiq etish yo'li bilan ta'minlanishi mumkin.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash quyidagi hollarda talab etilmaydi, agar:

ular mazkur Kodeksning 49-moddasiga muvofiq qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarga ekvivalent bo'lgan tovarni qayta ishlash natijasida olingan bo'lsa;

qayta ishlash uchun ishlab chiqarishning uzluksiz sikllariga taalluqli texnologiya jarayonidan foydalanilayotgan bo'lsa.

47-modda. Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash muddati

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasi ikki yil muddatga beriladi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasini olgan shaxs ushbu Kodeksning 52-moddasiga muvofiq mazkur ruxsatnomaning amal qilish muddati tugashidan avvalroq bojxona rejimini tugallash huquqiga ega.

Bir muncha uzoq davom etadigan qayta ishlash jarayoni talab qilinadigan ayrim toifadagi tovarlarga nisbatan tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddati vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra bojxona organi tomonidan ikki yildan ko'proq muddatga uzaytirilishi mumkin.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddati va qayta ishlash muddati tovar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran, tovar alohida turkumlar bilan olib chiqilganda esa, tovarning birinchi turkumi bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran boshlanadi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza bojxona organiga ushbu ruxsatnomaning amal qilish muddati tugashiga kamida bir oy qolganda berilishi kerak. Ruxsatnomaning amal qilish muddatini uzaytirish ruxsatnomani olish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berilganligi ruxsatnomada ko'rsatilgan tovarni qayta ishlash muddatini uzib qo'ymaydi yoki to'xtatib turmaydi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddatini uzaytirish rad etilgan taqdirda, bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar ushbu Kodeksning 52-moddasiga muvofiq boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi ma'lum qilinishi kerak.

48-modda. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi vakolatli shaxs tomonidan aniqlanadi va tovarni qayta ishlashni amalga oshirishning haqiqiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasi berilayotganda bojxona organi tomonidan belgilanadi.

Qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini belgilashda bojxona organlari qayta ishlashning vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlarga hamda vakolatli organning va (yoki) vakolatli tashkilotlarning (shu jumladan bojxona laboratoriyalarining) qayta ishlashning aniq texnologik jarayoniga asoslangan xulosalariga tayanadi.

Qayta ishlash mahsulotlarining tavsifi, miqdori, sifati qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi belgilanganidan keyin aniqlanadi.

49-modda. Qayta ishlash mahsulotining ekvivalent kompensatsiyasi

Ekvivalent kompensatsiyaga, ya'ni olib chiqilgan tovardan olingan qayta ishlash mahsulotlarini boshqa ekvivalent chet el tovari bilan almashtirishga, agar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyasi tovarni ta'mirlashdan iborat bo'lsa, tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasi asosida, shuningdek boshqa hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yo'l qo'yiladi.

Bojxona maqsadlari uchun ekvivalent chet el tovari deganda olib chiqilgan tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash natijasida olingan qayta ishlash mahsulotiga o'z tavsifi, sifati va texnik xususiyatlari bo'yicha mos keluvchi chet el tovari tushuniladi.

Ekvivalent chet el tovari olib kirilayotganda ushbu bob qoidalariga muvofiq unga olib chiqilgan tovarning qayta ishlash mahsuloti sifatida qaraladi.

Ekvivalent kompensatsiya chog'ida ekvivalent chet el tovarini olib kirishga tovar qayta ishlash uchun bojxona hududidan olib chiqilguniga qadar yo'l qo'yiladi.

50-modda. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida tovar ta'mirlanayotganda qayta ishlash mahsulotining almashtirilishi

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida tovar ta'mirlanayotganda qayta ishlash mahsulotining almashtirilishiga qayta ishlash mahsulotiga almashtiriluvchi tovar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga muvofiq ta'mirlash uchun mo'ljallangan tovar bilan aynan bir xil yoki unga o'xshash bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida tovar ta'mirlanayotganda qayta ishlash mahsulotining almashtirilishi uchun kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) tegishli qoidalari va (yoki) tovarni ta'mirlayotgan shaxsning kafillik majburiyatlari asos bo'ladi.

51-modda. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga olib chiqilgan tovar qoldiqlari va chiqindilari

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga ruxsatnoma olgan shaxs olib chiqilib, qayta ishlanmagan tovar qoldig'ini ushbu Kodeksda belgilangan shartlar asosida tegishli bojxona rejimlariga joylashtirgan holda, ushbu Kodeksning 47-moddasiga muvofiq belgilangan tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash muddati tugaydigan kundan kechiktirmay tasarruf etishi kerak.

Olib chiqilib qayta ishlanmagan tovar qoldiqlariga bojxona rasmiylashtiruvi maqsadida bojxona hududiga reimport qilinadigan tovarlar sifatida qaraladi.

Tovarni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan chiqindilar qayta ishlanganidan keyin olib kirilgan taqdirda, bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan ozod etiladi.

52-modda. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimini tugallash

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimi ushbu Kodeksning 47-moddasiga muvofiq belgilangan tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash muddati tugaydigan kundan kechiktirmay quyidagi usullarning biri orqali tugallanadi:

qayta ishlash mahsulotlarini erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish;

olib chiqilgan tovarni yoki uning qoldig'ini reimport bojxona rejimiga joylashtirish;

olib chiqilgan tovarni yoki uning qoldig'ini amalda bojxona organiga taqdim etmasdan, ushbu Kodeksda belgilangan talablar va shartlarga rioya etgan holda eksport bojxona rejimiga joylashtirish, bundan bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq olib chiqilgan tovar yoki uning qoldig'i majburiy tartibda reimport qilinishi shart bo'lgan hollar mustasno.

(52-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan birinchi qism bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Qayta ishlash mahsulotlari bittadan ortiq turkumda olib kirilayotganda, qayta ishlash mahsulotlari miqdorining bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasida ko'rsatilgan miqdorga muvofiqligini tekshirib ko'rish vaqti-vaqti bilan, lekin uch oyda kamida bir marta va qayta ishlash mahsulotlarining oxirgi turkumi import qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kundan kechiktirmay amalga oshirilishi mumkin.

Qayta ishlash mahsulotlari miqdorining bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasida ko'rsatilgan miqdorga muvofiqligini tekshirib ko'rish natijalari bo'yicha bojxona organi ruxsatnoma olgan shaxs bilan birgalikda dalolatnoma tuzadi. Agar olib kirilgan qayta ishlash mahsulotlarining miqdori tekshirib ko'rish natijasida ruxsatnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiqligi aniqlangudek bo'lsa, bojxona organi qo'shimcha bojxona to'lovlari to'lash zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunday holda bojxona organi ruxsatnoma olgan shaxsga qaror qabul qilingan kunning ertasidan kechiktirmay yozma shaklda xabar qilishi shart. Agar bunday to'lovlarni to'lash yozma xabar olingan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida amalga oshirilsa, ularning summalariga penya hisoblanmaydi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimi qo'llanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash muddati tugagan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kun ichida solishtirib chiqishi shart.

Qayta ishlash mahsulotlari bojxona hududiga qaytarilmagan taqdirda, bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarga nisbatan mazkur tovar eksport bojxona rejimiga joylashtirilganda bo'lgani kabi bojxona bojlari va soliqlar qo'llaniladi. Bunda tovar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundagi bojxona bojlari va soliqlar stavkalari qo'llaniladi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimini tugallashda tovarning bojxona rasmiylashtiruvi bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirgan bojxona organi tomonidan yoki vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra, ushbu tovarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda, zarur hajmda, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan boshqa bojxona organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Arizani topshirishda vakolatli shaxs bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida tovarni olib chiqishga doir bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etishi kerak.

(52-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan oltinchi va yettinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

53-modda. Qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilayotganda ularga nisbatan bojxona to'lovlarining qo'llanilishi

Olib kiriladigan qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilayotganda bojxona bojlari va qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarni qayta ishlash operatsiyalarining qiymatidan kelib chiqib hamda qayta ishlash mahsulotlariga qo'llaniladigan bojxona bojlari va qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari bo'yicha hisoblanadi.

Qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan aksiz solig'i qayta ishlash mahsulotlarining bojxona qiymati va miqdoridan kelib chiqib, qayta ishlash mahsulotlariga qo'llaniladigan stavkalar bo'yicha hisoblanadi.

Qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan bojxona bojlarining xos stavkasini qo'llanilayotganda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona bojlarining miqdori qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan xos stavkada hisoblangan bojxona boji summasi bilan qayta ishlash operatsiyalari qiymatining qayta ishlash mahsulotlari bojxona qiymatiga nisbatining ko'paytmasi sifatida qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganda bo'lgani kabi hisoblab chiqariladi.

Qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan ushbu moddaga muvofiq qo'llaniladigan bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish maqsadida, qayta ishlash operatsiyalari qiymati quyidagi qiymatlarning summasini ifoda etadi:

olib chiqilgan tovarlarni qayta ishlash;

tovarni qayta ishlash joyiga va uning qayta ishlash mahsulotlarini bojxona chegarasigacha qaytarib yetkazib berish, agar bular qayta ishlash qiymatiga qo'shilmagan bo'lsa.

Agar olib kirilayotgan qayta ishlash mahsulotlariga bo'lgan mulk huquqi ular erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar boshqa shaxsga o'tkazilgan bo'lsa, mazkur qayta ishlash mahsulotlari ushbu shaxs tomonidan import qilinayotganda bojxona to'lovlari mazkur shaxs tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga mustaqil joylashtirganida bo'lgani kabi hisob-kitob qilinadi.

Olib kirilayotgan qayta ishlash mahsuloti:

agar tovar shartnoma yoki kafolat majburiyatiga binoan tekin ta'mirlash uchun yoxud ishlab chiqarish nuqsoni mavjudligi sababli olib chiqilgan bo'lsa, bu nuqsonning mavjudligi tovarni dastlabki erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirishda hisobga olinmagan bo'lsa, bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan;

agar tovar haq evaziga ta'mirlash uchun olib chiqilgan bo'lsa, bojxona bojlari va aksiz solig'i to'lashdan ozod etiladi.

54-modda. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashga doir taqiqlar va cheklovlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

tovarlarning ayrim turlariga nisbatan bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga yo'l qo'yilmaydigan hollar;

muayyan tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni o'tkazishga doir cheklovlarni;

bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida tovarlarni qayta ishlashga yo'l qo'yishga doir miqdoriy cheklovlarni belgilashi mumkin.

9-bob. Erkin muomalaga chiqarish (import)

55-modda. Erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimi

Erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan tovar uni ushbu hududdan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz shu yerda erkin muomalada qoladi.

56-modda. Tovarni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Bojxona to'lovlari to'langan va iqtisodiy siyosat choralariga rioya etilgan taqdirda tovar erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtiriladi va bojxona hududida erkin muomalada turgan tovar maqomini oladi.

Tovarni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish qonunchilikka muvofiq boshqa talablar va shartlarga rioya etgan holda ham amalga oshirilishi mumkin.

(56-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

57-modda. Tovarni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga nisbatan bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'ladigan hujjatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda import qilinadigan tovarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

10-bob. Reimport

58-modda. Reimport bojxona rejimi

Reimport bojxona rejimi shunday rejimki, bunda ilgari bojxona hududidan olib chiqilgan tovarlar bojxona bojlari, soliqlar to'lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda, ushbu Kodeksning 59-moddasida belgilangan muddatlarda bojxona hududiga qaytarib olib kiriladi.

Reimport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarga erkin muomalaga chiqarilgan tovar sifatida qaraladi.

Qisman yoki boshqa tarzda shikastlanishlari bo'lgan, shikastlanish chog'ida holati yomonlashgan tovarni reimport bojxona rejimiga joylashtirishga bu holat avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida ro'y berganligi tasdiqlangan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Tovar reimport bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar uni normal holatda saqlab turish bo'yicha turli operatsiyalar, shu jumladan mayda ta'mirlash operatsiyalari va texnik xizmat ko'rsatish, bundan tovarni kapital ta'mirlash va modernizatsiya qilish mustasno, amalga oshirilishi mumkin va ular tovar qiymati oshib ketishiga olib kelmasligi kerak.

(58-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

(58-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

Tovar reimport bojxona rejimiga joylashtirilgan taqdirda tovarning amalda reimport qilinayotgan qismiga nisbatan tovar eksport bojxona rejimida bojxona hududidan olib chiqilayotganda to'langan bojxona bojlarining va soliqlarning summalarini qaytarish, basharti tovar mazkur tovarni olib chiqqan shaxsning ayni o'zi yoki uning huquqiy vorisi (merosxo'ri) tomonidan olib kirilayotgan bo'lsa, ushbu Kodeksning 49-bobida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Tovar reimport qilinayotganda tovarni olib o'tayotgan vakolatli shaxs to'lovlar sifatida olingan yoki tovar bojxona hududidan olib chiqilayotganda berilgan boshqa imtiyozlar natijasida olingan summalarni qonunchilikda belgilangan tartibda qaytaradi.

(58-moddaning sakkizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

59-modda. Tovarni reimport bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Tovarni reimport bojxona rejimiga joylashtirish quyidagi talablar va shartlarga rioya etilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovar bojxona hududidan olib chiqilayotganda u shu hududda erkin muomalada turgan tovar maqomiga ega bo'lishi lozim;

tovar uni olib chiqish uchun mo'ljallangan tegishli bojxona rejimiga joylashtirilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida, vaqtincha olib chiqilgan tovarga nisbatan — vaqtincha olib chiqishning belgilangan muddati ichida, tovarning bojxona hududidan tashqarida qayta ishlangan qoldig'iga nisbatan esa — qayta ishlashning belgilangan muddati ichida reimport bojxona rejimiga ma'lum qilinishi kerak. Bunda bojxona chegarasi kesib o'tilgan kun tovarni olib kirish sanasi hisoblanadi, tovarni olib chiqish uchun mo'ljallangan tegishli bojxona rejimi uchun bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan kun esa, olib chiqish sanasi hisoblanadi;

tovar tabiiy eskirish oqibatidagi yoxud tashishning, saqlashning yoki foydalanishning (ishlatishning) normal sharoitlarida kamayishi oqibatidagi o'zgarishlarini istisno etganda o'sha holatida bo'lishi kerak;

bojxona organlari tomonidan tovarni identifikatsiyalashni amalga oshirish mumkinligi.

Tovarning faqat bir qismi qaytarib olib kirilgan taqdirda ham ushbu moddaning birinchi qismi talablariga rioya etilishi sharti bilan uni reimport bojxona rejimiga joylashtirishga yo'l qo'yiladi.

Ilgari eksport bojxona rejimiga muvofiq olib chiqilgan tovarni reimport bojxona rejimiga joylashtirishga bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi:

kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) shartlari bajarilmagan bo'lsa;

tovardan bojxona hududidan tashqarida foydalanilmagan va u ta'mirlanmagan bo'lsa, bundan tovarning qaytarilishiga sabab bo'lgan nuqsonlarni yoki boshqa holatlarni aniqlash uchun tovardan foydalanish zarur bo'lgan hollar mustasno;

tabiiy eskirishi hisobga olingan holda tovar o'zgarmas holatda turgan bo'lsa, bundan nuqsonlar aniqlangan hollar mustasno.

60-modda. Tovarni reimport bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni reimport bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda reimporti amalga oshiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlar mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

11-bob. Vaqtincha olib kirish

61-modda. Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovar bojxona hududiga muayyan muddatga olib kiriladi va bojxona to'lovlaridan shartli ozod etilgan yoki davriy bojxona to'lovlari to'langan hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda undan vaqtincha foydalaniladi.

(61-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

62-modda. Tovarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Tovarlarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirish quyidagi talablar va shartlarlarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi:

vaqtincha olib kirilayotgan tovarning bojxona organlari tomonidan identifikatsiyalanishi mumkinligi;

agar tovar vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lsa, ushbu organlarning ruxsatnomalari bojxona organlarining axborot tizimida mavjud bo'lishi.

Vaqtincha olib kirilgan tovar o'zgarmas holatda qolishi shart. Vaqtincha olib kirilgan tovar bilan uning but saqlanishini ta'minlash uchun zarur operatsiyalarni, shu jumladan mayda ta'mirlash operatsiyalarini, bundan uni kapital ta'mirlash va modernizatsiya qilish mustasno, texnik xizmat ko'rsatish va tovarni soz holatda saqlab turish uchun zarur boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga, basharti bunday operatsiyalarni amalga oshirish natijasida tovar qiymati uning vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilgan paytdagi qiymatiga nisbatan oshib ketmasa, yo'l qo'yiladi.

Ilgari boshqa bojxona rejimlariga joylashtirilgan tovarlar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan talablar va shartlarga rioya etilgan taqdirda joylashtirilishi mumkin.

Quyidagi tovarlar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilishi mumkin emas:

O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishi taqiqlangan tovarlar;

chiqindilar;

elektr energiyasi, suv, quvurlar orqali yetkazib beriladigan tovarlar (neft, gaz), shuningdek yoqilg'i;

sarf qilinadigan materiallar va sarf qilinadigan namunalar, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar;

O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan olib kiriladigan avtotransport vositalari, bundan xalqaro yuk tashishni amalga oshirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalarida belgilangan hollar mustasno.

(62-modda to'rtinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu modda to'rtinchi qismining beshinchi xatboshisida ko'rsatilgan tovarlarni faqat reklama, namoyish qilish va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida bitta nusxadan vaqtincha olib kirishga yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib kirilgan tovarning bojxona nazoratini uning bojxona rasmiylashtiruvini bajargan bojxona organi amalga oshiradi.

63-modda. Tovarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini, shuningdek tovarni yetkazib berish yoki topshirish to'g'risidagi kontraktni (shartnomani, kelishuvni) (tovar ijara, lizing shartnomasi, kafolatli xizmat ko'rsatish va investitsiya loyihasi doirasida vaqtincha olib kirilgan hollarda) taqdim etadi.

(63-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda vaqtincha olib kiriladigan tovarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlar mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

64-modda. Tovarni vaqtincha olib kirish muddati

(64-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

Vaqtincha olib kirish muddati tovar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan e'tiboran ikki yilni tashkil etadi.

Tovarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs mazkur bojxona rejimini uning amal qilish muddati o'tguniga qadar ushbu Kodeksning 69-moddasiga muvofiq tugallash huquqiga ega.

Quyidagi tovarlarning vaqtincha olib kirish muddati vakolatli shaxsning arizasi asosida bojxona organi tomonidan ikki yildan ko'proq muddatga uzaytirilishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining va konsullik muassasalarining hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun olib kiriladigan, ushbu vakolatxonalarning O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan diplomatik agentlari va ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning oila a'zolari tomonidan shaxsiy foydalanish uchun olib kiriladigan tovarlarning, shuningdek chet davlatlar ommaviy axborot vositalarining akkreditatsiya qilingan muxbirlari va muxbirlik punktlarining o'z ehtiyojlari uchun olib kiriladigan avtotransport vositalarining. Bunday tovarlarni vaqtincha

olib kirish muddati ushbu vakolatxonalar va shaxslarning akkreditatsiya muddatidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

(64-modda uchinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bilan chet davlatlarning shaxslari o'rtasidagi ijara shartnomalari asosida vaqtincha olib kiriladigan temir yo'l va havo transporti vositalarining, shuningdek ularning ehtiyot qismlari va ularga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan transport asbob-uskunasining. Ularni vaqtincha olib kirish muddati ijara shartnomasi muddatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi;

lizing shartnomalari asosida olib kiriladigan tovarlarning. Bunday tovarlarni vaqtincha olib kirish muddati lizing shartnomasining amal qilish muddatidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

(64-modda uchinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq olib kiriladigan tovarlarning. Bunday tovarlarni vaqtincha olib kirish muddati O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasining amal qilish muddatidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

mahsulot taqsimotiga oid bitimlar va geologiya-qidiruv ishlarini o'tkazish to'g'risidagi bitimlar asosida olib kiriladigan tovarlarning. Bunday tovarlarni vaqtincha olib kirish muddati mazkur kelishuvlarning amal qilish muddatidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

(64-modda uchinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

davriy bojxona to'lovlari to'liq to'langan tovarlarning;

imtiyozlarning amal qilish muddati tugashi yoki mulk huquqi boshqa shaxslarga o'tishi munosabati bilan vaqtincha olib kirishning keyingi muddatida davriy bojxona to'lovlarini to'lash zarurati paydo bo'ladigan tovarlarning;

(64-modda uchinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

O'zbekiston Respublikasining investitsiya loyihalari asosida olib kiriladigan tovarlarning. Bunday tovarlarni vaqtincha olib kirishga investitsiya davri muddatiga yo'l qo'yiladi;

(64-modda uchinchi qismining to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

tovarni (ishlarni va xizmatlarni) import qilishga doir kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlari bo'yicha kafolat muddati davomida xizmat ko'rsatish va nuqsonlarni bartaraf etish uchun olib kiriladigan tovarlarning (bojxona hududida qoldirish uchun mo'ljallangan tovarlar bundan mustasno). Bunday tovarlarni vaqtincha olib kirishga kafolat davri muddatiga yo'l qo'yiladi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlari asosida vaqtincha olib kirishning uzoqroq muddati belgilangan tovarlarning.

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimining muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza bojxona organiga vaqtincha olib kirish bojxona rejimining amal qilish muddati tugaguniga qadar berilishi kerak. Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi muddatini uzaytirish bojxona yuk deklaratsiyasining tegishli bo'lmasiga o'zgartishlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

(64-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga vaqtincha olib kirish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berilganligi vaqtincha olib kirish muddatini uzib qo'ymaydi va to'xtatib turmaydi.

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimining amal qilish muddati uzaytirilganda boshqa bojxona deklaratsiyasi taqdim qilinmaydi.

65-modda. Vaqtincha olib kirilayotgan tovarlarni bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan shartli ozod etish

Vaqtincha olib kirilayotgan ayrim tovarlarga nisbatan bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan shartli ozod etish qo'llaniladi. Bunday tovarlarning ro'yxati va ozod etish shartlari, shuningdek vaqtincha olib kirilgan tovarlarga nisbatan bojxona bojlari va soliqlar to'lash bo'yicha imtiyozlarning amal qilish muddatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 20 iyundagi 212-sonli «Bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan shartli ozod etiladigan vaqtincha olib kirilayotgan ayrim tovarlarning ro'yxatini, ularni ozod etish shartlarini, shuningdek imtiyozlarning amal qilish muddatlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.

66-modda. Davriy bojxona to'lovlarini to'lagan holda tovarlarni vaqtincha olib kirish

Davriy bojxona to'lovlari:

tovarlar vaqtincha olib kirish bojxona rejimida turgan har bir to'liq va to'liq bo'lmagan kalendar oy uchun, ushbu tovarlar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilgan kunda erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona bojlari va soliqlar summasining besh foizi miqdorida chet el valyutasida hisoblab chiqariladi;

ular to'lanadigan kuni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan valyutalarning rasmiy ayirboshlash kursi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to'lanadi;

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga o'tkaziladi.

Davriy bojxona to'lovlarini hisoblashda tovar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilgan kuni amalda bo'lgan bojxona to'lovlari stavkalari qo'llaniladi.

Davriy bojxona to'lovlarini to'lab tovarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirayotgan shaxs quyidagi huquqlarga ega:

to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining umumiy summasini to'lash;

tegishli davr boshlanguniga qadar davriy bojxona to'lovlarini har oyda yoxud yilning har choragida to'lash.

To'lanadigan davriy bojxona to'lovlarining umumiy summasi tovar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan kuni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan taqdirda to'lanishi lozim bo'lgan, chet el valyutasida hisoblab chiqarilgan bojxona to'lovlarining summasidan oshmasligi lozim.

Davriy bojxona to'lovlarining to'langan summalari:

vaqtincha olib kirilgan tovar olib chiqilgan yoxud boshqa bojxona rejimlariga joylashtirilgan taqdirda qaytarilmaydi;

ushbu tovarlarni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirishda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari summasi hisobiga o'tkaziladi.

67-modda. Vaqtincha olib kirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqini cheklash

Vaqtincha olib kirilgan tovardan uni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirgan shaxsgina foydalanishi va (yoki) uni tasarruf etishi mumkin.

Vaqtincha olib kirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqini vaqtincha olib kirish bojxona rejimining amal qilishi tugaguniga qadar boshqa shaxsga o'tkazishga, basharti ushbu shaxs bojxona organlari oldida vaqtincha olib kirish bojxona rejimi shartlariga bundan buyon ham rioya etilishi bo'yicha yozma majburiyatlarni o'z zimmasiga olsa, yo'l qo'yiladi.

Agar tovar davriy bojxona to'lovlari to'langan holda vaqtincha olib kirilgan bo'lsa, uni dastlab vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs tovar vaqtincha olib kirish bojxona rejimida turgan butun davr uchun bojxona to'lovlarini bunday huquq boshqa shaxsga o'tkaziladigan paytga qadar, ushbu Kodeks 66-moddasining birinchi qismiga muvofiq to'lashi kerak.

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi shartlariga rioya etishga doir huquq va majburiyatlar tovarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirish uchun boshqa shaxs taqdim etgan bojxona deklaratsiyasi bojxona organi tomonidan qabul qilingan paytdan e'tiboran boshqa shaxsga o'tkazilgan deb hisoblanadi.

Vaqtincha olib kirilgan tovarni ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq boshqa shaxsga o'tkazilganligi dastlab belgilangan vaqtincha olib kirish muddatini to'xtatib turmaydi va uzaytirmaydi.

68-modda. Vaqtincha olib kirish bojxona rejimining amal qilishini to'xtatib turish

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimining amal qilishi:

vaqtincha olib kirilgan tovar xatlangan yoki olib qo'yilgan davrda;

vaqtincha olib kirilgan tovar vaqtincha saqlash va bojxona ombori bojxona rejimlariga joylashtirilganda to'xtatib turiladi.

To'xtatib turish muddati tugagach, vaqtincha olib kirish bojxona rejimining amal qilishi tiklanadi.

69-modda. Vaqtincha olib kirish bojxona rejimini tugallash

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi vaqtincha olib kirish muddati o'tgan kunning ertasidan kechiktirmay tovarni olib chiqish yoki uni boshqa bojxona rejimiga joylashtirish bilan

tugallanishi kerak. Vaqtincha olib kirilgan tovarlar reeksport bojxona rejimiga bir yoki bir nechta turkum bilan joylashtirilgandan so'ng olib chiqilishi mumkin.

(69-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Tovar avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yo'q qilingan yoki qaytarib bo'lmaydigan tarzda yo'qotilgan yoxud O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining qarorlari oqibatida egalikdan chiqib ketgan taqdirda, bu tegishli vakolatli davlat organi tomonidan berilgan hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lsa, shaxs vaqtincha olib kirish bojxona rejimini belgilangan muddatda tugallamaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi tugallanganda tovarning bojxona rasmiylashtiruvi bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazgan bojxona organi tomonidan yoki vakolatli shaxsning arizasiga binoan, shu tovarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda zarur hajmda bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan boshqa bojxona organi tomonidan o'tkazilishi mumkin. Ariza berilayotganda vakolatli shaxs quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

tovarni vaqtincha olib kirish uchun bojxona yuk deklaratsiyasi;

vaqtincha olib kirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish vaqtincha olib kirish bojxona rejimi tugallanguniga qadar boshqa shaxsga berilganligi yoxud u boshqacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjat, agar shunday o'tkazish bajarilgan bo'lsa.

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi tovarni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish bilan tugallanganda va davriy bojxona to'lovlari to'langanda tovarni bojxona yig'imlarini to'lagan holda erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish uchun bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtiriladi.

12-bob. Bojxona hududida qayta ishlash

70-modda. Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovar bojxona hududiga qayta ishlash va uni qayta ishlash mahsulotlari tarzida olib chiqish maqsadida, bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan shartli ozod etilgan holda olib kiriladi.

Tovar bojxona hududida qayta ishlash maqsadida olib kirilganda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydi, bundan ushbu Kodeksning 82-moddasida nazarda tutilgan taqiqlar va cheklovlar mustasno.

Chet el tovarlari bilan bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash operatsiyalari amalga oshirilgan taqdirda O'zbekiston tovarlaridan, shu jumladan chet ellik shaxs tomonidan olingan O'zbekiston tovarlaridan bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilmagan holda foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish ushbu Kodeks 21-bobining qoidalariga muvofiq bojxona organi tomonidan beriladigan tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi asosida amalga oshiriladi.

71-modda. Tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalari

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalari quyidagilardan iborat:

olib kirilgan tovarni uning dastlabki xossalari va individual ko'rsatkichlarini o'zgartirib, lekin qayta ishlash mahsulotida uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi tovar xususiyatlarini saqlagan holda bevosita qayta ishlash yoki unga ishlov berish, bundan ushbu Kodeks 74-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

olib kirilgan tovardan foydalangan holda boshqa tovar tayyorlash, shu jumladan montaj qilish, yig'ish yoki qismlarga ajratish;

tovarni ta'mirlash, shu jumladan uni tiklash va tarkibiy qismlarini almashtirish;

qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarishga ko'maklashuvchi yoki ularning ishlab chiqarilishini yengillashtiruvchi boshqa tovarlardan, agar bu tovarlar qayta ishlash jarayonida to'liq yoki qisman ishlatilsa, xom ashyo sifatida foydalanish. Mazkur operatsiya ushbu qismda ko'rsatilgan boshqa operatsiyalardan biri bilan bir vaqtda bajarilishi kerak.

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalari jumlasiga quyidagilar kirmaydi:

tovarning but saqlanishini ta'minlash, uni sotishga va tashishga tayyorlash operatsiyalari;

har qanday turdagi hayvonlarning naslini olish, ularni parvarishlash va klonlashtirish, bo'rdoqiga boqish va tutish (ushlash, ovlash), shuningdek ularning mahsullarini olish va to'plash;

har qanday o'simlik turlarini yetishtirish va yig'ish;

foydali qazilmalarni qazib olish;

axborotdan, audio- va video yozuvlardan istalgan turdagi axborot tashuvchi jismlarga nusxa ko'chirish va ularni ko'paytirib olish;

texnologik jarayonda yordamchi vosita sifatida chet el tovarlaridan (uskunalar, dastgohlar, moslamalar va boshqalar) foydalanish.

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalari tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash uchun ruxsatnoma olgan shaxs tomonidan, shuningdek uning topshirig'iga binoan boshqa shaxs tomonidan, agar ruxsatnomani olgan shaxs ko'rsatilgan operatsiyalarni amalga oshirishning butun muddati davomida ruxsatnomada nazarda tutilgan talablar va shartlarga rioya etilishi uchun bojxona organlari oldida javobgar bo'lib qolaversa, amalga oshirilishi mumkin. Tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalarining boshqa shaxs tomonidan amalga oshirilishi tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasida aks ettirilgan bo'lishi kerak.

72-modda. Tovarni bojxona hududida qayta ishlash talablari va shartlari

Tovarni bojxona hududida qayta ishlashga quyidagi talablarga va shartlarga rioya etilgan holda yo'l qo'yiladi:

olib kirilgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash;

qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini belgilash;

tovarlarning bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashga doir taqiqlar va cheklovlar ostiga tushib qolishini istisno etish;

olib kirilgan tovar uchun ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalarining ushbu Kodeksning 71-moddasi talablariga muvofiq bo'lishi.

(72-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Qayta ishlash jarayoni texnik-iqtisodiy asoslarining ko'rsatkichlari yoki identifikatsiyalash usuli yoxud qayta ishlash mahsulotlarning chiqish normasi o'zgargan taqdirda, tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasini berish to'g'risida yangi ariza berilishi kerak. Bunda yuridik shaxs o'zgartirilganligi, uning nomi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgarganligi, jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki faoliyat ko'rsatadigan joyi o'zgarganligi sababli kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlari o'zgargan taqdirda, yangi ariza berish talab etilmaydi.

(72-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish O'zbekiston Respublikasining har qanday manfaatdor shaxsi tomonidan, shu jumladan tovarning egasi bo'lmagan yoki bevosita tovarni qayta ishlash operatsiyalarini bajarmaydigan shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

73-modda. Tovarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda bojxona hududida qayta ishlanadigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlar mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

74-modda. Bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash

Tovarni qayta ishlash mahsulotlarida bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni identifikatsiyalash tovarning va qayta ishlash bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi usullardan biri yoki bir nechtasi yordamida amalga oshirilishi mumkin:

qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarga muhrlar qo'yish va zarur bo'lganda shtamplar qo'yish, raqamli tarzda va (yoki) boshqacha tarzda tamg'alash;

qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni batafsil tavsiflash, uni fotosuratga tushirish yoki boshqa o'lchamda tasvirlash;

qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarning oldindan olingan namunalarini yoki nusxalarini va uning qayta ishlangan mahsulotini tadqiq etish natijalarini qiyoslash;

qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarning zavod va seriya raqamlari tarzidagi mavjud tamg'alanishidan yoxud boshqacha tarzdagi tamg'alanishidan foydalanish.

Tovarni qayta ishlash mahsulotlarida bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni identifikatsiyalash qonunchilikka muvofiq boshqa usullarda ham amalga oshirilishi mumkin.

(74-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan birinchi va ikkinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y.,

03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Vakolatli shaxsning so'roviga binoan hamda bojxona organining roziligi bilan ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar to'g'risida, shuningdek qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi haqida taqdim etilgan batafsil ma'lumotlarni tadqiq etish yo'li bilan olib kirilayotgan tovarni identifikatsiyalash ta'minlanishi mumkin.

Bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash quyidagi hollarda talab etilmaydi, agar:

ular ushbu Kodeksning 77-moddasiga muvofiq qayta ishlash uchun olib kirilgan tovarga ekvivalent tovarni qayta ishlash natijasida olingan bo'lsa;

ishlab chiqarishning uzluksiz sikllariga taalluqli texnologik jarayondan qayta ishlash uchun foydalanilayotgan bo'lsa;

bojxona hududida o'xshash va (yoki) aynan bir xil qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarilishini istisno etadigan noyob texnologik jarayondan qayta ishlash uchun foydalanilayotgan bo'lsa.

Tovarni qayta ishlash mahsulotlarida bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni identifikatsiyalash usuli vakolatli shaxs tomonidan belgilanadi.

(74-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

75-modda. Tovarni bojxona hududida qayta ishlash muddati

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi ikki yil muddatga beriladi.

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasini olgan shaxs ushbu Kodeksning 80-moddasiga muvofiq mazkur ruxsatnomaning amal qilish muddati tugashidan avvalroq bojxona rejimini tugallash huquqiga ega.

Bir muncha uzoq davom etadigan qayta ishlash jarayoni talab qilinadigan ayrim toifadagi tovarlarga nisbatan tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddati vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra bojxona organi tomonidan ikki yildan ko'proq muddatga uzaytirilishi mumkin.

Ayni bir tovarlarni ayni bir xil sharoitlarda bojxona hududida qayta ishlash bo'yicha muntazam operatsiyalar amalga oshirilayotganda, shaxsning arizasiga ko'ra unga tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi so'ralgan muddatga, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga berilishi mumkin.

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddati va qayta ishlash muddati tovar bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran, tovar alohida turkumlar bilan olib kirilganda esa, tovarning birinchi turkumi bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran boshlanadi.

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza bojxona organiga ushbu ruxsatnomaning amal qilish muddati tugashiga kamida bir oy qolganda berilishi kerak. Ruxsatnomaning amal qilish muddatini uzaytirish ruxsatnomani olish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berilganligi ruxsatnomada ko'rsatilgan tovarni qayta ishlash muddatini uzib qo'ymaydi yoki to'xtatib turmaydi.

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddatini uzaytirish rad etilgan taqdirda, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar ushbu Kodeksning 80-moddasiga muvofiq boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi ma'lum qilinishi kerak.

76-modda. Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi

Bojxona hududida qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi, agar ushbu normalar belgilangan tartibda tasdiqlanmagan bo'lsa, tovarni qayta ishlash amalga oshiriladigan haqiqiy sharoitlardan kelib chiqqan holda, vakolatli shaxs tomonidan aniqlanadi va tasdiqlanadi, shuningdek tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi berilayotganda bojxona organi tomonidan belgilanadi.

Qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi belgilanayotganda bojxona organlari vakolatli shaxs taqdim etgan qayta ishlashning texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlarga hamda qayta ishlashning aniq texnologik jarayoniga asoslanadi.

Vakolatli shaxs qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini aniqlashda davlat organlarining va (yoki) vakolatli organlarning xulosalariga asoslanishi mumkin.

Qayta ishlash mahsulotlarining tavsifi, miqdori, sifati qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi aniqlanganidan keyin belgilanadi.

(76-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

77-modda. Olib kirilgan tovarlarning ekvivalent kompensatsiyasi

Ekvivalent kompensatsiyaga, ya'ni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan, olib kirilgan tovardan olinadigan qayta ishlash mahsulotini ekvivalent tovarni qayta ishlash orqali olingan boshqa tovar bilan, shu jumladan O'zbekiston tovari bilan almashtirishga, agar tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyasi ta'mirlashdan iborat bo'lsa, tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi asosida, shuningdek boshqa hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yo'l qo'yiladi.

Ekvivalent tovar deganda, bojxona maqsadlari uchun, o'z tavsifi, sifati va texnik xususiyatlariga ko'ra olib kirilgan tovarga mos keluvchi tovar tushuniladi.

Ekvivalent tovar, bojxona maqsadlari uchun, olib kirilgan tovar maqomini oladi, u bilan almashtiriladigan olib kirilgan tovar esa, ekvivalent tovar ega bo'lgan maqomni oladi.

Ekvivalent tovarni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarga ushbu bobning qoidalariga muvofiq olib kirilgan tovarni qayta ishlash mahsulotlari sifatida qaraladi.

Agar tovarni bojxona hududida qayta ishlash uchun berilgan ruxsatnomada ekvivalent kompensatsiya nazarda tutilgan bo'lsa, bojxona hududida qayta ishlash uchun tovar olib kirilguniga qadar qayta ishlash mahsulotlarini olib chiqishga yo'l qo'yiladi.

78-modda. Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida tovar ta'mirlanayotganda qayta ishlash mahsulotining almashtirilishi

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida tovar ta'mirlanayotganda qayta ishlash mahsulotining almashtirilishiga qayta ishlash mahsulotiga almashtiriluvchi tovar bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga muvofiq ta'mirlash uchun mo'ljallangan tovar bilan aynan bir xil yoxud unga o'xshash bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida tovar ta'mirlanayotganda qayta ishlash mahsulotini almashtirish uchun kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) tegishli qoidalari va (yoki) tovarlarni ta'mirlayotgan shaxsning kafillik majburiyatlari asos bo'ladi.

79-modda. Bojxona hududida qayta ishlashga olib kirilgan tovarlarning qoldiqlari va chiqindilari

Tovarni bojxona hududida qayta ishlash uchun ruxsatnoma olgan shaxs qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan chiqindilarni, shuningdek qayta ishlanmagan olib kirilgan tovar qoldiqlarini ushbu Kodeksda belgilangan shartlar asosida tegishli bojxona rejimlariga joylashtirgan holda, ushbu Kodeksning 75-moddasiga muvofiq belgilangan bojxona hududida qayta ishlash muddati tugaydigan kundan kechiktirmay tasarruf etishi kerak.

80-modda. Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini tugallash

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi olib kirilgan tovarning qayta ishlash mahsulotlarini yoki uning qoldiqlarini, shuningdek tovarni qayta ishlash chiqindilarini tovarni bojxona hududida qayta ishlashning ushbu Kodeks 75-moddasida belgilangan muddati tugaydigan kundan kechiktirmay olib chiqish yoxud ularni boshqa bojxona rejimlariga joylashtirish bilan tugallanishi kerak.

Qayta ishlash mahsulotlari bittadan ortiq turkumda olib chiqilayotganda, qayta ishlash mahsulotlari miqdorining bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasida ko'rsatilgan miqdorga muvofiqligini tekshirib ko'rish vaqti-vaqti bilan, lekin uch oyda kamida bir marta va qayta ishlash mahsulotlarining oxirgi turkumi bojxona chegarasi orqali olib o'tilgan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kundan kechiktirmay amalga oshirilishi mumkin.

Qayta ishlash mahsulotlari miqdorining bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasida ko'rsatilgan miqdorga muvofiqligini tekshirib ko'rish natijalari bo'yicha bojxona organi ruxsatnoma olgan shaxs bilan birgalikda dalolatnoma tuzadi. Agar olib chiqilgan qayta ishlash mahsulotlarining miqdori tekshirib ko'rish natijasida ruxsatnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiqligi aniqlangudek bo'lsa, bojxona organi qo'shimcha bojxona to'lovlari to'lash zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunday holda bojxona organi ruxsatnoma olgan shaxsga qaror qabul qilingan kunning ertasidan kechiktirmay yozma shaklda xabar qilishi shart. Agar bunday to'lovlarni to'lash yozma xabar olingan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida amalga oshirilsa, ularning summalariga penya hisoblanmaydi.

Tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi qo'llanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi amal qilishi tugagan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kun ichida solishtirib chiqishi shart.

81-modda. Qayta ishlash mahsulotlariga, qoldiqlarga va chiqindilarga nisbatan bojxona to'lovlarini hamda iqtisodiy siyosat choralarini qo'llash

Olib chiqiladigan qayta ishlash mahsuloti, qoldiqlar va chiqindilar bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan, shuningdek iqtisodiy siyosat choralari qo'llashdan ozod etiladi, bundan ushbu Kodeksning 82-moddasida nazarda tutilgan taqiqlar va cheklovlar mustasno.

Qayta ishlash mahsulotlarini erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirishda bojxona bojlari va soliqlar qayta ishlash uchun olib kirilgan tovarlarning bojxona qiymatidan va (yoki) qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasiga muvofiq ishlatilgan sonidan hamda tovar erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan kuni amalda bo'lgan, ularga nisbatan qo'llaniladigan bojxona to'lovlarining stavkalaridan kelib chiqqan holda to'lanadi.

Qayta ishlash mahsulotlari ularning chiqish normalarida belgilanganidan kam miqdorda olib chiqilgan taqdirda, bunday farqqa nisbatan ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan tartibda bojxona to'lovlari to'lanadi.

Tovarlarning qayta ishlash chiqindilari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan taqdirda ular bojxona hududiga shu holatda olib kirilganidagi kabi bojxona to'lovlari to'lanishi kerak.

82-modda. Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashga doir taqiqlar va cheklovlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

tovarlarning muayyan turlariga nisbatan bojxona hududida qayta ishlashga yo'l qo'yilmasligi hollarini;

tovarlarning muayyan turlarini bojxona hududida qayta ishlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni o'tkazishga doir cheklovlarni;

tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirishga doir miqdoriy cheklovlarni belgilashi mumkin.

13-bob. Vaqtincha saqlash

83-modda. Vaqtincha saqlash bojxona rejimi

Vaqtincha saqlash bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan har qanday tovar tayinlangan bojxona organiga taqdim etilgan paytdan boshlab va tanlangan bojxona rejimiga muvofiq chiqarib yuborilguniga qadar, shuningdek ushbu Kodeksning 177-moddasida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda, bojxona to'lovlari to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda vaqtincha bojxona nazorati ostida saqlanishi mumkin.

84-modda. Tovarni vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Vaqtincha saqlash bojxona rejimiga har qanday tovar, shu jumladan ilgari boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar joylashtirilishi mumkin.

Bojxona hududiga olib kirilishi va bu hududdan olib chiqilishi taqiqlangan tovarlar ushbu Kodeks 24-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq vaqtincha saqlash bojxona rejimiga

joylashtirilishi mumkin.

Vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovarni saqlash bojxona omborida yoki bojxona nazorati zonalarida, ularning mazkur bojxona rejimida turishi muddatlariga rioya etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

85-modda. Tovarning vaqtincha saqlash bojxona rejimida turish muddati

Tovarning vaqtincha saqlash bojxona rejimida turish muddati ana shu tovarning mazkur bojxona rejimiga joylashtirilishini ma'lum qilgan vakolatli shaxs tomonidan belgilanadi, lekin bu muddat, agar ushbu Kodeksning 177-moddasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, oltmish kalendar kundan oshmasligi lozim.

Tez buziladigan tovar vaqtincha saqlash bojxona rejimida turishining eng ko'p muddati o'n kalendar kunni tashkil etadi.

Bojxona omborlarida, erkin omborlarda yoki boj olinmaydigan savdo do'konlarida turgan tovar ularni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin, ushbu Kodeksning 177-moddasida belgilangan muddatlarda vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovar deb hisoblanadi.

Vaqtincha saqlash bojxona rejimining amal qilish muddatini hisoblash tovar ushbu Kodeksning 177-moddasiga va 226-moddasining beshinchi qismiga muvofiq vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovar maqomini olgan kundan e'tiboran boshlanadi.

86-modda. Tovarni vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjat

Tovarni vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant tomonidan bojxona organiga ushbu Kodeksning 267-moddasiga muvofiq tuzilgan qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim qilinadi.

Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi tovar bojxona organiga taqdim etilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan tashuvchi yoki boshqa vakolatli shaxs tomonidan beriladi. Agar tovar shu muddat ichida boshqa bojxona rejimiga joylashtirilsa, qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi berilmaydi.

Tovarni vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirishda bojxona organi ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqli emas.

87-modda. Vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar va harakatlar

Bojxona omborining egalari yoki vakolatli shaxslar vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan quyidagi operatsiyalar va harakatlarni bojxona organini xabardor qilgan holda amalga oshirishi mumkin:

tovarni ko'zdan kechirish va o'lchash;

ushbu Kodeksning 211-moddasiga muvofiq tovarni tadqiq etish va identifikatsiyalash uchun uning namunalari va nusxalarini olish;

tovarning o'zgarmas holatda but saqlanishi uchun zarur operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan buzilgan o'rov-idishlarni to'g'rilash;

vaqtincha saqlash joyi doirasida tovarning o'rnini o'zgartirish.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan operatsiyalar va harakatlarning amalga oshirilishi tovarning yo'qotilishiga yoki uning xossalari o'zgarishiga olib kelsa, mazkur operatsiyalar va harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tovarning namunalari va nusxalariga nisbatan ular erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganidagi kabi bojxona to'lovlari to'lanishi yoki ularning to'lanishi ta'minlanishi zarur, bundan quyidagi hollar mustasno, agar vakolatli shaxsning yozma majburiyatiga muvofiq:

tovar keyinchalik boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan taqdirda namunalar va nusxalar bojxona yuk deklaratsiyasiga kiritilsa;

namunalar va nusxalar tovar saqlanadigan muddat ichida bojxona omboriga qaytarilsa, lekin bu muddat o'ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim.

Vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovarning bir bojxona omboridan boshqasiga bojxona nazorati ostida olib o'tilishiga ushbu Kodeks 85-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan muddat tugaguniga qadar yo'l qo'yiladi. Bunda tovarning vaqtincha saqlash bojxona rejimida turishi muddatining o'tishi uzilmaydi va to'xtatib qo'yilmaydi.

88-modda. Vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan davrida yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan tovarni tasarruf etish

Vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan davrida avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan tovar vakolatli shaxs tomonidan tanlangan bojxona rejimiga tovar shu holatda bojxona hududiga olib kirilganidagi kabi joylashtirilishi lozim. Mazkur holatlar vakolatli shaxs va vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

89-modda. Vaqtincha saqlash bojxona rejimini tugallash

Vaqtincha saqlash bojxona rejimida turish muddati tugaydigan kundan kechiktirmay tovar boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilinishi kerak.

Tovar boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran uch kun ichida vaqtincha saqlash joyidan olib chiqilishi kerak, bundan tovar bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan hollar mustasno.

14-bob. Bojxona ombori

90-modda. Bojxona ombori bojxona rejimi

Bojxona ombori bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan va bojxona hududidan olib chiqish uchun mo'ljallangan tovar bojxona bojlari, soliqlar to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda muayyan binolarda (joylarda) bojxona nazorati ostida saqlanadi.

91-modda. Tovarni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Bojxona ombori bojxona rejimiga har qanday tovar, shu jumladan ilgari boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar joylashtiriladi, quyidagilar bundan mustasno:

bojxona hududiga olib kirilishi taqiqlangan tovar;

bojxona hududidan olib chiqilishi taqiqlangan O'zbekiston tovari;

qonunchilikka muvofiq bojxona hududi orqali tranzit qilinishi taqiqlangan tovar;

(91-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilingan kundagi yaroqlilik muddati ushbu Kodeksning 94-moddasiga muvofiq ma'lum qilinadigan muddatdan kam bo'lgan dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari.

Bojxona ombori bojxona rejimida turgan tovarni saqlash bojxona omborida amalga oshirilishi kerak, bundan ushbu Kodeksning 93-moddasida belgilangan hollar mustasno.

Vaqtincha olib kirish yoki bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida turgan tovar ushbu rejimlarning amal qilishini to'xtatib turish maqsadida bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilishi mumkin.

92-modda. Tovarni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

93-modda. Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni bojxona ombori hisoblanmaydigan joylarda saqlash

Olib kirilayotgan yoki olib chiqilayotgan tovar bojxona ombori hisoblanmaydigan joyda turgani holda bojxona ombori bojxona rejimiga quyidagi hollarda vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra joylashtiriladi:

tovar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning tashqi o'lchamlari, fizik ko'rsatkichlari tufayli yoki kimyoviy xossalariga ko'ra yoxud saqlanishiga doir alohida shartlar qo'yilishi tufayli bojxona omboriga joylashtirilishi mumkin bo'lmasa;

tovar yetkazib beriladigan joyda bojxona ombori mavjud bo'lmasa.

Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bojxona ombori hisoblanmaydigan joylarda saqlanayotganda quyidagi shartlarga rioya etilishi lozim:

ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash taqdim etilganligi;

tovar bilan bog'liq yuk operatsiyalarini bajarishga, shuningdek uni istalgan boshqa joyga ko'chirishga bojxona nazorati ostida yo'l qo'yilishi;

bojxona ombori bojxona rejimida turgan davrida tovarni undan foydalanish va uni tasarruf etish uchun boshqa shaxslarga o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi, bundan ushbu Kodeksning 96-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan shartlarga rioya etish harbiy yuklarga, insonparvarlik yordami, texnik ko'mak sifatida olib kiriladigan tovarlarga hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarz (kredit) mablag'lari, grantlar hisobidan olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek olib kirilayotgan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasiga, chet el valyutasiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tovar tegishli bojxona rejimiga joylashtirilmagan holda yo'qotilgan yoki boshqa shaxslarga berib yuborilgan taqdirda bojxona to'lovlarini to'lash olib kirilayotgan tovar bojxona

ombori hisoblanmaydigan joyda turavergani holda uni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

94-modda. Tovarning bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati

Tovarning bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati uch yilni tashkil etadi.

Tovarlar bir necha bor bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilganda bojxona ombori bojxona rejimining umumiy amal qilish muddati ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan muddatdan ko'p bo'lishi mumkin emas.

(94-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Tovarni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs mazkur bojxona rejimini uning amal qilish muddati ushbu Kodeksning 98-moddasiga muvofiq tugaguniga qadar tugallash huquqiga ega.

Yaroqlilik, saqlash, ishlatish va (yoki) realizatsiya qilish muddati cheklangan tovar mazkur muddat tugaguniga qadar kamida bir yuz sakson kalendar kundan kechiktirmay boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilinishi va bojxona omboridan olib chiqilishi kerak.

95-modda. Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar va harakatlar

Vakolatli shaxslar bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan bojxona organini xabardor qilgan holda quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

tovarning o'zgarmas holatda but saqlanishini ta'minlash uchun zarur operatsiyalarni bajarish;

tovarni tekshirish, ko'zdan kechirish va o'lchash;

bojxona ombori ichida tovarning joyini o'zgartirish, basharti mazkur o'zgartirish tovarning holati o'zgarishiga, uning o'rov-idishi buzilishiga va (yoki) qo'yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalarining o'zgarishiga olib kelmasa;

ushbu Kodeksning 211-moddasiga muvofiq tadqiq etish va identifikatsiyalash uchun tovarning namunalari va nusxalarini olish;

tovarni sotishga va tashishga tayyorlash uchun zarur operatsiyalarni bajarish, shu jumladan turkumlarga bo'lish, jo'natmalarni shakllantirish, saralash, o'rash-joylash, qayta o'rash-joylash, tamg'alash (aksiz markalari bundan mustasno), boshqa shu kabi operatsiyalarni, shu jumladan oddiy yig'ish operatsiyalarini bajarish;

tovarning sifatini yaxshilash uchun zarur boshqa operatsiyalarni bajarish, bundan tovarni aralashtirish, qayta ishlash yoki unga ishlov berish mustasno.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan operatsiyalar va harakatlarning bajarilishi tovarning yo'qotilishiga yoki xossalarining o'zgarishiga olib kelsa, ushbu operatsiyalar va harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tovarning namunalari va nusxalariga nisbatan ular erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganida bo'lgani kabi bojxona to'lovlari to'lanishi yoki bunday to'lovlarni to'lash ta'minlanishi zarur, bundan tovarni keyinchalik boshqa bojxona rejimiga

joylashtirishda namunalar va nusxalarning bojxona yuk deklaratsiyasiga kiritilish hollari mustasno.

Bojxona ombori bojxona rejimida turgan tovarni ushbu Kodeks 94-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan muddatlar tugaguniga qadar bojxona nazorati ostida bir bojxona omboridan boshqasiga olib o'tishga yo'l qo'yiladi. Bunda tovarning bojxona ombori bojxona rejimida turishi muddatining o'tishi uzilib qolmaydi va to'xtatib turilmaydi.

96-modda. Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni boshqa shaxsga o'tkazish

Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni boshqa shaxsga o'tkazishga, unga nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga berishga quyidagi shartlarga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi:

tovarni yoki unga nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga o'tkazuvchi vakolatli shaxs bojxona organini oldindan yozma shaklda xabardor etadi;

tovarga bo'lgan huquqni oluvchi vakolatli shaxs ushbu tovarga nisbatan tanlangan bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etgan holda bojxona deklaratsiyasini bojxona organiga taqdim etadi.

Vakolatli shaxsning tovarga nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish huquqi bojxona deklaratsiyasi bojxona organiga berilgan paytdan e'tiboran boshqa shaxsga o'tkazilgan deb hisoblanadi. Bojxona deklaratsiyasi berilgan paytda mazkur shaxsda bojxona rejimiga rioya etilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar yuzaga keladi.

Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarning ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq boshqa shaxsga o'tkazilganligi bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni saqlash muddatini to'xtatib turmaydi va uzaytirmaydi.

(96-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

97-modda. Bojxona ombori bojxona rejimida turgan davrda yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan tovarni tasarruf etish

Bojxona ombori bojxona rejimida turgan davrda avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan tovar vakolatli shaxs tomonidan tanlangan bojxona rejimiga u shu holatda bojxona hududiga olib kirilgan tovar kabi joylashtirilishi lozim. Mazkur holatlar vakolatli shaxs va vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

98-modda. Bojxona ombori bojxona rejimini tugallash

Bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati tugaydigan kundan kechiktirmay tovar boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilinishi kerak, bundan vaqtincha saqlash bojxona rejimi mustasno.

Boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida tovar bojxona omboridan olib chiqilishi kerak.

Ilgari vaqtincha olib kirish yoki bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida turgan tovarni undan keyinchalik bojxona hududida ushbu bojxona rejimiga muvofiq foydalanish maqsadida bojxona omboridan olib chiqishda vaqtincha olib kirish yoki bojxona hududida qayta ishlash muddatining o'tishi tiklanadi.

99-modda. Tovarning bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati tugaganidan keyin u bilan amalga oshiriladigan harakatlar

Ushbu Kodeks 98-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talabga rioya etilmagan taqdirda, bojxona organi bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati tugagan tovarga nisbatan qaror qabul qilinishi uchun sudga murojaat etadi.

15-bob. Erkin ombor

100-modda. Erkin ombor bojxona rejimi

Erkin ombor bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovar muayyan joylar va hududlarda bojxona bojlari va soliqlar to'lanmagan, shuningdek iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda joylashtiriladi.

(100-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

101-modda. Tovarni erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Erkin ombor bojxona rejimiga har qanday tovar joylashtiriladi, bundan bojxona hududiga olib kirilishi taqiqlangan tovar hamda ushbu hududdan olib chiqilishi taqiqlangan O'zbekiston tovari mustasno.

Boshqa tovarlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki alohida sharoitlarda saqlash talab etiladigan tovarlar maxsus moslashtirilgan binolarda saqlanishi lozim.

Ilgari boshqa bojxona rejimlariga joylashtirilgan tovarlar erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilishi mumkin.

102-modda. Tovarni erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

103-modda. Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar

Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan quyidagi operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin:

tovarning o'zgarmas holatda but saqlanishini ta'minlash operatsiyalari;

tovarni sotishga va tashishga tayyorlash operatsiyalari, shu jumladan turkumlarga bo'lish, jo'natmalarni shakllantirish, saralash, o'rash-joylash, qayta o'rash-joylash, tamg'alash operatsiyalari (aksiz markalari bundan mustasno) va boshqa shu kabi operatsiyalar;

oddiy yig'ish operatsiyalari;

tovardan erkin omborda ishlatiladigan texnologik uskuna va uning ehtiyot qismlari, yuklash-tushirish texnikasi, boshqa texnik vositalar sifatida foydalanish operatsiyalari.

Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan chakana savdo operatsiyalarini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan ayrim operatsiyalarni amalga oshirishga qonunchilikka muvofiq taqiqlar va cheklovlar belgilanishi mumkin.

(103-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

1031-modda. Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni boshqa shaxsga o'tkazish

Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni boshqa shaxsga o'tkazishga unga nisbatan egalik qilish, undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga berishga quyidagi shartlarga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi:

tovarni yoki unga nisbatan egalik qilish, undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga o'tkazuvchi vakolatli shaxs bojxona organini oldindan yozma shaklda xabardor etadi;

tovarga bo'lgan huquqni oluvchi vakolatli shaxs ushbu tovarga nisbatan tanlangan bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etgan holda bojxona yuk deklaratsiyasini bojxona organiga beradi.

Vakolatli shaxsning tovarga nisbatan egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi bojxona yuk deklaratsiyasi bojxona organiga berilgan paytdan e'tiboran boshqa shaxsga o'tkazilgan deb hisoblanadi. Bojxona yuk deklaratsiyasi berilgan paytda mazkur shaxsda bojxona rejimiga rioya etilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar yuzaga keladi.

(1031-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

104-modda. Tovarning erkin ombor bojxona rejimida turishi muddati

Tovar erkin ombor bojxona rejimida cheklanmagan muddatda turishi mumkin.

105-modda. Erkin ombor bojxona rejimida bojxona to'lovlarining va iqtisodiy siyosat choralarining qo'llanilishi

Erkin ombor bojxona rejimida turgan tovar erkin muomalaga chiqarish (import) yoki eksport bojxona rejimiga joylashtirilayotganda, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarning ishlab chiqarilgan mamlakatiga bog'liq ravishda bojxona to'lovlari va iqtisodiy siyosat choralari qo'llaniladi.

Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan va bojxona hududiga olib kiriladigan chet el tovariga nisbatan, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu tovar bevosita bojxona hududi tashqarisidan olib kirilganidagi kabi bojxona to'lovlari va iqtisodiy siyosat choralari qo'llaniladi.

(105-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston tovari erkin ombordan bojxona hududidan tashqariga olib chiqilayotganda unga nisbatan bojxona hududidan olib chiqishda qo'llanilganidagi kabi bojxona to'lovlari va

iqtisodiy siyosat choralari qo'llaniladi.

Erkin ombordan bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat bo'lmagan taqdirda bunday tovar unga bojxona to'lovlari va iqtisodiy siyosat choralari qo'llash maqsadida O'zbekiston tovari sifatida, boshqa maqsadlarda esa, chet el tovari sifatida qaraladi.

Agar tovar olib chiqilayotganda bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan ozod etilishi yoki to'langan summalar qaytarilishi nazarda tutilgan bo'lsa, erkin ombor bojxona rejimiga joylashtiriladigan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport bojxona rejimida olib chiqish mo'ljallangan tovar bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan ozod etiladi yoki to'langan summalar qaytariladi. Bunday tovarni olib chiqish bojxona bojlari, soliqlar summalari qaytarilgan yoki ularni to'lashdan ozod qilingan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

Erkin omborlardan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilishi lozim bo'lgan tovar bojxona hududiga qaytarilgan yoki uni olib chiqish belgilangan muddatlar ichida amalga oshirilmagan taqdirda bojxona bojlari va soliqlar to'lanadi.

16-bob. Erkin bojxona zonasi

106-modda. Erkin bojxona zonasi bojxona rejimi

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovar muayyan joylar va hududlarda bojxona bojlari va soliqlar to'lanmagan, shuningdek iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda joylashtiriladi va shu tarzda undan foydalaniladi.

(106-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

107-modda. Tovarlarni erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga har qanday tovar joylashtiriladi, bundan bojxona hududiga olib kirilishi taqiqlangan tovarlar hamda ushbu hududdan olib chiqilishi taqiqlangan O'zbekiston tovarlari mustasno.

Erkin bojxona zonasi faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun zarur O'zbekiston tovarlariga nisbatan erkin bojxona zonasi bojxona rejimi qo'llanilmaydi.

Boshqa tovarlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki alohida sharoitlarda saqlash talab etiladigan tovarlar maxsus moslashtirilgan binolarda saqlanishi lozim.

108-modda. Tovarni erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlar mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

109-modda. Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan operatsiyalar erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

(109-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan chakana savdo operatsiyalarini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

(109-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan ayrim operatsiyalarni amalga oshirishga qonunchilikka muvofiq taqiqlar va cheklovlar belgilanishi mumkin.

(109-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

110-modda. Tovarning erkin bojxona zonasi bojxona rejimida turishi muddatlari

Tovar erkin bojxona zonasi bojxona rejimida cheklanmagan muddatda turishi mumkin.

111-modda. Erkin bojxona zonasi bojxona rejimida bojxona to'lovlarining qo'llanilishi

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimida bojxona to'lovlari ushbu Kodeksning 105-moddasi talablari inobatga olingan holda, erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq undiriladi.

(111-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

112-modda. Erkin bojxona zonasini tashkil etish

Erkin bojxona zonasi erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunchilikda belgilanadigan tartibda tashkil etiladi.

(112-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

17-bob. Boj olinmaydigan savdo

113-modda. Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovarlar bojxona hududining bojxona organlari tomonidan belgilangan joylarida bojxona bojlari, soliqlar to'lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda bojxona nazorati ostida turadi hamda realizatsiya qilinadi.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan chet el tovarlari, shuningdek O'zbekiston tovarlari bojxona hududidan chiqib ketayotgan va bojxona hududiga kirib kelayotgan jismoniy shaxslarga, O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan chet ellik shaxslarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida

akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxslarga ushbu bobda belgilangan shartlarda chakana holda realizatsiya qilinadi.

(113-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini kesib o'tmayotgan jismoniy shaxslarga hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilinmagan chet ellik shaxslarga boj olinmaydigan savdo do'konlarida tovarlarni realizatsiya qilishga (sotib olishga) ruxsat etilmaydi.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni realizatsiya qilish boj olinmaydigan savdo do'konlarida bojxona nazorati ostida amalga oshiriladi.

114-modda. Tovarni boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga har qanday tovarlar joylashtiriladi, bundan ro'yxati qonunchilikda belgilab qo'yilgan tovarlar mustasno.

(114-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarni deklaratsiyalash boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Tovarlar boj olinmaydigan savdo bojxona rejimida cheklanmagan muddatda turishi mumkin.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan quyidagi operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin:

tovar realizatsiya qilinguniga qadar uning o'zgarmas holatda but saqlanishini ta'minlash operatsiyalari;

tovarlarni sotishga tayyorlash bo'yicha, shu jumladan saralash, o'rash-joylash, qayta o'rash-joylash, tamg'alash operatsiyalari (aksiz markalari bundan mustasno).

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar realizatsiya qilinguniga qadar o'zgarmas holatda qolishi kerak, bundan iste'mol qilish uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash uchun foydalaniladigan tovar mustasno.

Boj olinmaydigan savdo do'konida realizatsiya qilinadigan tovarlar tovarning boj olinmaydigan savdo do'koniga mansubligini anglatuvchi maxsus tamg'aga ega bo'lishi va chakana sotish uchun oldindan o'rab, joylangan bo'lishi kerak.

115-modda. Tovarni boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

18-bob. Bojxona tranziti

116-modda. Bojxona tranziti bojxona rejimi

Bojxona tranziti bojxona rejimi shunday rejimki, bunda:

olib kirilgan tovar jo'natuvchi bojxona organi va tovar kelib tushadigan bojxona organi orasidagi bojxona hududi bo'ylab, shu jumladan chet davlat hududi orqali bojxona nazorati ostida;

(116-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

O'zbekiston tovarlari bojxona chegarasida joylashgan jo'natuvchi bojxona organi va tovar kelib tushadigan bojxona organi orasidagi chet davlat hududi bo'ylab bojxona bojlari va soliqlar to'lanmagan, shuningdek iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda olib o'tiladi.

Qaysi bojxona organi faoliyat ko'rsatish zonasida tovarlarni bojxona nazorati ostida tashish boshlanadigan bo'lsa, o'sha bojxona organi jo'natuvchi bojxona organi hisoblanadi.

Qaysi bojxona organi faoliyat ko'rsatish zonasida tovarlarni bojxona nazorati ostida tashish tugallanadigan bo'lsa, o'sha bojxona organi tovar kelib tushadigan bojxona organi hisoblanadi.

117-modda. Tovarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Har qanday tovar quyidagi talablarga va shartlarga rioya etilgan holda bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtiriladi:

tovarning bojxona hududi orqali tranziti O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq taqiqlanmagan bo'lsa;

agar qonunchilikka muvofiq tovarning bojxona hududi bo'ylab tranzitiga faqat tegishli ruxsatnomalar asosida yo'l qo'yilsa, tovarga nisbatan shunday ruxsatnomalar mavjud bo'lsa.

(117-modda birinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona tranziti bojxona rejimida tovarni tashish ushbu Kodeksning 31-bobida belgilangan talablar va shartlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari, quvur transporti orqali va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlar bojxona tranzitining bojxona rasmiylashtiruvi ushbu Kodeksning 24 va 25-boblariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sharti bilan bojxona hududi orqali bojxona tranzitiga yo'l qo'yiladigan tovarlarning ro'yxati qonunchilikda belgilanadi.

(117-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Ayrim turdagi tovarlarning bojxona hududi orqali bojxona tranziti bojxona rejimida olib o'tilishiga nisbatan qonunchilik bilan boshqa talablar va shartlar ham belgilanishi mumkin.

(117-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tovarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish ushbu Kodeksning 3-bobiga muvofiq bojxona organi xabardor qilingan holda amalga oshiriladi.

118-modda. Tovarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga tranzit deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

(118-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda tranziti amalga oshiriladigan tovarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlar mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

119-modda. Bojxona tranziti bojxona rejimiga muvofiq bojxona hududi bo'ylab olib o'tiladigan tovar bilan amalga oshiriladigan yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar

Bojxona tranziti bojxona rejimida turgan tovar bilan oraliq bojxona organi nazorati ostida quyidagi yuk operatsiyalarini va boshqa operatsiyalarni bajarishga yo'l qo'yiladi:

tovarni bojxona hududiga olib kirgan transport vositasidan olib, shu hududdan olib chiqadigan transport vositasiga yuklash;

bojxona tranziti bojxona rejimining amal qilish muddatini to'xtatib turish uchun, shu jumladan tovar tashilayotgan transport vositasi buzilib qolgan taqdirda shunday qilish uchun vaqtincha saqlash joylarida tovarni tushirish va vaqtincha joylab qo'yish (saqlash, turkumlarga bo'lish yoki turkumlarga to'plash va boshqa shu kabi operatsiyalar). Tovarni vaqtincha joylab qo'yish muddati mazkur operatsiyalarni bajarish uchun ketadigan vaqtdan yoxud transport vositasini ta'mirlash-tiklash ishlariga ketadigan vaqtdan kelib chiqqan holda tashuvchi tomonidan belgilanadi, biroq bu muddat tovarning vaqtincha saqlash bojxona rejimida turishining eng ko'p muddatlaridan oshmasligi kerak.

O'zining faoliyat ko'rsatish zonasida bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar bilan ruxsat etilgan yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar amalga oshiriladigan bojxona organi oraliq bojxona organi hisoblanadi.

Agar bajariladigan operatsiyalar tovar ustidan bundan buyongi bojxona nazoratini amalga oshirish imkoni bo'lmasligiga olib kelsa, oraliq bojxona organi ushbu tovar bilan operatsiyalarni amalga oshirishni taqiqlashga haqli.

Avariya, yengib bo'lmas kuch ta'siri yoki bojxona tranziti bojxona rejimiga muvofiq tovarning tashilishiga to'sqinlik qiladigan boshqa holatlarda, tashuvchi tovarning va transport vositasining but saqlanishini ta'minlash uchun barcha choralarni ko'rishi, eng yaqin bojxona organiga ushbu holatlar va tovar turgan joy to'g'risida darhol xabar qilishi, shuningdek tovarni eng yaqin bojxona organiga yoki bojxona organi ko'rsatgan boshqa joyga tashib o'tishi yoki tashilishini ta'minlashi shart.

120-modda. Bojxona tranziti bojxona rejimini tugallash

Bojxona tranziti bojxona rejimi olib kirilgan tovarni bojxona hududidan olib chiqish bilan yoki O'zbekiston tovarini bojxona hududiga olib kirish bilan tugallanadi.

Tovarni jo'natuvchi bojxona organidan tovar kelib tushadigan bojxona organigacha bojxona tranzitining muddati tovarlarni tashishning odatiy muddatlariga muvofiq, transportning turi va transport vositasining imkoniyatlari, yo'nalishi, boshqa tashish shartlaridan kelib chiqqan holda va (yoki) deklarantning yoki, agar tashuvchi bojxona tranziti bojxona rejimi deklaranti sifatida ish yuritmagan bo'lsa, tashuvchining arizasidan kelib chiqqan holda, shuningdek haydovchining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq mehnat qilish hamda dam olish rejimi talablari inobatga olingan holda, jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilanadi, lekin bu muddat bojxona tranzitining eng ko'p muddatidan oshmasligi kerak.

(120-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona tranziti bojxona rejimining eng ko'p muddati bojxona tranziti uchun xabarnoma berilgan kundan e'tiboran belgilanadigan quyidagi hisob-kitob muddatidan oshmasligi lozim:

havo transporti uchun — uch kalendar kun;

yer usti va suv transporti uchun — o'n besh kalendar kunda bir ming kilometr.

Vakolatli shaxs tovarni va ushbu Kodeksning 18-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni tovar kelib tushadigan bojxona organiga jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilangan muddatda taqdim etishi shart.

Tovar kelib tushadigan bojxona organi bojxona tranziti bojxona rejimini tugallash uchun zarur operatsiyalarni bajaradi.

Vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra bojxona tranziti bojxona rejimini oraliq bojxona organida quyidagi yo'llar bilan tugallashga yo'l qo'yiladi:

tovarni alohida turkumlar bilan va (yoki) jo'natuvchi bojxona organi tomonidan ilgari belgilanganidan boshqa tovar kelib tushadigan bojxona organlari orqali olib chiqish yo'li bilan. Tovarlar alohida turkumlar bilan olib chiqilganda tovarning oxirgi turkumi bojxona hududidan olib chiqilganidan keyin bojxona tranziti bojxona rejimi tugallangan hisoblanadi;

ushbu Kodeksning talablari va shartlariga rioya etilgan holda tovarni boshqa bojxona rejimlariga joylashtirish yo'li bilan.

Zarur bo'lgan hollarda, oraliq bojxona organi vakolatli shaxsning arizasida ko'rsatilgan muddatga muvofiq bojxona tranziti bojxona rejimini tugallashning boshqa muddatini belgilaydi.

19-bob. Yo'q qilish

121-modda. Yo'q qilish bojxona rejimi

Yo'q qilish bojxona rejimi shunday rejimki, bunda chet el tovari bojxona to'lovlari to'lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda bojxona nazorati ostida yo'q qilinadi, shu jumladan foydalanish uchun yaroqsiz holga keltiriladi.

(121-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

122-modda. Tovarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Tovarlarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirishga, agar yo'q qilinadigan tovarlar o'zining iste'mol xossalarini to'liq yo'qotadigan bo'lsa va ularning dastlabki holatini iqtisodiy foydali usulda tiklab bo'lmasa, yo'l qo'yiladi.

Quyidagi tovarlarning yo'q qilinishiga yo'l qo'yilmaydi:

madaniy boyliklarning;

yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar va o'simliklar turlarining, ularning qismlari va derivatlarining, bundan epidemiyalar va epizootiyalarning oldini olish maqsadida yo'q qilinishi talab etiladigan hollar mustasno.

Quyidagi hollarda tovarlarni yo'q qilishga yo'l qo'yilmaydi, agar:

yo'q qilish atrof muhitga zarar yetkazishi yoxud insonlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'dirsa yoki xavf tug'dirish ehtimoli bo'lsa;

yo'q qilish tovarlarning odatiy maqsadiga ko'ra ularni iste'mol qilish orqali amalga oshirilsa;

bojxona organi tovarlar amalda yo'q qilinganligini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat organining yo'q qilishni amalga oshirish imkoniyati to'g'risidagi, uni amalga oshirishning usuli va joyi ko'rsatilgan xulosasi bojxona organlarining axborot tizimida bo'lmasa. Ushbu qismning qoidalari avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida qaytarib bo'lmas tarzda yo'qotilgan tovarlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(122-modda uchinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 14 sentyabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017 y., 37-son, 978-modda)

Tovarlarni yo'q qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

tovarlarning batamom yo'q bo'lib ketishiga olib keladigan termik, kimyoviy, mexanik tarzdagi yoki boshqa turdagi (yoqib tashlash, buzib tashlash, ko'mib tashlash) ta'sir ko'rsatish;

demontaj qilish, qismlarga ajratish, mexanik usulda buzish, shu jumladan teshish, yirtish, boshqa usulda shikast yetkazish, basharti bunday shikastlanishlar tovarlarni keyinchalik tiklash va ulardan dastlabki ko'rinishida foydalanish imkoniyatini istisno etsa.

Tovarlarni yo'q qilish tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilgan holda vakolatli shaxs tomonidan uning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

(122-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona omborida saqlanayotgan tovarlarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish to'g'risida tegishli vakolatli davlat organining tovar iste'molga va foydalanishga yaroqsizligi, shuningdek bundan buyon uni saqlash mumkin emasligi haqidagi xulosasiga ko'ra, vakolatli shaxsga oldindan yozma xabar yuborilgan holda bojxona omborining egasi tomonidan ma'lum qilinishi mumkin.

123-modda. Tovarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga:

bojxona yuk deklaratsiyasini;

tovarning kuzatuv hujjatlarini;

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan shakl bo'yicha tuzilgan yo'q qilish dalolatnomasini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda yo'q qilinadigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlar mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

124-modda. Tovarni yo'q qilish muddati va joyi

Tovarni yo'q qilish muddati mazkur turdagi tovarni yo'q qilish operatsiyasini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan vaqtdan kelib chiqqan holda bojxona organi tomonidan vakolatli shaxsning arizasi asosida belgilanadi. Tovarni yo'q qilish ma'lum qilingan usulda hamda tovarni turgan joyidan yo'q qilish joyiga tashishga ketadigan vaqt hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Tovarni yo'q qilish joyi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat organining xulosasi inobatga olingan holda vakolatli shaxs tomonidan belgilanadi.

(124-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 14 sentyabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017 y., 37-son, 978-modda)

125-modda. Yo'q qilish bojxona rejimini avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yo'q qilingan yoki shikastlangan tovarlarga nisbatan qo'llash

Yo'q qilish bojxona rejimi avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yo'q qilingan yoki shikastlangan tovarlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Tovarlarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish to'g'risida ma'lum qilgan shaxs bojxona organlariga tegishli vakolatli organning ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlarning mavjudligi hamda tovarlar shu holatlar natijasida yo'q qilinganligi yoki shikastlanganligi to'g'risidagi xulosasini taqdim etishi kerak.

Avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yo'q qilingan yoki shikastlangan tovarlar yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirilayotganda ushbu Kodeks 122-moddasi birinchi qismining va 127-moddasining qoidalari qo'llaniladi.

126-modda. Yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati

Yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi tovar qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida turgan bo'lsa, o'sha bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

Tovar yo'q qilinguniga qadar vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish uchun bojxona yuk deklaratsiyasini, shuningdek tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Tovar bojxona omborida saqlangan taqdirda, yo'q qilinishi ma'lum qilingan tovarni bojxona omboridan olib chiqish uchun bojxona organi tomonidan ro'yxatga olingan bojxona yuk

deklaratsiyasi asos bo'ladi.

Tovarni yo'q qilish joyigacha yetkazib berish va uni yo'q qilish bojxona nazorati ostida amalga oshiriladi.

Tovarni yo'q qilish fakti bo'yicha bojxona organining mansabdor shaxsi, vakolatli shaxs va tovarlarni amalda yo'q qilish chog'ida hozir bo'lgan boshqa shaxslar tomonidan imzolanadigan yo'q qilish dalolatnomasi tuziladi.

Tovarni yo'q qilish dalolatnomasi tovar amalda yo'q qilinganidan keyin bir ish kuni ichida bojxona organiga taqdim etiladi.

Bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish va ro'yxatdan o'tkazish yo'q qilishdan avval, uni rasmiylashtirish esa, tovar yo'q qilinganidan keyin amalga oshiriladi.

127-modda. Tovarni yo'q qilish natijasida hosil bo'lgan chiqindilarni deklaratsiyalash

Tovarni yo'q qilish natijasida hosil bo'lgan chiqindilar ular shu holatda bojxona hududiga olib kirilganida bo'lgani kabi boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi lozim, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Yo'q qilish natijasida hosil bo'lgan va keyinchalik foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelgunga qadar qayta ishlangan chiqindilar deklaratsiyalanmaydi.

20-bob. Davlat foydasiga voz kechish

128-modda. Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimi

Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimi shunday rejimki, bunda vakolatli shaxs tovardan voz kechadi hamda uni bojxona to'lovlari to'lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda tekinga davlat mulkiga o'tkazadi.

(128-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

129-modda. Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari

Tovardan davlat foydasiga voz kechish davlatning biror-bir xarajat qilishiga sabab bo'lmasligi kerak.

Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga quyidagi tovar joylashtirilmaydi:

bojxona hududiga olib kirilishi taqiqlangan tovar;

muomaladan chiqarilgan yoki muomalasi cheklangan tovar;

agar tovar vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lsa, bojxona organlarining axborot tizimida unga nisbatan ushbu organlarning tegishli ruxsatnomasi bo'lmagan tovar.

(129-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

Tovardan davlat foydasiga voz kechgan vakolatli shaxs uni bojxona organi tomonidan belgilanadigan joyga yetkazib berish bilan bog'lik barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

Tovar davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirilganidan keyin vakolatli shaxs mazkur bojxona rejimini boshqasiga almashtirishga haqli emas.

Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirishning qonuniyligi uchun har qanday uchinchi shaxs oldida javobgarlik vakolatli shaxsning zimmasida bo'ladi.

(129-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona organi:

(129-modda oltinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

vakolatli shaxs davlat foydasiga voz kechgan tovarga nisbatan uchinchi shaxslarning biror-bir mulkiy talabini qanoatlantirmaydi;

tovar davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar tashuvchining, ombor egasining yoki boshqa shaxslarning shu tovarni tashish, saqlash, u bilan yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar o'tkazish bilan bog'liq biror-bir xarajatining o'rnini qoplamaydi.

130-modda. Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga:

bojxona yuk deklaratsiyasini;

davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarni topshirish dalolatnomasini;

tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda davlat foydasiga voz kechiladigan tovarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

131-modda. Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi

Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi tovar qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida turgan bo'lsa, o'sha bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovar vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga topshirilayotganda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomaning bir nusxasi bojxona organida saqlanadi. Dalolatnomaning ikkinchi nusxasi vakolatli shaxsga beriladi.

(131-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli organga qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda topshiriladi.

(131-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

21-bob. Tovarni bojxona rejimlariga joylashtirilayotgandagi ruxsat berish tartib-taomillari

132-modda. Ruxsatnoma olishni nazarda tutuvchi bojxona rejimlari

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish bojxona organi tomonidan berilgan tegishli ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

(132-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

(133-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

134-modda. Tovarni bojxona hududidan tashqarida (hududida) qayta ishlashga ruxsatnoma olish uchun zarur hujjatlar

Tovarni bojxona hududidan tashqarida (hududida) qayta ishlashga ruxsatnoma olish uchun vakolatli shaxs tovar qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida turgan bo'lsa, o'sha bojxona organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun:

ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza;

qayta ishlashning texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lgan texnik-iqtisodiy asoslar (hisob-kitoblar), shuningdek vakolatli organlarning va (yoki) vakolatli tashkilotlarning (shu jumladan bojxona laboratoriyalarining) qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normalarini belgilash uchun muayyan qayta ishlash texnologik jarayoniga asoslangan xulosalari, bundan qayta ishlash operatsiyasi ta'mirlashdan iborat bo'lgan hollar mustasno;

qayta ishlashni amalga oshirish uchun asos bo'lgan kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) yoki tovarni qayta ishlash uchun olib chiqishga va qayta ishlash mahsulotlarini olib kirishga doir kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) ko'chirma nusxasi;

2) bojxona hududida qayta ishlash uchun:

ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza;

qayta ishlashning texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan texnik-iqtisodiy asoslar (hisob-kitoblar) ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar uchun;

(134-modda birinchi qismi 2-bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

tovarni qayta ishlash mahsulotlarida bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni identifikatsiyalashning vakolatli shaxs tomonidan belgilangan usuli;

vakolatli shaxs tomonidan aniqlangan qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini baholash usuli, bundan qayta ishlash operatsiyasi ta'mirlashdan iborat bo'lgan hollar mustasno;

qayta ishlashni amalga oshirish uchun asos bo'lgan kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) yoki tovarni qayta ishlash uchun olib kirishga va qayta ishlash mahsulotlarini olib chiqishga doir kontraktlarning (shartnomalarning, kelishuvlarning) ko'chirma nusxasi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida (hududida) qayta ishlashga ruxsatnoma olish uchun vakolatli shaxsdan ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

(134-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

135-modda. Ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza

Ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizaning shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizada vakolatli shaxsning elektron manzili ko'rsatilishi mumkin. Ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizada vakolatli shaxsning elektron manzili ko'rsatilganligi uning o'z arizasi bo'yicha qabul qilingan qaror to'g'risidagi xabarni axborot tizimi orqali elektron shaklda olishga bo'lgan roziligidir.

Ushbu Kodeksning 134-moddasida ko'rsatilgan hujjatlar vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portali orqali «bir darcha» prinsipi bo'yicha taqdim etiladi.

(135-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar bojxona organi uning aksini tasdiqlamagunicha barcha hollarda to'g'ri deb hisoblanadi.

Ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik vakolatli shaxsning zimmasida bo'ladi.

136-modda. Ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish

Bojxona organi tegishli ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani olganidan so'ng ushbu Kodeksda nazarda tutilgan talablar va shartlarga rioya etilganligini tekshiradi.

(136-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash va bojxona hududida qayta ishlashga ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqishda bojxona organi:

vakolatli organlarning ruxsatnomalari mavjudligini tekshiradi, agar tovarlar yoki qayta ishlash mahsulotlari shu organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lsa;

qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini belgilaydi;

qayta ishlash mahsulotlarining majburiy chiqish normalarini aniqlashda qiyinchilik bo'lgan taqdirda o'rganib chiqish, tadqiq etish, tekshirish yoki boshqa ilmiy va texnik jihatdan baho berish uchun uchinchi shaxslarni jalb qiladi.

137-modda. Ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga yoki bojxona hududida qayta ishlashga ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

(137-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Tegishli ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

Bojxona organi tegishli qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay vakolatli shaxsga tegishli ruxsatnomani berishi (jo'natishi) yoki ruxsatnoma berish rad etilganligi haqida uni yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilishi shart. Ruxsatnoma vakolatli shaxsga O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda beriladi.

Agar bojxona organi tegishli ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish, ruxsatnoma berish yoki uni berishni rad etish muddati ichida vakolatli shaxsga ruxsatnoma bermagan bo'lsa yoki berishni rad etmagan bo'lsa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan muddat tugaganidan keyin vakolatli shaxs bojxona organini yozma ravishda xabardor qilgan holda tovarlarni bojxona organining ruxsatnomasi olinishini nazarda tutuvchi bojxona rejimiga joylashtirish huquqiga ega.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollarda, bojxona organi vakolatli shaxsning yozma xabarini olganidan keyin besh ish kuni ichida unga ruxsatnoma berishi shart. Qabul qilib olingan sanasi ko'rsatilgan ariza va vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga yuborilgan yozma xabar ruxsatnoma olinguniga qadar ruxsatnomaga tenglashtiriladi hamda tovarlarni bojxona organining ruxsatnomasi olinishini nazarda tutuvchi bojxona rejimiga joylashtirish uchun asos bo'ladi.

138-modda. Ruxsatnoma berishni rad etish

Ruxsatnoma berishni rad etishga quyidagilar asos bo'ladi:

ruxsatnoma berish uchun zarur hujjatlar vakolatli shaxs tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganligi;

tovarlarning ushbu Kodeksga muvofiq ruxsatnoma olinishini nazarda tutuvchi bojxona rejimiga joylashtirish uchun belgilangan talablar va shartlarga mos emasligi;

vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjudligi.

Ruxsatnoma berishni boshqa asoslar, shu jumladan maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Ruxsatnoma berish rad etilganligi haqidagi xabar rad etish sabablari, qonunchilikning aniq normalari va vakolatli shaxs mazkur sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda vakolatli shaxsga topshiriladi (yuboriladi). Vakolatli shaxs rad etish sabablarini bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishga haqli bo'lgan muddat ruxsatnoma berish rad etilganligi haqida xabar olingan kundan e'tiboran o'n ish kunidan kam bo'lishi mumkin emas.

(138-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Vakolatli shaxs ruxsatnoma berishni rad etishga asos bo'lgan sabablarni belgilangan muddatda bartaraf etgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish, ruxsatnoma berish yoki uni berishni rad etish, vakolatli shaxsning rad etish sabablari bartaraf etilganligi to'g'risidagi arizasi va ularning bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar olingan kundan e'tiboran besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Vakolatli shaxsning hujjatlari takroran ko'rib chiqilganligi uchun bojxona yig'imi undirilmaydi.

Hujjatlarni takroran ko'rib chiqishda bojxona organi tomonidan ilgari xabarda bayon qilinmagan rad etish sabablari keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ilgari ko'rsatilgan sabablar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq rad etish sabablari keltirilishi mustasno.

Ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risidagi xabarda ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin vakolatli shaxs tomonidan topshirilgan ariza yangi topshirilgan ariza hisoblanadi va bojxona organi tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Vakolatli shaxs ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risidagi qaror, shuningdek bojxona organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

139-modda. Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish

Ruxsatnomaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turiladi:

tovarlarni tegishli bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari vakolatli shaxs tomonidan buzilganligi aniqlanganda;

bojxona organining aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini vakolatli shaxs zimmasiga yuklaydigan qarori vakolatli shaxs tomonidan bajarilmaganda.

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish sud tartibida amalga oshiriladi, bundan favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar va aholining hayoti hamda sog'lig'iga haqiqiy tahdid vujudga kelishining oldini olish munosabati bilan o'n ish kunidan oshmaydigan muddatga ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish hollari mustasno.

Bojxona organining ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish sabablari va qonunchilikdagi aniq normalar ko'rsatilgan holda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay vakolatli shaxsga yetkaziladi.

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi sud qarori qonunchilikda belgilangan muddatlarda vakolatli shaxsga yetkaziladi.

(139-moddaning uchinchi va to'rtinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona organi yoki sud ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarning vakolatli shaxs tomonidan bartaraf etilish muddatini belgilashi shart. Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni vakolatli shaxs tomonidan bartaraf etish muddati ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror vakolatli shaxs tomonidan olingan kundan e'tiboran besh ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar vakolatli shaxs tomonidan bartaraf etilgan taqdirda ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilgan bojxona organi yoki sud ruxsatnomaning amal qilishini qayta tiklash haqida ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risida tasdiqnoma olingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida qaror qabul qilishi shart.

Bojxona organi qabul qilingan qaror haqida vakolatli shaxsni tegishli qaror qabul qilinganidan so'ng bir ish kuni ichida xabardor qiladi.

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

140-modda. Ruxsatnomaning amal qilishini tugatish

Ruxsatnomaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

vakolatli shaxs ruxsatnomaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda;

yuridik shaxs tugatilganda — tugatilgan yoki faoliyati to'xtatilgan paytdan e'tiboran, yuridik shaxs qayta tashkil etilganda esa — qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, bundan yuridik shaxsning o'zgartirilishi mustasno;

tadbirkorlik sub'yekti bo'lgan jismoniy shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilganda;

jismoniy shaxs vafot etganda, uning muomala layoqati belgilangan tartibda cheklanganda yoki u muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar bojxona organi yoki sud belgilagan muddatda vakolatli shaxs tomonidan bartaraf etilmaganda;

bojxona organining ruxsatnoma berish to'g'risidagi qarori g'ayriqonuniy ekanligi aniqlanganda;

ruxsatnomaning amal qilish muddati tugaganda;

amalga oshirilishi uchun bojxona organining ruxsatnomasi berilgan bir martalik harakat bajarilganda.

Ushbu modda birinchi qismining uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi xatboshilarida ko'rsatilgan hollar yuzaga kelishi bilan ruxsatnomaning amal qilishi tugatilgan deb hisoblanadi.

Ruxsatnomaning amal qilishi ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan hollarda bojxona organi tomonidan, ushbu modda birinchi qismining oltinchi va yettinchi xatboshilarida nazarda tutilgan hollarda esa sud tomonidan tugatiladi.

Ruxsatnomaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi sud qarori vakolatli shaxsga va bojxona organiga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Ruxsatnomaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi bojxona organi qarori uning amal qilishi tugatilishining sabablari va qonunchilikning aniq normalari ko'rsatilgan holda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay vakolatli shaxsga yetkaziladi. Ruxsatnomaning amal qilishi tugatilgan taqdirda, u bojxona organiga qaytarilmaydi.

(140-moddaning to'rtinchi va beshinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Ruxsatnomaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qaror ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

141-modda. Ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish va uning dublikatini berish

Yuridik shaxs bo'lgan vakolatli shaxs o'zgartirilgan, uning nomi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, yuridik shaxs bo'lgan arizachi yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yetti ish kuni ichida bojxona organiga ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Tadbirkorlik sub'yekti bo'lgan jismoniy shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida o'ziga berilgan guvohnomada ko'rsatilgan familiyasi, ismi, otasining ismi yoki faoliyat ko'rsatadigan joyi o'zgargan taqdirda, tadbirkorlik sub'yekti bo'lgan jismoniy shaxs yoki uning huquqiy vorisi (merosxo'ri) qayta ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yetti ish kuni ichida bojxona organiga ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Jismoniy shaxsning (bundan tadbirkorlik sub'yekti bo'lgan jismoniy shaxs mustasno) familiyasi, ismi, otasining ismi o'zgargan taqdirda tovarlarni tegishli bojxona rejimiga joylashtirish uchun ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish talab etilmaydi.

Ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi hujjatlar vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga bevosita yoki pochta aloqasi vositalari orqali yoxud elektron shaklda, ular olinganligi haqida xabardor qilingan holda taqdim etiladi.

Ruxsatnoma qayta rasmiylashtirilguniga qadar ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish haqida ariza bergan vakolatli shaxs yoki uning huquqiy vorisi bojxona organi tomonidan qabul qilib olingan sanasi qayd etilgan ariza asosida unda ko'rsatilgan harakatni bajaradi.

Vakolatli shaxsdan ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish va qayta rasmiylashtirilgan ruxsatnomani berish tegishli hujjatlar ilova qilingan qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza bojxona organi tomonidan olingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Berilgan ruxsatnoma yo'qotilgan yoki yaroqsiz holga kelgan taqdirda, vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra bojxona organi ariza olingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida uning dublikatini beradi.

Ruxsatnomani qayta rasmiylashtirganlik va uning dublikatini berganlik uchun bojxona yig'imi undirilmaydi.

142-modda. Ruxsatnomani bekor qilish

Ruxsatnoma quyidagilar asosida bekor qilinadi:

vakolatli shaxsning ruxsatnomani bekor qilish to'g'risidagi arizasiga ko'ra;

ruxsatnoma qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Ruxsatnoma ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan hollarda bojxona organi tomonidan, ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan hollarda esa sud tomonidan bekor qilinadi.

Ruxsatnoma bekor qilingan taqdirda, u bojxona organlariga qaytarilmaydi.

Ruxsatnomani bekor qilish to'g'risidagi sud qarori ruxsatnoma berilgan sanadan e'tiboran amal qiladi.

Ruxsatnomani bekor qilish to'g'risidagi sud qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

III bo'lim. Transport vositalariga va tovarlarning ayrim toifalariga nisbatan bojxona rejimlarining qo'llanilishi

22-bob. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalarini olib o'tish

143-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalari

Bojxona nazoratida turgan tovarlarni va (yoki) yo'lovchilarni haq evaziga yoki bepul tashish uchun foydalaniladigan transport vositasi tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasidir.

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan, transport vositasi bilan birga tashiladigan standart ehtiyot qismlar, ashyolar va uskunalar, standart baklardagi moylash materiallari va yoqilg'i, shuningdek ashyo-anjomlar bojxona maqsadlari uchun mazkur transport vositasining ajralmas qismi deb qaraladi. Ashyo-anjomlarga quyidagilar kiradi:

harakatlanish yo'lida yoki oraliq to'xtab o'tish yoxud to'xtab turish joylarida daryo va havo kemalari, poyezdlar, shuningdek avtotransport vositalari normal ishlatilishini hamda ularga texnik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovarlar;

daryo va havo kemalarining bortida, avtotransport vositalarida yo'lovchilar va ekipajlar a'zolari iste'mol qilishi uchun yoki poyezdlarda yo'lovchilar va poyezd brigadalarining xodimlari iste'mol qilishi uchun mo'ljallangan tovarlar, bu ashyo-anjomlar sotilishidan yoki sotilmasligidan qat'i nazar;

daryo va havo kemalarining, poyezdlarning, shuningdek avtotransport vositalarining yo'lovchilariga hamda ekipaj a'zolariga mazkur ashyo-anjomlarini transport vositalarida iste'mol qilish maqsadisiz sotish uchun mo'ljallangan tovarlar.

144-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalariga nisbatan qo'llaniladigan bojxona rejimlari

Biror-bir bojxona rejimiga tovar sifatida joylashtirilishi ma'lum qilinmagan, tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasiga bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilgan paytdan e'tiboran, tegishincha vaqtincha olib kirish yoki vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga ushbu bojxona rejimlari shartlariga shaxslarning rioya etishi majburiyatlari bilan joylashtirilgan tovar sifatida qaraladi.

(144-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

145-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini bojxona hududiga vaqtincha olib kirish

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini bojxona to'lovlari to'lashdan shartli ozod etilgan holda bojxona hududiga vaqtincha olib kirishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi, agar u:

chet davlat hududida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa;

tovarlarni va yo'lovchilarni tijorat maqsadida tashish uchun foydalanilayotgan bo'lsa;

bojxona hududiga chet ellik shaxs yoxud chet ellik shaxs vakolat bergan O'zbekiston Respublikasi yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan olib kirilayotgan bo'lsa;

ijara shartnomasining predmeti yoki mazkur transport vositasiga bo'lgan huquqni O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsiga transport operatsiyasini transport vositasini bojxona hududidan qaytarib olib chiqish yo'li bilan tugallashdan o'zga maqsadda o'tkazishni nazarda tutuvchi boshqa shartnoma predmeti bo'lmasa.

Vaqtincha olib kirilgan transport vositasiga nisbatan mulk huquqi O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsiga o'tgan bo'lsa, tegishli bojxona rejimiga joylashtirilishi lozim.

Transport vositasi ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo'lmagan hollarda, shuningdek bojxona to'lovlarini to'lashdan shartli ozod etishni qo'llash shartlariga rioya etilmagan taqdirda, transport vositasiga ushbu Kodeksda belgilangan tartibda davriy bojxona to'lovlari qo'llaniladigan vaqtincha olib kiriladigan tovar sifatida qaraladi.

146-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini vaqtincha olib kirish muddati

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini vaqtincha olib kirish muddati tashuvchining yoki vakolatli shaxsning arizasidan kelib chiqqan holda va mo'ljallanayotgan transport operatsiyasining barcha holatlari hisobga olingan holda bojxona organi tomonidan belgilanadi. Bunda tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini bojxona to'lovlaridan ozod etilgan holda vaqtincha olib kirishning umumiy muddati u olib kirilgan sanadan e'tiboran to'qson kalendar kundan oshmasligi kerak. Vaqtincha olib kirilgan transport vositasini qaytarib olib chiqish ushbu transport operatsiyasi tugallanganidan so'ng darhol amalga oshirilishi lozim.

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini vaqtincha olib kirish ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlarda qaytarib olib chiqish bilan tugallanadi. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini vaqtincha olib kirish, ushbu Kodeksda tovarlarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimini tugallash uchun nazarda tutilgan tartibda tugallanishi mumkin.

147-modda. Vaqtincha olib kirilgan tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar

Vaqtincha olib kirilgan tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalari bilan bojxona hududida ulardan foydalanilayotganda zarur bo'lgan ta'mirlash yoki texnik xizmat ko'rsatish operatsiyalarini bajarishga yo'l qo'yiladi.

148-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini vaqtincha olib chiqish

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini mazkur transport vositasi bojxona hududidan tashqarida qanday shaxs tomonidan va qanday maqsadlarda foydalanilishidan qat'i nazar, agar u bojxona hududida erkin muomalada turgan bo'lsa, vaqtincha olib chiqishga yo'l qo'yiladi. Bunda bojxona to'lovlari undirilmaydi.

Ilgari vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilgan transport vositasini vaqtincha olib chiqishga yo'l qo'yiladi. Bunda shu transport vositasiga nisbatan vaqtincha olib kirish bojxona rejimining amal qilishi va shartlari bojxona to'lovlarini to'lash maqsadlari uchun uni boshqa bojxona rejimiga joylashtirish to'g'risida ma'lum qilinguniga qadar tugatilmaydi.

149-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini vaqtincha olib chiqish muddati

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini vaqtincha olib chiqish muddati ikki yildan oshmasligi kerak.

150-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan vaqtincha olib chiqilgan transport vositasini bojxona hududiga qaytarib olib kirish

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan vaqtincha olib chiqilgan transport vositasi bojxona hududiga qaytarib olib kirilayotganda, agar bojxona hududidan tashqarida tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasi qayta ishlash operatsiyalaridan o'tkazilmagan bo'lsa, bojxona to'lovlari to'lanmaydi, bundan uning but saqlanishini hamda undan foydalanilishini ta'minlash, shu jumladan unga texnik xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash operatsiyalari mustasno.

151-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini vaqtincha olib chiqishni tugallash

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasini vaqtincha olib chiqish uni bojxona hududiga qaytarib olib kirish bilan yoki ushbu Kodeksda tovarlarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimini tugallash uchun nazarda tutilgan tartibda tugallanadi.

152-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalarining uskunalarini va ehtiyot qismlarini vaqtincha olib kirish

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalari bilan birga olib kiriladigan va ular bilan qaytarib olib chiqish uchun mo'ljallangan, yuklarni ortish, tushirish, ularga ishlov berish va ularni himoyalash uskunalari, ulardan transport vositalaridan alohida foydalanish mumkinligi yoki mumkin emasligidan qat'i nazar, vaqtincha olib kirilgan taqdirda bojxona to'lovlari to'lashdan shartli ravishda ozod etilishi lozim.

Bojxona hududiga vaqtincha olib kirilgan, transport vositasiga o'rnatilgan yoki unda foydalanilayotgan qismlarni va uskunalarni almashtirish maqsadida ta'mirlashda yoki texnik xizmat ko'rsatishda foydalanish uchun mo'ljallangan uskunalar va ehtiyot qismlar bojxona to'lovlarini to'lashdan shartli ravishda ozod etilgan holda vaqtincha olib kirilishi mumkin.

Almashtirilgan va bojxona hududidan olib chiqilmagan uskunalar va ehtiyot qismlar erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga yoki ushbu Kodeks qoidalariga rioya etgan holda boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi lozim.

153-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalarining uskunalarini va ehtiyot qismlarini vaqtincha olib chiqish

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalari bilan birga olib chiqiladigan va ular bilan qaytarib olib kirish uchun mo'ljallangan, yuklarni ortish, tushirish, ularga ishlov berish va ularni himoyalash uskunalari, transport vositalaridan alohida foydalanish mumkinligi yoki mumkin emasligidan qat'i nazar, vaqtincha olib chiqilgan taqdirda ular bojxona to'lovlari to'lashdan ozod etilishi lozim.

Tijorat maqsadlarida foydalanishga vaqtincha olib chiqilgan transport vositasiga o'rnatilgan qismlarni va uskunalarni almashtirish maqsadida ta'mirlash yoki texnik xizmat

ko'rsatilayotganda foydalanish uchun mo'ljallangan uskunalar va ehtiyot qismlar vaqtincha olib chiqilgan taqdirda bojxona to'lovlari to'lashdan ozod etilishi lozim.

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalarining almashtirilgan uskunalari va ehtiyot qismlari bojxona to'lovlari to'lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda bojxona hududiga qaytarib olib kiriladi.

154-modda. Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi

Tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi transport vositasi uchun deklaratsiyani bojxona organi tomonidan qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

23-bob. Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni va transport vositalarini notijorat maqsadlarda olib o'tish

155-modda. Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib o'tiladigan tovarlar

Jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan va tadbirkorlik faoliyati uchun mo'ljallanmagan tovarlar jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib o'tiladigan tovarlar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib o'tiladigan tovarlar bojxona chegarasi orqali soddalashtirilgan tartibda va ushbu bobda nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilgan holda olib o'tiladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarning qanday maqsadga mo'ljallanganligini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi:

tovarlarning miqdori, bunda tovarlarni olib o'tayotgan jismoniy shaxs va uning oila a'zolari ehtiyojlaridan ortiq miqdordagi bir turdagi tovarlarga, agar tovarlarni olib o'tayotgan shaxs aksini isbotlab bermasa, tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun olib kirilayotgan tovarlar deb qaraladi;

tovarlarni olib o'tishning takroriyligi, bunda ayni bir shaxs tomonidan bir turdagi tovarlarning bir necha bor olib kirilishiga, agar tovarlarni olib o'tayotgan shaxs aksini isbotlab bermasa, tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun tovarlarni olib kirish deb qaraladi;

safarning holatlari, bunda safarning maqsadi va uning davomiyligi hisobga olinadi.

156-modda. Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni notijorat maqsadlarda olib o'tishning soddalashtirilgan tartibi

Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni notijorat maqsadlarda bojxona chegarasi orqali olib o'tish quyidagilarni nazarda tutuvchi soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi:

tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari, shu jumladan tovarlarning xavfsizligiga oid standartlarga va talablarga muvofiqligini majburiy tasdiqlash qo'llanilmasligi, bundan erkin muomalaga chiqarish (import) yoki eksport bojxona rejimlariga tovar sifatida joylashtiriladigan transport vositasi mustasno;

tovarning bojxona yuk deklaratsiyasi to'ldirilmaydigan bojxona rasmiylashtiruvi tartibi, bundan erkin muomalaga chiqarish (import) yoki eksport bojxona rejimlariga tovar sifatida joylashtiriladigan transport vositasi mustasno.

157-modda. Jismoniy shaxslar tomonidan olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlarining qo'llanilmasligi

Bojxona to'lovlari quyidagilarga nisbatan qo'llanilmaydi:

jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuborilayotgan tovarlarga nisbatan, tovarlarni qonunchilikda belgilangan bojsiz olib kirish normasi doirasida;

jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib o'tilayotgan tovarlarga nisbatan, tovarlarni qonunchilikda belgilangan bojsiz olib kirish normasi doirasida, bundan jismoniy shaxs manziliga kelayotgan tovarlar mustasno;

(157-moddaning ikkinchi va uchinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

doimiy yashash joyi o'zgarganligi munosabati bilan jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan shaxsiy mol-mulkka nisbatan, bundan transport vositalari mustasno.

158-modda. Chet ellik jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini notijorat maqsadlarda vaqtincha olib kirish

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini chet ellik jismoniy shaxslar tomonidan bojxona hududiga bojxona to'lovlari to'lashdan ozod etilgan holda vaqtincha olib kirishga, basharti tovarlar va (yoki) transport vositalari ushbu shaxslarni bojxona hududida bo'lishi davriga notijorat maqsadlarda olib kirilayotgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi. Bunda transport vositasi chet davlat hududida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan muddat tugaganidan so'ng tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududidan o'zgarmas holatda qaytarib olib chiqilishi yoki tegishli bojxona rejimiga joylashtirilishi lozim.

Vaqtincha olib kirilgan tovarlar va (yoki) transport vositalari istalgan bojxona organi orqali bojxona hududidan qaytarib olib chiqilishi mumkin. Vaqtincha olib kirilgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini qaytarib olib chiqishda bojxona to'lovlari to'lanmaydi va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydi.

Agar vaqtincha olib kirilgan tovarlar va (yoki) transport vositalari avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida jiddiy shikastlangan va bu vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, vaqtincha olib kirilgan mazkur tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududidan qaytarib olib chiqish amalga oshirilmasligi mumkin.

159-modda. Chet ellik jismoniy shaxslar tomonidan transport vositasini notijorat maqsadlarda vaqtincha olib kirish shartlari

Chet ellik jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda vaqtincha olib kirilgan transport vositasining bojxona hududida turishining umumiy muddati kalendar yil mobaynida jami to'qson kalendar kundan oshmasligi lozim. Bunda transport vositasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan yig'imni to'lagan

holda yuqorida ko'rsatilgan muddatdan ortiqroq muddatga vaqtincha olib kirishga yo'l qo'yiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan muddatni hisoblash transport vositasini vaqtincha olib kirish rasmiylashtirilgan kundan e'tiboran boshlanadi.

(159-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Yig'im undirilguniga qadar transport vositasi bojxona organlari tomonidan belgilanadigan joylarda vaqtincha saqlanishi lozim.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan yig'im quyidagi hollarda to'lanmaydi:

bojxona organlari tomonidan belgilanadigan joylarda vaqtincha saqlash davri uchun;

agar vaqtincha olib kirilgan transport vositasi xatlangan, musodara qilingan, avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida foydalanish uchun yaroqsiz holga kelib qolgan va bu vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan bo'lsa.

160-modda. O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslari tomonidan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini notijorat maqsadlarda vaqtincha olib chiqish

O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslari bojxona hududidan tashqarida o'zlariga notijorat maqsadlarda zarur tovarlarni va (yoki) transport vositalarini xorijiy davlatda vaqtincha bo'lish muddatiga vaqtincha olib chiqishga haqli.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tovarlar va (yoki) transport vositalari ularni vaqtincha olib chiqish va bojxona hududiga qaytarib olib kirishda bojxona to'lovlari to'lashdan ozod etiladi.

Agar vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini identifikatsiyalash ularni bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etilgan holda bojxona hududiga qaytarib olib kirishga yordam beradigan bo'lsa, bojxona organlari vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi jismoniy shaxsining so'roviga ko'ra identifikatsiyalashi mumkin.

161-modda. Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlar uchun olib o'tilayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi

Temir yo'l transportida bojxona chegarasini kesib o'tayotgan jismoniy shaxslarga, basharti bojxona nazorati qoidalariga rioya etilsa, transport vositasini tark etmagan holda bojxona operatsiyalaridan o'tish imkoniyati beriladi.

Jismoniy shaxs tomonidan olib o'tilayotgan tovarlar va (yoki) transport vositalari ularning bojxona rasmiylashtiruvini darhol amalga oshirish yoki bojxona to'lovlarini darhol to'lash imkoni bo'lmagan taqdirda vaqtincha saqlash uchun joylashtirilishi yoki bojxona hududidan olib chiqilishi lozim.

Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona hududiga soddalashtirilgan tartibda notijorat maqsadlar uchun olib kirilayotgan va uning tashqarisiga olib chiqilayotgan tovarlarga bojxona maqsadlari uchun tegishincha erkin muomalaga chiqarilgan yoxud eksport bojxona rejimida olib chiqilgan tovarlar sifatida qaraladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlar uchun olib kirilayotgan, bojsiz olib kirish normalaridan ortiq bo'lgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi tartibi O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(161-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

162-modda. Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib o'tiladigan tovarlarni deklaratsiyalash

Jismoniy shaxslar qo'l yukida va kuzatib borilayotgan bagajida notijorat maqsadlarda olib o'tayotgan tovarlarni deklaratsiyalash jismoniy shaxslar tomonidan ular bojxona chegarasi orqali o'tayotganda tovarni taqdim etish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

O'n olti yoshga to'lmagan shaxsning qo'l yukida va kuzatib borilayotgan bagajida olib o'tilayotgan tovarlar ularni kuzatib borayotgan shaxs tomonidan deklaratsiyalanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan olib o'tilayotgan tovarlarni deklaratsiyalash maqsadida bojxona hududiga kirib kelish yoki ushbu hududdan chiqib ketish joylarida ikki yo'lakli tizim qo'llanilishi mumkin.

Ikki yo'lakli tizimning qo'llanilishi bojxona operatsiyalarini bajarish uchun notijorat maqsadlardagi tovarlarni deklaratsiyalash shakli sifatida «yashil» yoki «qizil» yo'lakning bojxona chegarasi orqali o'tayotgan jismoniy shaxs tomonidan mustaqil ravishda tanlanishini nazarda tutadi.

«Yashil» yo'lak kirib kelish va chiqib ketish joylarida maxsus belgilangan, jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi qo'l yuki va kuzatib borilayotgan bagajidagi tovarlarini bojxona chegarasidan olib o'tishi uchun mo'ljallangan joy hisoblanadi. Mazkur tovarlar og'zaki tarzda deklaratsiyalanadi, bundan olib kirilishi yoki olib chiqilishi qonunchilikka muvofiq taqiqlangan yoxud cheklangan tovarlar, shuningdek qiymati va (yoki) miqdori qonunchilikda belgilangan bojsiz olib kirish normasidan oshib ketgan tovarlar mustasno.

(162-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Jismoniy shaxsning «yashil» yo'lak orqali o'tishi bojxona maqsadlari uchun ushbu shaxsda yozma ravishda deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan tovarlar yo'qligini bojxona organiga ma'lum qilish deb qaraladi.

«Qizil» yo'lak kirib kelish va chiqib ketish joylarida maxsus belgilangan, jismoniy shaxslarning yozma shaklda deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan qo'l yuki va kuzatib borilayotgan bagajidagi tovarlarini, shuningdek deklaratsiyalanishi jismoniy shaxsning ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladigan tovarlarni bojxona chegarasidan olib o'tishi uchun mo'ljallangan joy hisoblanadi.

«Yashil» yo'lakda bojxona nazorati ayrim shakllarining qo'llanilmasligi jismoniy shaxslar bojxona to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etish majburiyatidan ozod etilganligini anglatmaydi.

(162-moddaning sakkizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona chegarasidan o'tkazish punktlarida ikki yo'lakli tizim qo'llanilishining talablari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Jismoniy shaxsning alohida bagajda notijorat maqsadlarda olib o'tilayotgan tovarlari ularni olib o'tayotgan shaxs yoki ishonchnoma asosida ish olib boruvchi boshqa shaxs tomonidan

deklaratsiyalanishi mumkin. Bojxona organiga ma'lum qilinadigan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik tovarlarni deklaratsiyalayotgan shaxsning zimmasida bo'ladi.

O'n olti yoshga to'lmagan shaxsning alohida ketayotgan bagajidagi tovarlar uning ota-onasi, vasiylari yoki homiylari tomonidan yoxud ota-onasi, vasiylari yoki homiylarining ishonchnomasiga binoan ish olib boruvchi shaxslar tomonidan deklaratsiyalanishi kerak.

Jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarish yoki tijorat maqsadlari uchun mo'ljallangan tovarlarni, shuningdek ularning manziliga kelayotgan notijorat maqsadlardagi tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishda (bundan pochta va kuryerlik jo'natmalari mustasno) ushbu Kodeksda belgilangan bojxona rasmiylashtiruvining umumiy qoidalari qo'llaniladi.

163-modda. Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlarini to'lash

Jismoniy shaxslar tomonidan qo'l yukida yoki kuzatib borilayotgan bagajda notijorat maqsadlar uchun olib o'tilayotgan, shuningdek xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuborilayotgan tovarlarning qiymati va (yoki) miqdori tovarlarni bojsiz olib kirishning qonunchilikda belgilangan normasidan ortiq bo'lsa, tovarlarning bunday ortiq qismiga yagona bojxona to'lovi to'lanadi.

Tovarlar jismoniy shaxsning manziliga kelib tushganda bojxona to'lovlari olib kirilayotgan tovarlarning butun summasidan, tovarlarni bojsiz olib kirish normasi qo'llanilmagan holda undiriladi, bundan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari mustasno.

Yagona bojxona to'lovi notijorat maqsadlardagi tovarlarni deklaratsiyalashda, shakli va to'ldirilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan bojxona kirim orderi asosida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Bojxona kirim orderining bir nusxasi bojxona to'lovlarini to'lagan jismoniy shaxsga topshiriladi (yuboriladi).

Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali notijorat maqsadlar uchun olib o'tilayotgan tovarlarga nisbatan bojxona kirim orderini to'ldirish va yagona bojxona to'lovini hisoblash bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi.

(163-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

164-modda. Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib o'tiladigan tovarlarning bojxona qiymati

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib o'tiladigan tovarlarning qiymati ularni deklaratsiyalashda ma'lum qilinadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarning bojxona qiymati cheklar, kvitansiyalar va (yoki) boshqa tijorat hujjatlari bilan tasdiqlangan, ma'lum qilingan qiymatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Shaxs tomonidan ma'lum qilingan tovarlarning bojxona qiymati to'g'ri belgilanganligini tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda bojxona organi tovarlarning bojxona qiymatini ushbu Kodeksning 44-bobiga muvofiq mustaqil ravishda belgilashi mumkin.

Tovarlar bojxona hududiga alohida kelayotgan bagajda olib kirilgan, shuningdek xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuborilgan taqdirda ularning bojxona qiymatiga

tovarlarni aeroportgacha, daryo portigacha yoki tovarlar bojxona hududiga olib kiriladigan boshqa joygacha yetkazib berish xarajatlari qo'shiladi.

24-bob. Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlar

165-modda. Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan pochta yoki kuryerlik jo'natmalari xalqaro pochta yoki kuryerlik jo'natmalaridir.

Xalqaro pochta jo'natmalari Umumjahon pochta ittifoqining hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlar bilan birga yuborilishi kerak.

Xalqaro kuryerlik jo'natmalari tijorat hujjatlari bilan birga yuborilishi kerak.

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida tegishincha bojxona hududiga olib kirilishi yoki ushbu hududdan olib chiqilishi qonunchilikda taqiqlangan tovarlarni yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

(165-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

166-modda. Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan hamda bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar bojxona nazoratidan o'tishi kerak.

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari bojxona nazoratini amalga oshirmasdan qabul qiluvchilarga berilishi yoki bojxona hududidan tashqariga jo'natilishi mumkin emas.

Xalqaro pochta jo'natmalarida yuboriladigan tovarlarning bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi pochta aloqasi sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadigan xalqaro pochta almashinuvi joylarida amalga oshiriladi.

Xalqaro kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlarning bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi pochta aloqasi sohasidagi maxsus vakolatli organni xabardor qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan joylarda amalga oshiriladi.

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi qabul qiluvchilar yoki jo'natuvchilar qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida turgan bo'lsa, o'sha bojxona organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunday hollarda xalqaro pochta jo'natmalari xalqaro pochta almashinuvi joylaridan pochta aloqasining tegishli hududiy tashkilotigacha bojxona nazorati ostida yetkaziladi. Pochta aloqasining tegishli hududiy tashkilotlarida bojxona nazorati ostidagi tovarlarni saqlash uchun joylar tashkil qilinadi, bu joylar bojxona nazorati zonalari hisoblanadi.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan joylardan yuboriladigan xalqaro kuryerlik jo'natmalari qabul qiluvchilar qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida turgan bo'lsa, o'sha bojxona organigacha bojxona nazorati ostida yetkazib beriladi.

167-modda. Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlarni deklaratsiyalash

Quyidagilarga:

a) jismoniy shaxslarning manziliga notijorat maqsadlarda, shuningdek yuridik shaxslar manziliga xalqaro pochta jo'natmalarida yuboriladigan, qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lgan miqdordagi tovarlar uchun — Umumjahon pochta ittifoqining hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlarga;

(167-modda birinchi qismining «a» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

b) jismoniy shaxslarning manziliga notijorat maqsadlarda, shuningdek yuridik shaxslarning manziliga xalqaro kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan, qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lgan miqdordagi tovarlar uchun — tijorat hujjatlariga bojxona deklaratsiyasi sifatida qaraladi.

(167-modda birinchi qismining «b» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Qolgan hollarda xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlarni deklaratsiyalash bojxona yuk deklaratsiyasini berish orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida olib chiqiladigan, bojxona yuk deklaratsiyasi berilishi lozim bo'lgan tovarlarni deklaratsiyalash mazkur tovarlar pochta aloqasi tashkilotlariga topshirilayotganda amalga oshiriladi.

168-modda. Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarining bojxona ko'zdan kechiruvi hamda bojxona ko'rigi

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari bojxona ko'zdan kechiruvini hamda bojxona ko'rigini o'tkazish uchun bojxona organlariga xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini taqdim etadi.

Bojxona organlariga bojxona ko'zdan kechiruvi va bojxona ko'rigi uchun xatlar, pochta kartochkalari va sekogrammalar taqdim etilmaydi, bundan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida tegishincha bojxona hududiga olib kirilishi yoki ushbu hududdan olib chiqilishi qonunchilikda taqiqlangan yoki cheklangan tovarlar mavjud deb hisoblash uchun bojxona organlarida yetarli asoslar mavjudligi hollari mustasno.

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmasi bojxona ko'rigidan o'tkazilayotganda uning miqdorida farqlar, joylanmalarida nomuvofiqliklar hamda bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilishining boshqa hollari aniqlangan taqdirda pochta aloqasi operatorining yoki provayderining xodimi bojxona organining mansabdor shaxsi bilan birgalikda bojxona ko'rigi dalolatnomasini imzolaydi.

(168-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlarning bojxona ko'zdan kechiruvi yoki bojxona ko'rigi o'tkazilayotganda bojxona organlari bojxona nazoratining texnik vositalaridan foydalanadi.

169-modda. Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlarga doir bojxona to'lovlari

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlarga doir bojxona to'lovlari vakolatli shaxs tomonidan to'lanadi.

Jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlar uchun xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan, qiymati va (yoki) miqdori tovarlarni bojsiz olib kirish normasidan ortiq bo'lgan tovarlarning ortiq qismi uchun yagona bojxona to'lovi to'lanadi.

(169-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Ushbu Kodeksning 167-moddasiga muvofiq bojxona yuk deklaratsiyasini berish talab qilinmaydigan tovarlar bo'yicha bojxona to'lovlari bojxona organlari tomonidan bojxona kirim orderidan foydalangan holda hisoblanadi.

Bojxona kirim orderini to'ldirish va bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona yuk deklaratsiyasini berish talab qilinmaydigan tovarlarga bojxona to'lovlari summalarini hisoblab chiqarish Umumjahon pochta ittifoqining hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlarda va bojxona maqsadlari uchun foydalaniladigan tijorat hujjatlarida ko'rsatilgan tovarlarning qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Tovarlarning qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda, tovarlarning bojxona qiymati bojxona organi tomonidan ushbu Kodeksga muvofiq aniqlanadi.

Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va ularni to'lash ushbu Kodeksning VIII bo'limida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bojxona organi tomonidan bojxona to'lovlari hisoblangan tovarlarni o'z ichiga olgan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari vakolatli shaxsga bojxona to'lovlari to'langanidan keyin beriladi.

25-bob. Bojxona chegarasidan quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlar

170-modda. Tovarlarni bojxona chegarasidan quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tish

Tovarlar bojxona chegarasidan quvur transportida olib o'tilayotganda tovarlarning qonunchilikda belgilangan standartlar va texnik shartlarga muvofiq aralashib ketishiga, shuningdek tashishning texnologik xususiyatlari hamda tovarlarning o'ziga xos xossalari oqibatida miqdori, sifati va holati o'zgarishiga yo'l qo'yiladi.

(170-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tovarlar quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tilishiga ushbu bobda belgilangan qoidalarga ko'ra keyinchalik deklaratsiyalash hamda bojxona to'lovlarini to'lash sharti bilan yo'l qo'yiladi.

Quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlar bojxona organi tomonidan identifikatsiyalanmaydi.

171-modda. Bojxona chegarasidan quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tilayotgan tovarlarni deklaratsiyalash tartibi

Bojxona chegarasidan quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tilayotgan tovarlarni deklaratsiyalash:

elektr energiyasi yetkazib berilgan oydan keyingi oyning o'ninchi sanasidan kechiktirmay;

quvur transportida olib o'tilayotgan tovarlarni yetkazib berilishidan avval, hisobot davridan oldingi oyning yigirmanchi sanasidan kechiktirmay bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bojxona deklaratsiyasi berilayotganda quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlarni amalda ko'rsatish talab qilinmaydi.

Quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlarning amaldagi miqdori to'liq bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etgan holda deklaratsiyalanishi lozim, mazkur miqdor texnologik jihatdan shartlashilgan joylarda o'rnatilgan, mazkur tovarlarning o'tishini qayd qiluvchi hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlari asosida hamda vakolatli organlarning ma'lumotlariga ko'ra aniqlanadi.

Quyidagilar bo'lmagan taqdirda muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etishga ruxsat etiladi:

O'zbekiston Respublikasi imzolagan xalqaro shartnomalar;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlarning amalda olib o'tilish hajmi va qiymatini aniqlash imkoniyati;

kontraktlar (shartnomalar, kelishuvlar) vakolatli organlarda ro'yxatdan o'tkazilmaganda.

Muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etishda bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish muddati tovarlarni yetkazib berishning hisob-kitob oyi tugagan sanadan e'tiboran to'qson kalendar kundan oshmasligi kerak.

Bojxona chegarasidan quvur transportida tranzit tarzida olib o'tiladigan tovarlarni deklaratsiyalash haqiqatda yetkazib berilgan har bir kalendar oydan keyingi oyning yigirma beshinchi sanasidan kechiktirmay bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

172-modda. Tovarlar bojxona chegarasidan quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tilayotganda bojxona to'lovlarini to'lash

Bir kalendar oy mobaynida quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlarning bojxona to'lovlari tovarlar yetkazib berilgan oyning oxirgi kunida amalda bo'lgan bojxona to'lovlari stavkalari bo'yicha, bojxona yuk deklaratsiyasi berilgan kundan kechiktirmay to'lanadi. Bunda quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali bojxona chegarasidan bir kalendar oy mobaynida olib o'tiladigan tovarlarning qiymati bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun tovarlar yetkazib berilgan oyning oxirgi kunidagi valyutaning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan rasmiy ayirboshlash kursi bo'yicha aniqlanadi.

Bojxona chegarasidan quvur transportida olib o'tiladigan tovarlarning bojxona to'lovlari bojxona yuk deklaratsiyasi qabul qilinguniga qadar yoki uni qabul qilish bilan bir vaqtda to'lanadi.

Quvur transportida olib o'tiladigan tovarlarga muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasi berilgan taqdirda, bojxona to'lovlari muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasi qabul qilinguniga qadar yoki uni qabul qilish bilan bir vaqtda to'lanadi.

Agar to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining summasi ma'lumotlarni aniqlashtirish natijasida oshsa, summaning oshgan qismi yuzasidan qo'shimcha to'lov bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish bilan bir vaqtda amalga oshirilishi kerak. Bunday hollarda penya hisoblanmaydi.

Bojxona to'lovlarining ortiqcha to'langan summalarini qaytarish ushbu Kodeksning 49-bobiga muvofiq amalga oshiriladi.

26-bob. Bojxona omborlari, boj olinmaydigan savdo do'konlari va erkin omborlar

173-modda. Bojxona omborlari

Bojxona ombori bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni saqlashga mo'ljallangan, maxsus ajratilgan hamda jihozlangan bino va (yoki) ochiq maydonchadan iboratdir.

Boshqa tovarlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki alohida saqlash sharoitlarini talab etadigan tovarlar faqat shunday tovarlarni saqlash shartlariga mos keladigan maxsus moslashtirilgan omborlarga joylashtirilishi kerak.

Bojxona omborlari foydalanilishiga ko'ra, har qanday shaxs foydalanishi uchun ochiq omborlar bo'lishi va muayyan shaxslar, qoida tariqasida, ombor egalarining foydalanishi uchun mo'ljallangan yopiq omborlar bo'lishi mumkin.

174-modda. Boj olinmaydigan savdo do'konlari

Boj olinmaydigan savdo do'koni tovarlarni boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi talablariga va shartlariga muvofiq bojxona nazorati ostida realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan savdo ob'yektidir. Boj olinmaydigan savdo do'konining hududi savdo zallarining, yordamchi binolarning va do'kon omborining hududlarini o'z ichiga oladi.

Boj olinmaydigan savdo do'konining ishlashini ta'minlash uchun zarur O'zbekiston tovarlariga boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi qo'llanilmaydi.

Boj olinmaydigan savdo do'konlari uch turga bo'linadi:

(174-modda uchinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

a) bojxona hududiga olib kirilgan chet el tovarlarini yoki O'zbekiston tovarlarini O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida va (yoki) chet el valyutasida realizatsiya qilishga, shu jumladan joyning o'zida iste'mol qilish uchun chakana sotishga mo'ljallangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini kesib o'tadigan jismoniy shaxslar uchun boj olinmaydigan savdo do'koni;

(174-modda uchinchi qismining «a» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

b) chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga,

ushbu tashkilotlarning chet ellik xodimlariga, shuningdek ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan oila a'zolariga bojxona hududiga olib kirilgan chet el tovarlarini O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida va (yoki) chet el valyutasida realizatsiya qilishga mo'ljallangan, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxslar uchun boj olinmaydigan savdo do'koni;

v) O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan chet ellik shaxslar uchun boj olinmaydigan, bojxona hududiga olib kirilgan chet el tovarlarini yoki O'zbekiston Respublikasi tovarlarini milliy valyutada va (yoki) chet el valyutasida chakana realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan savdo do'koni. Mazkur turdagi boj olinmaydigan savdo do'konlari faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(174-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan «v» kichik band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

175-modda. Erkin omborlar

Erkin ombor maxsus jihozlangan va belgilangan joy bo'lib, u tovarlarni erkin ombor bojxona rejimida bojxona nazorati ostida saqlash uchun mo'ljallangan binolar hududini va (yoki) ochiq maydonchalarni o'z ichiga oladi.

Erkin omborning ishlashini ta'minlash uchun zarur O'zbekiston tovarlariga erkin ombor bojxona rejimi qo'llanilmaydi.

Boshqa tovarlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki alohida saqlash sharoitlari talab etiladigan tovarlar bunday tovarlarni saqlash uchun maxsus moslashtirilgan omborlarda yoki erkin omborning bir qismi bo'lgan alohida binolarda qonunchilikka muvofiq belgilangan majburiy talablarga rioya qilingan holda saqlanishi kerak.

(175-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

176-modda. Bojxona omborining, boj olinmaydigan savdo do'konining va erkin omborning faoliyatini litsenziyalash

Bojxona omborining, boj olinmaydigan savdo do'konining va erkin omborning faoliyatini litsenziyalash qonunchilikda belgilangan tartibda bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi.

(176-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Agar bojxona ombori bojxona organlari tomonidan ta'sis etilayotgan bo'lsa, litsenziya olish talab qilinmaydi.

Bojxona ombori va erkin ombor egalarining tovarlarni va transport vositalarini omborlarga joylashtirayotgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlari shartnoma asosida yo'lga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi bojxona omborlarining, boj olinmaydigan savdo do'konlarining va erkin omborlarning reyestrlarini yuritadi, shuningdek mazkur reyestrlardagi ma'lumotlarni o'z rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

177-modda. Bojxona omborini, boj olinmaydigan savdo do'konini va erkin omborni tugatish

Bojxona omborini, boj olinmaydigan savdo do'konini va erkin omborni tugatish litsenziyaning amal qilishi tugatilgan yoki litsenziya bekor qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

Bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni va erkin ombor tugatilgan sanadan e'tiboran ularda saqlanayotgan tovarlarga vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovarlar sifatida qaraladi.

Bojxona ombori va boj olinmaydigan savdo do'koni tugatilayotganda ularda turgan tovarlar bojxona ombori va boj olinmaydigan savdo do'koni tugatilgan kundan e'tiboran o'n besh kalendar kun ichida boshqa bojxona omboriga o'tkazilishi yoxud boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi kerak.

Erkin ombor tugatilayotganda unda turgan tovarlar ushbu ombor tugatilgan kundan e'tiboran o'n besh kalendar kun ichida boshqa erkin omborga o'tkazilishi yoki boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi kerak.

Bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni va erkin ombor tugatilgan taqdirda, xuddi shuningdek litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilganda tovarlarni saqlash uchun joylashtirishga va ularni realizatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Tugatilayotgan bojxona omborida va boj olinmaydigan savdo do'konida tovarlarning vaqtincha saqlash bojxona rejimida turishining umumiy muddati ularni tugatish sanasidan e'tiboran oltmish kundan, erkin omborda esa bir yuz sakson kundan oshmasligi kerak.

Litsenziyaning amal qilishi tugatilishi munosabati bilan bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni va erkin ombor tugatilgan taqdirda ularning egalaridan tugatish sanasidan e'tiboran bojxona organlari tomonidan ta'sis etilgan bojxona omborlari uchun belgilangan, tovarlar saqlanganligi uchun bojxona yig'imlari undiriladi.

Litsenziya bekor qilinganligi munosabati bilan bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni va erkin ombor tugatilgan taqdirda bojxona omborining, boj olinmaydigan savdo do'konining va erkin omborning egasi olib kirilgan, shu jumladan chiqarib yuborilgan tovarlar turgan butun davrga bojxona organlari tomonidan ta'sis etilgan bojxona omborlari uchun belgilangan, tovarlar saqlanganligi uchun bojxona yig'imlarini to'lashi shart.

Boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyatini amalga oshirish litsenziyasini ushbu litsenziya qalbaki hujjatlardan foydalanib olinganlik fakti aniqlanganligi munosabati bilan bekor qilish to'g'risida sud tomonidan qaror qabul qilingan taqdirda, boj olinmaydigan savdo do'konida realizatsiya qilingan tovarlarga erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar deb qaraladi va boj olinmaydigan savdo do'koni egasidan mazkur tovarlar boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan sanada to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari summalari undiriladi.

IV bo'lim. Bojxona nazorati

27-bob. Bojxona nazoratining umumiy qoidalari

178-modda. Bojxona nazoratining predmeti

Bojxona nazorati:

bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va (yoki) ushbu Kodeksga muvofiq deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan tovarlarga va transport vositalariga nisbatan;

taqdim etilishi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan bojxona deklaratsiyasiga, tovarlar to'g'risidagi hujjatlarga va ma'lumotlarga nisbatan;

yuridik va jismoniy shaxslarning tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish, bojxona ishi sohasida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq, shuningdek ayrim bojxona rejimlari doirasida amalga oshiriladigan faoliyatiga nisbatan o'tkaziladi.

179-modda. Bojxona nazorati zonasi

Bojxona hududining bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash maqsadida tashkil qilinadigan, maxsus ajratib va belgilab qo'yilgan qismi bojxona nazorati zonasidir.

(179-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona nazorati zonalari quyidagi turlarda bo'lishi mumkin:

doimiy bojxona nazorati zonasi — bojxona nazoratidan o'tishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalari ushbu zonada muntazam ravishda turgan hollarda;

muvaqqat bojxona nazorati zonasi — bojxona operatsiyalari bajariladigan joylardan tashqarida tovarlarning va transport vositalarining vaqtincha bojxona nazoratini amalga oshirish va bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazish, shuningdek bojxona organlari tomonidan doimiy bojxona nazorati zonasidan tashqarida aniqlangan tovarlarning va transport vositalarining bojxona ko'zdan kechiruvini va bojxona ko'rigini o'tkazish zarurati bo'lgan taqdirda.

Doimiy bojxona nazorati zonasini tashkil etish to'g'risidagi qaror bojxona organining boshlig'i tomonidan qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi bo'ylab bojxona nazorati zonalarini tashkil etish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining bo'linmalari bilan kelishiladi.

(179-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 10 oktyabrdagi O'RQ-974-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024 y., 03/24/974/0804-son)

Muvaqqat bojxona nazorati zonasini tashkil etish to'g'risidagi qaror:

vakolatli shaxsning doimiy bojxona nazorati zonalaridan tashqarida tovarlarni va transport vositalarini bojxona nazoratidan o'tkazish hamda ularning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish to'g'risidagi yozma arizasiga ko'ra — bojxona organining boshlig'i yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs tomonidan;

bojxona nazoratidan o'tishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalari doimiy bojxona nazorati zonalaridan tashqarida aniqlangan hamda ularning bojxona ko'zdan kechiruvini yoki bojxona ko'rigini aniqlangan joyda amalga oshirish zarurati tug'ilgan taqdirda,

bojxona organi boshlig'i yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs keyinchalik xabardor etilgan holda — bojxona organining vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan qabul qilinadi.

Muvaqqat bojxona nazorati zonasining amal qilish muddati va chegaralari tegishli bojxona tartib-taomillarini amalga oshirish zaruratini hisobga olgan holda belgilanadi.

180-modda. Bojxona nazorati zonalarini tashkil etish joylari va doiralari

Bojxona nazorati zonalari bojxona chegarasi bo'ylab, shuningdek quyidagi joylarda tashkil qilinadi:

bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshiriladigan joylarda;

bojxona tartib-taomillari va operatsiyalari bajariladigan joylarda;

tovarlar bojxona nazorati ostida saqlanadigan, boshqa transport vositasiga ortiladigan, bojxona ko'zdan kechiruvidan va bojxona ko'rigidan o'tkaziladigan joylarda;

bojxona nazorati ostidagi tovarlarni tashiyotgan transport vositalarining to'xtab turish joylarida.

Bojxona nazorati zonalarining doiralari fizik-geografik va mahalliy sharoitlarni, tashqi iqtisodiy va xo'jalik faoliyatining xususiyati va jadalligini, shuningdek unda belgilangan rejimni saqlab turishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillarni hisobga olgan holda belgilanadi. Bojxona nazorati zonalari tegishli belgilar bilan qo'yiladi. Bojxona nazorati zonasining maydoni barcha majburiy bojxona tartib-taomillari to'liq hajmda bajarilishi uchun yetarli bo'lishi kerak.

Doimiy bojxona nazorati zonalari doiralarida bojxona organlari tomonidan jismoniy shaxslarning, tovarlarning va transport vositalarining harakatlanish yo'nalishlari belgilanadi. Zarur bo'lgan hollarda, yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining bo'linmalari va (yoki) hududida bojxona organlari o'z vazifalarini bajarayotgan tashkilot bilan kelishiladi.

(180-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 10 oktyabrdagi O'RQ-974-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024 y., 03/24/974/0804-son)

181-modda. Vakolatli shaxsning yoki tashuvchining bojxona nazorati zonalari chegaralarini kesib o'tishdagi va mazkur zonalar doiralarida harakatlanishdagi majburiyatlari

Bojxona nazorati zonasi chegarasini kesib o'tayotganda va uning doiralarida harakatlanayotganda vakolatli shaxs yoki tashuvchi:

bojxona organlari tomonidan belgilangan joylarda to'xtashi va harakatni davom ettirishi;

tovarlarni va transport vositalarini faqat belgilangan yo'nalishlar bo'yicha olib o'tishi;

bojxona organi mansabdor shaxslarining talablariga ko'ra tovarlarni va transport vositalarini, shuningdek bojxona nazorati uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

Bojxona nazorati zonasi chegarasini kesib o'tayotganda va uning doirasida harakatlanayotganda vakolatli shaxsning yoki tashuvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(181-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

182-modda. Bojxona nazorati zonasidagi bojxona organlari mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlari

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari vakolatli shaxsdan yoki tashuvchidan tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasidan va bojxona nazorati zonasi doirasidan bojxona nazorati zonasi rejimiga muvofiq olib o'tishni talab qilish huquqiga ega. Bojxona organi mansabdor shaxslarining vakolatlari doirasidagi farmoyishlari tovarlarni va transport vositalarini bojxona nazorati zonasining chegarasi orqali va uning doirasida olib o'tayotgan barcha shaxslar uchun majburiydir.

Bojxona nazorati zonasi rejimiga rioya etilishini nazorat qilish bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi.

183-modda. Bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va (yoki) transport vositalari

Bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan e'tiboran quyidagi paytga qadar bojxona nazorati ostida turadi:

tovarlar va (yoki) transport vositalari erkin muomalaga chiqarish (import), reimport, yo'q qilish, davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimlariga muvofiq chiqarib yuborilguniga qadar, shuningdek ular davlat daromadiga o'tkazilgunga qadar;

tovarlar yoki ularni qayta ishlash mahsulotlari, shuningdek transport vositalari amalda olib chiqilguniga qadar.

Ushbu Kodeks 22-moddasi ikkinchi qismining «b» — «ye» bandlarida ko'rsatilgan shartli chiqarib yuborilgan tovarlar shunday chiqarib yuborishning shartlari bo'yicha majburiyatlar bajarilguniga qadar bojxona nazorati ostida turadi.

Olib chiqilayotgan tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona deklaratsiyasi yoki ularni bojxona hududidan olib chiqish boshqa qanday hujjatga muvofiq amalga oshirilayotgan bo'lsa, o'sha hujjat taqdim etilgan paytdan e'tiboran haqiqatda bojxona chegarasini kesib o'tguniga qadar bojxona nazorati ostida turadi.

Ushbu moddaning uchinchi qismi qoidalaridan qat'i nazar, bojxona organlari shaxslarning tovarlarni yoki ularni qayta ishlash mahsulotlarini va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga qaytarib olib kirish borasidagi majburiyatlari ushbu Kodeksda belgilangan tartibda bojxona rejimlari shartlariga muvofiq bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

184-modda. Bojxona nazorati uchun zarur bo'ladigan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish

Bojxona organi bojxona nazoratini o'tkazish uchun:

nazorat qilinishi bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli shaxslardan va boshqa shaxslardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni;

tadbirkorlik faoliyati sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan va boshqa organlardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilib olish huquqiga ega.

Hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yo'llangan, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan shaxslar va organlar ushbu hujjatlar va ma'lumotlarni bojxona organiga mumkin qadar qisqa muddatlarda yuborishi shart.

Bojxona deklaratsiyasi hamda bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar tovarlar bojxona nazorati ostida turgan tovar maqomini yo'qotgan yildan keyingi yildan e'tiboran uch yil davomida saqlanadi.

185-modda. Bojxona organlari mansabdor shaxslarining bojxona nazorati ostida turgan tovarlar saqlanadigan joylarga kirishini ta'minlash

Binolarida va hududlarida bojxona nazoratidan o'tishi lozim bo'lgan tovarlar va (yoki) transport vositalari, bojxona nazorati uchun zarur hujjatlar turgan yoki turishi ehtimoli bo'lgan yoxud nazorat qilinishi bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar shu binolarga va hududlarga bojxona organlarining mansabdor shaxslariga ular xizmat guvohnomasini ko'rsatgan taqdirda kirish imkonini beradi. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida yoki xalqaro shartnomalarida davlat organlari mansabdor shaxslarining alohida ob'yektlarga kirishi uchun boshqacha tartib belgilangan bo'lsa, bojxona organlarining mansabdor shaxslari bu ob'yektlarga O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida yoki xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda kirishga haqli.

(185-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

186-modda. Bojxona nazorati uchun zarur yuk operatsiyalarini va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish

Bojxona organining talabiga ko'ra vakolatli shaxs tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan yuk operatsiyalarini amalga oshirishi, shuningdek bojxona nazoratidan o'tishi kerak bo'lgan tovarlarning o'rov-idishini ochishi, ularni tarozida tortishi yoki boshqacha tarzda ularning miqdorini aniqlashi shart.

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan amalga oshiriladigan yuk operatsiyalari hamda boshqa operatsiyalar bojxona organi uchun biror-bir qo'shimcha xarajatlar keltirib chiqarmasligi kerak.

187-modda. Bojxona rasmiylashtiruvida bojxona deklaratsiyasini, boshqa hujjatlarni, tovarlarni va (yoki) transport vositalarini tekshirish

Bojxona rasmiylashtiruvida bojxona organi bojxona deklaratsiyasini hamda bojxona rasmiylashtiruvi uchun taqdim etilgan boshqa hujjatlarni, tovarni va (yoki) transport vositasini taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini hamda ushbu hujjatlarning, tovarning va (yoki) transport vositasining bojxona to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshiradi.

(187-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tovar va (yoki) transport vositasi chiqarib yuborilguniga qadar bojxona organi tovar va (yoki) transport vositasi nomining, ular ishlab chiqarilgan mamlakatning, tovar va (yoki) transport vositasi miqdori va qiymatining bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarga hamda bojxona rasmiylashtiruvi uchun taqdim etilgan, bojxona maqsadlari uchun foydalanilayotgan boshqa hujjatlarga muvofiqligini aniqlash uchun zarur bojxona tartib-taomillarini bajaradi.

28-bob. Bojxona nazoratini amalga oshirish shakllari va tartibi

188-modda. Bojxona nazoratining shakllari

Bojxona nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish;

og'zaki so'rov;

axborot olish;

bojxona ko'zdan kechiruvi;

tovarlarning tamg'alanganligini tekshirish;

bojxona ko'rigi;

shaxsiy ko'rik;

bojxona identifikatsiyalashi;

bojxona kuzatuvi;

binolar va hududlarni tekshirish;

tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish, ularni hisobga olish tizimini tekshirish hamda ushbu tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish;

tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati.

189-modda. Bojxona nazorati shakllarining qo'llanilishi

Bojxona organlari bojxona nazorati shakllarini qo'llashda tanlab olish prinsipiga asoslanadi va bojxona nazoratining bojxona to'g'risidagi qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlaydigan shakllari bilan cheklanadi. Bojxona nazorati shaklini tanlash bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan belgilanadi.

Bojxona nazorati amalga oshirilayotganda bojxona organlari bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarining oldini olish maqsadida, tekshirilishi kerak bo'lgan tovarlarni va transport vositalarini, yuridik va jismoniy shaxslarning hujjatlarini aniqlash, bojxona nazorati shakllarini va ularning qo'llanilish hajmini tanlash uchun xavfni boshqarish tizimini qo'llaydi.

Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod etish O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona nazoratining ayrim shakllarini qo'llamaslik yoki ulardan ozod qilish yuridik va jismoniy shaxslar bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etish majburiyatidan ozod qilinganligini anglatmaydi.

(189-moddaning birinchi — to'rtinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Quyidagilar bojxona ko'rigidan o'tkazilmaydi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi sobiq Prezidentining shaxsiy bagaji;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolarining va Qonunchilik palatasi deputatlarining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining (ombudsmanning) va

O'zbekiston Respublikasi diplomatik pasportlari egalarining shaxsiy bagaji, agar mazkur shaxslar xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda bojxona chegarasini kesib o'tsalar;

qonunga muvofiq boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy bagaji.

Chet el harbiy kemalari, jangovar va harbiy-transport havo kemalari, shuningdek o'zi yurib kelayotgan harbiy texnikasi bojxona ko'rigidan ozod qilinadi.

Bojxona nazoratini o'tkazishda insonning hayoti va sog'lig'i, hayvonlar, o'simliklar uchun xavfsiz bo'lgan hamda tovarlarga va transport vositalariga zarar yetkazmaydigan texnik va boshqa vositalar qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi bojxona nazoratini amalga oshirish maqsadida chet davlatlarning bojxona organlari bilan hamkorlik qiladi, ular bilan o'zaro yordam va axborot almashinuvi to'g'risida bitimlar tuzadi.

190-modda. Hujjatlarni va ma'lumotlarni tekshirish

Bojxona nazoratini amalga oshirishda bojxona organlari taqdim etilgan, bojxona maqsadlari uchun ahamiyatga molik hujjatlarni tekshiradi.

Taqdim etilgan hujjatlarni va ma'lumotlarni tekshirish:

hujjatlarning asosiy rekvizitlari to'liq va to'g'ri to'ldirilganligini;

zarur imzolar va muhrlarning (elektron raqamli imzoning) mavjudligini;

tuzatishlarning tasdiqlanganganligini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Bojxona organlariga taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish ularni quyidagilardan olingan ma'lumotlar bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi:

taqdim etilgan boshqa hujjatlar va ma'lumotlardan olingan axborotlar;

uchinchi shaxslardan va boshqa manbalardan olingan axborotlar;

bojxona nazoratining boshqa shakllarini o'tkazish, bojxona statistikasi ma'lumotlarini tahlil etish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlash natijalari asosida olingan axborotlar.

Bojxona organi qo'shimcha ma'lumotlarni faqat taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarni tekshirish maqsadida, sababini ko'rsatgan holda talab qilib olishga haqli.

Taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish va (yoki) qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilib olish tovarlarni chiqarib yuborishga to'sqinlik qilmaydi, bundan ushbu hujjatlarning:

haqiqiy emasligi;

boshqa tovarlarga taalluqliligi;

tovarlarni chiqarib yuborish, ularni so'ralayotgan bojxona rejimiga joylashtirish mumkinligi to'g'risida bojxona organi tomonidan qaror qabul qilinishiga va (yoki) bojxona to'lovlari to'lanishiga ta'sir ko'rsatadigan noto'g'ri ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi ushbu Kodeks 248-moddasining to'rtinchi qismida belgilangan muddatlarda bojxona organi tomonidan aniqlangan hollar mustasno.

191-modda. Og'zaki so'rov

Og'zaki so'rov bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan vakolatli shaxslardan va bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga molik holatlar to'g'risida

ma'lumotlarga ega boshqa shaxslardan zarur axborotni og'zaki shaklda, bunday so'rov natijalarini yozma shaklda rasmiylashtirmagan holda olishni nazarda tutadi.

192-modda. Axborot olish

Axborot olish bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan vakolatli shaxslardan va bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga molik holatlar to'g'risida ma'lumotlarga ega boshqa shaxslardan zarur axborot olishni nazarda tutadi.

Axborot olish uchun vakolatli shaxsni va boshqa shaxsni chaqirish zarur bo'lgan taqdirda bojxona organi yozma shaklda xabar yuboradi.

193-modda. Bojxona ko'zdan kechiruvi

Bojxona ko'zdan kechiruvi bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan transport vositalarining bo'limlarini, tovarlarning o'rov-idishini ochmagan, ko'zdan kechirilayotgan ob'yektlarni va ularning qismlarini bo'laklarga ajratmagan va boshqa yo'llar bilan ularning butligini buzmagan holda tovarlarning va (yoki) transport vositalarining, xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarining hamda jismoniy shaxslar bagajining, shuningdek yuk ortilgan idishlarni, konteynerlarni, bojxona identifikatsiyalash vositalarining tashqi ko'rinishini ko'zdan kechirish orqali amalga oshiriladi.

Bojxona ko'zdan kechiruvi bojxona nazorati ostidagi tovarlar va (yoki) transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarni, tovarlarda, yuk ortilgan idishlarda, transport vositalarida va transport vositalarining bo'limlarida plombalar, muhrlar va boshqa bojxona identifikatsiyalash vositalari mavjudligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Bojxona nazorati zonasida bojxona ko'zdan kechiruvi vakolatli shaxslar ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, bundan mazkur shaxslar bojxona ko'zdan kechiruvida hozir bo'lish istagini bildirgan hollar mustasno.

Bojxona ko'zdan kechiruvi natijalariga ko'ra:

to'g'ri deklaratsiyalangan taqdirda — tegishli tovarning kuzatuv hujjatlari rasmiylashtiriladi;

tovarning noto'g'ri deklaratsiyalanganligi fakti aniqlangan taqdirda — bojxona ko'rigi amalga oshiriladi.

194-modda. Tovarlarning tamg'alanishini tekshirish

Tovarlarning tamg'alanishini tekshirish tovarlarda yoki ularning qadoqlarida maxsus tamg'alar, identifikatsiyalash belgilari yoki tovarni belgilashning boshqa vositalari mavjudligini tekshirishni nazarda tutadi.

Bojxona hududiga olib kiriladigan alohida tovarlar bo'yicha bojxona to'g'risidagi qonunchilikda ularni maxsus tamg'alar, identifikatsiyalash belgilari yoki tovarlarni belgilashning boshqa vositalari bilan tamg'alash talabi qo'yilishi mumkin.

(194-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tovarlarda ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan maxsus tamg'alar, identifikatsiyalash belgilari yoki tovarlarni belgilashning boshqa vositalari mavjud emasligiga, shunday tovarlari mavjudligi aniqlangan yuridik yoki jismoniy shaxs buning aksini isbotlamasa, tovarlarni bojxona hududiga bojxona rasmiylashtiruvisiz olib kirganlik yoki chiqarib yuborganlik faktining tasdiqlanishi deb qaraladi.

195-modda. Bojxona ko'rigi

Bojxona ko'rigi qo'yilgan plombalarni, muhrlarni yoki bojxona identifikatsiyalashining boshqa vositalarini buzgan xolda, tekshirilayotgan ob'yektlarni va ularning qismlarini bo'laklarga ajratib, demontaj qilib yoki boshqa yo'llar bilan ularning butligini buzib, tovarlarning o'ramini yoki transport vositasining yuk joylanadigan bo'limini yoxud idishlarini, konteynerlarni va tovarlar bo'lgan yoki bo'lishi ehtimoli bo'lgan boshqa joylarni ochishni nazarda tutadi.

Bojxona ko'rigi, qoida tariqasida, tovarga bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganidan keyin deklarant hozirligida o'tkaziladi. Bunda tovarga bojxona deklaratsiyasi qabul qilinguniga qadar bojxona ko'rigi:

bojxona maqsadlarida tovarni identifikatsiyalash;

bayon etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini aniqlash;

bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik to'g'risidagi mavjud axborotni tekshirish;

(195-modda ikkinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

tanlab tekshirish prinsipiga rioya etgan holda xavfni boshqarish tizimi asosida bojxona nazoratini o'tkazish;

ushbu Kodeksning 275-moddasiga muvofiq deklarantning huquqlarini amalga oshirish zarur bo'lgan taqdirda o'tkazilishi mumkin.

Tirik hayvonlar va tez buziladigan tovarlar birinchi navbatda bojxona ko'rigidan o'tkaziladi.

(195-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona organi mansabdor shaxslarining talabiga ko'ra vakolatli shaxslar tovarlarning va transport vositalarining bojxona ko'rigi o'tkazilayotganda hozir bo'lishi va ularga zarur ko'mak ko'rsatishi shart. Vakolatli shaxslar bo'lmaganda ko'rikdan o'tkazilayotgan transport vositasini boshqarayotgan jismoniy shaxs vakolatli shaxs hisoblanadi.

Bojxona organining mansabdor shaxsi bojxona ko'rigini quyidagi hollarda vakolatli shaxslar ishtirokisiz, ikki nafar xolis hozirligida o'tkazishga haqli:

tovarlar va transport vositalari taqdim etilgan kundan keyin besh ish kuni o'tgach vakolatli shaxslar kelmaganda;

davlat xavfsizligiga, jamoat tartibiga, odamlarning hayoti va sog'lig'iga, hayvonlar va o'simliklarga, atrof-muhitga, madaniy boyliklarni saqlashga haqiqiy xavf mavjud bo'lganda va kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilishi lozim bo'lgan boshqa holatlarda (shu jumladan, agar tovarlar tez yonuvchan moddalar, portlash xavfi bo'lgan predmetlar, portlovchi, zaharlovchi, xavfli kimyoviy va biologik faol moddalar, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari, prekursorlar, psixotrop, zaharli, toksik, radioaktiv moddalar, yadroviy materiallar, qurol, uning o'q-dorilari ekanligini ko'rsatuvchi va boshqa shunga o'xshash tovarlar ekanligining belgilari mavjud bo'lsa, shuningdek, agar tovarlar o'zidan noxush hid taratsa);

(195-modda beshinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

tovarlar xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuborilganda;

tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududidan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini olib chiqishni nazarda tutuvchi bojxona rejimi shartlarini buzgan holda ushbu hududda qoldirilganda.

Agar bojxona deklaratsiyasida bir nomdagi tovar sifatida ko'rsatilgan tovar turkumining bir qismi bojxona ko'rigidan o'tkazilgan bo'lsa, bunday ko'rikdan o'tkazish natijalari shu tovarning butun turkumiga tatbiq etilishi mumkin. Agar vakolatli shaxs ko'rikdan o'tkazish natijalari tovarning butun turkumiga tatbiq etilishi mumkin emas deb hisoblasa, tovar turkumining qolgan qismi uchun qo'shimcha bojxona ko'rigi o'tkazilishini talab qilishga haqli.

Bojxona ko'rigi o'tkazilayotganda tovarning amaldagi miqdori uni deklaratsiyalashda ko'rsatilgan tovar miqdoriga mos kelmasligi aniqlangan taqdirda, bojxona organi bojxona maqsadlari uchun tovarning amaldagi miqdorini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Bojxona ko'rigidan o'tkazish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan shaklda dalolatnoma tuziladi. Bojxona ko'rigi dalolatnomasining ko'chirma nusxasi vakolatli shaxsga topshiriladi (yuboriladi).

Ushbu modda talablariga rioya etilishi munosabati bilan yuzaga kelgan xarajatlar vakolatli shaxs zimmasida bo'ladi.

196-modda. Shaxsiy ko'rik

Shaxsiy ko'rik bojxona chegarasi orqali o'tayotgan va bojxona nazorati zonasida yoki aeroportning xalqaro yo'nalishlar uchun ochiq bo'lgan tranzit zonasida bo'lgan jismoniy shaxsga nisbatan o'tkaziladi.

Shaxsiy ko'rik bojxona hududiga olib kirish yoki ushbu hududdan olib chiqish taqiqlangan tovarlarni yoxud ushbu Kodeksda belgilangan tartibni buzgan holda olib o'tilayotgan tovarlarni jismoniy shaxs yonida yashirmoqda va ularni o'z ixtiyori bilan taqdim etmoqchi emas, deb taxmin qilishga asoslar bo'lgan taqdirda bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazish haqidagi qaror bojxona organining boshlig'i yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs tomonidan yozma shaklda qabul qilinadi.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni boshlashdan avval bojxona organining mansabdor shaxsi:

shaxsiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi qarorni jismoniy shaxsga e'lon qilishi;

shaxsiy ko'rik o'tkazilayotganda jismoniy shaxsni uning huquqlari bilan tanishtirishi;

jismoniy shaxsga yonida berkitilgan tovarlarni o'z ixtiyori bilan berishni taklif qilishi shart.

Jismoniy shaxs shaxsiy ko'rikni rad etgan taqdirda, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi qarorga shaxsiy ko'rikdan o'tkazish haqidagi qarorni e'lon qilgan bojxona organi mansabdor shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan belgi qo'yiladi.

Agar ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs bojxona organi mansabdor shaxsining qonuniy talablarini bajarmasa yoki bajarishga qarshilik ko'rsatsa, ushbu harakatlar ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq jismoniy shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish uchun asos bo'ladi.

(196-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Shaxsiy ko'rik sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan alohida xonada bojxona organining ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi mansabdor shaxsi tomonidan

xuddi shu jinsdagi ikki xolis hozirligida o'tkaziladi. Boshqa jismoniy shaxslarning bu xonaga kirish va shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni kuzatish imkoniyatiga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxsning tanasini tekshirish faqat tibbiyot xodimlari tomonidan, zarur bo'lganda, maxsus tibbiyot texnikasidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Zarur bo'lganda shaxsiy ko'rik o'tkazilayotganda tarjimon jalb qilinadi.

Voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz shaxs shaxsiy ko'rikdan o'tkazilayotganida uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, homiylar, vasiylar) yoki uni kuzatib boruvchi shaxslar hozir bo'lishga haqli.

Shaxsiy ko'rik ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs tomonidan o'zida yashirib qo'yilgan tovarlarni topish uchun zarur bo'lgan doirada hamda inson sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishini, uning sog'lig'i va mol-mulkiga ziyon yetkazilishini istisno etadigan shaklda amalga oshiriladi.

Ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs shaxsiy ko'rikdan o'tkazish jarayonida quyidagi huquqlarga ega:

bojxona organi boshlig'ining yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa shaxsning shaxsiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi qarori e'lon qilinishini talab qilish;

ona tilidan foydalanish, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish;

o'z huquqlari va majburiyatlari bilan tanishish;

tushuntirishlar, iltimosnomalar berish;

shaxsiy ko'rik bayonnomasini tuzish tugallanganidan so'ng u bilan tanishib chiqish va mazkur bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni bayon etish;

bojxona organining qarori, uning mansabdor shaxslari harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish.

Ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(196-moddaning o'n birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs shaxsiy ko'rik davomida bojxona organi mansabdor shaxsining qonuniy talablarini bajarishi shart.

Shaxsiy ko'rik natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan shaklda bayonnoma tuziladi. Bayonnoma quyidagilar tomonidan imzolanadi:

bojxona organining shaxsiy ko'rikni o'tkazgan mansabdor shaxsi;

xolislar;

shaxsiy ko'rikdan o'tkazilgan jismoniy shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs;

tibbiyot xodimi — ko'rikdan o'tkazilgan shaxsning tana a'zolari u tomonidan tekshirilganda;

shaxsiy ko'rikda ishtirok etgan boshqa shaxslar.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazilgan jismoniy shaxsga shaxsiy ko'rik o'tkazilganligi to'g'risidagi bayonnomaning ko'chirma nusxasi imzo qo'ydirib taqdim etiladi.

197-modda. Bojxona identifikatsiyalashi

Bojxona identifikatsiyalashi tovarlar, transport vositalari va hujjatlar, shuningdek bojxona nazorati ostida bo'lishi lozim bo'lgan tovarlar turgan yoki turishi mumkin bo'lgan xonalar va boshqa joylarning bojxona identifikatsiyalash vositalarini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bojxona identifikatsiyalash vositalari quyidagilardan iborat:

qo'yilgan plombalar, muhrlar;

yozilgan raqamli, harfli tamg'alar va boshqa xildagi tamg'alar, identifikatsiyalash belgilari;

bosilgan shtamplar;

olingan namunalar va nusxalar;

tuzilgan tavsiflar, chizmalar;

tayyorlangan katta tasvirlar, rasmlar, fotosuratlar va videotasvirlar;

tovarning kuzatuv hujjatlari va boshqa hujjatlar;

yopishtirilgan maxsus nakleykalar va himoya moslamalari;

tovarning jo'natuvchi bojxona organi tomonidan plombalar va muhrlar qo'yilgan, transport vositalarining yuk bo'limlariga joylashtirilgan, bojxona maqsadlari uchun zarur tovarning kuzatuv hujjatlari;

seyf-paketlarga joylashtirilgan, bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar;

qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa bojxona identifikatsiyalash vositalari.

(197-modda ikkinchi qismining o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona identifikatsiyalash vositalari bojxona organlari tomonidan o'zgartirilishi, olib tashlanishi yoki yo'q qilinishi mumkin, bundan tovarlarning va transport vositalarining yo'q qilinishi, qayta tiklab bo'lmaydigan tarzda yo'qotilishi yoki jiddiy tarzda buzilishi haqiqiy xavfi bo'lgan hollar mustasno. Bojxona organlariga bojxona identifikatsiyalash vositalari o'zgartirilganligi, olib tashlanganligi yoki yo'q qilinganligi to'g'risida darhol xabar beriladi va haqiqiy xavf mavjudligining dalillari taqdim etiladi.

Tovar jo'natuvchilar va tashuvchilar tomonidan, shuningdek chet davlatlarning bojxona organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq qo'yilgan plombalar, muhrlar yoki boshqa bojxona identifikatsiyalash vositalari bojxona identifikatsiyalash vositalari sifatida e'tirof etilishi mumkin.

(197-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona identifikatsiyalash vositalarining qo'llanilish va tayyorlanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

198-modda. Bojxona kuzatuvi

Bojxona organlarining mansabdor shaxsi tomonidan bojxona nazorati ostidagi tovarlar va transport vositalarini vizual kuzatish, shu jumladan texnik vositalar qo'llanilgan holda kuzatish bojxona kuzatuvi hisoblanadi.

199-modda. Binolar va hududlarni tekshirish

Binolar va hududlarni tekshirish bojxona nazorati ostida bo'lgan, shu jumladan shartli ravishda chiqarib yuborilgan tovarlarning va transport vositalarining bojxona omborlarida, boj olinmaydigan savdo do'konlari binolarida, shuningdek bojxona tartib-taomillari va rejimlari shartlariga muvofiq tovarlar va transport vositalari turishi lozim bo'lgan shaxslarda tovarlar va transport vositalari borligini tasdiqlash maqsadida bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladigan harakatdir.

200-modda. Tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish, hisobga olish tizimini tekshirish hamda ularni inventarizatsiya qilish

Bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan va (yoki) bojxona nazorati ostida bo'lgan barcha tovarlar va transport vositalari bojxona organlari tomonidan hisobga olinishi kerak.

Tegishli bojxona rejimlari shartlariga rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tovarlarning va transport vositalarining hisobini yuritishi hamda bojxona organlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan shaklda hisobot taqdim etishi shart.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish tizimini tekshirish bojxona organlari tomonidan quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

shaxs bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartib-taomillarini qo'llash to'g'risida ariza berganda;

hisobga olinishi lozim bo'lgan tovarlar shartli ravishda chiqarib yuborilganda;

bojxona brokerlarining, bojxona tashuvchilarining, shuningdek ayrim bojxona rejimlari doirasida faoliyat yuritayotgan va (yoki) tovarlarni bojxona nazorati ostida saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan shaxslarning faoliyati nazorat qilinayotganda;

bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va (yoki) transport vositalariga nisbatan vakolatli shaxs tekshirilayotganda.

Bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish bojxona organi boshlig'ining yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning qaroriga ko'ra bojxona organining mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona organlari tegishli bojxona rejimlari shartlariga rioya etilishi uchun javobgar bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'tkazilgan tovarlar va transport vositalari inventarizatsiyasi natijalaridan foydalanishi mumkin.

201-modda. Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona organlari, agar bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilishlari mavjud deb taxmin qilish uchun yetarli va tasdiqlangan asoslar mavjud bo'lsa, bojxona nazoratini amalga oshirishga, shu jumladan bojxona auditi usullari asosida amalga oshirishga haqli.

(201-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati amalga oshirilayotganda bojxona organlari tovarlarning borligini tekshirishga, ularni qayta bojxona ko'rigidan o'tkazishga, bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni qayta tekshirishga,

hujjatlarni hamda ushbu tovarlar bilan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy operatsiyalarga va undan keyingi tijorat operatsiyalariga taalluqli axborotni tekshirishga haqli. Tekshiruv mazkur operatsiyalarga bevosita yoki bilvosita aloqador yoxud zarur hujjatlarga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar joylashgan yerlarda o'tkazilishi mumkin.

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazoratini o'tkazish uchun bojxona organi boshlig'ining yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning tekshiruv maqsadi, uni o'tkazish muddatlari, tekshiruvchi bojxona organi mansabdor shaxslarining tarkibi va tekshirilayotgan davr ko'rsatilgan qarori asos bo'ladi.

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati ayni bir kontrakt (shartnoma, kelishuv) bo'yicha ko'pi bilan bir marta o'tkazilishi mumkin.

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati hamda bojxona to'lovlarini qo'shimcha hisoblash tovarlarning bojxona nazorati ostida bo'lishi tugagan paytdan e'tiboran uch yil ichida amalga oshirilishi mumkin.

(201-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona organlari bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilganligini vakolatli shaxs tomonidan bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida taqdim etilgan hujjatlarni moliya-xo'jalik faoliyatiga bog'liq hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlar bilan solishtirgan holda o'rganish va tekshirish orqali bojxona auditini amalga oshiradi.

Bojxona auditini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(201-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan oltinchi va yettinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

202-modda. Bojxona nazorati amalga oshirilayotganda mutaxassisni va ekspertni jalb qilish

Zarur hollarda, bojxona nazorati amalga oshirilayotganda, shu jumladan texnik vositalarni qo'llagan holda amalga oshirilayotganda muayyan harakatlarni bajarishda ishtirok etish va ko'maklashish uchun maxsus bilim va ko'nikmalarga ega, manfaatdorligi bo'lmagan mutaxassis yoki ekspert jalb qilinishi mumkin.

Mutaxassisni yoki ekspertni jalb qilish bojxona organining yoxud vakolatli shaxsning tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Mutaxassis va ekspert:

o'z ishtirokida bajariladigan harakatlar predmetiga taalluqli materiallar bilan tanishishga;

tegishli harakatlarning predmetiga taalluqli savollarni shunday harakatlar ishtirokchilariga berishga;

o'zi ishtirok etgan harakatlarning amalga oshirilishi natijalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar bilan tanishishga va o'zi bajaradigan harakatlar yuzasidan shunday hujjatlarga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar qilishga va tushuntirishlar berishga haqli.

Mutaxassis va ekspert maxsus bilim va ko'nikmalar talab etiladigan harakatlarda ishtirok etishi, o'zi bajaradigan harakatlar yuzasidan tushuntirishlar berishi, mazkur

harakatlarning bajarilganligi faktini, ularning mazmuni va natijalarini o'z imzosi bilan tasdiqlashi shart.

Bojxona nazoratini o'tkazish bo'yicha harakatlarni amalga oshirishga jalb qilinganda mutaxassis yoki ekspert tomonidan olingan, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni o'z ichiga olgan axborot u tomonidan oshkor etilmasligi, boshqa maqsadlarda ishlatilmasligi, uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

(202-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona nazoratiga mutaxassisni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar o'rni:

mutaxassis bojxona organining tashabbusi bilan jalb qilingan taqdirda — bojxona organi tomonidan;

mutaxassis vakolatli shaxsning tashabbusi bilan jalb qilingan taqdirda — vakolatli shaxs tomonidan qoplanadi.

29-bob. Xavfni boshqarish tizimi

203-modda. Xavfni boshqarish tizimining qo'llanilishi

Bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlarni va transport vositalarini, hujjatlarni va shaxslarni aniqlash, shunday tovarlarga, transport vositalariga, hujjatlarga va shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona nazoratini o'tkazish shakllarini va darajasini belgilash uchun bojxona organlari xavfni boshqarish tizimini qo'llaydi.

Xavfni boshqarish tizimining qo'llanilish strategiyasi va taktikasini, axborot yig'ish va uni qayta ishlash, xavfni tahlil qilish va baholash, xavfni boshqarishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tartibini O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi belgilaydi.

Xavfni boshqarish tizimining qo'llanilish maqsadi quyidagilardan iborat:

bojxona organlarining vakolatlari doirasida davlat xavfsizligini, insonning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ta'minlash;

yuqori xavfga ega bo'lgan sohalarga e'tiborni jamlash va bojxona organlari tasarrufidagi mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlash;

tovarlar bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda bojxona operatsiyalarining o'tkazilishini tezlashtirish;

bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarining:

(203-modda uchinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

a) turg'un xususiyatga ega bo'lgan;

b) bojxona to'lovlarini to'lashdan bosh tortish bilan bog'liq bo'lgan;

v) rioya etilishini ta'minlash bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa turdagi bojxona nazoratiga daxldor bo'lgan ko'rinishlarini aniqlash, prognoz qilish va ularning oldini olish.

204-modda. Xavfni boshqarish tizimida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar

Xavfni boshqarish tizimida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

xavf — bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilmasligi ehtimolining darajasi;

(204-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

aniqlangan xavf — bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish sodir etilganligidan va bojxona organlari ushbu holat to'g'risida ma'lumotga ega ekanligidan dalolat beruvchi fakt;

(204-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

potensial xavf — aniqlanmagan, lekin uning yuzaga kelishi uchun sharoitlar mavjud bo'lgan xavf;

xavf indikatorlari — oldindan belgilangan ko'rsatkichlarga ega muayyan mezonlar bo'lib, ulardan og'ish yoki ularga mos kelish nazorat ob'yektini tanlashni amalga oshirish imkonini beradi;

xavf profili — xavf sohasi, xavf indikatorlari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'indisi, shuningdek xavfning oldini olish yoki uni imkon qadar kamaytirish bo'yicha zarur choralarni ko'rish to'g'risidagi ko'rsatmalar;

xavf sohasi — xavf tahlilining ayrim guruhlarga bo'lingan ob'yektlari bo'lib, ularga nisbatan bojxona nazoratining alohida shakllari yoki majmui qo'llanilishi, shuningdek ularning samaradorligini oshirish talab etiladi;

xavfni baholash — xavfning yuzaga kelishi ehtimolini va u yuzaga kelganda bojxona to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi oqibatlarini muntazam ravishda aniqlab borish;

(204-moddaning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

yashiruvchi tovarlar — xavf tovarlari o'rniga deklaratsiyalanishi ehtimoli yetarli darajada bo'lgan tovarlar;

xavf tovarlari — xavf aniqlangan yoki potensial xavf mavjud bo'lgan bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar;

xavf darajasi — xavfning yuzaga kelishining ehtimoliga va uning mumkin bo'lgan oqibatlariga bog'liq tarzda aniqlanadigan xavfning holati;

xavf tahlili — bojxona organlarida mavjud bo'lgan axborotdan xavfning yuzaga kelishi holatlari va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni identifikatsiyalash va bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilmasligining ehtimol tutilgan oqibatlarini baholash maqsadida muntazam ravishda foydalanish;

(204-moddaning o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

xavfni boshqarish — xavfning oldini olish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo'llanilish samaradorligini baholash, shuningdek bojxona operatsiyalarining bajarilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, bojxona organlarida mavjud bo'lgan axborotning uzluksiz yangilanishini, tahlil etilishini va qayta ko'rib chiqilishini nazarda tutuvchi doimiy ishlar.

205-modda. Xavf tahlili ob'yektlari

Xavf tahlili ob'yektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

bojxona nazorati ostida bo'lgan yoxud erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar;

tijorat uchun foydalaniladigan transport vositalari;

oldi-sotdi yoki ayirboshlashga doir tashqi iqtisodiyot kontraktlarida (shartnomalarida, kelishuvlarida), tovarlarga egalik qilish, ulardan foydalanish va (yoki) ularni tasarruf etish huquqiga oid bitimlarda yoxud boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar;

tovarning kuzatuv hujjatlarida va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar;

bojxona nazorati ostida turgan tovarlarga nisbatan vakolatga ega bo'lgan shaxslarning faoliyati;

bojxona nazorati shakllari qo'llanilishining natijalari.

206-modda. Dastlabki ma'lumotni taqdim etish

Xavfni boshqarish tizimini qo'llashda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari, tashuvchilar, bojxona ishi sohasida litsenziyalarga va ruxsatnomalarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan yuk, yo'lovchilar, transport vositalari to'g'risida dastlabki tarzda taqdim etilgan axborotdan foydalaniladi.

Bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq chet davlatlarning bojxona organlari va xalqaro tashkilotlar bilan dastlabki axborot almashinuvini amalga oshiradi.

Vakolatli shaxslar O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga avtomobil, temir yo'l va havo transporti orqali olib kirilishi kutilayotgan tovarlar hamda transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar va ularning bagajlari to'g'risidagi dastlabki axborotni ular amalda yetib kelguniga qadar Internet jahon axborot tarmog'i orqali bojxona organlarining axborot tizimiga taqdim etishi shart.

Vakolatli shaxslar taqdim etiladigan dastlabki axborotning to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

(206-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

207-modda. Bojxona organlari tomonidan xavfni baholash va boshqarish

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi bojxona ishi sohasida huquqbuzarliklar sodir etilganligi to'g'risidagi, shu jumladan tekshiruvlar amalga oshirilishi bosqichida turgan, shuningdek protsessual qaror qabul qilingan barcha huquqbuzarlik faktlari haqidagi statistik va tezkor axborotni to'playdi, umumlashtiradi hamda tahlil qiladi.

Xavf profillari va ularni aniqlash hamda qo'llash muddatlari, mezonlari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Xavf profillaridan bojxona nazorati o'tkazilayotganda bojxona nazorati shakllarini qo'llash uchun bojxona organlari tomonidan foydalaniladi va ular tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishni cheklash uchun asos bo'la olmaydi.

Eng kam yoki eng ko'p xavf toifasiga kiritish, shuningdek bojxona tartib-taomillari ayrim turlarining hamda bojxona nazorati ayrim shakllarining qo'llanilish tartibi O'zbekiston

Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan manfaatdor davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda belgilanadi.

Xavfning belgilangan profillari va indikatorlari tarkibi bojxona organlari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan va boshqa shaxslarga oshkor etilishi mumkin emas, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

(207-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

30-bob. Bojxona ekspertizasi

208-modda. Bojxona ekspertizasi tushunchasi va maqsadi

Bojxona ekspertizasi tovarlarni identifikatsiyalashga qaratilgan hamda ekspert tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunarmandchilik sohasidagi maxsus bilimlar asosida tadqiqotlar o'tkazish va xulosa berishdan iborat protsessual harakatdir.

Bojxona ekspertizasining maqsadi tovarlarni:

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq tovarning tasniflanishi to'g'ri bo'lishini nazorat qilish uchun;

ularni qayta ishlash mahsulotlarida;

intellektual mulkka bo'lgan huquqlarga rioya etilishi uchun identifikatsiyalashdan iboratdir.

209-modda. Tadqiqot ob'yektlari

Tovarlar (tovarning namunalari va nusxalari), bojxona deklaratsiyasida va boshqa hujjatlarda tovarlar to'g'risida ko'rsatilgan ma'lumotlar, identifikatsiyalash belgilari tadqiqot ob'yektlaridir.

Tadqiqot ob'yektlari, agar ularning o'lchamlari va xossalari bunga imkon bersa, o'ralgan va muhrlangan tarzda ekspertga beriladi.

Tadqiqot ob'yektini ekspertning ish joyiga yetkazish imkoni bo'lmagan taqdirda, bojxona ekspertizasini tayinlagan organ unga mazkur ob'yektga moneliksiz borib ko'rish va uni tadqiq etish imkoniyatini ta'minlaydi.

210-modda. Bojxona organlarining ekspert muassasasi

Bojxona organlarining ekspert faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan maxsus bojxona muassasasi bojxona organlarining ekspert muassasasidir.

Bojxona organlarida bojxona ekspertizasini tashkil qilish, amalga oshirish, bojxona ekspertlarini kasbiy tayyorlash va ixtisoslashtirish bojxonaning ekspert amaliyotiga yagona ilmiy-uslubiy yondashuv asosida amalga oshiriladi.

211-modda. Tovarning namunalarini yoki nusxalarini tanlab olish

Quyidagilar tovarning namunalarini yoki nusxalarini tanlab olish huquqiga ega:

bojxona organining mansabdor shaxsi, u bojxona nazoratini o'tkazayotganda;

boshqa nazorat qiluvchi davlat organlarining mansabdor shaxslari, ular qonunchilikda o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarayotganda yoki vakolatli shaxs.

(211-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Vakolatli shaxs yoki boshqa nazorat qiluvchi davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan tovarning namunalari yoki nusxalari tanlab olinayotganda bojxona organlarining mansabdor shaxslari hozir bo'lishga haqli.

Tovarning namunalarini yoki nusxalarini tanlab olishga quyidagi hollarda yo'l qo'yilmaydi, agar shunday tanlab olish:

bojxona nazorati o'tkazilishini qiyinlashtiradigan bo'lsa;

tovar tavsiflarini o'zgartiradigan bo'lsa.

Tovarning namunalarini yoki nusxalarini tanlab olish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

(211-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

212-modda. Ekspert

Xulosa berish uchun bojxona organlarining mansabdor shaxsi, ilm-fan, texnika, san'at yoki hunarmandchilik sohasida maxsus bilimlarga ega, belgilangan tartibda ekspert sifatida tayinlangan boshqa tashkilotning xodimi ekspert sifatida ish yuritishi mumkin. Boshqa tashkilotning xodimi bojxona ekspertizasini tayinlagan organ tomonidan mazkur tashkilotga berilgan topshiriqni bajarish tartibida bojxona ekspertizasini amalga oshiradi.

Ekspert tadqiqotda faqat o'ziga topshirilgan bojxona ekspertizasi predmetiga taalluqli va xulosa berish uchun ahamiyatga molik masalalar bo'yicha ishtirok etadi.

Ekspert bojxona ekspertizasini amalga oshirayotganda bojxona ekspertizasini tayinlagan organdan, ekspertiza yakunidan manfaatdor taraflardan va boshqa shaxslardan mustaqildir.

Ekspert o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib xulosa beradi.

Bojxona ekspertizasini tayinlagan organ tomonidan, shuningdek boshqa davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ekspertga biror taraf foydasiga yoki bojxona ekspertizasining yakunidan manfaatdor boshqa shaxslar foydasiga xulosa olish maqsadida ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

213-modda. Ekspertning huquq va majburiyatlari

Ekspert:

bojxona ekspertizasining predmetiga taalluqli bo'lgan materiallar bilan tanishish;

tovarlar va hujjatlarni ko'zdan kechirish;

bojxona ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar taqdim etilishi, shuningdek bojxona ekspertizasini o'tkazishga boshqa ekspertlar jalb qilinishi haqida iltimosnomalar berish;

o'z xulosasida nafaqat o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha, balki bojxona ekspertizasi predmetiga taalluqli bo'lgan va bojxona ishi uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha ham natijalarni bayon qilish huquqiga ega.

Ekspert:

o'ziga taqdim etilgan tekshirish ob'yektlarining har tomonlama va to'liq tekshiruvini o'tkazishi, o'z oldiga qo'yilgan masalalar yuzasidan belgilangan muddatda asoslangan va

xolisona xulosa berishi;

bojxonaga oid huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan yoki ko'rib chiqayotgan bojxona organi mansabdor shaxsining chaqiruvi bo'yicha o'zi bergan xulosasiga tushuntirishlar berish yoki uni to'ldirish uchun hozir bo'lishi;

bojxona nazoratini o'tkazishda bojxona organining talabiga ko'ra ishtirok etishi;

bojxona ekspertizasi o'tkazilishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor etmasligi;

taqdim etilgan tekshirish ob'yektlarining butligini ta'minlashi shart.

Ekspert qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va uning zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(213-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

214-modda. Bojxona ekspertizasi tayinlanayotganda va o'tkazilayotganda vakolatli shaxsning huquqlari

Bojxona ekspertizasi tayinlanayotganda va o'tkazilayotganda vakolatli shaxs:

bojxona ekspertizasi natijalari ustidan shikoyat qilish;

ekspert xulosasini olish uchun qo'shimcha masalalarni kiritish haqida iltimosnoma berish;

bojxona organlarining va boshqa nazorat qiluvchi davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan tovardan namunalar yoki nusxalar tanlab olinayotganda hozir bo'lish;

ekspertning xulosasi bilan tanishish va bunday xulosaning ko'chirma nusxasini olish;

bojxona ekspertizasini o'tkazish haqida iltimosnoma berish huquqiga ega.

Vakolatli shaxsning iltimosnomasi qanoatlantirilgan taqdirda bojxona organi tegishli qaror qabul qiladi. Iltimosnomani qanoatlantirish rad etilganligi to'g'risida bojxona organining mansabdor shaxsi uch ish kuni ichida vakolatli shaxsga rad etish sabablarini ko'rsatgan holda yozma shaklda xabar qiladi.

215-modda. Bojxona ekspertizasini o'tkazish asoslari va muddatlari

Bojxona ekspertizasini o'tkazish asoslari quyidagilardan iborat:

bojxona organlari mansabdor shaxslarining bojxona ekspertizasini o'tkazish to'g'risidagi yozma murojaati;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sud ajrimi.

(215-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 maydagi O'RQ-542-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son)

Bojxona ekspertizasi quyidagi hollarda o'tkaziladi:

bojxona nazorati amalga oshirilayotganda tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazish jarayonida;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga binoan tovarning tasniflanishi bo'yicha dastlabki qaror qabul qilishda;

bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilishining tasdiqlangan faktlari bo'lganda.

(215-modda ikkinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona ekspertizasi bojxona organining binosida yoki, agar bu tekshiruv xususiyatiga ko'ra zarur bo'lsa yoxud ekspertiza ob'yektini bojxona organining binosiga yetkazib berish imkoni bo'lmasa, boshqa joylarda o'tkaziladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilgan hollarda bojxona ekspertizasini o'tkazish muddati o'ttiz kundan oshmasligi lozim.

(215-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona ekspertizasining murakkablik darajasini aniqlashda quyidagi mezonlarni hisobga olish kerak:

ob'yektning ko'pligi (tekshiruvga taqdim etilgan uchtadan ortiq ob'yekt yoki ikki yuz varaqdan ortiq ish materiallari);

qo'yilgan masalalarning ko'pligi (tekshiruvlar o'tkazilishini talab etuvchi uchtadan ortiq masala);

qo'yilgan masalalarni hal etish uchun tajribalar o'tkazishda texnologik reglamenti besh ish kunidan ortiq bo'lgan, ko'p mehnat talab etadigan usullarni va murakkab asbobsozlik vositalarini qo'llash ehtiyoji;

qo'yilgan masalalarni hal etish uchun yangi hisob-kitob modellarini va tekshiruvning xususiy uslublarini ishlab chiqish zarurati;

ekspertizaning komissiyaviy, kompleks yoki takroriy deb hisoblanishi;

bojxona laboratoriyasi hududidan tashqarida turgan ob'yektlarning bojxona ko'zdan kechiruvi o'tkaziladigan joyga chiqish yoxud tekshiruvni boshqa muassasalarning bazasida o'tkazish zarurati;

boshqa tashkilotlarning ekspertlarini hamda ekspert muassasalarini jalb qilish zarurati.

Bojxona ekspertizalarini o'tkazishning eng ko'p muddatlari ularning murakkablik darajasiga ko'ra to'rt toifaga bo'lish orqali belgilanadi:

birinchi toifa — bitta ham murakkablik darajasiga ega bo'lmagan ekspertizalar, ularni o'tkazish uchun uch ish kunigacha bo'lgan muddat talab etiladi;

ikkinchi toifa — hech bo'lmaganda bitta murakkablik darajasiga ega bo'lgan ekspertizalar, ularni o'tkazish uchun besh ish kunigacha bo'lgan muddat talab etiladi;

uchinchi toifa — kamida ikkita murakkablik darajasiga ega bo'lgan ekspertizalar, ularni o'tkazish uchun o'n ish kunigacha bo'lgan muddat talab etiladi;

to'rtinchi toifa — kamida to'rtta murakkablik darajasiga ega bo'lgan o'ta murakkab ekspertizalar, ularni o'tkazish uchun yigirma ish kunigacha bo'lgan muddat talab etiladi.

Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda majburiy tartibda bojxona ekspertizasi o'tkaziladigan tovarlar ro'yxati xavfni boshqarish tizimini qo'llagan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

216-modda. Qo'shimcha va takroriy bojxona ekspertizalari

Qo'shimcha bojxona ekspertizasi birinchi (avvalgi) bojxona ekspertizasi xulosasida mavjud bo'lgan kamchiliklarni to'ldirish uchun tayinlanadi va o'sha ekspertning o'zi yoki boshqa ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

Xulosa asoslanmaganda yoki uning to'g'riligi shubha tug'dirganda yoxud uning asosidagi dalillar haqiqiy emas deb topilganda takroriy bojxona ekspertizasi tayinlanadi. Birinchi (avvalgi) bojxona ekspertizasining xulosasi ustidan vakolatli shaxs yoki boshqa manfaatdor shaxs tomonidan shikoyat qilinganda, shuningdek prokuror tomonidan protest keltirilganda ham takroriy bojxona ekspertizasi tayinlanishi mumkin.

Takroriy bojxona ekspertizasini tayinlashda ekspertning (ekspertlar komissiyasining) oldiga avval qo'llanilgan tekshiruv uslublarining ilmiy asoslanganligi to'g'risidagi masala qo'yilishi mumkin.

Takroriy bojxona ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qarorda takroriy bojxona ekspertizasini tayinlagan organning birinchi (avvalgi) bojxona ekspertizasining xulosasidan noroziligi sabablari keltirilishi kerak.

Takroriy bojxona ekspertizasini o'tkazish boshqa ekspertga yoki ekspertlar komissiyasiga topshiriladi. Birinchi (avvalgi) bojxona ekspertizasini o'tkazgan ekspert (ekspertlar komissiyasi) takroriy bojxona ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin tekshiruvda va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

217-modda. Ekspertlar komissiyasi tomonidan bojxona ekspertizasini o'tkazish

Bojxona ekspertizasi bitta (komissiyaviy bojxona ekspertizasi) yoki turli ekspert mutaxassisliklarining (kompleks bojxona ekspertizasi) bir nechta eksperti tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Bojxona ekspertizasini ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkazish bojxona ekspertizasini tayinlagan organ tomonidan belgilanadi.

Bojxona ekspertizasini o'tkazish topshirilgan ekspertlar komissiyasi o'z oldiga qo'yilgan masalalarni hal qilish zaruratidan kelib chiqqan holda bo'lajak tekshiruvlarning maqsadi, ketma-ketligi va hajmini kelishib oladi.

Bojxona ekspertizasini o'tkazish topshirilgan ekspertlar komissiyasi tarkibidagi har bir ekspert tekshiruvlarni mustaqil ravishda va alohida o'tkazadi, shaxsan o'zi va komissiyaning boshqa a'zolari tomonidan olingan natijalarni baholaydi hamda ilm-fan, texnika, san'at yoki hunarmandchilik sohasidagi o'z maxsus bilimlari doirasida qo'yilgan masalalar yuzasidan xulosalarni shakllantiradi.

Ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiritilmagan shaxslar tomonidan tekshiruvlarning to'liq yoki qisman o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Komissiyaviy bojxona ekspertizasini o'tkazishda ekspertlarning har biri to'liq hajmda tekshiruvlar o'tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil etadi.

O'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bo'yicha ekspertlar birgalikdagi xulosani tuzadi va imzolaydi.

Ekspertlar orasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda ularning har biri kelishmovchiliklarga sabab bo'lgan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi.

Bojxona ishi uchun ahamiyatga molik vaziyatlarni bilimlarning turli sohalarini qo'llagan holda bir nechta tekshiruv o'tkazish yo'li bilangina aniqlash mumkin bo'lgan hollarda kompleks bojxona ekspertizasi tayinlanadi.

Kompleks bojxona ekspertizasini o'tkazishda ekspertlarning har biri o'z vakolatlari doirasida tekshiruvlar o'tkazadi. Kompleks bojxona ekspertizasining xulosasida har bir ekspert qanday tekshiruvlarni qanday hajmda o'tkazganligi, shaxsan u qanday faktlarni aniqlaganligi hamda qanday xulosalarga kelganligi ko'rsatiladi. Ekspertlarning har biri kompleks bojxona ekspertizasi xulosasining o'zi tomonidan olib borilgan tekshiruvlar aks etgan qismini imzolaydi va ular uchun javobgar bo'ladi.

Olingan natijalarga baho berish va ushbu xulosani (xulosalarni) shakllantirish uchun vakolatli bo'lgan ekspertlar umumiy xulosa (xulosalar) beradilar. Agar ekspertlar komissiyasining yakuniy xulosasi yoki uning bir qismi uchun ekspertlardan biri (ayrim ekspertlar) tomonidan aniqlangan faktlar asos bo'lsa, bu haqda kompleks bojxona ekspertizasining xulosasida ko'rsatib o'tilishi kerak.

Ekspertlar orasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda ularning har biri kelishmovchiliklarga sabab bo'lgan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida-alohida kompleks bojxona ekspertizasi xulosasini beradi.

31-bob. Tovarlarni va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashish

218-modda. Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashish talablari hamda shartlari

Bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va (yoki) transport vositalari jo'natuvchi bojxona organidan tovar kelib tushadigan bojxona organiga ushbu tovarlarni va (yoki) transport vositalarini tashish uchun qabul qilgan tashuvchining javobgarligi ostida tashiladi.

Tovar kelib tushadigan bojxona organiga topshirilishi lozim bo'lgan hujjatlar qaysi tovarlarga va (yoki) transport vositalariga tegishli bo'lsa, o'sha tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan bir xil tartibda yetkazib beriladi va taqdim qilinadi.

Bojxona nazorati ostida tashiladigan tovarlar va (yoki) transport vositalari:

tovar kelib tushadigan bojxona organiga jo'natuvchi bojxona organi belgilagan muddatlarda va yo'nalishlar bo'yicha, agar ular ushbu moddaning oltinchi qismiga muvofiq belgilangan bo'lsa, tashuvchi tomonidan yetkazib berilishi;

tovar kelib tushadigan bojxona organiga taqdim etilishi;

tabiiy eskirish yoki normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlarni istisno etganda, o'zgarmas holatda qolishi hamda tashishdan boshqa biror maqsadda foydalanilmasligi lozim.

Tovar kelib tushadigan bojxona organiga tovarlarni yetkazib berishning eng ko'p muddati quyidagi hisob-kitob bilan belgilanadigan muddatdan oshmasligi kerak:

havo transporti uchun — uch kalendar kundan;

avtomobil va suv transporti uchun — o'n kalendar kundan;

temir yo'l transporti uchun — ikki ming kilometr uchun o'ttiz kalendar kundan.

Bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovarlar uchun yetkazib berish muddati tashuvchining arizasidan, tovarlarni tashishning odatiy muddatidan, transport vositasining turi va imkoniyatlaridan, arizachi tomonidan belgilangan harakat yo'nalishi va boshqa tashish shartlaridan kelib chiqqan holda, ushbu moddaning to'rtinchi qismida belgilangan muddat doirasida jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilanadi.

Bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovarlar va (yoki) transport vositalari uchun belgilangan yetkazib berish muddatlari tashuvchi tomonidan buzilgan taqdirda, yetkazish punktidagi bojxona organi tomonidan tashuvchidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda yig'im undiriladi.

(218-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona nazorati ostida turgan ayrim tovarlarni bojxona hududi bo'ylab tashish yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Vakolatli shaxsning yoki tashuvchining asoslangan so'roviga ko'ra oraliq bojxona organi tovarlarni tovar kelib tushadigan bojxona organiga yetkazib berishning dastlab belgilangan muddatini uzaytiradi.

Avtomobil transportida tashilayotganda bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni hamda bojxona nazorati ostida turmagan boshqa tovarlarni bitta transport vositasiga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tovarlarning ayrim turlarini tashiyotgan tashuvchilar uchun qonunchilik bilan qo'shimcha talablar belgilanishi mumkin.

(218-moddaning to'qqizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

219-modda. Tashuvchining huquq va majburiyatlari

Tashuvchi quyidagi hollarda tovarlarni va (yoki) transport vositalarini tashish uchun qabul qilmaslikka haqli, agar:

tovarning kuzatuv hujjatlari belgilangan tartibni buzgan holda rasmiylashtirilgan bo'lsa;

transport vositasiga va tovarlar o'roviga qo'yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalari tashilayotgan tovarlarga ana shunday ta'minlov choralarini buzmasdan tegish imkoniyatini istisno etmasa.

Tashuvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(219-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni bojxona hududi bo'ylab tashish chog'ida tashuvchi:

tovarlarning, plombalarning va muhrlarning, yoki, agar foydalanilgan bo'lsa, boshqa bojxona identifikatsiyalash vositalarining butligini ta'minlashi;

bojxona organlarining ruxsatisiz tovarlar bilan yuk operatsiyalarini o'tkazishga yo'l qo'ymasligi, bundan ushbu Kodeks 225-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda tovarni tushirib boshqa transport vositasiga qayta yuklash mustasno;

tashiladigan tovarlarni bojxona nazorati zonasiga joylashtirishi;

transport vositalarini tegishli texnik holatda saqlashi va ushbu Kodeksning 227-moddasiga muvofiq bojxona nazorati ostidagi tovarlarni tashish uchun transport vositalarining jihozlanishiga doir talablarga mosligini ta'minlashi;

tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlarni istisno etganda, tovarlarni va (yoki) transport vositalarini o'zgarmas holatda, boshqa biror maqsadda foydalanmasdan yetkazib berishi;

tovarlar yo'qolganda yoki bojxona organlarining roziligisiz boshqa shaxslarga berib yuborilgan taqdirda bojxona to'lovlarini to'lashi shart.

Belgilangan joyga yetib kelgandan so'ng tashuvchi bojxona organini yozma ravishda xabardor qilmasdan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini to'xtash joylarida qarovsiz qoldirishga, to'xtash joyini o'zgartirishga, yo'lovchilarni tushirib yuborishga, tovarlar bilan biror-bir yuk va o'rov-joylov operatsiyasini bajarishga, bojxona identifikatsiyalash vositalarini o'zgartirishga, olib tashlashga yoki yo'q qilishga haqli emas.

Tashuvchi barcha tovarlar to'g'risidagi axborotning yuk kuzatuv hujjatlariga kiritilishini ta'minlash yoki tovarlar to'g'risidagi axborotni bojxona organi e'tiboriga yetkazish uchun bojxona organi oldida javobgar bo'ladi.

(219-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Tashuvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(219-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

220-modda. Tovarni yetkazib berishning nazorat hujjati

Tovarni bojxona nazorati ostida yetkazib berish ustidan nazorat tranzit deklaratsiyasi yordamida amalga oshiriladi.

Tranzit deklaratsiyasi bojxona hududi bo'ylab bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, tovar kelib tushadigan bojxona organigacha yetkazib berilganligi nazoratini bojxona organlari tomonidan amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatdir.

Tranzit deklaratsiyasi bir yoki bir nechta tovarning kuzatuv hujjatlari bo'yicha tashiladigan tovarning har bir turkumi yoki tovarlarning bir nechta turkumi uchun rasmiylashtiriladi.

Olib chiqilayotgan tovarlarni bojxona nazorati ostida yetkazib berish ustidan nazorat bojxona yuk deklaratsiyasidan foydalangan holda amalga oshiriladi (bundan jismoniy shaxslar tomonidan doimiy yashash joyi o'zgarganligi munosabati bilan bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan shaxsiy mol-mulk mustasno).

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda, tranzit deklaratsiyasi sifatida mazkur shartnomalarda belgilangan hujjatlardan foydalaniladi.

(220-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

221-modda. Bojxona nazorati ostida tashiladigan tovarlar va transport vositalari hamda ularning hujjatlariga identifikatsiyalash vositalarining qo'llanilishi

Jo'natuvchi bojxona organi bojxona hududi bo'ylab bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovarning va (yoki) transport vositasining bojxona identifikatsiyalanishini ta'minlaydi, tovar kelib tushadigan bojxona organi esa qo'yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalarining mavjudligini va butligini tekshiradi. Oraliq bojxona organlari va tovar kelib tushadigan bojxona organlari tovarning kuzatuv hujjatlariga bojxona identifikatsiyalashining yangi vositalari qo'yilganligi to'g'risida qaydlar qo'yib chiqishi mumkin.

Bojxona identifikatsiyalash vositalari transport vositasiga yoki alohida yuk o'rinlariga qo'yilishi mumkin.

Bojxona hududi bo'ylab bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona identifikatsiyalashining asosiy usuli ularga plombalar va muhrlar bosishdan iborat. Plombalar va muhrlarni qo'yish imkoni bo'lmagan taqdirda, ushbu Kodeksning 197-moddasida nazarda tutilgan bojxona identifikatsiyalashining boshqa vositalari qo'llaniladi.

Agar chet davlatlar bojxona organlarining identifikatsiyalash vositalari ushbu Kodeks 227-moddasining birinchi qismida belgilangan talablarga mos emas deb topilsa, jo'natuvchi bojxona organi tovarni va (yoki) transport vositasini bojxona ko'rigidan o'tkazib, ularga bojxona identifikatsiyalashining yangi vositalarini qo'yadi va bu haqda tovarning kuzatuv hujjatlariga tegishli yozuv kiritiladi.

Hujjatlarning bojxona identifikatsiyalashini amalga oshirish maqsadida jo'natuvchi bojxona organi ushbu Kodeks 197-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq bojxona identifikatsiyalash vositalarini qo'llaydi.

222-modda. Tovar bojxona nazorati ostida tashilayotganda bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash chora-tadbirlari

(222-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Chet el tovari bojxona nazorati ostida tashilayotganda bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

(222-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

bojxona hamrohligida kuzatib borishni qo'llash;

tovarning bojxona tashuvchisi tomonidan tashilishi;

ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashni taqdim etish.

Agar tovarlarni bojxona nazorati ostida tashiyotgan transport vositasi ushbu Kodeks 227-moddasining birinchi qismi talablariga muvofiq bo'lmasa, jo'natuvchi bojxona organi tovarlarni bojxona nazorati ostida tashishga transport vositasini lozim darajada jihozlash yoxud mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish sharti bilan ruxsat beradi.

(222-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chora-tadbirlar quyidagi hollarda qo'llanilmaydi, agar:

tovarlar temir yo'l, havo va quvur transportida yoki elektr uzatish liniyalari orqali tashilayotgan bo'lsa;

ushbu chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan bo'lsa.

223-modda. Bojxona hamrohligida kuzatib borishning qo'llanilishi

Bojxona hamrohligida kuzatib borish chet el tovarlarini tashiyotgan avtotransport vositalariga nisbatan qo'llaniladi, bundan quyidagi hollar mustasno:

tovarlarni tashish XYT daftarchasini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi bojxona konvensiyasiga (Jeneva, 1975 yil 14 noyabr) muvofiq amalga oshirilgan taqdirda;

milliy avtotashuvchilar tomonidan import tovarlarni tashish tovarlarni bojxona nazorati ostida tashish uchun jihozlangan transport vositalarida amalga oshirilgan taqdirda;

(223-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishi ta'minlangan taqdirda;

tovarlar bojxona hududiga insonparvarlik yordami va texnik ko'mak sifatida, shuningdek xalqaro pochta jo'natmalari va feld'yeger pochtasi sifatida, tasdiqlovchi hujjatlar bo'lgan taqdirda olib kirilganda.

Bojxona hamrohligida kuzatib borish avtotransport vositasi jo'natuvchi bojxona organiga yetib kelgan paytdan e'tiboran olti soatdan kechiktirmay boshlanadi.

Bojxona hamrohligida kuzatib borish bitta yoki bir nechta avtotransport vositasiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin, lekin ularning soni yigirmatadan oshmasligi kerak.

Bojxona hamrohligida kuzatib borish uchun bojxona yig'imi undiriladi.

Bojxona hamrohligida kuzatib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bojxona organlari chet el tovarlarini tashiyotgan transport vositalarining xavflarni baholash natijalarini hisobga olgan holda bojxona kuzatuvini amalga oshirishi mumkin.

(223-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

224-modda. Avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri yoxud tovarlarni tashishga to'sqinlik qiladigan boshqa vaziyatlar oqibatida ko'riladigan chora-tadbirlar

Avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri yoxud tovarlarni tayin qilingan joyga tashishga to'sqinlik qiladigan boshqa vaziyatlar oqibatida tashuvchi:

tovarning, transport vositasining butligini saqlash va ulardan foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;

eng yaqin bojxona organiga tegishli vaziyatlar, tovarning va transport vositasining turgan joyi to'g'risida darhol xabar berishi;

tovarlarni eng yaqin bojxona organiga yoki bojxona organi ko'rsatgan boshqa joyga olib borishi yoxud, agar uning transport vositasi buzilgan bo'lsa, olib borilishini ta'minlashi shart.

Bojxona organi bojxona nazoratini ta'minlash uchun qo'llaniladigan chora-tadbirlarni sodir bo'lgan hodisaning xususiyatiga, tovar sifatining yo'qotilish darajasi va tovar tashilishini amalga oshirayotgan transport vositasining texnik holatiga bog'liq ravishda belgilaydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan va bojxona hududida sodir bo'lgan hollar belgilangan tartibda tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ushbu moddada nazarda tutilgan choralar ko'rilishi munosabati bilan tashuvchi qilgan xarajatlarning o'rni bojxona organlari tomonidan qoplanmaydi.

225-modda. Bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar bilan yuk operatsiyalari

Bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar bilan yuk operatsiyalari tovar yetkazib berilgan manzilda shu maqsadlarni amalga oshirish uchun maxsus ajratilgan joylarda va bojxona organining ish vaqtida amalga oshiriladi. Yuk operatsiyalarini vakolatli shaxsning yoki tashuvchining yozma arizasiga ko'ra boshqa joylarda va (yoki) qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida yuk operatsiyalarini amalga oshirish zarurati tug'ilgan bo'lsa, o'sha bojxona organining belgilangan ish vaqtidan tashqari paytda o'tkazishga shu bojxona organining nazorati ostida yo'l qo'yiladi.

Bojxona nazorati ostidagi tovarni tashishni amalga oshirayotgan transport vositasi buzilib qolgan taqdirda, uni ushbu Kodeksning 84-moddasida belgilangan vaqtincha saqlash joylarida vaqtincha saqlashga yo'l qo'yiladi. Bunday saqlash muddati bojxona organi tomonidan transport vositasini ta'mirlash uchun ketadigan vaqtdan kelib chiqqan holda belgilanadi, bu muddat tovarning vaqtincha saqlash bojxona rejimida turishining eng ko'p muddatidan oshmasligi lozim.

Tovar bilan yuk operatsiyalarining o'tkazilishi tovarning yo'qotilishiga yoki xossalari o'zgarishiga olib kelishi ehtimoli bo'lgan yoxud shu tovar ustidan bundan buyongi bojxona nazoratini amalga oshirish imkoni bo'lmasligiga sabab bo'lgan taqdirdagina bojxona organi tovar bilan yuk operatsiyalarini o'tkazishni rad etishi mumkin.

Bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar tushirilib, boshqa transport vositasiga qayta ortilgan taqdirda, mazkur bobda bayon etilgan talablar va shartlarga rioya etishga ushbu tovarni bojxona nazorati ostida bundan buyongi tashish uchun qabul qilib olgan tashuvchi javobgar bo'ladi.

226-modda. Tovarlarni va ularga doir hujjatlarni bojxona organi tomonidan belgilanadigan joyga yetkazib berish

Tovar kelib tushadigan bojxona organi joylashgan yerlarga yoki jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilangan boshqa joylarga tovar yetkazib beriladi.

Tovar kelib tushadigan bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda tovar yetkazib berilgan taqdirda, u bojxona nazorati zonasiga joylashtiriladi. Tashuvchi tovar kelib tushadigan bojxona organini tovar yetkazib berilganligi to'g'risida quyidagilarni taqdim qilish orqali xabardor qiladi:

tranzit deklaratsiyasini;

(226-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

tovarning kuzatuv hujjatlarini;

yetkazib berilgan tovarlarni.

Xabar qilish tovarlar yetkazib berilganidan keyin o'ttiz daqiqadan kechiktirmay, tovarlar tovar kelib tushadigan bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytida yetkazib berilgan

taqdirda esa, bojxona organining ish vaqti boshlanganidan keyin o'ttiz daqiqadan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

Tovar kelib tushadigan bojxona organi xabarnomani olgan paytdan e'tiboran uch soat ichida tovarning kuzatuv hujjatlariga belgi qo'yish orqali tovar va transport vositasi yetkazib berilganligi faktini tasdiqlaydi. Bojxonaga oid huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda tovar va transport vositasi yetkazib berilganligi to'g'risidagi tasdiqnoma tekshirish tugallanguniga qadar to'xtatib turiladi.

Yetkazib berilganligi tasdiqlangan paytdan e'tiboran tovar vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovar maqomini oladi.

Tovar yetkazib berilganidan hamda tovar kelib tushadigan bojxona organiga tegishli hujjatlar va ma'lumotlar taqdim qilinganidan keyin tovar tushirib olinishi yoki qayta ortilishi, bojxona omboriga vaqtincha saqlash uchun joylashtirilishi, muayyan bojxona rejimiga ma'lum qilinishi mumkin.

Ushbu moddaning talablarida nazarda tutilgan harakatlar yoki holatlar oqibatida tashuvchi qilgan xarajatlar tashuvchining hisobiga yoziladi va ularning o'rni bojxona organlari tomonidan qoplanmaydi.

32-bob. Transport vositasiga tovarlarni bojxona plombalari va muhrlari ostida tashishga ruxsat berish to'g'risidagi guvohnoma

227-modda. Tovarlar bojxona plombalari va muhrlari ostida tashilayotgan transport vositalarining jihozlanishiga doir talablar

Bojxona plombalari va muhrlari ostida tovarlarni tashish uchun transport vositalari quyidagi talablarga rioya etilgan holda konstruksiyalangan va jihozlangan bo'lishi kerak:

bojxona plombalari va muhrlarini bevosita transport vositasiga oddiy va ishonchli usulda qo'yish mumkinligi;

tashilayotgan tovarni transport vositasining plombalangan qismidan ko'zga tashlanadigan izlar qoldirmasdan chiqarib olish yoki unga boshqa tovarni joylash yoxud bojxona tamg'alariga yoki muhrlariga shikast yetkazish imkoniyati yo'qligi;

transport vositasi va uning yuk bo'lmalari ularning ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan konstruksiyasiga doir texnik talablarga muvofiq bo'lishi kerak va ularda tashilayotgan tovarlarni yashirish uchun mo'ljallangan xufiya joylar mavjud bo'lmasligi kerak;

transport vositasining tovarlar turishi mumkin bo'lgan yuk bo'lmalarining tuzilishi bojxona ko'zdan kechiruvi uchun erkin kirib chiqishni ta'minlashi kerak.

Transport vositasining ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan talablarga muvofiqligi transport vositasiga tovarlarni bojxona plombalari va muhrlari ostida tashishga ruxsat berish to'g'risidagi guvohnomani (bundan buyon matnda guvohnoma deb yuritiladi) olish yo'li bilan oldindan tasdiqlanishi mumkin.

Bojxona organlari transport vositasiga tovarlarni bojxona plombalari va muhrlari ostida tashish uchun oldindan ruxsat olinishini talab qilmaydi, bundan quyidagi hollar mustasno, agar:

tovarlarni tashish bojxona tashuvchisi tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa;

ruxsat olinishi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan bo'lsa.

Guvohnoma bojxona organi tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning arizalari asosida beriladi hamda yuk tashuvchi avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar uchun tovarlarni bojxona plombalari va muhrlari ostida tashishni amalga oshirish uchun ruxsat hisoblanadi.

Guvohnoma:

arizachi yuk tashuvchi avtotransport vositalarini, tirkamalarni va yarim tirkamalarni ishlatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lganda — yakka tartibda;

arizachi ayni bir turdagi konstruksiyaga ega bo'lgan yuk tashuvchi avtotransport vositalarini, tirkamalarni va yarim tirkamalarni seriyali ishlab chiqaruvchi zavod bo'lganda — konstruksiyaning turi bo'yicha (yuk tashuvchi avtotransport vositalarining, tirkamalarning va yarim tirkamalarning seriyasi) berilishi mumkin.

Guvohnomaning amal qilish muddati ikki yilni tashkil etadi.

228-modda. Guvohnoma olish uchun talablar va shartlar

Guvohnoma olish uchun transport vositasi ushbu Kodeks 227-moddasining birinchi qismi talablariga va XYT daftarchasini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi bojxona konvensiyasida (Jeneva, 1975 yil 14 noyabr) nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo'lishi kerak.

229-modda. Guvohnoma olish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Yakka tartibda guvohnoma olish uchun arizachi bojxona organiga O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki «Litsenziya» axborot tizimi orqali quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

guvohnoma olish uchun elektron shakldagi arizani;

transport vositasiga nisbatan mulk huquqini yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatning ko'chirma nusxasini;

avtotransport vositasining oldidan, orqadan, chapdan, o'ngdan ko'rinishi, shuningdek plombalar va muhrlar qo'yiladigan joyning tasviri mavjud bo'lgan, arizachi tomonidan tasdiqlangan rangli fotosuratlarni. Bitta fotosuratda bitta avtotransport vositasining ko'pi bilan ikki tomonini bir vaqtning o'zida tasvirlashga yo'l qo'yiladi.

Konstruksiyaning turi bo'yicha guvohnoma olish uchun arizachi qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida avtotransport vositalari ishlab chiqariladigan bo'lsa, o'sha bojxona organiga O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki «Litsenziya» axborot tizimi orqali quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

guvohnoma olish uchun elektron shakldagi arizani;

transport vositasi konstruksiyasining chizmalarini va batafsil tavsifini;

avtotransport vositasining oldidan, orqadan, chapdan, o'ngdan ko'rinishi, shuningdek plombalar va muhrlar qo'yiladigan joyning tasviri mavjud bo'lgan, arizachi tomonidan tasdiqlangan rangli fotosuratlarni. Bitta fotosuratda bitta avtotransport vositasining ko'pi bilan ikki tomonini bir vaqtning o'zida tasvirlashga yo'l qo'yiladi.

Arizachidan ushbu moddada ko'rsatilmagan boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Hujjatlardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun arizachi javobgar bo'ladi.

(229-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

230-modda. Arizani ko'rib chiqish va guvohnoma berish to'g'risida yoki uni berishni rad etish haqida qaror qabul qilish

Guvohnoma berish to'g'risida yoki uni berishni rad etish haqida qaror qabul qilish uchun bojxona organi:

guvohnoma yakka tartibda berilayotganda — taqdim qilingan transport vositasining ushbu Kodeksning 228-moddasida nazarda tutilgan guvohnoma berish talablari va shartlariga muvofiqligini tekshirishni amalga oshiradi;

guvohnoma konstruksiyaning turi bo'yicha berilayotganda — konstruksiyaning ma'lum qilingan turi bo'yicha tayyorlangan bir yoki bir nechta transport vositasining ushbu Kodeksning 228-moddasida nazarda tutilgan guvohnoma berish talablari va shartlariga muvofiqligini tekshirishni amalga oshiradi.

Bojxona organi tomonidan guvohnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish hamda guvohnoma berish to'g'risida yoki uni berishni rad etish haqida qaror qabul qilish muddatlari ariza qabul qilingan sanadan e'tiboran quyidagi muddatlardan oshmasligi kerak:

guvohnoma yakka tartibda berilganda — o'n ish kunidan;

guvohnoma konstruksiyaning turi bo'yicha berilganda — yigirma ish kunidan.

Guvohnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik va guvohnoma berganlik uchun bojxona yig'imlari undirilmaydi.

Bojxona organi tegishli qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay arizachiga guvohnoma berishi (yuborishi) yoki guvohnoma berish rad etilganligi haqida uni O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki «Litsenziya» axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilishi shart.

(230-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Arizachi guvohnoma berish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki «Litsenziya» axborot tizimi orqali xabarnoma olganidan keyin respublikaning istalgan bojxona organiga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda to'ldirilgan guvohnomani taqdim etadi. Bojxona organi guvohnoma ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki «Litsenziya» axborot tizimi orqali tekshiradi va uni muhr bilan tasdiqlaydi.

(230-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Guvohnoma berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

guvohnoma berish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning arizachi tomonidan to'liq hajmda taqdim etilmaganligi;

avtotransport vositasining ushbu Kodeks 227-moddasida belgilangan talablar va shartlarga nomuvofiqligi;

arizachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi.

Guvohnoma berishni boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu modda oltinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan faktlar aniqlanganda, agar arizada bartaraf etilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar mavjud bo'lsa, bojxona organi ularni bartaraf etish uchun arizachiga muddat beradi. Kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi to'g'risidagi xabarnoma bojxona organi tomonidan bir ish kuni ichida O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki «Litsenziya» axborot tizimi orqali elektron shaklda arizachiga yuboriladi.

Xabarnomada taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish usullari, shuningdek arizachi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf qilib, tegishli hujjatlarni ko'rib chiqish uchun takroran taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatiladi. Xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga mutanosib bo'lishi, lekin o'ttiz ish kunidan oshmasligi kerak.

Bojxona organi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida arizachiga malakali xodimlarni izlashda, hujjatlarni va dasturlarni maromiga yetkazish uchun mutaxassislarni jalb etishda, shuningdek guvohnomani olish uchun boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratishda ko'maklashishi va zarur maslahatlar berishi kerak, bundan arizachi taklif etilgan yordamni rad etgan hollar mustasno.

Kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida xabarnoma yuborilgan taqdirda, guvohnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati to'xtatib turiladi.

Hujjatlar xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etmasdan yoki xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin takroran taqdim etilgan taqdirda, bojxona organi guvohnoma berishni rad etish haqida qaror qabul qilishga haqli. Bunda guvohnoma berishni kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

(230-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi — o'n ikkinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Guvohnoma berish rad etilganligi haqida qaror qabul qilingan taqdirda rad etish to'g'risidagi xabarda rad etish sabablari va qonunchilikning normalari ko'rsatilishi lozim.

(230-moddaning sakkizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Arizachi rad etish sabablarini bartaraf qilishga va hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishga haqli bo'lgan muddat guvohnoma berish rad etilganligi haqidagi xabar olingan sanadan e'tiboran o'n ish kunini tashkil etadi.

Guvohnoma berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar arizachi tomonidan bartaraf qilingan taqdirda arizani takroran ko'rib chiqish va (yoki) avtotransport vositasini tekshirish, guvohnoma berish yoki uni berishni rad etish ariza qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan oshmaydigan muddatda bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Xabarda ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin berilgan ariza yangitdan berilgan deb hisoblanadi va umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Guvohnoma berish to'g'risidagi ariza takroran ko'rib chiqilayotganda guvohnoma berishni rad etish to'g'risidagi xabarda ilgari ko'rsatilmagan asoslarga ko'ra guvohnoma berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Arizachi bojxona organining guvohnoma berishni rad etish to'g'risidagi qarori, shuningdek bojxona organi mansabdor shaxsining harakati (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

231-modda. Guvohnomaning amal qilishini tugatish

Guvohnomaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

avtotransport vositasi tovarlarni bojxona plombalari va muhrlari ostida tashish uchun yaroqsiz holga kelganda;

avtotransport vositalarining milliy davlat ro'yxatidan o'tkazish raqamlari almashganda;

guvohnomaning amal qilish muddati tugaganda.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelishi bilan guvohnomaning amal qilishi tugatilgan deb hisoblanadi hamda guvohnomaning amal qilishi tugatilganligi to'g'risida bojxona organi tomonidan qaror qabul qilish talab etilmaydi.

(231-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

232-modda. Guvohnomani bekor qilish

Guvohnoma quyidagilar asosida bekor qilinadi:

arizachining guvohnomani bekor qilish to'g'risidagi arizasi;

transport vositasining konstruksiyasi o'zgartirilganligi fakti — guvohnoma konstruksiyaning turi bo'yicha berilganda;

guvohnoma qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda;

bojxona organining guvohnoma berish to'g'risidagi qarori qonunga xilof ekanligi aniqlanganda.

(232-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Guvohnoma ushbu modda birinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko'rsatilgan hollarda bojxona organi tomonidan, ushbu modda birinchi qismining to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan hollarda esa sud tomonidan bekor qilinadi.

(232-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Guvohnoma bekor qilingan taqdirda u bojxona organiga qaytarilishi va yo'q qilinishi lozim.

Guvohnomani bekor qilish to'g'risidagi sud qarori arizachiga va bojxona organiga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

(232-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Guvohnomani bekor qilish to'g'risidagi bojxona organining qarori arizachiga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Yagona

interaktiv davlat xizmatlari portali yoki «Litsenziya» axborot tizimi orqali yetkaziladi.

(232-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

233-modda. Guvohnomani qayta rasmiylashtirish, guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish va uning dublikatini berish

Guvohnoma qayta rasmiylashtirilmaydi.

Guvohnomaning amal qilish muddati tugagach guvohnomaning amal qilishi arizachining arizasiga ko'ra uzaytirilishi mumkin. Guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza bojxona organiga guvohnomaning amal qilish muddati tugaguniga qadar berilishi lozim. Guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish guvohnoma berish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun bojxona yig'imi undirilmaydi.

Guvohnoma yo'qotilgan yoki unga shikast yetkazilgan taqdirda dublikat berilmaydi. Bunda arizachining arizasiga ko'ra umumiy asoslarda yangi guvohnoma beriladi.

234-modda. Guvohnomaga qaydlar kiritish tartib-taomili

Agar xalqaro yuk tashishni amalga oshirayotgan, bunga ruxsat etilgan avtotransport vositasida jiddiy nosozliklar aniqlansa, bojxona organlari avtotransport vositasining harakatlanishini davom ettirishni taqiqlab qo'yishi yoxud nazorat bo'yicha zarur choralar ko'rib, avtotransport vositasining yurishda davom ettirishiga ruxsat berishi mumkin.

Ruxsat etilgan avtotransport vositasi mumkin qadar qisqa vaqtda va undan yuklarni bojxona plombalari va muhrlari ostida tashish uchun qayta foydalanilguniga qadar qoniqarli holatga keltirilishi kerak.

Avtotransport vositasi ta'mirlash natijasida tashishga ruxsat etish shartlariga mos keladigan holatga keltirilganidan so'ng u guvohnomaning amal qilishini tiklaydigan bojxona organiga taqdim etilishi kerak.

Jiddiy nosozliklar aniqlangan avtotransport vositasidan ushbu moddaning uchinchi qismida belgilanganidek, tegishli ta'mirlash o'tkazilmaguniga qadar yuklarni bojxona plombalari va muhrlari ostida tashish uchun yana foydalanilishi mumkin emas.

Guvohnomaga kiritilgan har bir qayd uning kiritilish sanasi qo'yilgan holda, ushbu qaydni kiritgan bojxona organi mansabdor shaxsining imzosi va shaxsiy muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

Agar avtotransport vositasida bojxona organlarining fikricha jiddiy xususiyatga ega bo'lmagan va bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilishiga imkon yaratmaydigan nosozliklar bo'lsa, bu transport vositasidan keyinchalik yuklarni tashish uchun foydalanishga ruxsat etilishi mumkin. Guvohnomaning egasi bo'lgan arizachi mazkur nosozliklar to'g'risida xabardor qilinadi va u o'zining avtotransport vositasini tegishli tarzda ta'mirlashi kerak.

(234-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

33-bob. Bojxona tashuvchisining faoliyati

235-modda. Bojxona tashuvchisi

Bojxona tashuvchisi ushbu Kodeksning 236-moddasida belgilangan talab va shartlarga javob beruvchi O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsidir.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi Bojxona tashuvchilarining reyestriga kiritilganidan keyin bojxona tashuvchisi deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona tashuvchilarining reyestrini yuritadi va rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlaydi.

Bojxona tashuvchisi bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni tashishni bojxona hamrohligida kuzatib borishni qo'llamagan holda amalga oshiradi.

Bojxona tashuvchilarining tovarlarni jo'natuvchilar va oluvchilar bilan o'zaro munosabatlari shartnoma asosida yo'lga qo'yiladi.

236-modda. Bojxona tashuvchilarining reyestriga kiritilish shartlari

O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsini Bojxona tashuvchilarining reyestriga kiritish shartlari quyidagilardan iborat:

avtotransportda yuklarni xalqaro tashish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaning mavjudligi va bojxona organiga ariza berilgan sanaga qadar kamida ikki yil davomida ushbu faoliyat amalga oshirilganligi;

ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishining ta'minlanganligi;

ushbu Kodeksning 227-moddasi talablariga muvofiq tovarlarni bojxona plombalari va muhrlari ostida tashish uchun yaroqli avtotransport vositalarining borligi;

O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining fuqarolik javobgarligi xavfini sug'urtalash shartnomasi borligi.

237-modda. Bojxona tashuvchilarining reyestriga kiritilish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Bojxona tashuvchilarining reyestriga kiritilish uchun O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan shaklda yozilgan ariza;

ushbu Kodeksning 236-moddasida nazarda tutilgan shartlarga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Arizachidan ushbu moddada nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Arizachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar bojxona organi aksini isbotlamagunicha, barcha hollarda to'g'ri deb hisoblanadi.

Hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik arizachining zimmasida bo'ladi.

238-modda. Bojxona tashuvchilarining reyestridan chiqarilish uchun asos

Bojxona tashuvchilarining reyestridan chiqarilish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

bojxona tashuvchisining o'zini Bojxona tashuvchilarining reyestridan chiqarish to'g'risidagi arizasi;

Bojxona tashuvchilarining reyestriga kiritilish shartlariga rioya etilmaganligi;

ushbu Kodeksning 239-moddasida nazarda tutilgan majburiyatlarga bojxona tashuvchisi tomonidan rioya etilmaganligi;

bojxona tashuvchisining qayta tashkil etilganligi, bundan uning o'zgartirilganligi mustasno;

bojxona tashuvchisining qonunchilikka muvofiq tugatilganligi.

(238-moddaning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

239-modda. Bojxona tashuvchisining huquq va majburiyatlari

Bojxona tashuvchisi quyidagilarga haqli:

1) bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni bojxona hamrohligida kuzatib borishni qo'llamagan holda tashishga;

2) quyidagi hollarda tovarlarni va transport vositalarini tashish uchun qabul qilmaslikka, agar:

tovarning kuzatuv hujjatlari belgilangan tartibni buzgan holda rasmiylashtirilgan bo'lsa;

avtotransport vositasiga va tovarlar o'roviga qo'yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalari tashilayotgan tovarlarga shunday ta'minlov choralarini buzmasdan tegish imkoniyatini istisno etmasa.

Bojxona tashuvchisi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(239-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona tashuvchisi:

bojxona nazorati ostida tashiladigan tovarlarning hisobini yuritishi va bojxona organlariga shunday tovarlarni tashish to'g'risida hisobot taqdim etishi;

bazaviy hisoblash miqdori oshgan taqdirda, ushbu Kodeks 236-moddasi uchinchi xatboshisida belgilangan talablarni bajarishni bazaviy hisoblash miqdori oshgan kundan e'tiboran bir oy ichida ta'minlashi;

(239-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 3 dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son)

tovarlarni jo'natuvchidan, qabul qiluvchidan olingan, davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etadigan axborotni oshkor etmasligi, undan shaxsiy maqsadlari uchun foydalanmasligi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

(239-modda uchinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

tovarlarni jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilangan joyga, yo'nalishda va muddatlarda, ularning o'rovini yoki holatini o'zgartirmasdan, bundan tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlar mustasno, yetkazib berishdan boshqa maqsadlarda foydalanmasdan yetkazib berishi;

tovarlarni va ularga oid hujjatlarni tovar kelib tushadigan bojxona organiga taqdim etishi, ushbu bojxona organi mansabdor shaxslarining talabiga ko'ra esa tovarlarni tovar kelib tushadigan bojxona organiga amalda taqdim etishi;

bitta avtotransport vositasida bojxona nazorati ostida turgan tovarlar bilan bir vaqtda boshqa tovarlarni tashimasligi;

tashilayotgan tovarlarning but saqlanishini ta'minlashi;

belgilangan joyga bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda keltirilgan tovarlarni bojxona nazorati zonasiga joylashtirishi;

tovarlar yetkazib berilganidan keyin ularni tovar kelib tushadigan bojxona organiga xabar bermagan holda to'xtash joyida qarovsiz qoldirmasligi, tovarlarni o'ramasligi va qayta o'ramasligi, bojxona identifikatsiyalash vositalarini o'zgartirmasligi, olib tashlamasligi va yo'q qilmasligi. Agar bojxona tashuvchisi transport vositasi ekipajining hayoti va sog'lig'iga haqiqiy xavf tahdid solganligini, tovarlarning yoki transport vositasining yo'q qilinishi, qaytarib bo'lmas holatda yo'qotilishi yoki jiddiy buzilishi xavfi mavjud bo'lganligini isbotlasa, ushbu majburiyatning buzilishi bojxona tashuvchisining javobgarligiga olib kelmaydi. Mazkur holatlar to'g'risida bojxona tashuvchisi eng yaqin bojxona organini darhol xabardor qilishi shart;

o'z xodimlariga tovarlarni bojxona nazorati ostida tashish qoidalarini o'rgatishi;

avtotransport vositalarini tegishli texnik holatda saqlab turishi hamda ularning ushbu Kodeksning 227 va 236-moddalari talablari va shartlariga muvofiqligini ta'minlashi;

o'z kuchi yoki shartnoma asosida boshqa tashkilotlarning kuchi bilan tovarlar o'z avtotransport vositalariga ortilishini yoki qayta ortilishini, shu avtotransport vositalaridan tushirilishini yoki qayta ortilishini ta'minlashi;

tovar kelib tushadigan bojxona organining talabiga ko'ra, bojxona organi tomonidan belgilangan muddatda tovarlarning to'xtash, tushirish va qayta ortish joyini o'zgartirishni, tovarlarning va transport vositalarining dastlabki turgan joyi o'zgartirilishini, bojxona identifikatsiyalash vositalari o'zgartirilishi, olib tashlanishi yoki yo'q qilinishini ta'minlashi;

avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri chog'ida tovarlarning va transport vositalarining but saqlanishini ta'minlash hamda ulardan biror-bir tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarur choralarni ko'rishi. Bunda avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'sirining holatlari, tovarlar va o'zining transport vositalari turgan joy to'g'risida eng yaqin bojxona organiga darhol xabar berishi, tovarlarning va transport vositalarining eng yaqin bojxona organiga tashilishini ta'minlashi hamda ushbu bojxona organi tomonidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun belgilanadigan boshqa choralarni ko'rishi;

Bojxona tashuvchilarining reyestriga kiritilish paytida ma'lum qilingan ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida shunday o'zgartishlar kiritilgan sanadan e'tiboran besh ish kuni ichida bojxona organini xabardor qilishi shart.

Bojxona tashuvchisining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(239-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

V bo'lim. Bojxona ishida valyuta nazorati va tashqi savdo operatsiyalarining monitoringi

34-bob. Valyuta nazorati

240-modda. O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasi va naqd chet el valyutasi olib kirilayotganda va olib chiqilayotganda nazoratni amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasi va naqd chet el valyutasi olib kirilishi va olib chiqilishi ustidan nazorat jismoniy shaxslar bojxona chegarasini kesib o'tayotganda bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi.

241-modda. O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasi va naqd chet el valyutasi jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilayotganda va olib chiqilayotganda tekshiruvni amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasi va naqd chet el valyutasi olib kirilayotganda va olib chiqilayotganda jismoniy shaxsni tekshirish valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonunchilik buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish maqsadida amalga oshiriladi.

(241-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston Respublikasi naqd milliy valyutasi va naqd chet el valyutasi olib kirilayotganda va olib chiqilayotganda quyidagilar tekshiriladi:

olib kirilishiga va olib chiqilishiga ruxsat etilgan summalarning cheklangan normalariga rioya etilishi;

olib kirilishiga va olib chiqilishiga ruxsat etilgan summalarning belgilangan cheklangan normalaridan ortiq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasi va naqd chet el valyutasi olib kirilayotganda va olib chiqilayotganda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yoki vakolatli banklarning ruxsatnomasi mavjudligi;

jismoniy shaxsda mavjud bo'lgan summaning bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligi.

242-modda. O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasini va naqd chet el valyutasini noqonuniy olib kirish hamda olib chiqish bilan bog'liq huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda ko'riladigan choralar

O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasini va naqd chet el valyutasini noqonuniy olib kirish va olib chiqish bilan bog'liq huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda bojxona organlari noqonuniy olib kirilayotgan va olib chiqilayotgan O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasini va naqd chet el valyutasini olib qo'yadi, tergovga qadar tekshiruv o'tkazadi, ma'muriy ish yoki jinoyat ishini qo'zg'atadi.

(242-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 maydagi O'RQ-542-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son)

Bojxona organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga O'zbekiston Respublikasi naqd milliy

valyutasi va naqd chet el valyutasi noqonuniy olib kirilganligi va olib chiqilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

(242-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)

35-bob. Tashqi savdo operatsiyalari monitoringi

243-modda. Tashqi savdo operatsiyalari ustidan monitoringni amalga oshirish

Tashqi savdo operatsiyalari monitoringi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari o'rtasida tuzilgan, tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish bilan bog'liq bo'lgan va qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yoki chet el valyutasida o'zaro hisob-kitoblar qilishni nazarda tutuvchi kontraktlarning (shartnomalarning, kelishuvlarning) bajarilishini kuzatib borish va tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kontraktlarning (shartnomalarning, kelishuvlarning) bajarilishini monitoring qilish jarayonida Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimida mavjud bo'lgan axborot bojxona yuk deklaratsiyasi bilan solishtiriladi, tovarlarning amaldagi miqdori va sifati bo'yicha tavsiflarining hamda assortimentining Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligi nazorat qilinadi, shuningdek kontraktlarning qonunchilik talablariga muvofiqligi tekshiriladi hamda mazkur kontraktlar (shartnomalar, kelishuvlar) yuzasidan muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik qarzlar bor-yo'qligi aniqlanadi.

(243-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

244-modda. Tashqi savdo operatsiyalari monitoringini amalga oshirishda bojxona organlarining boshqa vakolatli organlar bilan o'zaro hamkorligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi valyuta nazoratini amalga oshiruvchi organlardan biri bo'lib, tashqi savdo operatsiyalari sohasida boshqa vakolatli organlar, shuningdek banklar va o'zga tashkilotlar bilan axborot almashish, shu jumladan Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi orqali axborot almashish yo'li bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

245-modda. Valyutaga oid qonunchilik buzilishlarining belgilari bojxona organlari tomonidan aniqlangan taqdirda ko'riladigan choralar

(245-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Valyutaga oid qonunchilik buzilishlarining belgilari aniqlangan taqdirda bojxona organlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasini quyidagi faktlardan xabardor qiladi:

(245-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

olib kirilayotgan (olib chiqilayotgan) tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvida bojxona organiga tovarning faktura qiymatini eksport qiluvchi (import qiluvchi) mamlakatda tovarning ma'lum qilingan qiymatiga nisbatan asossiz ravishda oshirish (kamaytirish) maqsadida noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilganligi;

tovarlarning kontraktlar (shartnomalar, kelishuvlar) bo'yicha kontragent bo'lmagan yetkazib beruvchilardan kelib tushganligi;

(245-moddaning birinchi qismi to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 26 iyuldagi O'RQ-488-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.07.2018 y., 03/18/488/1579-son)

eksport-import operatsiyalari amalga oshirilayotganda qonunchilikni boshqa tarzda buzish hollari.

(245-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Taqdim etilgan faktlar soliq organlari tomonidan tasdiqlangan, shuningdek valyutani nazorat qilish sohasida huquqbuzarlik sodir etilganlik faktlari boshqa vakolatli organlar tomonidan taqdim etilgan taqdirda bojxona organlari:

O'zbekiston Respublikasidan eksport qilinayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini kontraktlar bo'yicha muddati o'tgan debitorlik qarzi uzilguniga qadar rad etishga bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

(245-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

qo'shimcha bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarishga va undirishga;

valyuta tushumlari bilan bog'liq materiallarni O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlariga berishga;

«Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan huquqlar doirasida boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqli.

VI bo'lim. Bojxona rasmiylashtiruvi

36-bob. Umumiy qoidalar

246-modda. Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish

Vakolatli shaxs tomonidan tanlangan bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarlar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim.

Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish tartibi foydalanilayotgan transportning turlari, tovarlar va transport vositalarini olib o'tayotgan jismoniy shaxslarning toifalari hisobga olingan holda, bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarning turiga qarab qo'llaniladi.

Bojxona rasmiylashtiruvi tovarlarning ishlab chiqarilgan, jo'natilgan va kelib tushgan mamlakatidan, bojxona chegarasi orqali olib o'tish maqsadidan va bojxona hududida foydalanilishidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

Boshqa davlatlarning bojxona nazorati uchun foydalaniladigan hujjatlari bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish va tezlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq qo'llanilishi mumkin.

247-modda. Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish joyi va vaqti

Bojxona rasmiylashtiruvi bojxona organlari joylashgan yerda va ularning ish vaqtida amalga oshiriladi.

Bojxona rasmiylashtiruvi deklarantning yoki boshqa vakolatli shaxsning so'roviga ko'ra va uning hisobidan boshqa joylarda hamda bojxona organining ishdan tashqari vaqtida amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona rasmiylashtiruvining bojxona organlari joylashgan yerlarda emas, balki bevosita o'z hududlarida yoki binolarida amalga oshirilishidan manfaatdor bo'lgan shaxslar bu organlarga xizmat va maishiy binolarni, uskunalarni hamda aloqa vositalarini tekin asosda foydalanish huquqini taqdim etadi.

248-modda. Bojxona rasmiylashtiruvining boshlanishi va tugallanishi

Bojxona rasmiylashtiruvi bojxona organiga tovarlar va (yoki) transport vositalari xususida hujjatlar taqdim etilgan paytdan, ushbu Kodeksning 162-moddasida nazarda tutilgan hollarda esa, og'zaki ma'lum qilingan yoxud jismoniy shaxsning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish niyatidan dalolat beruvchi boshqa harakatlar bajarilgan paytdan e'tiboran boshlanadi.

Bojxona rasmiylashtiruvi bojxona organi va deklarant yoxud vakolatli shaxs o'rtasidagi tovarlarni bojxona rejimiga joylashtirish va (yoki) bojxona rejimining amal qilishini tugallash, bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash yoxud ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tartibga solinganidan keyin tugallanadi.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi:

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda veterinariya, fitosanitariya nazorati, ekologik nazorat va boshqa turdagi davlat nazorati amalga oshirilganidan keyin;

(248-modda uchinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

agar ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, mazkur hujjatlarning mavjudligi tasdiqlanganidan keyin tugallanadi.

(248-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi hamda taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan va barcha zarur hujjatlar hamda ma'lumotlar taqdim etilgan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur muddat xavflarni boshqarish tizimida belgilangan zarur tadbirlarni, shuningdek boshqa davlat organlari tomonidan tovarlar va (yoki) transport vositalari ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqtni o'z ichiga olmaydi.

(248-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

249-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar

Bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona organlariga ro'yxati va topshirilish muddatlari ushbu Kodeksda belgilangan hujjatlar hamda ma'lumotlar taqdim etilishi kerak.

Tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi bojxona organlarining axborot tizimidagi to'lovchining shaxsiy hisobvarag'i bo'yicha bojxona to'lovlari to'langanligi (bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashga muhlat berilgan hollar bundan mustasno) to'g'risidagi, xizmat ko'rsatuvchi banklar (g'aznachiliklar) tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Tegishli bojxona rejimiga joylashtirish uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar olinishini talab etuvchi tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda bojxona organi bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatning mavjudligini tekshiradi.

Bojxona organlarining axborot tizimida tegishli ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat mavjud bo'lmagan taqdirda bojxona organlari bojxona rasmiylashtiruvini rad etish huquqiga ega.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan tegishli ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz tovarning chiqarib yuborilishiga yo'l qo'ygan bojxona organining mansabdor shaxsi belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim.

250-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda vakolatli shaxslarning hozir bo'lishi

Vakolatli shaxslar tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda hozir bo'lishga hamda bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda bojxona organlarining mansabdor shaxslariga ko'maklashishga haqli, bojxona organining talabiga ko'ra esa hozir bo'lishi va ko'maklashishi shart.

251-modda. Ayrim tovarlar bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibi

Ayrim tovarlar bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tovarni jo'natuvchi bojxona organidan tovar kelib tushadigan bojxona organigacha ushbu Kodeksning 222-moddasida nazarda tutilgan choralarni qo'llamagan holda yetkazib berishni;

tovarni bojxona ombori maqomiga ega bo'lmagan joylarga joylashtirishni;

tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini tovarlar kuzatuv hujjatlarining ko'chirma nusxalari asosida amalga oshirib, keyinchalik ushbu hujjatlarning asl nusxalarini taqdim etishni;

bojxona yuk deklaratsiyasining bojxona rasmiylashtiruvida hujjatlarni tekshirishni tovarning namunalari va nusxalarini olmagan holda amalga oshirishni.

Ayrim tovarlar bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibi qonunchilikka muvofiq boshqa choralarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

(251-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan, avariyalar yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatlarini tugatish uchun zarur bo'lgan tovarlarning, shuningdek insonparvarlik yordami sifatida yuborilayotgan tovarlarning, tez buziladigan tovarlarning, tirik hayvonlarning, radioaktiv materiallarning bojxona rasmiylashtiruvi birinchi navbatda va soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

37-bob. Deklaratsiyalash

252-modda. Deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan tovarlar va (yoki) transport vositalari

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda, bojxona rejimi o'zgartirilayotganda, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan boshqa hollarda bojxona organlariga deklaratsiyalanishi lozim.

253-modda. Deklaratsiyalash joyi

Tovarlarga doir bojxona deklaratsiyasi bojxona deklaratsiyasini qabul qilib olish vakolatiga ega bo'lgan istalgan bojxona organiga taqdim etilishi mumkin.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tovarlarning va (yoki) transport vositalarining ayrim toifalarini deklaratsiyalash quyidagilarga bog'liq holda faqat muayyan bojxona organlarida amalga oshirilishi kerakligini belgilaydi:

(253-modda ikkinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

madaniy boyliklarning, qurol-yarog'ning, harbiy texnikaning va o'q-dorilarning, radioaktiv materiallarning bojxona rasmiylashtiruvi uchun maxsus asbob-uskunalar va (yoki) maxsus bilimlar qo'llanilishi zarurligiga;

tovarlarni xalqaro tashish uchun foydalaniladigan transportning turiga (avtomobil, havo, temir yo'l, daryo, quvur transporti va elektr uzatish liniyalari);

bojxona to'g'risidagi qonunchilikning bir necha marta buzilishi hollari qayd etilgan yoki iqtisodiy siyosat choralari belgilangan tovarlarning alohida turlariga;

(253-modda ikkinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

tarkibida intellektual mulk ob'yektlari bo'lgan tovarlarga.

Tovarlarni tashiyotgan transport vositalari tovarlar bilan bir vaqtda deklaratsiyalanadi.

Yuksiz transport vositalari va yo'lovchilarni tashiyotgan transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tayotganda deklaratsiyalanadi.

Daryo va havo kemalari bojxona hududiga kelish joyidagi daryo portida yoki aeroportda yoxud bojxona hududidan ketish joyidagi daryo portida yoki aeroportda deklaratsiyalanadi.

254-modda. Deklaratsiyalashning shakli

Deklaratsiyalash tovarlar va (yoki) transport vositalari to'g'risidagi, ularning bojxona rejimlari haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni hamda bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni belgilangan shaklda (og'zaki, yozma, elektron) ma'lum qilish orqali amalga oshiriladi.

255-modda. Bojxona deklaratsiyasi

Bojxona nazorati maqsadlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjat bojxona deklaratsiyasidir.

Bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarning ro'yxati bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va undirish, bojxona statistikasini shakllantirish va bojxona to'g'risidagi qonunchilikni qo'llash maqsadi uchun zarur ma'lumotlar bilangina cheklanadi. Bojxona deklaratsiyasidan bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta nazorati maqsadlari uchun hisobga olish hujjati sifatida foydalanilgan taqdirda, bojxona deklaratsiyasida shu maqsad uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak.

(255-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona deklaratsiyalarining shakli, ularda ko'rsatiladigan ma'lumotlarning ro'yxati, ularni bojxona organlariga berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

256-modda. Bojxona deklaratsiyalarining turlari

Tovarlar va (yoki) transport vositalari deklaratsiyalanayotganida bojxona deklaratsiyalarining quyidagi turlari qo'llaniladi:

transport vositasi uchun deklaratsiya;

tranzit deklaratsiyasi;

(256-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

bojxona yuk deklaratsiyasi;

yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi.

257-modda. Transport vositasi uchun deklaratsiya

Transport vositasi uchun deklaratsiya transport vositasi, uning yo'nalishi, tashilayotgan tovarlar, ekipaj va yo'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan, tijorat maqsadlarida foydalaniladigan transport vositasining kelishi yoki ketishi to'g'risidagi hujjatdir. Bojxona organlari tashuvchining O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hujjatlarini transport vositasi uchun deklaratsiya sifatida qabul qiladi. Transport vositasi uchun deklaratsiya tashuvchi tomonidan taqdim etiladi.

2571-modda. Tranzit deklaratsiyasi

Tranzit deklaratsiyasi tovarlar va (yoki) transport vositalari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda bojxona organiga taqdim etiladigan hamda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan va O'zbekiston Respublikasining hududi orqali tranzit olib o'tiladigan tovarlarini jo'natuvchi bojxona organidan tovar kelib tushadigan bojxona organigacha nazorat qilish uchun foydalaniladigan hujjatdir.

Tranzit deklaratsiyasi bojxona organiga elektron tarzda taqdim etiladi.

(2571-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

258-modda. Bojxona yuk deklaratsiyasi

Bojxona yuk deklaratsiyasi deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga taqdim etiladigan va muayyan bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarlar haqidagi to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatdir. Bojxona yuk deklaratsiyasi elektron shaklda yoki qog'ozda yozma shaklda taqdim etiladi. Deklaratsiyalash qog'ozda yozma shaklda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan holatlar, tovarlar va bojxona tartib-taomillari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Tovarlar qog'ozda yozma shaklda deklaratsiyalangan taqdirda bunday deklaratsiya uning elektron nusxasi taqdim etilgan holda topshirilishi kerak.

Bojxona yuk deklaratsiyasi dastlabki deklaratsiyalash chog'ida, shuningdek qisqa, muvaqqat, to'liq bo'lmagan yoki davriy bojxona yuk deklaratsiyasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

259-modda. Yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi

Yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi notijorat maqsadlar uchun mo'ljallangan, deklaratsiyalanadigan tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tayotgan jismoniy shaxs tomonidan to'ldiriladigan va bojxona organiga taqdim etiladigan hujjatdir.

260-modda. Deklaratsiyalash usullari

Tovarlarni deklaratsiyalash:

a) og'zaki shaklda:

jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi, qiymati va miqdori qonunchilikda belgilangan tovarlarni bojsiz olib kirish normalaridan oshmaydigan tovarlari deklaratsiyalanayotganda;

qonunchilikda belgilangan normadan oshmaydigan, yozma shaklda deklaratsiyalash shart bo'lgan summadagi naqd milliy va chet el valyutasi;

(260-moddaning «a» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

b) yo'lovchi bojxona deklaratsiyasidan foydalanilgan holda:

jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi, qiymati va miqdori qonunchilikda belgilangan tovarlarni bojsiz olib kirish normasidan oshadigan tovarlarining;

(260-modda «b» kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

jismoniy shaxsning yashash joyi o'zgarganda (avvalgi yashash joyidan hisobdan chiqarilganligi to'g'risida qayd mavjud bo'lgan holda) uning shaxsiy mol-mulki bo'lgan tovarlarning, bundan avtotransport vositalari mustasno;

jismoniy shaxs bojxona hududiga kirguniga yoki bu hududdan chiqquniga qadar yoki keyin olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan, alohida kuzatib boriladigan bagajda bojxona chegarasidan olib o'tiladigan notijorat maqsadlardagi tovarlarning;

(260-modda birinchi qismining «b» bandi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

ushbu Kodeksning 158 va 160-moddalarida ko'rsatilgan hollarda, jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi transport vositalarining;

qonunchilikda belgilangan normadan oshadigan, yozma shaklda deklaratsiyalash shart bo'lmagan summadagi naqd milliy va chet el valyutasi;

(260-modda «b» kichik bandining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

qonunchilikka muvofiq tegishli taqiqlar va (yoki) cheklovlar belgilangan tovarlarning;

(260-modda «b» kichik bandining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

v) bojxona yuk deklaratsiyasidan foydalanilgan holda:

yuridik shaxslar uchun va yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar uchun tovarlarning, bundan ushbu moddaning «g» bandida nazarda tutilgan hollar mustasno;

jismoniy shaxslarning tijorat maqsadlaridagi tovarlarining;

jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi transport vositalarining, bundan ushbu Kodeksning 158 va 160-moddalarida ko'rsatilgan hollar mustasno;

(260-modda «v» bandining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan 2024 yil 28 maydan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son)

g) tovarning kuzatuv hujjatlaridan foydalanilgan holda:

yuridik shaxslar uchun va yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar uchun qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lgan tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishda, bundan tovarlar tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari, kelishuvlari) bo'yicha majburiyatlarni bajarish doirasida olib o'tilayotgan va qonunchilikda belgilangan boshqa hollar mustasno;

(260-modda «g» kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

xorijdagi ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish etish uchun mo'ljallangan, ushbu tovarlarni deklaratsiyalash kunida rasmiy ayirboshlashning qiymati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha besh ming AQSH dollarigacha bo'lgan ekvivalentdagi tovarlarni olib chiqishda, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

(260-modda «g» kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

qiymati rasmiy ayirboshlashning ushbu tovarlarni deklaratsiyalash kunidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha besh ming AQSH dollarigacha bo'lgan ekvivalentdagi tovarlarni umumjahon Internet tarmog'ida onlayn do'konlari orqali eksport qilish chog'ida amalga oshiriladi.

(260-modda «g» kichik bandining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

d) ushbu moddaning «b», «v» va «g» bandlarida ko'rsatilgan hujjatlardan foydalangan holda — elektron shaklda;

(260-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan «d» kichik band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

261-modda. Bojxona deklaratsiyasini berish muddati

Bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar uchun bojxona deklaratsiyasi tovar kelib tushadigan bojxona organiga tovarlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kalendar kundan kechiktirmay beriladi, bundan ushbu Kodeksning 22, 23 va 25-boblarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar bojxona deklaratsiyasini taqdim etish muddatining tugashi bojxona organi ishlamaydigan kunga to'g'ri kelib qolsa, bojxona organining navbatdagi ish kuni shu muddat tugaydigan kun deb hisoblanadi.

Tranzit deklaratsiyasi bojxona hududiga kirib kelayotgan tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tguniga qadar yoki kesib o'tish vaqtida beriladi.

(261-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Olib chiqilayotgan tovarlar uchun bojxona deklaratsiyasi ular amalda olib chiqib ketilguniga qadar beriladi.

Tovarlarning o'zini olib chiqmasdan yoki ularni olib kirmasdan bojxona rejimi o'zgartiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona deklaratsiyasi avvalgi bojxona rejimi tugallanguniga qadar beriladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni notijorat maqsadlarda qo'l yukida va kuzatib boriladigan bagajda bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda bojxona deklaratsiyasi tovarlarni taqdim etish bilan bir vaqtda beriladi.

Bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tganidan so'ng uch soatdan kechiktirmay deklaratsiyalanadi, bojxona hududidan chiqib

ketayotgan transport vositalari esa bojxona chegarasini kesib o'tishdan kamida uch soat oldin deklaratsiyalanadi.

262-modda. Dastlabki deklaratsiyalash

Tovarlarni dastlabki deklaratsiyalash ularni bojxona hududiga yetib kelguniga qadar deklaratsiyalash bo'lib, u deklarantning xohishiga ko'ra qo'llanilishi mumkin.

Agar bojxona maqsadlari uchun tovarning kuzatuv hujjatlaridan foydalanish nazarda tutilsa, dastlabki bojxona deklaratsiyasiga ushbu hujjatlarning deklarant tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxalari ilova qilinadi va, zarur bo'lgan hollarda, tovarlar bojxona hududiga yetib kelganidan keyin bojxona organi hujjatlarning ko'chirma nusxalarida ko'rsatilgan ma'lumotlarni hujjatlarning asl nusxasidagi ma'lumotlar bilan taqqoslaydi.

Tovarlar bojxona hududiga kelguniga qadar ma'lumotlarni taqqoslash tugallanganidan va tegishli bojxona to'lovlari to'langanidan yoki ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlarini to'lash ta'minoti taqdim etilganidan keyin dastlabki bojxona deklaratsiyasidan tovarlarga bojxona operatsiyalari qo'llanilishi uchun zarur yagona hujjat sifatida foydalaniladi, bundan deklaratsiyada barcha zarur ma'lumotlarning ko'rsatilmaganligi va (yoki) bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur hujjatlarning to'liq hajmda taqdim etilmaganligi hollari mustasno.

(262-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Agar dastlabki bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kun ichida unda ko'rsatilgan tovarlar bojxona organiga taqdim etilmagan bo'lsa, dastlabki bojxona deklaratsiyasi berilmagan deb hisoblanadi.

(262-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

263-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'ladigan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlar

Bojxona deklaratsiyasi bojxona organiga zarur hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda beriladi. Bojxona organi bojxona deklaratsiyasida va taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan axborotni tekshirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli. Mazkur hujjatlarning va qo'shimcha ma'lumotlarning ro'yxati bojxona to'g'risidagi qonunchilikda belgilanadi.

(263-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona organiga xalqaro tashishlarda qo'llaniladigan, chet tillarda tuzilgan hujjatlar taqdim etilishi mumkin.

Bojxona organi yetishmayotgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini belgilaydi.

264-modda. Bojxona deklaratsiyasini qabul qilish

Bojxona organi bojxona deklaratsiyasini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganligini rasmiylashtirish u topshirilgan kunda, ro'yxatdan o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab u yuridik ahamiyatga molik faktlardan dalolat beruvchi hujjatga aylanadi.

265-modda. Bojxona deklaratsiyasini o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish, uni qayta rasmiylashtirish, qaytarib olish va bekor qilish

Bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarga deklarant tomonidan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritilishi, topshirilgan bojxona deklaratsiyasi esa qaytarib olinishi mumkin.

Bojxona deklaratsiyasini o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish va (yoki) uni qaytarib olish deklaratsiya qabul qilinguniga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganidan so'ng o'zgartirish, qo'shimcha kiritish, qayta rasmiylashtirish, qaytarib olish va (yoki) bekor qilish deklarant bojxona organiga murojaat etganidan keyin yoki bojxona organining talabiga ko'ra amalga oshiriladi.

(265-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona deklaratsiyasini o'zgartirish yoki unga qo'shimcha kiritish uning amal qilish doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin emas.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari o'z tashabbusi bilan, deklarantning yoki uchinchi shaxslarning topshirig'iga yoki iltimosiga ko'ra yozma bojxona deklaratsiyasini to'ldirishga, bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zgartirishga yoki ularga qo'shimcha kiritishga haqli emas, bundan bojxona organlarining vakolatiga kiritilgan ma'lumotlarni bojxona deklaratsiyasiga kiritish, shuningdek, agar mashinada ishlov berish uchun foydalaniladigan kodli ma'lumotlar bojxona deklaratsiyasida kodsiz tarzda mavjud bo'lsa, kodli ma'lumotlarni o'zgartirish yoki ularga qo'shimcha kiritish mustasno.

266-modda. Bojxona yuk deklaratsiyasini o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish, uni qayta rasmiylashtirish, qaytarib olish va bekor qilish tartibi

Bojxona rasmiylashtiruvi tugallanganidan va tovarlar muayyan bojxona rejimiga joylashtirilganidan keyin, bojxona yuk deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e'tiboran uch yil ichida bojxona yuk deklaratsiyasini bojxona organining talabi bilan yoki vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish, uni qayta rasmiylashtirish yoxud bekor qilish mumkin.

Agar bojxona organi deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ko'rsatilgan sabablarni asosli deb topsa, bojxona yuk deklaratsiyasi tovarlar chiqarib yuborilguniga qadar deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Olib chiqilayotgan tovarlarga doir bojxona yuk deklaratsiyasi ushbu tovarlarni olib chiqishga ruxsat berilganidan keyin ham, lekin ular amalda olib chiqilguniga qadar qaytarib olinishi mumkin.

Elektron shakldagi bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarga o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish bojxona yuk deklaratsiyasiga tuzatishlar kiritish shaklini rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

(266-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona yuk deklaratsiyalariga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish, ularni qaytarib olish, qayta rasmiylashtirish va bekor qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan ushbu moddaga muvofiq belgilanadi.

267-modda. Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi

Tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar, shu jumladan bojxona nazorati ostida tovarlar tashilayotganda qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi qo'llaniladi.

Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi tashuvchi yoki vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovar bojxona hududiga yetib kelgan joyda tovarni taqdim etish yoki tovar kelib tushadigan bojxona organiga tovarni yetkazib berish bilan bir vaqtda beriladi. Agar tashuvchi yoki vakolatli shaxs uni to'ldirish uchun barcha zarur hujjatlarga ega bo'lmasa, qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi tovar taqdim etilgandan so'ng keyingi ish kunidan kechiktirmay tashuvchi yoki vakolatli shaxsning arizasi asosida beriladi.

Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi sifatida transport, tijorat hujjatlaridan, shu jumladan xalqaro tashishlar amalga oshirilayotganda qo'llaniladigan, chet tillarda tuzilgan va quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlardan foydalaniladi:

transport hujjatlariga muvofiq tovarni jo'natuvchining (qabul qiluvchining) nomi va joylashgan yeri;

tovar jo'natilgan mamlakat va kelib tushadigan mamlakat;

tovarning nomi;

tovarning miqdori, shu jumladan tovarlarning brutto/netto og'irligi (kilogrammlarda) yoki tovarlarning hajmi (metr kublarda);

yuk joylarining soni, tovarning o'rash-joylash hamda tamg'alash xususiyati va usullari;

tovarning faktura (ma'lum qilingan) qiymati;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq tovarning kamida oltita belgi darajasidagi tasnifiy kodi haqidagi ma'lumotlar.

268-modda. Muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasi

Tovarlar bojxona chegarasi orqali quvur transportida yoxud elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tilayotganda muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasini berish yo'li bilan tovarlarni dastlabki tarzda deklaratsiyalashga yo'l qo'yiladi. Tovarlar bojxona chegarasi orqali bojxona organi tomonidan belgilangan muddatlarda amalda olib o'tilganidan keyin deklarant yoki bojxona brokeri bojxona yuk deklaratsiyasini berishi shart.

Muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasida tovarlarning chamalangan miqdorida olib o'tish maqsadlaridan, bojxona chegarasidan olib o'tish rejalashtirilayotgan tovarlarning miqdoriga va (yoki) tovarning kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlarida nazarda tutilgan bahosini aniqlash tartibiga, shuningdek tovarlarning taxminiy sifatiga ko'ra aniqlanadigan shartli bojxona qiymatidan (bahosidan) kelib chiqqan holda ma'lumotlarni bayon etishga yo'l qo'yiladi.

269-modda. To'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi

Agar deklarant yoki bojxona brokeri o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra deklaratsiyani to'ldirish uchun barcha zarur axborotga ega bo'lmasa, to'liq bo'lmagan

bojxona yuk deklaratsiyasi tovarni identifikatsiyalash imkoniyati bo'lishi sharti bilan berilishi mumkin.

To'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi ushbu Kodeks 22-moddasi ikkinchi qismining «v», «d» va «ye» bandlarida ko'rsatilgan hollarda berilishi mumkin.

To'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasiga deklarant yoki bojxona brokeri, agar bojxona to'g'risidagi qonunchilikda alohida ma'lumotlarni taqdim etish uchun boshqa muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, to'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi bojxona organi tomonidan qabul qilib olingan kundan e'tiboran oltmish kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatda yetishmagan ma'lumotlarni va lozim darajada to'ldirilgan bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish haqidagi yozma majburiyatni ilova qiladi.

To'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi qo'llanilgan holda deklaratsiyalashda lozim darajada to'ldirilgan bojxona yuk deklaratsiyasi avval boshda berilganidagi kabi bojxona organlarining zimmasiga qonunchilikning qaysi talablari va shartlari bajarilishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilgan bo'lsa, o'sha talablar va shartlar, shu jumladan bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi qo'llaniladi.

(269-moddaning uchinchi va to'rtinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

270-modda. Davriy bojxona yuk deklaratsiyasi

Davriy bojxona yuk deklaratsiyasi ishlab chiqarilgan mamlakati, fizik xususiyatlari, sifati, ishlab chiqaruvchisi va O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi bo'yicha tovar kodining o'nta belgili darajasi bir xil bo'lgan tovarlar ayni bir shaxs tomonidan bojxona chegarasi orqali muntazam ravishda olib o'tilgan taqdirda qo'llaniladi.

Ayni bir shaxs tomonidan muntazam ravishda olib o'tish deganda, mazkur moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tovarlarning oltmish kalendar kun ichida bir marotabadan ko'p marta bitta yuk jo'natuvchi manzilidan boshqa yuk qabul qiluvchi manziliga bir kontrakt (shartnoma, kelishuv) asosida bir xil sharoitda bojxona chegarasidan olib o'tilishi tushuniladi. Bunday hollarda muayyan vaqt ichida bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar uchun bitta bojxona yuk deklaratsiyasi beriladi. Bu tartib vaqtincha tovarlarni saqlashning eng ko'p muddati yoki bojxona to'lovlarini to'lash muddatlari buzilishiga olib kelishi mumkin emas.

38-bob. Tovarlarni va transport vositalarini chiqarib yuborish

271-modda. Tovarlarni va transport vositalarini chiqarib yuborish asoslari

Quyidagi shartlarga rioya etilishi tovarlarni va transport vositalarini chiqarib yuborish uchun asos bo'ladi:

bojxona rasmiylashtiruvi va tovarlarni tekshirish vaqtida qonunchilik buzilganligi bojxona organlari tomonidan aniqlanmaganda;

bojxona organiga O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq tovarlarni chiqarib yuborish uchun zarur bo'lgan litsenziyalar, sertifikatlar, boshqa davlat organlarining ruxsatnomalari taqdim etilganda, bundan shunday hujjatlarning tovarlar va transport vositalari chiqarib yuborilganidan keyin taqdim etilishi hollari mustasno;

(271-moddaning ikkinchi va uchinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

tovarlarni va transport vositalarini tanlangan bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlariga deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan (agar bojxona brokeri bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni shartnoma asosida bajarayotgan bo'lsa) rioya etilganda;

tovarlarga va transport vositalariga nisbatan bojxona to'lovlari to'langanda yoxud ularning to'lanishini ta'minlash taqdim etilganda.

Tovarlarni va transport vositalarini chiqarib yuborish bojxona organlari mansabdor shaxslarining ishtirokisiz, bojxona organlarining axborot tizimidan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

(271-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

2711-modda. Bojxona ekspertizasi tayinlanganda tovarlarni chiqarib yuborish

Tovarlar chiqarib yuborilguniga qadar tayinlangan bojxona ekspertizasining natijalari olinguniga qadar tovarlarni chiqarib yuborish, basharti bojxona yuk deklaratsiyasida hisoblangan miqdordagi bojxona to'lovlari to'langan va bojxona ekspertizasi natijalariga ko'ra qo'shimcha ravishda to'lanishi lozim bo'lgan miqdordagi bojxona to'lovlarini to'lash ta'minoti taqdim etilgan bo'lsa, bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

Tovarlarga nisbatan taqiqlar va cheklovlar qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatuvchi belgilar bojxona organlari tomonidan aniqlangan va ularga rioya qilinganligini isbotlovchi dalillar deklarant tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, tovarlar chiqarib yuborilmaydi.

(2711-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

272-modda. Tovarlarni bojxona yuk deklaratsiyasi topshirilguniga qadar chiqarib yuborish

Ushbu Kodeksning 251-moddasida ko'rsatilgan tovarlar bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda tovarlarni chiqarib yuborish bojxona yuk deklaratsiyasi topshirilguniga qadar yoki bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalar yakunlanguniga qadar deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan quyidagi shartlarga rioya etilgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin:

tovarlarni identifikatsiyalash imkonini beruvchi zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tovarning kuzatuv hujjatlari taqdim etilganda;

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalariga muvofiq radioaktiv materiallarni chiqarib yuborish uchun zarur bo'lgan litsenziyalar, sertifikatlar, tegishli davlat organlarining ruxsatnomalari taqdim etilganda;

(272-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlarini to'lash ta'minlanganda;

tovarlar chiqarib yuborilgan kundan e'tiboran o'n besh kalendar kundan kechiktirmay bojxona yuk deklaratsiyasini berish haqida yoki bojxona rasmiylashtiruvini tugatish to'g'risida yozma majburiyat taqdim etilganda.

Bojxona yuk deklaratsiyasi berilguniga qadar chiqarib yuborilgan tez buziladigan tovarlardan hamda tirik hayvonlardan foydalanish va ularni uchinchi shaxslarga berish, shu jumladan sotish yoki boshqacha tarzda o'zga shaxsga o'tkazish orqali berish taqiqlanadi.

273-modda. Bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilgan taqdirda tovarlarni chiqarib yuborish

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi aniqlangan taqdirda tovarlarni chiqarib yuborish bojxona to'g'risidagi qonunchilikning buzilishiga oid ish yurituv tugallanguniga qadar amalga oshirilishi mumkin, basharti:

tovarlar qonunchilikka muvofiq olib qo'yilmagan yoki xatlanmagan bo'lsa;

qonunchilikka muvofiq tovarlar musodara qilinishi yoxud davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lmasa;

bojxona to'g'risidagi qonunchilikning buzilishiga oid ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hisoblanishi mumkin bo'lgan bojxona to'lovlarini va jarimalarni to'lash yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa undiruv choralari deklarant tomonidan ta'minlangan bo'lsa.

(273-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

VII bo'lim. Deklarant, bojxona brokeri va bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis

39-bob. Deklarant

274-modda. Deklarantga qo'yiladigan talablar

Quyidagilar deklarant bo'lishi mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxsi;

2) chet ellik shaxs:

tovarlarni notijorat maqsadlarda olib o'tuvchi jismoniy shaxs;

ushbu Kodeksning X bo'limiga muvofiq bojxona imtiyozlaridan foydalanuvchi shaxs;

Norezidentning qonunchilikka muvofiq tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi;

(274-modda birinchi qismining 2-kichik bandi to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan vakolatxonaga ega bo'lgan shaxs shunday vakolatxonalarning o'z ehtiyojlari uchun olib kiriladigan tovarlarni vaqtincha olib kirish, reeksport qilish, bojxona tranziti bojxona rejimlariga, shuningdek erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirishni ma'lum qilganda;

tashuvchi tovarlar bojxona nazorati ostida tashilayotganda.

3) tovarlar tranzit bojxona rejimida tashilayotganda:

«O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati — temir yo'l transportida;

tovarlarni tashishni amalga oshiruvchi shaxs (haydovchi yoki vakolatli shaxs) — avtomobil transportida.

(274-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 3-band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

275-modda. Deklarantning huquqlari

Tovarlarni deklaratsiyalashda deklarant quyidagi huquqlarga ega:

bojxona deklaratsiyasi va bojxona maqsadlari uchun zarur boshqa hujjatlar berilguniga qadar tovarlarni bojxona nazorati ostida ko'zdan kechirish hamda o'lchash, ularning namunalari va nusxalarini olish;

tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazishda, bojxona organining mansabdor shaxslari tomonidan namunalar va nusxalar olinayotganda tovarlarning tekshirilishida hozir bo'lish;

bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan olingan namunalar va nusxalarni tekshiruvdan o'tkazish natijalari bilan tanishish;

bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni bajarish uchun bojxona nazorati zonasiga kirish;

bojxona masalalari bo'yicha bojxona organlaridan axborot va maslahatlar olish;

tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududidan olib chiqish niyati to'g'risida bojxona organlarini xabardor qilish;

dastlabki operatsiyalar amalga oshirilayotganda bojxona maqsadlari uchun zarur bo'ladigan hujjatlarning loyihalarini tayyorlash;

deklaratsiyalanadigan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona omborlariga bojxona nazorati ostida joylashtirish;

(275-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan beshinchi — to'qqizinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

tovarlarni elektron shaklda deklaratsiyalash uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan bojxona organlarining axborot tizimlaridan foydalanish.

Tovarning bojxona qiymatini aniqlashda deklarant quyidagi huquqlarga ega:

bojxona organiga taqdim etilgan, tovarning bojxona qiymatini aniqlashda foydalanilgan ma'lumotlarning ishonchliligini isbotlash;

tovarning ma'lum qilingan bojxona qiymatiga aniqlik kiritish zarurati tug'ilganda, basharti tovarning bojxona organi tomonidan aniqlangan bojxona qiymatiga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlasa yoxud bojxona to'lovlarini to'lasa, deklaratsiyalangan tovardan bojxona organining ruxsati bilan foydalanish;

tovarning bojxona qiymatini aniqlash xususida bojxona organining qarori, uning mansabdor shaxslari harakatlari (harakatsizligi) ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish.

(275-modda ikkinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Deklarant qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(275-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

276-modda. Deklarantning majburiyatlari

Deklarant:

tovarlarni va (yoki) transport vositalarini deklaratsiyalashni amalga oshirishi;

bojxona maqsadlari uchun zarur, shu jumladan deklaratsiyalanayotgan tovarlarga va (yoki) transport vositalariga nisbatan vakolatli organlar tomonidan o'tkaziladigan veterinariya, fitosanitariya nazorati, ekologik nazorat va davlat nazoratining boshqa turlari talablariga rioya etilishi to'g'risidagi hujjatlarni va (yoki) ma'lumotlarni bojxona organiga taqdim etishi;

bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona organining talabiga ko'ra taqdim etishi;

bojxona organining talabiga ko'ra tovarlarni tarozida tortishni hamda boshqacha tarzda ularning miqdori va sifatini aniqlashni, shuningdek deklaratsiyalanayotgan tovarlarga va (yoki) transport vositalariga nisbatan yuk operatsiyalarini amalga oshirishi;

bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblab chiqarishi;

ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlarini to'lashi yoki ularning to'lanishini ta'minlashni taqdim etishi;

tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvida bojxona organining talabiga ko'ra hozir bo'lishi hamda bojxona organining mansabdor shaxslariga bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazishda ko'maklashishi;

tovarlar va (yoki) transport vositalari joylashtirilgan bojxona rejimi talablari hamda shartlariga rioya etishi;

tovarlarni va (yoki) transport vositalarini deklaratsiyalashda bojxona identifikatsiyalash vositalari o'zgartirilganligi, yo'q qilinganligi, buzilganligi yoki yo'qotilganligi, idishlar va o'rovlar buzilganligi, tovarlar tovarning kuzatuv hujjatlarida va bojxona nazoratining boshqa hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiq emasligi aniqlanganligi haqida bojxona organlarini o'z vaqtida xabardor qilishi shart.

Tovarning bojxona qiymatini aniqlashda deklarant:

bojxona organiga tovarning bojxona qiymatini ma'lum qilishi;

tovarning bojxona qiymatini aniqlashga taalluqli ma'lumotlarni bojxona organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

Deklarantda tovarning o'zi ma'lum qilgan bojxona qiymatini aniqlashtirish yoki bojxona organiga qo'shimcha ma'lumot taqdim etish tufayli yuzaga kelgan xarajatlar deklarantning zimmasida bo'ladi. Tovarning bojxona rasmiylashtiruvi muddatining bojxona qiymatini aniqlash bilan bog'liq tarzda uzaytirilishidan deklarant bojxona to'lovlarini amalda kechiktirib to'lash uchun foydalanishi mumkin emas.

Deklarantning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(276-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

40-bob. Bojxona brokeri

277-modda. Bojxona brokerining faoliyati

Bojxona brokerining faoliyati bojxona operatsiyalarini deklarantning yoki vakolatli shaxsning topshirig'iga ko'ra va uning nomidan bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirishdan iborat.

(277-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona brokerining deklarant yoki vakolatli shaxs bilan o'zaro munosabatlari shartnoma asosida yo'lga qo'yiladi.

Bojxona brokerining ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi bojxona brokeri va deklarant o'rtasida tuzilgan shartnoma bilan cheklanishi mumkin emas.

(277-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(277-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(277-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(277-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(278-modda O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(279-modda O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(280-modda O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

281-modda. Bojxona brokerining huquqlari

Bojxona brokeri quyidagi huquqlarga ega:

deklarantdan yoki vakolatli shaxsdan bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur hujjatlarni va ma'lumotlarni, shu jumladan tijorat, bank siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni o'z ichiga olgan hujjatlarni va ma'lumotlarni talab qilish va olish;

bojxona yuk deklaratsiyasini hamda tovarlarni deklaratsiyalash uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish;

tovarlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda deklaratsiyalash maqsadida bojxona organlarining axborot resurslaridan foydalanish;

tovarning bojxona qiymatini aniqlashda mazkur Kodeks 275-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq deklarantga berilgan huquqlardan foydalanish;

bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati uchun zarur bo'lgan boshqa harakatlarni vakolatli shaxs sifatida bajarish;

bojxona organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish.

(281-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona brokeri qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(281-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

282-modda. Bojxona brokerining majburiyatlari

Bojxona brokeri:

deklarant yoki vakolatli shaxs oldidagi o'z fuqarolik javobgarligini bazaviy hisoblash miqdorining ming baravari miqdorida sug'urtalashi;

(282-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 3 dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son)

bojxona operatsiyalari amalga oshirilayotganda bojxona organiga bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishi;

qonunchilikning tovarlarga doir talablariga, taqiqlariga, cheklovlariga rioya etgan holda tovarlarni deklaratsiyalashni amalga oshirishi va bojxona organiga bojxona deklaratsiyasini berishi;

(282-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

tovarning bojxona qiymatini aniqlashda mazkur Kodeks 276-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq belgilangan deklarantning majburiyatlarini bajarishi;

bojxona rasmiylashtiruvida bojxona organlariga ko'maklashishi;

tovarlarni jo'natuvchidan, qabul qiluvchidan olingan, davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni oshkor etmasligi, undan shaxsiy maqsadlari uchun foydalanmasligi shart, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

(282-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona brokerining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(282-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan majburiyatlarning bajarilganlik fakti bojxona brokerining zimmasiga bojxona rejimining amal qilishini tugallash bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish majburiyatlarini yuklamaydi.

(283-modda O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

41-bob. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis

284-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisga qo'yiladigan talablar

Bojxona brokeri yoxud boshqa yuridik shaxs bilan mehnat shartnomasi tuzgan va ushbu yuridik shaxs nomidan bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha ish bajaradigan O'zbekiston Respublikasi jismoniy shaxsi bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisdir.

(284-modda matni O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(285-modda O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

286-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning huquqlari

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis o'z faoliyatini amalga oshirayotganda quyidagi huquqlarga ega:

a) deklaratsiyalanayotgan tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvida, tovarlarning namunalari va nusxalari olinayotganda hozir bo'lish;

b) deklaratsiyalanayotgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona nazorati ostida ko'zdan kechirishni, ularni tarozida tortishni va boshqacha tarzda ularning miqdorini aniqlashni amalga oshirish, shuningdek bojxona organining ruxsati bilan tovarlarning namunalari va nusxalarini olish;

v) tovarlardan olingan namunalar va nusxalarning bojxona organlari tomonidan o'tkazilgan bojxona ekspertizasi (tekshiruvi) natijalari bilan tanishish;

g) bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni bajarish uchun bojxona nazorati zonasiga kirish;

d) bojxona masalalari bo'yicha bojxona organlaridan belgilangan tartibda ma'lumotlar va maslahatlar olish;

(286-moddaning birinchi qismi «ye» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

Dastlabki operatsiyalar amalga oshirilayotganda bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis quyidagi huquqlarga ham ega:

a) deklarantning yoki vakolatli shaxsning tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududidan olib chiqish niyati to'g'risida bojxona organlarini xabardor qilish;

b) dastlabki operatsiyalar amalga oshirilayotganda bojxona maqsadlari uchun zarur bo'ladigan hujjatlarning loyihalarini tayyorlash;

v) deklaratsiyalanadigan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona omborlariga bojxona nazorati ostida joylashtirish.

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(286-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

287-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning majburiyatlari

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

a) vakolatli shaxsdan olingan, bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarning bojxona to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshirish hamda ularni tahlil qilish, shuningdek vakolatli shaxsning tovarlarga va (yoki) transport vositalariga nisbatan vakolatlarini tekshirish;

(287-modda birinchi qismining «a» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

b) tovarlarni deklaratsiyalash va bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan tovarlar to'g'risidagi hujjatlarni berish;

v) tovarlarni to'g'ri deklaratsiyalash, shu jumladan:

bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblash;

tovarlarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq bojxona maqsadlari uchun to'g'ri tasniflash;

tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatni to'g'ri ko'rsatish;

tovarlarning miqdorini to'g'ri ko'rsatish;

tovarlarning bojxona qiymatini to'g'ri aniqlash;

g) bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish va bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni hamda qo'shimcha ma'lumotlarni bojxona organiga o'z vaqtida taqdim etish;

d) deklaratsiyalanayotgan tovarlarga va transport vositalariga nisbatan veterinariya, fitosanitariya nazorati va davlat nazoratining boshqa turlari tugallanganligini qonunchilikda belgilangan hollarda tekshirish;

(287-modda birinchi qismining «d» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

ye) deklarantdan olingan axborotdan faqat bojxona maqsadlari uchun foydalanish;

j) tovarlarni jo'natuvchidan, ularni qabul qiluvchidan olingan, davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni oshkor etmaslik, undan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanmaslik, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

(287-modda birinchi qismining «j» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

z) vakolatli shaxsga bojxona to'g'risidagi qonunchilik talablarini tushuntirish;

(287-modda birinchi qismining «z» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

i) bojxona identifikatsiyalash vositalari o'zgarganligi, buzilganligi, yo'q qilinganligi yoki yo'qotilganligi, idishlari va o'rovlari buzilganligi, tovarlarning transport, tijorat hujjatlarida va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiq emasligi va bojxona ishiga taalluqli bo'lgan boshqa shunday holatlar aniqlangan taqdirda bojxona organlarini zudlik bilan xabardor qilish;

k) deklaratsiyalanadigan tovarlarning va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona ko'rigini o'tkazishda bojxona organining talabiga ko'ra ishtirok etish;

(287-moddaning birinchi qismi «l» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(287-moddaning birinchi qismi «m» kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

Tovarlarni tasarruf etish huquqi berilgan taqdirda bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis:

bojxona ko'rigi va rasmiylashtiruvi uchun tovarlarni bojxona organining talabiga ko'ra taqdim etishi;

tanlangan bojxona rejimiga muvofiq bojxona rasmiylashtiruvi yakunlanmagan tovarlarga nisbatan ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish bo'yicha shartlarga va cheklovlarga rioya etishi;

deklarantning majburiyatlarini bajarishi va tovarlarni bojxona chegarasi orqali o'zi mustaqil olib o'tganidagi kabi javobgarlikni o'z zimmasiga olishi shart.

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(287-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

288-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis faoliyati ustidan bojxona organlari tomonidan nazorat bevosita bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida amalga oshiriladi.

Bojxona brokeri yoki o'z shtatida bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis mavjud bo'lgan boshqa yuridik shaxs bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning bojxona organlariga nisbatan majburiyatlarini cheklashi mumkin emas.

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis va bojxona brokeri yoki boshqa yuridik shaxs o'rtasidagi munosabatlar mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi.

VIII bo'lim. Bojxona to'lovlari

42-bob. Asosiy qoidalar

289-modda. Bojxona to'lovlarining turlari

Tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishda va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda quyidagi bojxona to'lovlari to'lanadi:

bojxona boji;

qo'shilgan qiymat solig'i;

aksiz solig'i;

bojxona yig'imlari.

Qonunchilikda boshqa bojxona to'lovlari ham belgilanishi mumkin.

(289-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu Kodeksning 163 va 169-moddalarida nazarda tutilgan hollarda qonunchilikda belgilangan bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i o'rniga yagona bojxona to'lovini to'lashni nazarda tutuvchi bojxona to'lovlarini undirishning soddalashtirilgan tartibi qo'llaniladi.

(289-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona bojlarining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

(289-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 26 iyuldagi O'RQ-785-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022 y., 03/22/785/0679-son)

290-modda. Bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i

Bojxona bojlariga import, eksport, alohida (maxsus, antidemping va kompensatsiya) va mavsumiy bojxona bojlari kiradi.

Import bojxona boji tovar bojxona hududiga olib kirilayotganda to'lanadi.

Eksport bojxona boji tovar bojxona hududidan olib chiqilayotganda to'lanadi.

Alohida (maxsus, antidemping va kompensatsiya) bojxona bojlari qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida qo'llaniladi.

(290-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Mavsumiy bojxona bojlari tovarlarni bojxona hududiga olib kirish va bojxona hududidan olib chiqishni tezkor tartibga solib turish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan bojxona bojlarining stavkalari qo'llanilmaydi. Mavsumiy bojxona bojlarining amal qilish muddati ular belgilangan paytdan e'tiboran olti oydan oshmasligi kerak.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga soliq va bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i solinadi.

(290-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

291-modda. Bojxona yig'imlari

Bojxona organlari tomonidan quyidagi harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilganligi uchun bojxona yig'imlari undiriladi:

bojxona rasmiylashtiruvi;

bojxona rasmiylashtiruvi uchun belgilangan joylardan tashqaridagi va (yoki) bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari vaqtdagi bojxona rasmiylashtiruvi;

tovarlarni bojxona organi egaligidagi bojxona omborida saqlash;

transport vositasini bojxona hamrohligida kuzatib borish;

dastlabki qarorni qabul qilish;

intellektual mulk ob'yektlarini Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritish;

(291-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan yettinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

(291-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

(291-moddaning birinchi qismi sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(291-moddaning birinchi qismi to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

(291-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

yuridik shaxslar tomonidan olib kiriladigan naqd chet el valyutasining bojxona rasmiylashtiruvi.

Bojxona yig'imlarining miqdori bojxona organlari tomonidan bojxona harakatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarining taxminiy qiymatidan oshib ketishi mumkin emas.

(291-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona yig'imlarining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

292-modda. Boj tarifi. Bojxona bojlari qo'llanilayotgandagi tarif kvotalari

Boj tarifi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq tizimlashtirilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona bojlari stavkalarining jamlanmasidir.

Tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda tovarlarning ayrim turlari uchun tarif kvotalari joriy etilishi mumkin.

Tarif kvotasi muayyan davrda tovarning muayyan miqdorini olib kirish va olib chiqishda bojxona bojining boj tarifiga muvofiq qo'llaniladigan stavkasiga nisbatan pastroq bojxona

boji stavkalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi, tovarlarni bojxona hududiga olib kirish va undan olib chiqishda boj tarifini tartibga soluvchi choradir.

Belgilangan miqdordan (kvotadan) ortiq miqdorda bojxona hududiga olib kiriladigan va bu hududdan olib chiqiladigan tovarlarga bojxona bojining boj tarifiga muvofiq stavkasi qo'llaniladi.

Tarif kvotalari, ularni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash usullari va tartibi qonunchilikda belgilanadi.

(292-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

293-modda. Bojxona to'lovlari stavkalarining turlari va ularni hisoblab chiqarish tartibi

Bojxona to'lovlari stavkalarining turlari quyidagilardan iborat:

to'lov undiriladigan tovarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan advalor stavka;

to'lov undiriladigan tovar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan xos stavka;

bojxona to'lovlari stavkalarining advalor va xos turlarini o'z ichiga oladigan aralash stavka.

Advalor stavka belgilangan tovar bo'yicha bojxona to'lovlarining summasi bojxona to'lovlari advalor stavkasining tovarning bojxona qiymatiga ko'paytmasi sifatida hisoblab chiqariladi.

Xos stavka belgilangan tovar bo'yicha bojxona to'lovlarining summasi bojxona to'lovlarining xos stavkasining tovar miqdoriga ko'paytmasi sifatida hisoblab chiqariladi.

Bojxona qiymatiga nisbatan foizlardagi aralash stavka qo'llanilgan, lekin to'lov undiriladigan tovar birligi uchun belgilangan stavkadan kam bo'lmagan holda qo'llanilgan taqdirda, bojxona to'lovlarining summasi advalor va xos stavkalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan summalarning eng ko'piga tengdir.

Bojxona qiymatiga nisbatan foizlardagi aralash stavka va to'lov undiriladigan tovar birligi uchun belgilangan stavka qo'llanilgan taqdirda bojxona to'lovlarining summasi bojxona to'lovlarining advalor va xos stavkalari bo'yicha hisoblab chiqarilgan summa yig'indisiga tengdir.

294-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha majburiyat

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha majburiyat:

tovar bojxona to'lovlarini to'lash nazarda tutilgan bojxona rejimiga joylashtirilganda, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda;

ushbu Kodeksning 201-moddasiga muvofiq tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini amalga oshirish natijasida bojxona to'lovlari qo'shimcha hisoblangan taqdirda yuzaga keladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilishlari hollari aniqlanmagan, erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilmagan yoki boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarga nisbatan quyidagi hollarda bojxona to'lovlarini to'lash majburiyati yuzaga kelmaydi yoki to'langan bojxona to'lovlari qaytarilishi lozim:

agar bunday tovarlar davlat mulkiga o'tkazilgan yoki yo'q qilingan yoxud o'zining iste'mol xossalarini yo'qotish holatiga keltirilgan bo'lsa;

agar bunday tovarlar avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yo'q qilingan yoki qaytarib bo'lmas tarzda yo'qotilgan bo'lsa. Ushbu yo'q qilinganlik yoki yo'qotilganlik holatlari vakolatli shaxs va vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak;

bunday tovarlar tabiiy ravishda kamaygan taqdirda, bunda tabiiy kamayish holati vakolatli shaxs va vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

(294-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

295-modda. Bojxona to'lovlarini to'lovchilar

Bojxona to'lovlarini to'lovchi (bundan buyon matnda to'lovchi deb yuritiladi) quyidagilardan iborat:

deklarant;

bojxona brokeri, agar deklarant bilan tuzilgan shartnomada bu nazarda tutilgan bo'lsa;

bojxona omborining, erkin omborning, boj olinmaydigan savdo do'konining egasi, tashuvchi, ular tomonidan bojxona rejimlarining qo'llanilish talablari va shartlariga amal qilinmaganda;

xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarining pochta aloqasi operatorlari va provayderlari, basharti bojxona nazorati ostida bo'lgan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari yo'qolsa yoki bojxona nazoratisiz berilsa.

Har qanday manfaatdor shaxs to'lovchi uchun bojxona to'lovlarini to'lashga haqli.

43-bob. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar va tarif preferensiyalari

296-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar va tarif preferensiyalari berish

Ushbu Kodeksga, boshqa qonunlarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga binoan yuridik va jismoniy shaxslarga tarif imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'ini, aksiz solig'ini va bojxona yig'imlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar, tarif preferensiyalari berilishi mumkin.

297-modda. Tarif imtiyozlari

Tashqi savdo siyosati amalga oshirilayotganda ilgari to'langan bojxona bojini qaytarish, bojxona boji stavkasini pasaytirish va bojxona bojini to'lashdan ozod etish tarzida tarif imtiyozlari berilishiga yo'l qo'yiladi.

Bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quyidagilarga nisbatan beriladi:

1) xalqaro yo'nalishda yuklar, bagaj va yo'lovchilar tashishni amalga oshiradigan transport vositalariga, shuningdek ularning yo'lda qatnov vaqtida, oraliq to'xtash punktlarida bir maromda ishlashi uchun zarur bo'lgan yoki transport vositalarida yuz bergan avariyalarga (nosozliklarga) barham berish uchun bojxona hududidan tashqarida olingan moddiy-

texnika ta'minoti predmetlariga va anjomlariga, yoqilg'iga, oziq-ovqatga va boshqa mol-mulkka;

2) O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasiga, chet el valyutasiga (numizmatika maqsadida ishlatiladigan valyuta bundan mustasno), shuningdek qimmatli qog'ozlarga;

3) dengizda ov bilan band bo'lgan O'zbekiston Respublikasi kemalarini hamda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan ijaraga olingan (fraxt qilingan) kemalarning faoliyatini ta'minlash uchun bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan moddiy-texnika ta'minoti predmetlariga va anjomlariga, yoqilg'iga, oziq-ovqatga va boshqa mol-mulkka, shuningdek ularning bojxona hududiga olib kiriladigan ov mahsulotiga;

4) davlat mulkiga aylantirilishi lozim bo'lgan tovarlarga;

5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kiriladigan tovarlarga;

6) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar va shaxslar yo'nalishlari bo'yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko'rsatish (grantlar) uchun olib kiriladigan tovarlarga;

(297-modda ikkinchi qismining 6-bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

7) uchinchi davlatlar uchun mo'ljallangan va bojxona nazorati ostida bojxona hududidan bojxona tranziti bojxona rejimida olib o'tiladigan tovarlarga;

8) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha to'liq yoki qisman xalqaro moliya institutlarining va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'lari (qarzlari, kreditlari) hisobidan O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan loyihalar doirasida yuridik shaxslar tomonidan olinadigan tovarlarga;

(297-modda ikkinchi qismining 8-bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bunda O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan xalqaro moliya institutlarining va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'lari (qarzlari, kreditlari) hisobidan sotib olinadigan tovarlar bo'yicha imtiyozlar qo'llanilmaydi.

(297-modda ikkinchi qismining 8-bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 26 iyuldagi O'RQ-785-sonli Qonuniga asosan ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022 y., 03/22/785/0679-son — tijorat banklari hamda tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida 2022 yil 1 maydan keyin yangitdan tuziladigan bitimlar (rasmiylashtirish shakli va usulidan qat'i nazar) asosida sotib olinadigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etiladi)

(297-modda ikkinchi qismining 9-bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdagi O'RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023 yil 1 apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022 y., 03/22/812/1145-son)

10) chet ellik investorlar, chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

11) O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi ellik million AQSH dollari ekvivalentidan ortiq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyani amalga oshirgan chet ellik

yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, basharti olib kirilayotgan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish mahsuloti bo'lsa;

12) mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlar olib borish uchun mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan chet ellik investor yoki boshqa shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek investor tomonidan bojxona hududidan olib chiqiladigan, mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo'lgan mahsulotga;

13) O'zbekiston Respublikasida o'xshashi ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalarga;

(297-modda ikkinchi qismining 13-bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

14) maxsus vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalariga;

(297-modda ikkinchi qismining 14-bandi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 5 noyabrdagi O'RQ-992-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2024 y., 03/24/992/0895-son)

141) maxsus vakolatli davlat organi tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

(297-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 5 noyabrdagi O'RQ-992-sonli Qonuniga asosan 141-band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2024 y., 03/24/992/0895-son)

15) O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi, olimpiya hamda paralimpiya sport turlari bo'yicha federatsiyalar (assotsiatsiyalar) takliflari asosida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan shakllantiriladigan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha davlat hamda nodavlat sport-ta'lim tashkilotlari tomonidan o'z ehtiyojlari uchun xorijdan import qilinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan maxsus sport kiyim-boshlari (ekipirovkalari), poyabzal, sport anjomlari, jihozlari va uskunalari uchun belgilangan bojxona boji stavkasining ellik foiziga;

(297-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 27 dekabrdagi O'RQ-890-sonli Qonuniga asosan 15-band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.12.2023 y., 03/23/890/0981-son)

16) tovarlarni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilarni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganda.

(297-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan 16-band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

298-modda. Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'ini va aksiz solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'ini va aksiz solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq beriladi.

299-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'imlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar

Bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'imlarini to'lashdan quyidagilar ozod etiladi:

1) bojxona chegarasi orqali beg'araz, insonparvarlik yordami yoki xayriya maqsadlari, shu jumladan texnik ko'mak uchun olib o'tilayotgan tovarlar;

2) notijorat maqsadlar uchun jismoniy shaxslar tomonidan qonunchilikda belgilangan bojsiz olib kirish normasi doirasida olib o'tiladigan tovarlar;

(299-modda birinchi qismining 2-kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

(299-moddaning 3-bandi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

4) bojxona imtiyozlaridan foydalanuvchi chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar rasmiy foydalanishi uchun bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar, shuningdek bojxona hududidan olib chiqiladigan hamda O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun mo'ljallangan tovarlar;

5) davlat muzeylarining, axborot-kutubxona muassasalarining, arxivlarining fondlarida va O'zbekiston Respublikasining madaniy boyliklari saqlanadigan davlatga qarashli boshqa joylarda doimiy saqlanadigan, bojxona hududidan vaqtincha olib chiqiladigan va ushbu hududga qaytarib olib kiriladigan madaniy boyliklar;

6) ko'rgazmada namoyish etish uchun davlat muzeylari, axborot-kutubxona muassasalari, arxivlari va davlatga qarashli O'zbekiston Respublikasining madaniy boyliklari saqlanadigan boshqa joylar tomonidan bojxona hududiga vaqtincha olib kiriladigan hamda ko'rgazmalar va shunga o'xshash boshqa tadbirlar o'tkazilganidan keyin qaytarib olib chiqiladigan madaniy boyliklar;

7) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining harbiy yuklari, shuningdek boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan o'zga idoralarning harbiy yuklari;

(299-moddaning 7-bandi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 5 noyabrdagi O'RQ-992-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2024 y., 03/24/992/0895-son)

8) yuridik shaxslar tomonidan olib kiriladigan, qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravarini va undan kam miqdorni tashkil etadigan tovarlar.

(299-moddaning 8-bandi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 3 dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son)

300-modda. Tarif preferensiyalari

Tarif preferensiyalari bojxona bojlarini to'lashdan ozod etish, bojxona bojlari stavkalarini kamaytirish yoki muayyan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni bojxona hududiga preferensial olib kirish yoki ushbu hududdan preferensial olib chiqishda kvotalar belgilash tarzida beriladi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq quyidagi tovarlarga nisbatan bojxona bojlari qo'llanilmaydi:

O'zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo zonasini tashkil etuvchi yoki O'zbekiston Respublikasi erkin savdo rejimini belgilagan davlatlarda ishlab chiqarilgan va ushbu davlatlardan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga;

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan va uning bojxona hududidan O'zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo zonasini tashkil etuvchi yoki O'zbekiston Respublikasi erkin savdo rejimini belgilagan davlatlarga olib chiqilgan tovarlarga.

O'zbekiston Respublikasi erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risida xalqaro shartnoma tuzgan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan, agar tovar erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risidagi xalqaro shartnoma ishtirokchilari bo'lgan davlatlardan birining rezidenti tomonidan eksport qilinayotgan bo'lsa va ushbu shartnoma ishtirokchisi bo'lgan davlatning rezidenti tomonidan shartnoma ishtirokchisi bo'lgan boshqa davlatning bojxona hududidan olib kirilgan bo'lsa, bojxona bojlari qo'llanilmaydi. Bunda rezident deganda shu davlat hududida tashkil etilgan tashkilot yoxud shu davlat hududida doimiy yashaydigan jismoniy shaxs tushuniladi. Boshqa hollarda boj tarifiga muvofiq bojxona boji stavkasi qo'llaniladi.

Boj tarifi bilan belgilangan stavkalar miqdoridagi bojxona bojlari O'zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimini qo'llayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan, tovarni jo'natuvchi va eksport qiluvchi mamlakatdan qat'i nazar qo'llaniladi.

Savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan bojxona bojlarining stavkalari ikki baravar oshiriladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda, shuningdek kam rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilgan va bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar uchun qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasining preferensiyalar milliy tizimi belgilanishi mumkin.

(300-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tarif preferensiyalari ushbu Kodeksning 50-bobi qoidalariga rioya etgan holda beriladi.

44-bob. Tovarning bojxona qiymati

301-modda. Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati

Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullaridan biri orqali aniqlanadigan va bojxona to'lovlarini hisoblash maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatidir.

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(301-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati asosini imkon qadar ushbu Kodeksning 303-moddasida belgilangan mazkur tovarning bitim qiymati tashkil etishi kerak.

Ushbu bobning qoidalari Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitimning VII moddasida hamda Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitimning VII moddasini qo'llash to'g'risidagi bitimda

(Marokash, 1994 yil 15 aprel) belgilangan umumiy prinsiplar va qoidalarga asoslanadi.

Bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash tovarlarning ixtiyoriy yoki soxta bojxona qiymatidan foydalanishga asoslanmasligi kerak.

Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash tartib-taomillari umum qo'llaniladigan bo'lishi kerak, ya'ni ular tovarlarni yetkazib berish manbalariga, shu jumladan tovarlarning kelib chiqishiga, tovarlar turiga, bitim ishtirokchilariga va boshqa omillarga qarab farq qilmasligi kerak.

Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash tartib-taomillaridan dempingga qarshi kurashish maqsadida foydalanilmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitimi VII moddasini qo'llash to'g'risidagi bitimning (Marokash, 1994 yil 15 aprel), shu jumladan ushbu bitimga doir sharhlarning tegishli qoidalaridan, shuningdek Jahon savdo tashkilotining Bojxona baholash qo'mitasi va Jahon bojxona tashkilotining Bojxona baholash bo'yicha texnik qo'mitasi tomonidan qabul qilingan tovarlarning bojxona qiymatiga doir hujjatlardan kelib chiqqan holda bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash usullarini tanlashda ushbu bob qoidalarining bir xil qo'llanilishini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqadi.

(301-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan uchinchi — sakkizinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

302-modda. Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullari

Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash quyidagi usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi:

olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha;

aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha;

o'xshash tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha;

qiymatlarni chegirib tashlash asosida;

qiymatlarni qo'shish asosida;

zaxira usul.

Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha aniqlash usuli olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi.

Agar olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashning asosiy usulini qo'llash mumkin bo'lmasa, ushbu modda birinchi qismining uchinchi — yettinchi xatboshilarida ko'rsatilgan usullar ketma-ketlikda qo'llaniladi. Bunda har bir keyingi usulning qo'llanilishiga, agar bojxona qiymatini aniqlashda oldingisidan foydalanish mumkin bo'lmasa, yo'l qo'yiladi. Qiymatlarni chegirib tashlash va qo'shish usullari teskari ketma-ketlikda qo'llanilishi mumkin.

303-modda. Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul

Olib kiriladigan tovarga doir bitim qiymatiga oid usul olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini bitim qiymati bo'yicha, ya'ni olib kirilayotgan tovar bojxona chegarasini kesib o'tayotgan paytda tovar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan, ushbu

Kodeksning 304 va 305-moddalari qoidalari hisobga olingan holda tuzatilgan narx bo'yicha aniqlashni nazarda tutadi.

Olib kiriladigan tovarlar uchun sotib oluvchi tomonidan bevosita sotuvchiga yoki sotuvchining foydasi uchun boshqa shaxsga to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan barcha to'lovlarning umumiy summasi bunday tovarlar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narx deb hisoblanadi. Bunda to'lovlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan har qanday shaklda bevosita yoki bilvosita amalga oshirilishi mumkin.

Bir bitim doirasida ko'p miqdorda sotib olingan tovarlarning bir qismini deklaratsiyalashda bunday tovarlar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narx deklaratsiyalanadigan tovarlarning miqdori va sotib olingan tovarlarning umumiy miqdori bilan teng nisbatda aniqlanadi.

(303-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

304-modda. Olib kiriladigan tovarga doir bitim narxiga kiritiladigan xarajatlar

Olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bitimning narxiga quyidagi xarajatlar kiritiladi, agar bu xarajatlar bitimning narxiga kiritilmagan bo'lsa:

a) tovarni bojxona hududiga olib kiriladigan joyga yetkazib berilgunga qadar qilinadigan xarajatlar:

tashish qiymati;

tovarlarni yuklash, tushirish, qayta yuklash va boshqa joyga to'kish xarajatlari;

sug'urta qiymati;

b) sotib oluvchi tomonidan qilingan xarajatlar:

vositachilik va brokerlik haqlari, bundan tovarni xarid qilishdagi vositachilik xarajatlari mustasno;

konteynerlar va (yoki) ko'p marta ishlatiladigan boshqa idishlarning qiymati, agar ular O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq baholanayotgan tovar bilan bir butun deb qaralsa;

o'rov-joylov qiymati, shu jumladan o'rash-joylash materiallarining va o'rash-joylash ishlarining qiymati;

v) sotib oluvchi tomonidan bepul yoki arzonlashtirilgan narxda bevosita yoxud bilvosita ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarning va yetkazib beriladigan boshqa tovarlarning tegishli tarzda taqsimlangan qiymati:

olib kiriladigan tovarlar qaysi xomashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa tovarlardan ishlab chiqilgan (iborat) bo'lsa, o'sha xomashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa tovarlar;

olib kiriladigan tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanilgan asboblar, shtamplar, qoliplar va boshqa shu kabi tovarlar;

olib kiriladigan tovarlarni ishlab chiqarishda sarflangan materiallar;

bojxona hududidan tashqarida tayyorlangan va olib kiriladigan tovarlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan loyihalashtirish, ishlab chiqish, muhandislik, konstruktorlik ishlari,

dizayn, eskizlar va chizmalar;

(304-modda birinchi qismining «v» bandi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

g) intellektual mulk ob'yektlaridan foydalanganlik uchun sotib oluvchi baholanayotgan tovarni sotish sharti sifatida bevosita yoki bilvosita to'lashi kerak bo'lgan litsenziya to'lovlari va boshqa to'lovlar;

d) olib kirilgan tovarni keyinchalik qayta sotish, o'zgacha tarzda tasarruf etish yoki undan boshqa tarzda foydalanishdan tushgan tushumning bevosita yoki bilvosita sotuvchiga tegishi kerak bo'lgan har qanday qismining qiymati.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan, bitimning narxiga kiritiladigan xarajatlar tegishli tovarlar, ishlar va xizmatlar (tashish, sug'urta qilish, brokerlik xizmati) uchun haq to'langanligi to'g'risida vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (hisobvaraq-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) asosida aniqlanadi.

Ushbu modda birinchi qismining «v» bandida ko'rsatilgan xarajatlar olib kiriladigan tovarlarni bojxona hududiga olib chiqish uchun ishlab chiqarishga va sotishga qaratilishi kerak.

(304-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Ushbu moddada ko'rsatilmagan xarajatlarni bitim narxiga qo'shishga yo'l qo'yilmaydi.

Turli nomdagi tovarlardan tashkil topgan tovarlarning bitta turkumi yetkazib berilganda, bojxona hududiga olib kirilgan tovarlardan har birining bojxona qiymatiga qo'shilishi lozim bo'lgan hamda tovarlarning butun turkumi uchun belgilangan xarajatlarni aniqlash har bir tovar qiymatining tovarlar turkumining qiymatiga nisbati bilan aniqlanadigan kattalikka mutanosib ravishda, transport xarajatlarini hisobga olishda esa, tovarlarning og'irligiga yoxud hajmiga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

305-modda. Olib kiriladigan tovarga doir bitimning narxidan chiqarib tashlanadigan to'lovlar va xarajatlar

Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bitim narxidan quyidagi to'lovlar va xarajatlar, basharti ular bojxona hududiga olib kiriladigan tovar uchun haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narxdan ajratib olingan bo'lsa, chiqarib tashlanadi:

sanoat qurilmalari, mashinalar yoki uskunalar kabi tovarlar bojxona hududiga olib kirilganidan keyin amalga oshirilgan uskunalarni qurish, o'rnatish, yig'ish, montaj qilish, sozlash va ularga xizmat ko'rsatish yoki texnik ko'maklashish xarajatlari;

tovar bojxona hududiga olib kirilganidan keyin qilinadigan transport xarajatlari;

tovarni olib kirish yoki sotish bilan bog'liq holda O'zbekiston Respublikasida to'lanadigan bojxona to'lovlari va boshqa to'lovlar, agar kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlariga ko'ra bu to'lovlar sotuvchi tomonidan to'lansa.

Bitimning narxidan chiqarib tashlanadigan to'lovlar va xarajatlar, bundan O'zbekiston Respublikasida to'lanadigan bojxona to'lovlari mustasno, tegishli tovarlar, ishlar va xizmatlar (tashish, sug'urta qilish) uchun haq to'langanligi to'g'risida vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (hisobvaraq-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) asosida aniqlanadi.

Olib kiriladigan tovarlar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narx bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga tegishli bo'lib, sotib oluvchi tomonidan sotuvchiga o'tkaziladigan dividendlar yoki boshqa to'lovlar, agar ular olib kiriladigan tovarlar bilan bog'liq bo'lmasa, olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatiga kiritilmaydi.

(305-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

306-modda. Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymatiga oid usuldan foydalanish bo'yicha cheklovlar

Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymatiga oid usuldan quyidagi hollarda bojxona qiymatini aniqlash uchun foydalanilishi mumkin emas, agar:

sotib oluvchining baholanayotgan tovardan foydalanishga yoki uni tasarruf etishga bo'lgan huquqlariga nisbatan cheklovlar mavjud bo'lsa, bundan qonunchilikda belgilangan cheklovlar yoxud tovar qayta sotilishi mumkin bo'lgan geografik mintaqadagi cheklovlar yoki tovarning qiymatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydigan cheklovlar mustasno;

(306-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

tovar bojxona hududiga qiymat asosiga ega bo'lmagan bitim bo'yicha olib kirilgan bo'lsa;

sotish yoki bitimning bahosi ta'sirini hisobga olish mumkin bo'lmagan shartlarga rioya etilishiga bog'liq bo'lsa (ayirboshlash, kontraktatsiya, qayta ishlash shartnomalari);

tovarni keyinchalik qayta sotish, undan foydalanish yoki uni tasarruf etishdan tushgan tushumning istalgan qismi sotuvchiga bevosita yoki bilvosita o'tsa va bunda tovarning qiymatiga ushbu Kodeksning 304-moddasiga muvofiq tegishli tuzatishlarni kiritish mumkin bo'lmasa;

tovarning bojxona qiymatini aniqlashda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan foydalanilgan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lmasa;

bitimning taraflari (sotib oluvchi va sotuvchi) bir-biriga o'zaro bog'liq shaxslar bo'lsa, bundan ularning o'zaro bog'liqligi bitimning bahosiga ta'sir etmagan hollar mustasno, bu esa deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan isbotlanishi lozim.

307-modda. O'zaro bog'liq shaxslar

O'zaro bog'liq shaxslar deganda quyidagi belgilarning hech bo'lmaganda bittasiga mos keladigan shaxslar tushuniladi:

bitim taraflarining biri (jismoniy shaxs) yoki bitim taraflaridan birining mansabdor shaxsi ayni vaqtda bitim boshqa tarafining mansabdor shaxsi bo'lsa;

bitim taraflari yuridik jihatdan tan olingan biznes hamkorlar bo'lsa;

(307-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

bitim taraflarining biri (jismoniy shaxs) boshqa taraf bilan mehnat munosabatlari bo'yicha bog'liq bo'lsa;

bitim taraflarining biri bitim boshqa ishtirokchisining ustav fondida (ustav kapitalida) ovoz berish huquqi bilan ustav fondining (ustav kapitalining) kamida besh foizini tashkil etuvchi

hissaga (payga) egalik qilsa yoki aksiyalarining egasi bo'lsa;

bitimning har ikkala tarafi bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxs tomonidan nazorat qilinayotgan bo'lsa;

bitimning taraflari bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxsni nazorat qilayotgan bo'lsa;

bitimning bir tarafi va (yoki) uning mansabdor shaxsi bevosita yoki bilvosita bitimning ikkinchi tarafini nazorat qilayotgan bo'lsa;

bitim taraflari va (yoki) ularning mansabdor shaxslari qarindosh bo'lsa.

Shartnoma munosabatlarining taraflari bo'lgan, foyda olish maqsadida faoliyatni amalga oshiradigan hamda ushbu faoliyat davomida barcha xarajatlarni va zararlarni birgalikda o'z zimmasiga oladigan vakolatli shaxslar yuridik jihatdan tan olingan biznes hamkorlar deb hisoblanadi. Agar bunday shaxslardan biri boshqasining yagona agenti yoki yagona distribyutori yoxud yagona konsessioneri bo'lsa, ular ushbu moddaning maqsadlari uchun o'zaro bog'liq deb hisoblanadi.

Shaxs boshqa shaxsning xatti-harakatlarini amaliy yoki huquqiy jihatdan cheklasa yoxud nazorat qilsa, u boshqa shaxsni boshqaruvchi shaxs deb hisoblanadi.

(307-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

308-modda. Olib kiriladigan tovarga doir bitim taraflarining o'zaro bog'liqligi belgilari aniqlanishining oqibatlari

Olib kiriladigan tovarga doir bitim taraflarining o'zaro bog'liqligi belgilari bo'lgan taqdirda bojxona organi bitimning amaldagi holatlarini o'rganib chiqishi kerak.

Agar bojxona organi bitim taraflarining o'zaro bog'liqligi bitim bahosiga ta'sir ko'rsatmagan deb topsa, ushbu bitim bojxona qiymatini aniqlash uchun qabul qilinadi. Aks holda, bojxona organi deklarantga yoki bojxona brokeriga mazkur o'zaro bog'liqlik bitim narxiga ta'sir ko'rsatmaganligini isbotlovchi dalillarni o'ttiz kalendar kundan oshmagan muddatda taqdim etish zarurligi to'g'risida yozma shaklda xabar qiladi.

Deklarant yoki bojxona brokerining arizasiga ko'ra amalga oshirilgan bitimning narxi tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun qabul qilinadi, agar deklarant yoki bojxona brokeri bitimning qiymati baholanayotgan tovar olib kirilishidan oldin yoki olib kirilganidan so'ng o'ttiz kalendar kun ichida tovarning olib kirilayotganda bojxona organi rozi bo'lgan quyidagi qiymatlarning biriga yaqinligini isbotlay olsa:

O'zbekiston Respublikasida o'zaro bog'liq bo'lmagan sotib oluvchilarga aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar sotilayotgandagi bitimning qiymatiga;

aynan bir xil yoki o'xshash tovarning qiymatlarini chegirib tashlash usuli bo'yicha aniqlangan bojxona qiymatiga;

aynan bir xil yoki o'xshash tovarning qiymatlarini qo'shish usuli bo'yicha aniqlangan bojxona qiymatiga.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqqoslash uchun taqdim etilgan, ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan bitimning bahosiga va tovarning bojxona qiymatiga quyidagi mezonlar bo'yicha farqlar hisobga olingan holda tuzatishlar kiritiladi:

tijorat shartlari;

miqdori;

ushbu Kodeksning 304-moddasida sanab o'tilgan xarajatlar;

o'zaro bog'liq bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi bitimda sotuvchining xarajatlari, agar bunday xarajatlar sotuvchi tomonidan o'zaro bog'liq bo'lgan shaxs bilan tuzilgan bitimda amalga oshirilmasa.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqqoslashga taqdim etilgan aynan bir xil yoki o'xshash tovarning bitim bahosidan yoki bojxona qiymatidan baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun bitimning bahosi o'rniga foydalanilishi mumkin emas.

309-modda. Aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul

Aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymati qabul qilinishini nazarda tutadi.

Aynan bir xil tovar deganda:

baholanayotgan tovar bilan fizik xususiyatlariga, sifatiga va bozordagi qadriga ko'ra bir xil bo'lgan;

baholanayotgan tovar qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgan bo'lsa, shu mamlakatda ishlab chiqarilgan va O'zbekiston Respublikasiga olib kirish uchun sotilgan;

baholanayotgan tovarni ishlab chiqargan ayni o'sha shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar tushuniladi.

Agar tovarning bitim qiymati O'zbekiston Respublikasida bajarilgan loyihalashning, tajriba-konstruktorlik ishlarining, badiiy bezatishning, dizaynning, eskizlarning yoki chizmalarning qiymatini o'z ichiga olgan bo'lsa, aynan bir xil tovar deb hisoblanmaydi.

Tovarning tashqi ko'rinishidagi juz'iy farqlar, agar bunday tovar qolgan jihatlari bilan ushbu moddaning shartlariga muvofiq bo'lsa, unga aynan bir xil deb qarashni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi.

Agar aynan bir xil tovar bojxona hududiga:

baholanayotgan tovar olib kirilguniga qadar to'qson kalendar kun ichida olib kirilgan bo'lsa;

taxminan o'sha miqdorda va (yoki) o'sha tijorat shartlarida olib kirilgan bo'lsa, aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitimning qiymati baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida qabul qilinadi.

Agar tovarni o'sha miqdorda va o'sha tijorat shartlarida bojxona hududiga olib kirish hollari mavjud bo'lmasa, boshqacha miqdorda va boshqa tijorat shartlarida olib kirilgan aynan bir xil tovarning ushbu farqlar hisobga olinib bitimning narxiga tuzatishlar kiritilgan holdagi qiymatidan foydalanish mumkin.

Agar aynan bir xil tovar uchun ushbu Kodeks 304-moddasi birinchi qismining «a» bandida ko'rsatilgan xarajatlarning qiymati baholanayotgan tovar uchun shunday xarajatlarning qiymatidan masofa va transportning turlaridagi tafovut tufayli ancha farq qilsa, aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga ko'ra aniqlanadigan bojxona qiymatiga tegishli tarzda tuzatishlar kiritilishi kerak.

Baholanayotgan tovarning bojxona qiymatiga tuzatishlar kiritish deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan to'g'ri va hujjat bilan tasdiqlangan ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi lozim.

Agar aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha aniqlash usuli qo'llanilganda aynan bir xil tovarga doir bir nechta bitim aniqlansa, baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun bahosi eng past bo'lgan aynan bir xil tovarga doir bitim qo'llaniladi.

310-modda. O'xshash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul

O'xshash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun o'xshash tovarga doir bitimning qiymati ushbu moddada ko'rsatilgan shartlarga rioya etgan holda asos sifatida qabul qilinishini nazarda tutadi.

O'xshash tovar deganda:

baholanayotgan tovar bilan har jihatdan bir xil bo'lmasa-da, u bilan o'xshash xususiyatlarga ega bo'lganligi va tarkib jihatdan o'xshashligi tufayli bir xil vazifalarni bajara oladigan hamda tijorat nuqtai nazaridan, shu jumladan sifati, bozordagi qadri, tovar belgisining mavjudligiga ko'ra uning o'rnini bosa oladigan;

baholanayotgan tovar olib kirilguniga qadar to'qson kalendar kun ichida olib kirilgan;

baholanayotgan tovar ishlab chiqarilgan ayni o'sha mamlakatda ishlab chiqarilgan va O'zbekiston Respublikasiga olib kirish uchun sotilgan;

baholanayotgan tovarni ishlab chiqargan ayni bir shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar tushuniladi. Baholanayotgan tovarni ishlab chiqargan ayni bir shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar mavjud bo'lmagan taqdirda boshqa shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar o'xshash tovar sifatida qabul qilinadi.

Agar bitimning qiymati O'zbekiston Respublikasida bajarilgan loyihalashning, tajriba-konstruktorlik ishlarining, badiiy bezatishning, dizaynning, eskizlarning yoki chizmalarning qiymatlarini o'z ichiga olsa, tovar o'xshash tovar deb hisoblanmaydi.

O'xshash tovarga doir bitimning qiymatiga ko'ra tovarning bojxona qiymatini aniqlash usulidan foydalanilayotganda ushbu Kodeks 309-moddasining beshinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi qismlari qoidalari qo'llaniladi.

311-modda. Qiymatlarni chegirib tashlash asosidagi usul

Qiymatlarni chegirib tashlash asosidagi usul baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida:

bojxona hududida dastlabki holati o'zgarmagan holatda;

baholanayotgan tovar bojxona hududiga olib kirilguniga qadar to'qson kalendar kun ichida katta miqdorlarda (bir nechta turkumlarda);

shunday tovarni sotuvchi bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan shaxsga sotilayotgan, baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovar birligining narxi qabul qilinishini nazarda tutadi.

Baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovar birligining narxidan quyidagi xarajatlar chegirib tashlanadi:

to'lanadigan yoxud to'lashga kelishilgan vositachilik haqi yoki foyda uchun ustamalar hamda olib kirilgan o'sha klassdagi va turdagi tovarni bojxona hududida sotish bilan bog'liq bo'lgan umumiy xarajatlar;

tovarlarni olib kirish yoki sotish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining va boshqa to'lovlarning summalari;

bojxona hududida transportda tashish, sug'urtalash, yuklash va tushirish uchun sarflangan xarajatlar.

O'sha klassdagi yoki turdagi tovar iqtisodiyotning muayyan tarmog'i mahsulotiga taalluqli bo'lgan tovarlar guruhini, shu jumladan aynan bir xil va o'xshash tovarlarni anglatadi.

Ichki bozorda tovarning sotilish narxini tanlashda ko'rilayotgan tovarning import qilinganidan keyingi birinchi tijorat bosqichidagi narxini, ya'ni olib kirilgan tovarning birinchi marta qayta sotilishidagi narxini hisobga olish kerak bo'ladi.

Baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarning baholanayotgan tovar olib kirilishidan oldin to'qson kalendar kun ichida sotilganligi faktlari mavjud bo'lmagan taqdirda, ushbu modda birinchi va ikkinchi qismlarining qoidalari inobatga olingan holda baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovar tovar birligining qaysi narxi bo'yicha O'zbekiston Respublikasida eng katta turkumda, o'zgarmas holatda, baholanayotgan tovar olib kirilgan kunga eng yaqin muddatda, lekin baholanayotgan tovar olib kirilgan kundan e'tiboran to'qson kundan kechiktirmay sotilayotgan bo'lsa, o'sha narx qabul qilinadi.

Baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarning bojxona hududida o'zgarmas holatda sotilganligi faktlari mavjud bo'lmagan taqdirda, baholanayotgan tovarning bojxona qiymati tovarga keyinchalik ishlov berilganidan keyin olingan, shunday tovarni sotuvchi bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan shaxsga bojxona hududida eng katta miqdorda sotiladigan mahsulot birligining narxi asosida, deklarant yoki bojxona brokerining arizasiga ko'ra aniqlanadi. Bunda tovarning bojxona qiymatiga ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan tuzatishlar kiritiladi.

312-modda. Qiymatlarni qo'shish asosidagi usul

Qiymatlarni qo'shish asosidagi usul baholanayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida tovarning quyidagilarni qo'shish orqali hisoblab chiqarilgan narxi qabul qilinishini nazarda tutadi:

a) baholanayotgan tovarni tayyorlashda sarflangan materiallarning qiymati hamda ishlab chiqarish va (yoki) ishlov berish xarajatlari;

b) ushbu moddaning «a» bandida aks ettirilmagan umumiy xarajatlarning hajmi va baholanayotgan tovar ishlab chiqarilgan ayni o'sha mamlakatda ishlab chiqarilgan ayni o'sha klassdagi va turdagi tovarni O'zbekiston Respublikasida sotishda odatda eksport qiluvchi tomonidan olinadigan foyda;

v) ushbu Kodeks 304-moddasi birinchi qismining «a» bandida ko'rsatilgan xarajatlar.

313-modda. Zaxira usul

Agar tovarning bojxona qiymatini ushbu Kodeksning 303, 309, 310, 311 va 312-moddalarida ko'rsatilgan bojxona qiymatini aniqlash usullarini ketma-ketlikda qo'llash natijasida deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan aniqlash mumkin bo'lmasa, baholanayotgan tovarning bojxona qiymati bojxona qiymatini aniqlash usullarining muddatlarni qo'llash, tovarlarning ishlab chiqarilgan mamlakatini, aynan bir xilligini yoki o'xshashligini aniqlashga doir talablarini bir muncha qayishqoqlik bilan qo'llash orqali aniqlanadi.

Agar bojxona organi olib kirilgan tovarlarning bojxona qiymatini o'zida mavjud bo'lgan ma'lumotlarga asosan zaxira usuli bilan aniqlasa, u deklarantning so'roviga ko'ra bunday ma'lumotlarning manbalari to'g'risida xabar beradi. Bojxona organi zaxira usulini to'g'ri qo'llash maqsadida bunday axborotni yig'ib boradi.

(313-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Zaxira usuldan foydalanishda hujjatlar bilan tasdiqlashga doir talablar quyidagilarni boshqa usullarga nisbatan bir muncha qayishqoqlikka yo'l qo'yadi:

jahon narxlariga doir, ichki bozor narxlariga doir axborot ma'lumotnomalaridan foydalanishni;

vositachilik haqlari, chegirmalar, foydalar, transport tariflari umum qabul qilingan darajalarining statistik ma'lumotlaridan foydalanishni.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan hollarda, baholanayotgan tovarni yetkazib berish shartlarini hisobga olgan holda ma'lumotlarga tegishli tuzatishlar kiritilishi shart.

Tovarning bojxona qiymatini zaxira usulda aniqlash uchun asos sifatida quyidagilardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi:

a) O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan o'xshash tovarning sotilish narxidan;

b) ikki muqobil qiymatdan eng yuqorisi bojxona baholash maqsadlari uchun qabul qilinishini nazarda tutuvchi tizimdan;

(313-modda beshinchi qismining «b» bandi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

v) eksport qiluvchi mamlakatning ichki bozoridagi tovar narxidan;

g) bojxona qiymatini aniqlash uchun qiymatlarni qo'shish usulini qo'llashda foydalanilmaydigan ishlab chiqarish chiqimlaridan;

d) eksport qilayotgan mamlakatdan uchinchi mamlakatlarga yetkazib berilayotgan tovarning narxidan;

ye) eng past bojxona qiymatlaridan;

j) tovarning o'zboshimchalik bilan belgilangan yoki to'g'ri tasdiqlanmagan narxidan.

Bojxona organi ushbu moddaga muvofiq aniqlangan tovarning bojxona qiymati hamda shunday qiymatni aniqlash uchun foydalanilgan usul to'g'risida deklarant yoki bojxona brokerining arizasiga ko'ra unga axborot beradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida sarflangan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, qiymatlarni chegirib tashlash asosidagi usul bilan bojxona qiymatini aniqlash uchun ekspert baholash qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi, uni qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Bunda tovar birligining bojxona qiymati aniqlanib, keyinchalik butun turkumning bojxona qiymati qayta hisob-kitob qilinadi.

Ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq baholanayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning bir nechta usulini qo'llash imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda, ularni qo'llashning ketma-ketligiga amal qilinishi zarur.

Olib kiriladigan tovarlarning ushbu moddaga muvofiq belgilangan bojxona qiymati imkon qadar avval belgilangan bojxona qiymatlariga asoslanishi kerak.

(313-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi va to'qqizinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

314-modda. Axborot tashuvchi jismning bojxona qiymatini aniqlash

Axborot tashuvchi jismning bojxona qiymati tovarning bojxona qiymatini aniqlashning ushbu bobda ko'rsatilgan usullari qo'llanilgan holda axborotning qiymati belgilanganidan keyin aniqlanadi.

Bojxona hududiga olib kirilayotgan va ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha uskunalar uchun dasturiy ta'minotni o'z ichiga olgan axborot tashuvchi jismning bojxona qiymatini aniqlashda, agar baholanayotgan tovar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narxdan dasturiy ta'minotning qiymati va (yoki) axborot tashuvchi jismning qiymati ajratib chiqarilsa, faqat axborot tashuvchi jismning qiymati hisobga olinadi.

Agar dasturiy ta'minot axborot tashuvchi jism bo'lmagan tovarning tarkibiga kirsa hamda u bunday dasturiy ta'minotsiz o'ziga xos bo'lgan vazifalarni bajara olmaydigan ushbu tovarning ishlashiga qaratilgan bo'lsa, dasturiy ta'minotning qiymati tovarning qiymatidan ajratib chiqarilmaydi.

315-modda. Olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash

Olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymati u eksportga sotilganda amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bitimning bahosi asosida aniqlanadi.

Olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda ushbu Kodeks 306-moddasining yettinchi xatboshisida, shuningdek 307 va 308-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

Bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarning ma'lum qilingan bojxona qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, bunday tovarning bojxona qiymati bojxona organida mavjud bo'lgan aynan bir xil yoki o'xshash tovarlarga oid ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Ilgari olib kirilgan tovarlarni o'zgarmas holatda bojxona hududidan olib chiqishda bojxona qiymati tovarning u olib kirilgan paytdagi bojxona qiymatining hamda bojxona hududida qilingan xarajatlarning, shu jumladan bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona to'lovlarini to'lash (tovarlar reeksport qilinishi munosabati bilan qaytarilishi kerak bo'lgan to'lovlarni chegirgan holda), tovarlarni saqlash, sug'urtalash uchun qilingan xarajatlarning, bojxona hududida qilingan boshqa xarajatlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Olib chiqiladigan tovarning deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan bojxona qiymatini aniqlash to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud bo'lmagan yoxud deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni noto'g'ri yoki yetarli emas deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda bojxona organi bojxona qiymatini mustaqil ravishda belgilaydi. Bunda bojxona organi deklarant yoki bojxona brokerining yozma arizasiga ko'ra unga olib chiqiladigan tovarning deklarant yoki bojxona brokeri ma'lum qilgan bojxona qiymati bojxona organi tomonidan qabul qilinmaganligining sabablari ko'rsatilgan yozma tushuntirish berishi shart.

Bojxona organi o'z ixtiyorida bo'lgan yoki deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilgan, ushbu Kodeksning 316 va 317-moddalarida ko'rsatilgan axborotdan

foydalanishi mumkin.

Bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bojxona organi:

1) baholanayotgan, aynan bir xil va (yoki) o'xshash tovarlarni sotish shartlarining mumkin qadar taqqoslana olinishini ta'minlashi, shu jumladan quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha ta'minlashi:

a) import amalga oshirilayotgan mamlakat yoki geografik mintaqa;

b) olib chiqiladigan tovarlarning miqdori;

v) sotuvning tijorat shartlari, shu jumladan bozor kon'yunkturasi (asosan xom ashyo tovarlarni eksport qilishda);

2) sotib oluvchining barcha sarf-xarajatlarini xarajatlarning bojxona qiymatiga kiritish nuqtai nazaridan hisobga olishi lozim.

Agar kontraktda (shartnomada, kelishuvda) qat'iy belgilab qo'yilgan narxlar mavjud bo'lmasa va faqat tovarning uzil-kesil narxini belgilash shartlari aks ettirilgan bo'lsa yoxud kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlariga muvofiq uzil-kesil narx sotib oluvchi tomonidan tovarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olish natijalariga ko'ra aniqlansa, olib chiqilayotgan tovarning bojxona qiymati muvaqqat (shartli) bahoni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Deklarant yoki bojxona brokeri o'zida mavjud bo'lgan, bojxona qiymatining muvaqqat (shartli) bahosi xolis ekanligini ta'minlaydigan hujjatlarni taqdim etishga haqli.

Olib chiqilayotgan tovarning bojxona qiymatini muvaqqat (shartli) bahosi uchun asos sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

kontraktda (shartnomada, kelishuvda) qayd etilgan dastlabki narx;

kontraktda (shartnomada, kelishuvda) belgilangan, uni hisob-kitob qilish shartlariga muvofiq tovar yuklab jo'natilgan sanada aniqlangan hisob-kitob bahosi.

Ushbu moddaning o'ninchi qismida ko'rsatilgan hisob-kitoblarni o'tkazish mumkin bo'lmagan taqdirda, olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymatini muvaqqat (shartli) baholash bojxona organining ixtiyorida mavjud bo'lgan narxlar to'g'risidagi tegishli axborot asosida amalga oshirilishi mumkin.

Deklarant yoki bojxona brokerining yozma arizasi bo'yicha bojxona organi ko'rib chiqilayotgan bitim shartlaridan hamda bojxona va valyutaga oid qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda, deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan, bojxona qiymatini tasdiqlaydigan va (yoki) aniqlashtiradigan zarur hujjatlarning deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilish muddatini belgilaydi. Ma'lum qilingan bojxona qiymatini tasdiqlash va (yoki) aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan belgilangan muddatda taqdim etilganidan keyin unga tuzatishlar kiritiladi.

(315-moddaning o'n ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona qiymati olib chiqilayotgan tovarga doir bitimning qiymati asosida quyidagi hollarda aniqlanishi mumkin emas, agar:

kontraktda (shartnomada, kelishuvda) bitimning qiymatiga ta'sir ko'rsatgan cheklovlar va (yoki) shartlar mavjud bo'lsa;

ta'sirini hisobga olish mumkin bo'lmagan shartlarga rioya etilishiga sotish va bitimning qiymati bog'liq bo'lsa;

bitim ishtirokchilari o'zaro bog'liq shaxslar bo'lsa va bu omilning bitim qiymatiga ta'sirini qiymat tarzida ifodalash mumkin bo'lmasa;

bojxona qiymatini ma'lum qilishda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan foydalanilgan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlanmagan yoxud noto'g'ri bo'lsa.

316-modda. Olib chiqiladigan tovarga doir bitimning narxiga kiritiladigan xarajatlar

Olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bitimning bahosiga quyidagi xarajatlar kiritiladi, agar bu xarajatlar bitimning bahosiga kiritilmagan bo'lsa:

a) tovarni bojxona hududidan olib chiqiladigan joygacha yetkazib berish xarajatlari:

transportda tashish qiymati;

tovarlarni yuklash, tushirish, qayta yuklash va tushirish-ortish xarajatlari;

sug'urtalash qiymati;

b) sotuvchi tomonidan qilingan xarajatlar:

vositachilik va brokerlik haqi, bundan tovarni xarid qilish bo'yicha vositachilik haqi mustasno;

konteynerlarning va (yoki) boshqa ko'p marta ishlatiladigan idishlarning qiymati, agar O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq ularga baholanayotgan tovar bilan bir butun deb qaralsa;

o'rov-joylashning qiymati, shu jumladan o'rash-joylash materiallarining va o'rash-joylash ishlarining qiymati;

v) intellektual mulk ob'yektlaridan foydalanganlik uchun sotib oluvchi baholanayotgan tovarni sotish shartlari sifatida bevosita yoki bilvosita to'lashi kerak bo'lgan litsenziya to'lovlari va boshqa to'lovlar;

g) sotuvchining baholanayotgan tovarni keyinchalik bojxona hududidan tashqarida har qanday tarzda qayta sotish, o'tkazish yoki undan foydalanishdan olingan bevosita yoki bilvosita daromadining bir qismi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan bitimning bahosiga qo'shiladigan komponentlar tegishli tovarlar, ishlar va xizmatlar (tashish, sug'urtalash, sertifikatlashtirish, brokerlik xizmatlari) uchun haq to'langanligi to'g'risida vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (hisobvaraq-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) asosida aniqlanadi.

317-modda. Olib chiqiladigan tovarga doir bitimning narxidan chiqarib tashlanadigan to'lovlar va xarajatlar

Olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bitimning narxidan quyidagi to'lovlar va xarajatlar chiqarib tashlanadi, basharti ular ilgari bitimning narxiga kiritilgan bo'lsa va hujjatlar bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lsa:

sanoat qurilmalari, mashinalar yoki uskunalar kabi tovarlar bojxona hududidan olib chiqilganidan so'ng amalga oshirilgan uskunalarni qurish, o'rnatish, yig'ish, montaj qilish, sozlash va ularga xizmat ko'rsatish yoki texnik ko'maklashish xarajatlari;

tovar bojxona hududidan olib chiqilgandan keyingi uni yetkazib berish xarajatlari;

tovar bojxona hududidan olib chiqilganidan keyingi uni yetkazib berishni sug'urtalash qiymati;

import qilingan mamlakatda sotuvchi tomonidan to'lanadigan bojxona to'lovlari.

Bitimning narxi mavjud bo'lmagan taqdirda, olib chiqiladigan tovarning bojxona qiymati eksport qilayotgan sotuvchining olib chiqiladigan tovarni ishlab chiqarish yoki olish, saqlash va tashish bilan bog'liq xarajatlari to'g'risida deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilgan hujjatlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda ushbu moddaning birinchi qismida sanab o'tilgan xarajatlar ham hisobga olinadi.

318-modda. Tovarning bojxona qiymatini ma'lum qilish

Tovarning bojxona qiymati bojxona qiymati deklaratsiyasini to'ldirgan holda tovarlarni deklaratsiyalashda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga ma'lum qilinadi.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi bojxona yuk deklaratsiyasining ajralmas qismi bo'lib, tovarning bojxona qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasi bilan bir paytda topshiriladigan hujjat hisoblanadi.

Bojxona qiymati deklaratsiyasining shakli va uni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilinadigan tovarning bojxona qiymati va uni aniqlashga taalluqli taqdim etiladigan ma'lumotlar to'g'ri, miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin bo'lgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotga asoslanishi kerak.

Deklarant yoki bojxona brokeri deklaratsiyalanadigan tovarning bojxona qiymati ma'lum qilinguniga qadar aniqlangan tovar turkumining tovarning yo'qolishi, kamomadi, shikastlanishi hajmlariga mos birlikka keltirilgan bojxona qiymatini ma'lum qilish huquqiga ega. Tovarning yo'qolishi, kamomadi, shikastlanishi fakti ekspertiza xulosasi va bojxona ko'zdan kechiruvi dalolatnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi bojxona to'lovlarini to'lashni nazarda tutuvchi bojxona rejimlari ma'lum qilinganda bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar uchun to'ldiriladi, bundan ushbu moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi quyidagi hollarda to'ldirilmaydi va bojxona qiymati bojxona yuk deklaratsiyasida ma'lum qilinadi, agar:

bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar turkumining bojxona qiymati bir ming AQSH dollariga teng ekvivalent summadan oshmasa, bundan bitta kontrakt (shartnoma, kelishuv) doirasida bir necha marta tovar yetkazib berish, shuningdek turli kontraktlar (shartnomalar, kelishuvlar) bo'yicha ayni o'sha tovarni bir jo'natuvchi tomonidan ayni o'sha bitta oluvchining manziliga takror-takror yetkazib berish mustasno;

olib o'tiladigan tovarlar bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etilgan bo'lsa;

tovarlar bojxona tranziti, vaqtincha saqlash, bojxona ombori, yo'q qilish, davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimlariga joylashtirilgan bo'lsa.

(318-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

319-modda. Tovarning bojxona qiymatini nazorat qilish

Bojxona organi deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan tanlangan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usulining va ma'lum qilingan bojxona qiymati hisoblab chiqarilishining to'g'riligini quyidagilar asosida aniqlaydi:

deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilgan bojxona qiymati deklaratsiyasi, hujjatlar va ma'lumotlar;

tovarning bojxona qiymatini aniqlashda foydalaniladigan, o'z ixtiyorida mavjud bo'lgan axborot.

Tovarning bojxona qiymatini nazorat qilishda bojxona organi quyidagilarning to'g'riligini ketma-ketlikda tekshiradi:

tovarning ma'lum qilingan bojxona qiymati tuzilishi va miqdorining;

tovarning ma'lum qilingan bojxona qiymatini aniqlash usulini tanlash va qo'llashning;

tovarning ma'lum qilingan bojxona qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlanganligining.

(319-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Bojxona organi tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun tanlangan usulga quyidagi hollarda rozi bo'lmaslikka va deklarantga yoki bojxona brokeriga bojxona qiymatini aniqlashning boshqa usulidan foydalanib, bojxona qiymatini aniqlashni taklif etishga haqli:

deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan tovarning bojxona qiymati to'g'ri aniqlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlar mavjud bo'lmasa;

tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun bojxona organi tomonidan so'ralgan zarur qo'shimcha hujjatlar deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilmagan bo'lsa;

deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar noto'g'ri ekanligining belgilari aniqlansa.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan hollarda bojxona organi va deklarant yoki bojxona brokeri o'rtasida tovarning bojxona qiymatini aniqlash usulini tanlash xususida maslahatlashuvlar o'tkazilishi mumkin.

Agar deklarant yoki bojxona brokeri tovarning bojxona organi tomonidan aniqlangan bojxona qiymatiga rozi bo'lmasa, deklarant yoki bojxona brokeri o'zi ma'lum qilgan bojxona qiymati qaysi sabablarga ko'ra qabul qilinmaganligini tushuntirib berishni bojxona organidan so'rashga haqli, bundan shartli bojxona qiymatining qo'llanilishi holati mustasno.

Bojxona organi deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan tovarning bojxona qiymati nima uchun bojxona organi tomonidan qaysi sabablarga ko'ra qabul qilinmaganligini deklarantning yoki bojxona brokerining arizasiga binoan yozma shaklda yoxud elektron shaklda tushuntirish berishi shart.

Bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilayotganda aniqlangan va bojxona organi tomonidan qabul qilingan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usuli va bojxona qiymati summasining hisob-kitobi faqat ushbu Kodeksning 320-moddasida nazarda tutilgan hollarda hamda tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish zarurligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Ushbu bobning qoidalari tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun taqdim etilgan har qanday ma'lumotning, hujjatning yoki deklaratsiyaning to'g'riligini yoxud aniqligini tasdiqlash bo'yicha bojxona organlarining huquqini cheklamaydi yoki shubha ostiga qo'ymaydi.

Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini nazorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan tovarning bojxona qiymatini noto'g'ri aniqlash belgilari, tovarning bojxona qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni noto'g'ri deb topish asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(319-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi va to'qqizinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

320-modda. Tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish

Tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida;

tovar chiqarib yuborilganidan keyin.

Bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga quyidagi hollarda tuzatishlar kiritiladi, agar:

deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ma'lum qilingan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usuli va miqdori ularni tasdiqlash uchun taqdim etilgan hujjatlarga mos emasligi aniqlangan bo'lsa;

bojxona qiymati deklaratsiyasida tovarning ma'lum qilingan bojxona qiymati va (yoki) bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etgan texnik xatolar aniqlangan bo'lsa.

Tovar chiqarib yuborilganidan keyin uning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga quyidagi hollarda tuzatishlar kiritiladi, agar:

shartli chiqarib yuborilgan tovarga nisbatan uning uzil-kesil bojxona qiymati deklarantning yoki bojxona brokerining qo'shimcha axboroti asosida aniqlansa yoxud deklarant yoki bojxona brokeri ushbu Kodeksning 321-moddasiga muvofiq bojxona organi tomonidan aniqlangan bojxona qiymatini qabul qilsa;

tovarni deklaratsiyalashda sodir etilgan, tovarning bojxona qiymatining va (yoki) bojxona to'lovlarining miqdoriga ta'sir ko'rsatgan texnik xatolar aniqlangan bo'lsa;

hujjatlarning keyingi tekshiruvi paytida tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlarining miqdoriga ta'sir ko'rsatgan noto'g'ri deklaratsiyalash aniqlangan bo'lsa;

ma'lum qilingan bojxona qiymatining bojxona hududiga olib kirilgan yoki ushbu hududdan olib chiqilgan tovarning miqdori va (yoki) sifati kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlaridan chetga chiqishi tufayli tovarning haqiqiy qiymatiga mos emasligi bojxona deklaratsiyasini qabul qilish sanasida aniqlangan bo'lsa. Bojxona ko'zdan kechiruvi dalolatnomasi, shuningdek kontrakt (shartnoma, kelishuv) taraflari o'rtasida kelishilgan, bojxona to'lovlari undirilmaydigan tovar bo'yicha — tovarning miqdoriga oid e'tiroz yoki bojxona to'lovlari undiriladigan tovarlar bo'yicha — ekspertiza xulosasi tovarning mos emasligini tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi;

bojxona to'lovlarining summalari qaytarilishiga yoki qo'shimcha to'lanishiga olib keladigan yoki tovarning bojxona qiymati miqdoriga ta'sir ko'rsatgan boshqa asoslar yuzaga kelgan bo'lsa.

Agar tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikning paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lsa, ana shu qarzdorlik summasiga ushbu Kodeksning 349-moddasida nazarda tutilgan tartibda penya hisoblanadi.

Tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish qaysi tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritilayotgan bo'lsa, faqatgina o'sha tovarga nisbatan amalga oshiriladi.

Tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish ushbu Kodeksning 266-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

(320-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Agar deklarant yoki bojxona brokeri bojxona organi tomonidan tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga kiritilgan tuzatishlarga rozi bo'lmasa, tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish sabablarini yozma ravishda tushuntirib berishni bojxona organidan so'rab olishga haqli.

(320-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan bojxona organiga so'rov yuborilishi deklarantni yoki bojxona brokerini bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etmaydi.

(320-moddaning to'qqizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan 2022 yil 3 maydan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son)

Bojxona rasmiylashtiruvi uchun hujjatlar qabul qilinganidan keyin bojxona organi tomonidan tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritilishi ustidan deklarant yoki bojxona brokeri belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

320-moddaga O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan o'zgartirish kiritilgan. 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi.

321-modda. Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan tovarning bojxona qiymatini aniqlash imkoni bo'lmagan taqdirda tovarning shartli chiqarib yuborilishi

Tovarning bojxona qiymatini aniqlash imkoni bo'lmagan taqdirda uni shartli chiqarib yuborish deklarantning yoki bojxona brokerining arizasiga ko'ra bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bojxona organi ushbu bobda belgilangan tartibda tovarning shartli bojxona qiymatini mustaqil ravishda belgilaydi.

Tovarning bojxona qiymatini aniqlash imkoni bo'lmagan taqdirda uni shartli chiqarib yuborish, agar bojxona organi tomonidan aniqlangan tovarning bojxona qiymatiga muvofiq ravishda hisoblab chiqarilgan bojxona to'lovlari summasi deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan to'lansa yoki to'lanishi ta'minlansa, amalga oshiriladi.

Bojxona organi ariza kelib tushgan kundan keyingi uch ish kuni ichida deklarantga yoki bojxona brokeriga tovarning shartli bojxona qiymatining va talab qilinayotgan bojxona

to'lovlari to'lanishini ta'minlash miqdorlari to'g'risida yozma yoki elektron shaklda xabar qiladi.

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashning amal qilish muddati tovar chiqarib yuborilgan kundan e'tiboran oltmish kalendar kunni tashkil etadi.

Deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan tovarning bojxona qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganidan keyin bojxona qiymati va tegishli bojxona to'lovlari tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish shaklini to'ldirgan holda qaytadan hisob-kitob qilinadi.

Tovarning bojxona qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash summasi ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq belgilangan muddat o'tgach O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga o'tkaziladi. Bunda tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish ushbu Kodeksning 266-moddasiga muvofiq amalga oshirilib, u tovarning bojxona qiymatiga nisbatan uzil-kesil qaror hisoblanadi.

(321-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

45-bob. Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash

322-modda. Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun asos

Qo'llaniladigan stavka turlariga bog'liq holda bojxona bojini, aksiz solig'ini va tegishli bojxona yig'imlarini hisoblab chiqarish uchun tovarning bojxona qiymati va (yoki) uning miqdori asos bo'ladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

(322-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun tovarning bojxona qiymati, to'lanishi lozim bo'lgan bojxona boji summasi, aksiz to'lanadigan tovar bo'yicha esa, to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i summasining yig'indisi asos bo'ladi.

323-modda. Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish tartibi

Bojxona to'lovlari deklarant tomonidan hisoblab chiqariladi.

Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi, bundan ushbu Kodeksning 66-moddasida va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

(323-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

324-modda. Bojxona to'lovlari stavkalarining qo'llanilishi

Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun:

bojxona organi tomonidan bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kuni amalda bo'lgan, bundan ushbu Kodeksning 172 va 325-moddalarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq bo'lmagan bojxona to'lovlarini to'lashda bojxona organi tomonidan harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilgan kuni amalda bo'lgan stavkalar qo'llaniladi.

325-modda. Tovarlar bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tilganda yoxud belgilangan talab va shartlar boshqacha tarzda buzilganda bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish

Tovarlar bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tilganda yoxud ushbu Kodeksda belgilangan talablar va shartlar boshqacha tarzda buzilganda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari:

belgilangan talablar va shartlar buzilgan holda bojxona hududiga olib kirilgan va bojxona to'lovlari to'lanmagan tovarlarga nisbatan — bojxona chegarasini kesib o'tish kuni amalda bo'lgan stavkalar, agar bunday kunni aniqlashning imkoni bo'lmasa — shunday tovarlar aniqlangan kuni amalda bo'lgan stavkalar bo'yicha;

noqonuniy olib chiqilgan tovarlarga nisbatan — bojxona chegarasini kesib o'tish kuni amalda bo'lgan stavkalar, agar bunday kunni aniqlash imkoni bo'lmasa — shunday faktlar aniqlangan kuni amalda bo'lgan stavkalar bo'yicha;

tranzit bojxona rejimida olib o'tilayotgan yoki bojxona nazorati ostida saqlanayotganda yo'qotilgan, yetkazib berilmagan yoki bojxona organi bilan kelishilmagan holda berib yuborilgan tovarlarga nisbatan — tovarlar tegishli bojxona rejimiga joylashtirilgan kuni amalda bo'lgan stavkalar bo'yicha;

shartli chiqarib yuborilgan va bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar berilgan maqsadlardan boshqa maqsadlarda foydalanilayotgan tovarlarga nisbatan — bojxona organi tomonidan bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kuni amalda bo'lgan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqariladi.

326-modda. Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun chet el valyutasini qayta hisob-kitob qilish

Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun chet el valyutasini qayta hisob-kitob qilish:

bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda — bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kuni;

to'lanishi bojxona rasmiylashtiruviga bog'liq bo'lmagan bojxona to'lovlari uchun — bojxona organi tomonidan harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilgan kuni O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan valyutalarning rasmiy ayirboshlash kursi bo'yicha amalga oshiriladi.

Tovarlar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilayotganda davriy bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish hamda tovarlarni quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tishda bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun chet el valyutasini qayta hisob-kitob qilish ushbu Kodeksning 66 va 172-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

46-bob. Bojxona to'lovlarini to'lash tartibi va muddatlari

327-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash muddatlari

Bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasi qabul qilinguniga qadar yoki qabul qilinishi bilan bir vaqtda to'lanadi, bundan ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Tovarlarning ayrim toifalariga nisbatan bojxona to'lovlarini to'lash muddati quyidagicha belgilanadi:

quvur transportida yoki elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlar uchun — ushbu Kodeksning 172-moddasiga muvofiq;

shartli chiqarib yuborilgan tovarlardan bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar berilishidan ko'zlanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilgan taqdirda — tovarlardan foydalanish va ularni tasarruf etish bo'yicha cheklovlarga rioya etilmagan birinchi kun;

bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tilayotgan tovarlar uchun — bojxona chegarasi kesib o'tilgan kun. Agar bu kunni aniqlashning imkoni bo'lmasa, tovarlarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tish fakti bojxona organlari tomonidan aniqlangan kun bojxona to'lovlarini to'lash kuni hisoblanadi;

bojxona hududiga vaqtincha olib kirilgan tovarlar uchun — ushbu Kodeksning 66-moddasiga muvofiq.

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan taqdirda, bojxona to'lovlarini kechiktirib va bo'lib-bo'lib to'lashga imkoniyat berilgan oxirgi to'lash kuni bojxona to'lovlarini to'lash muddati hisoblanadi.

To'lanishi bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq bo'lmagan bojxona yig'imlari bojxona organlari tomonidan tegishli harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilguniga qadar yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq bojxona hududida to'lanadi.

(327-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 28 dekabrdagi O'RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023 y., 03/23/891/0989-son — 2024 yil 1 yanvardan kuchga kiradi)

Bojxona to'lovlarini to'lash muddatlari buzilgan taqdirda bojxona to'lovlari o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun ushbu Kodeksning 349-moddasiga muvofiq penya hisoblanadi.

328-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash tartibi

Bojxona to'lovlari bojxona organlarining qonunchilikka muvofiq shu maqsadlar uchun ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga to'lovchi tomonidan to'lanadi.

To'langan va undirilgan bojxona to'lovlarining hisobi bojxona organlarining axborot tizimida yuritiladi.

To'langan bojxona to'lovlaridan olingan mablag'lar tovarlar chiqarib yuborilgan kundan yoki to'lanishi bojxona rasmiylashtiruviga bog'liq bo'lmagan bojxona to'lovlari uchun bojxona organi tomonidan harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida bojxona organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga o'tkaziladi, bundan ushbu moddaning to'rtinchi qismida nazarda tutilgan holat mustasno.

Ushbu Kodeksning 262, 269 va 270-moddalariga muvofiq tovarlarni deklaratsiyalashda to'langan bojxona to'lovlari lozim darajada to'ldirilgan bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilishi yakunlangandan so'ng O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga o'tkaziladi.

Bojxona to'lovlari, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, milliy valyutada to'lanadi.

(328-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

329-modda. Bojxona to'lovlarini kechiktirib va bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish shartlari

Bojxona organining qaroriga asosan to'lovchiga bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishi mumkin.

Bojxona to'lovlarini to'lash muddatining qo'shimcha davrga uzaytirilishi bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lashdir.

Bojxona to'lovlarini to'lash muddatini qo'shimcha davrga uzaytirib, to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari summasini shu davr ichida qismlarga bo'lib to'lash bojxona to'lovlarini bo'lib-bo'lib to'lashdir.

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kalendar kundan oshmasligi, lekin o'n to'rt kalendar kundan kam bo'lmasligi kerak, bundan ushbu moddaning beshinchi va o'n birinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

(329-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e'tiboran bir yuz yigirma kalendar kun muddatga kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati quyidagilar bo'yicha beriladi:

ishlab chiqaruvchi korxonalarga mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan, bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar uchun bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha;

moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi mikrofirmalar hamda kichik korxonalarga, fermer xo'jaliklariga, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan holdagi dehqon xo'jaliklariga o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan tovarlar uchun bojxona bojini to'lash bo'yicha.

(329-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati bojxona to'lovlarining bitta yoki bir nechta turiga, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan butun summaga yoki uning bir qismiga nisbatan berilishi mumkin.

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish to'g'risidagi qaror ushbu Kodeksning 330-moddasida nazarda tutilgan zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran besh ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda bojxona organi tomonidan qabul qilinadi.

Bojxona organining qarorida bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilayotgan muddat, bunday imkoniyat berish rad etilgan taqdirda esa rad etish sabablari ko'rsatiladi.

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati ushbu Kodeksning 47-bobida nazarda tutilgan tartibda bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sharti bilan beriladi.

Tovarlarni import qilish bilan uch yildan ortiq vaqtdan buyon shug'ullanayotgan, bojxona to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini yaxshi (yoki o'z vaqtida) bajarib kelgan, lekin moliyaviy ahvoliga ko'ra to'lovlarni belgilangan muddatda to'lash imkoniyatiga ega bo'lmagan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga bojxona to'lovlarini bo'lib-bo'lib to'lash huquqi beriladi. Bunda bojxona to'lovlarini bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati oxirgi uch yil davomida to'langan

bojxona to'lovlari summasining ellik foizidan oshmaydigan summa miqdorida, olti oy muddatga bojxona to'lovlarini ta'minlash qo'llanilmagan holda berilishi mumkin.

(329-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 14 oktyabrdagi O'RQ-722-sonli Qonuniga asosan o'ninchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021 y., 03/21/722/0960-son)

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoxud O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan uzoqroq muddatlarga va bojxona to'lovlari to'lanishi ta'minlanmagan holda berilishi mumkin.

330-modda. Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini olish uchun to'lovchi bojxona organiga:

bojxona to'lovlari summalarini to'lash bo'yicha yozma majburiyatni o'z ichiga olgan arizani;

ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishi ta'minlanganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etadi.

331-modda. Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berishni rad etish asosi

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

ushbu Kodeksning 330-moddasi talablariga rioya etilmaganligi;

bojxona organlariga ariza taqdim etilgan paytda bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik mavjudligi;

(331-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

332-modda. Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganligi uchun foizlar

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari summasidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasining ellik foizi miqdorida, bir kun uchun qayta hisob-kitob qilingan hisoblab chiqariladigan foizlar undiriladi.

Foizlar kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan bojxona to'lovlarining summasi to'languniga qadar yoki to'lash bilan bir vaqtda, lekin kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash muddati tugaydigan kundan keyingi kundan kechiktirmay to'lanadi.

Bojxona to'lovlarini vakolatli iqtisodiy operatorlarga kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganda hamda ushbu Kodeks 329-moddasining beshinchi va o'n birinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati o'n to'rt kalendar kunga berilganda ushbu muddat uchun foizlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

(332-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona to'lovlari bo'yicha kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganligi uchun foizlarni to'lash, undirish va qaytarish ushbu bobda, shuningdek ushbu Kodeksning 48 va 49-boblarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

333-modda. Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganda ularning summalarini to'lash muddatlari

Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganda to'lovchi tomonidan ularning summalarini to'lash:

kechiktirib to'lash imkoniyati berilganda — kechiktirib to'lash muddati tugaydigan kundan kechiktirmay;

bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganda — bojxona organi tomonidan to'lovchi bilan birgalikda tasdiqlangan jadval bo'yicha bo'lib-bo'lib to'lanadigan summalarni kiritishning kelishib olingan kunlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan bojxona to'lovlarining summalari to'lovchi tomonidan o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, bojxona organlari bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikning butun summasini ushbu Kodeksning 47 va 48-boblarida nazarda tutilgan tartibda depozit, tovarlar garovi, bank kafolati, sug'urta polisi yoki kafillik bilan ta'minlangan pul mablag'lari hisobidan undirib olish choralarini ko'radi.

334-modda. Kelgusi bojxona to'lovlarini to'lash uchun pul mablag'lari

To'lovchi bojxona deklaratsiyasi qabul qilinguniga qadar kelgusi bojxona to'lovlarini to'lash uchun pul mablag'larini dastlabki tarzda (bundan buyon matnda dastlabki pul mablag'lari deb yuritiladi) bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazishi mumkin.

To'lovchining ko'rsatmasiga ko'ra dastlabki pul mablag'laridan:

bojxona to'lovlarini to'lash uchun;

penya, foizlar to'lash majburiyatlarini bajarish hisobiga deb;

bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash uchun;

bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash uchun foydalanilishi mumkin.

To'lovchi bojxona organiga mazkur dastlabki pul mablag'lariga bojxona to'lovlari sifatida qarash haqida ko'rsatma bermaguniga qadar ushbu mablag'larga bojxona to'lovlari sifatida qaralishi mumkin emas. To'lovchining bojxona deklaratsiyasini topshirishi yoki dastlabki pul mablag'laridan penya, foizlar to'lash majburiyatlarini bajarish hisobiga deb, bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash yoxud bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash uchun foydalanish haqidagi arizasini berish to'lovchining ko'rsatmasi hisoblanadi.

335-modda. Dastlabki pul mablag'larini qaytarib berish tartibi

To'lovchi dastlabki pul mablag'lari ushbu mablag'lardan oxirgi foydalanilgan kunning ertasidan e'tiboran uch yil ichida qaytarib berilishini talab qilishga haqli.

Dastlabki pul mablag'larini qaytarib olish uchun to'lovchi shaxsiy g'azna hisobvarag'iga ko'rsatilgan pul mablag'lari o'tkazib berilgan bojxona organiga dastlabki pul mablag'larini qaytarib berish to'g'risida ariza taqdim etadi. To'lovchi bojxona organiga ariza bilan bir vaqtda to'lovchi va bojxona organi o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasini taqdim etadi.

Bojxona organi o'n besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda o'zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni solishtirib chiqadi.

O'zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasi bojxona organining mansabdor shaxsi va to'lovchi tomonidan imzolangan kunning ertasidan e'tiboran uch ish kuni ichida bojxona organi dastlabki pul mablag'lari qaytarilishini amalga oshiradi.

To'lovchida bojxona to'lovlarini, shuningdek penya yoki foizlarni to'lash bo'yicha qarzdorlik bo'lgan taqdirda, dastlabki pul mablag'lari to'lovchining roziligi bilan ushbu qarzdorlik chegirib qolingan holda qaytarib beriladi.

Agar dastlabki pul mablag'larini qaytarib berish haqidagi ariza ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan muddat ichida taqdim etilmagan bo'lsa, ushbu pul mablag'lari bojxona organi tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga o'tkaziladi.

47-bob. Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash

336-modda. Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashning qo'llanilishi

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash ushbu Kodeksning 72, 87, 93, 95, 222, 223, 236, 272, 321 va 329-moddalarida belgilangan hollarda qo'llaniladi.

(336-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash bojxona organlariga tovarlar chiqarib yuborilguniga qadar yoxud shunday ta'minlashni nazarda tutuvchi harakatlar amalga oshirilguniga qadar taqdim etilishi kerak.

337-modda. Bojxona nazorati ostida turgan tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashning miqdori

Quyidagi tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashning miqdori erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish ma'lum qilinganda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining va foizlarning summasiga mos bo'lishi kerak:

ushbu Kodeksning 222 va 223-moddalarida nazarda tutilgan, bojxona hududida bojxona nazorati ostida olib o'tiladigan tovarlarga;

bojxona ombori maqomiga ega bo'lmagan joylarda saqlanayotgan tovarlarga;

shartli bojxona qiymati qo'llanilgan holda chiqarib yuboriladigan tovarlarga;

bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash qo'llanilgan holda chiqarib yuboriladigan tovarlarga;

bojxona yuk deklaratsiyasi topshirilguniga qadar chiqarib yuboriladigan tovarlarga.

338-modda. Nazorat qilinishi bojxona organlarining zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshirishda bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashning miqdori

Nazorat qilinishi bojxona organlariga yuklatilgan faoliyatni amalga oshirish uchun bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash quyidagi miqdorlarda taqdim etiladi:

(338-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-494-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son)

agar bojxona ombori yoki erkin ombor sifatida ochiq maydoncha ma'lum qilinayotgan bo'lsa, bir kvadrat metr maydon uchun bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida yoki agar bojxona ombori yoxud erkin ombor sifatida bino ma'lum qilinayotgan bo'lsa, binoning bir kub metr hajmi uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida, lekin bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan kam bo'lmagan summasi miqdorida — bojxona ombori yoki erkin ombor egalari uchun;

(338-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

bazaviy hisoblash miqdorining o'n ming baravari miqdorida — boj olinmaydigan savdo do'konlarining egalari uchun;

(338-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravari miqdorida — bojxona tashuvchisi uchun.

(338-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 3 dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son)

339-modda. Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash usullari

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash to'lovchining tanloviga ko'ra quyidagi istalgan usullar orqali amalga oshiriladi:

pul mablag'larini bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kiritish;

tovarlarni garovga qo'yish;

bank kafolatini taqdim etish;

bojxona to'lovlarini to'lash majburiyatini sug'urtalash;

kafillik.

3391-modda. Bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minoti

Agar ayni bir shaxs tomonidan muayyan vaqt ichida bir necha bojxona operatsiyasi amalga oshirilsa, barcha bunday bojxona operatsiyalarini bajarish chog'ida yuzaga keladigan bojxona to'lovlarini to'lashni ta'minlash uchun ushbu Kodeksning 339-moddasida belgilangan usullardan biri bilan bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minoti taqdim etilishi mumkin, bundan ushbu Kodeks 339-moddasining ikkinchi va oltinchi xatboshilarida ko'rsatilgan usullar mustasno.

Bojxona organi bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minotini, agar bojxona to'lovlari bunday ta'minot hisobidan ushbu bojxona organi tomonidan undirilishi mumkin bo'lsa, qabul qiladi.

Bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minoti tovarlarni chiqarib yuboruvchi bojxona organiga taqdim etiladi.

To'lovchi bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minotini ushbu Kodeksning 336, 337 va 338-moddalarida belgilangan hollarda yuzaga keladigan bojxona to'lovlarini to'lashni ta'minlashga doir bir yoki bir necha majburiyat bo'yicha taqdim etadi.

Bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minoti to'lovchining arizasida ko'rsatilgan muddatga bojxona organlari tomonidan qabul qilinadi. Bunda bojxona to'lovlarini to'lash bosh ta'minotining amal qilish muddati to'lovchining arizasida ko'rsatilgan muddat ichida

yuzaga keladigan bojxona to'lovlarini to'lashni ta'minlashga doir majburiyatlarni to'lovchi tomonidan bajarish muddatlaridan ko'p bo'lishi kerak.

Bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minotini qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

(3391-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

340-modda. Pul mablag'larini bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kiritish va ularni qaytarish shartlari

To'lovchi bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash uchun bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga ushbu Kodeksning 337 va 338-moddalarida belgilangan miqdorda pul mablag'lari summasini kiritadi.

Pul mablag'lari bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga (bundan buyon matnda depozit deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida kiritiladi.

(340-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Saqlangan vaqt uchun depozit summasiga foizlar hisoblanmaydi.

Depozitni qaytarish to'lovchining arizasi bojxona organi tomonidan olingan kundan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay mazkur arizaga ko'ra amalga oshiriladi.

Depozitni qaytarish to'g'risidagi ariza to'lovchi tomonidan bojxona organiga majburiyat bajarilganidan keyin, lekin majburiyat bajarilgan kunning ertasidan e'tiboran uch yildan kechiktirmay beriladi. Agar depozitni qaytarish to'g'risidagi ariza belgilangan muddatda berilmagan bo'lsa, depozit summasi bojxona organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga o'tkaziladi.

To'lovchi tomonidan depozit bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, kiritilgan pul mablag'lari bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash hisobiga depozit summasidan olinadi.

341-modda. Bojxona nazorati ostida tovarlar tashilayotganda majburiyat bajarilishini ta'minlash uchun kiritilgan depozitni qaytarish

Bojxona nazorati ostida tovarlar tashilayotganda majburiyat bajarilishini ta'minlash uchun kiritilgan depozitni qaytarish to'g'risidagi ariza depozit qaysi bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga tushgan bo'lsa, o'sha bojxona organiga yoxud bojxona nazorati ostida tovarlarni tashish tugallanayotgan bojxona organiga beriladi.

Tovarlarni tashish majburiyatlari bajarilganligi bojxona nazorati ostida tovarlarni tashish tugallanayotgan bojxona organi tomonidan tasdiqlanganidan keyin ikki ish kuni ichida bojxona organi bojxona nazorati ostida tovarlar tashilayotganda majburiyat bajarilishini ta'minlash uchun kiritilgan depozit qaytarilishini amalga oshiradi.

Bojxona nazorati ostida tovarlar tashilayotganda majburiyat bajarilishini ta'minlash uchun kiritilgan depozitni qaytarish to'lov qaysi valyutada kiritilgan bo'lsa, o'sha valyutada bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

342-modda. Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida tovarlar garovini qo'llash

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida garov to'g'risidagi shartnoma asosida tovarlar garovi qo'llanilishi mumkin.

Har qanday tovar garov narsasi bo'lishi mumkin, bundan quyidagilar mustasno:

elektr, issiqlik energiyasi va energiyaning boshqa turlari;

korxonalar, binolar, qurilmalar, inshootlar, yer uchastkalari, fazoviy ob'yektlar;

boshqa majburiyatlarni ta'minlash uchun garovga qo'yib bo'lingan tovarlar;

intellektual mulk ob'yektlari;

bojxona hududiga olib kirilishi taqiqlangan tovarlar;

tez buziladigan tovarlar;

jonivorlar;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan tovarlar;

realizatsiya qilish imkoniyati cheklangan tovarlar;

joylashgan yeri va foydalanilishi ustidan bojxona organi doimiy nazoratni ta'minlay olmaydigan tovarlar;

qonunchilikka muvofiq erkin realizatsiya qilinishi taqiqlangan ishlab chiqarish mahsulotlari va chiqindilari.

(342-modda ikkinchi qismining o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan va sertifikatlanishi yoki davlatning boshqa organlari nazoratida bo'lishi lozim bo'lgan tovarlar sertifikatlar, ruxsatnomalar va tovarlar chiqarib yuborilayotganda zarur bo'lgan boshqa hujjatlar bo'lgan taqdirdagina garov narsasi bo'lishi mumkin.

Garov narsasining bozor qiymatini aniqlash uchun uning baholanishi garovga qo'yuvchi hisobidan baholash faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

(342-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Garov narsasining bozor qiymati to'lanishi garov narsasi bilan ta'minlanadigan bojxona to'lovlariga doir majburiyatlar, shu jumladan tovarlarning ularni saqlash va realizatsiya qilish bo'yicha zarur xarajatlarning o'rnini qoplash uchun bozor qiymatidan o'n besh foizi qo'shib hisoblangandagi majburiyatlar miqdoridan kam bo'lmasligi kerak.

Ushbu Kodeksning 93 va 236-moddalarida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni va erkin ombor faoliyatini litsenziyalashda bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida tovarlarni garovga qo'yish qo'llanilmaydi.

343-modda. Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida tovarlarni garovga qo'yishga doir talablar

Tovarlarni garovga qo'yish bojxona organi va kafolat shartnomasi bo'yicha to'lovchi yoki boshqa shaxs bo'lishi mumkin bo'lgan garovga qo'yuvchi o'rtasidagi garov to'g'risidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Garov to'g'risidagi shartnoma yozma shaklda tuzilgan va notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Garovga qo'yuvchi garov to'g'risidagi shartnomaga muvofiq garov narsasini tasarruf etishga haqli.

Garov to'g'risidagi shartnoma qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladi.

(343-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

344-modda. Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida bank kafolatini qo'llash

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida O'zbekiston Respublikasida bank operatsiyalarini o'tkazish huquqiga ega bo'lgan bankning kafolati qo'llanilishi mumkin.

Bank kafolatida ko'rsatilgan bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash summasining miqdori to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining va foizlarning summasidan kam bo'lmasligi kerak.

To'lovchi tomonidan bank kafolati bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining summasi va foizlar qonunchilikka muvofiq so'zsiz tartibda kafolat bergan bankdan bojxona organi tomonidan undirib olinadi.

(344-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

345-modda. Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida sug'urta majburiyatini qo'llash

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida to'lovchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash shartnomasiga ko'ra sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi sug'urta polisi qo'llanilishi mumkin.

Sug'urta polisi bilan tasdiqlanadigan bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash summasining miqdori to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining va foizlarning summasidan kam bo'lmasligi kerak.

Sug'urta polisi bilan ta'minlangan majburiyat to'lovchi tomonidan bajarilmagan taqdirda bojxona to'lovlarining summasi va foizlar sug'urta polisini bergan sug'urtalovchidan bojxona organi tomonidan so'zsiz tartibda qonunchilikka muvofiq undirib olinadi.

(345-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

346-modda. Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida kafillikning qo'llanilishi

Kafilning bojxona to'lovlari to'lanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs o'rniga bojxona to'lovlari va foizlarning to'lanishini ta'minlash niyati to'g'risidagi yozma majburiyati bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida qo'llanilishi mumkin.

Kafil sifatida har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs ish yuritishi mumkin.

Kafil ushbu Kodeksning 340-moddasiga muvofiq bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga ta'minlash summalarini kiritish orqali bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashni amalga oshiradi.

Kafillik bilan ta'minlanadigan majburiyat bajarilmaganligi uchun kafil va to'lovchi bojxona organi oldida solidar javobgar bo'ladi.

48-bob. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik

347-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikning yuzaga kelishi

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik ushbu Kodeksning 327-moddasida belgilangan muddatlarda to'lanmagan bojxona to'lovlari summasidan, shuningdek uni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganligi uchun to'lanishi lozim bo'lgan foizlardan iborat.

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik quyidagi hollarda yuzaga keladi:

bojxona to'lovlari ularni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash muddati tugaganidan keyin to'lanmaganda. Kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash muddati tugagan kunning ertasidan qarzdorlik yuzaga kelgan kun deb hisoblanadi;

tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini o'tkazish natijasida bojxona to'lovlari qo'shib hisoblanganda. Agar to'lovchining bojxona to'lovlari qo'shib hisoblanishiga e'tirozlari bo'lmasa, bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorlikni to'lash to'g'risidagi talabnoma taqdim etilgan kun, to'lovchi e'tiroz bildirgan taqdirda esa, sudning bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risidagi qarori qonuniy kuchga kirgan sana qarzdorlik yuzaga kelgan kun deb hisoblanadi;

to'lovchining tashabbusi bilan bojxona to'lovlari qo'shib hisoblanganda. Tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritilgan kun qarzdorlik yuzaga kelgan kun deb hisoblanadi;

(347-modda ikkinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

ushbu Kodeks 327-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan muddatlarda bojxona to'lovlari to'lanmaganda. Bojxona to'lovlarini to'lash muddati tugagan kundan keyingi kun qarzdorlik yuzaga kelgan kun deb hisoblanadi.

Agar bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik bazaviy hisoblash miqdorining yigirma foizidan oshmasa, u shakllanmaydi.

(347-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

348-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash to'g'risidagi talabnoma

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash to'g'risidagi talabnoma bojxona organi tomonidan to'lovchiga mazkur qarzdorlikni majburiy tartibda undirish choralari ko'rilguniga qadar yozma ravishda qo'yiladi.

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash to'g'risidagi talabnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

talabnoma qo'yilishi asoslari;

bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikning talabnoma qo'yilgan paytdagi summasi;

talabnomani bajarish uchun belgilangan muddat;

to'lovchi tomonidan talabnoma bajarilmagan taqdirda, bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni sud tartibida undirish to'g'risidagi ogohlantirish.

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash to'g'risidagi talabnoma bunday qarzdorlik yuzaga kelganligi fakti aniqlangan kundan e'tiboran o'n ish kunidan kechiktirmay, to'lovchi tomonidan ushbu talabnoma olinganligi faktini va olish sanasini tasdiqlash imkonini beradigan har qanday usulda to'lovchiga yuborilishi kerak.

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash to'g'risidagi talabnomani bajarish muddati talabnoma to'lovchiga topshirilgan yoki u to'lovchi tomonidan olingan kunning ertasidan e'tiboran o'n ish kunini tashkil etadi.

To'lovchi tomonidan bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzi ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan muddat ichida to'lanmagan taqdirda, bojxona organi undiruv qarzdorning mol-mulkiga qaratiladigan miqdordagi bojxona to'lovlari bo'yicha qarzning summasini ko'rsatgan holda garov reyestriga yozuv kiritadi. Yozuv bojxona to'lovlari bo'yicha qarz to'liq qoplanganidan yoki hisobdan chiqarilganidan keyin garov reyestridan o'chiriladi.

(348-modda O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 22 oktyabrdagi O'RQ-572-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019 y., 03/19/572/3943-son)

Bojxona to'lovlari ularni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash muddati tugaganidan keyin to'lanmagan taqdirda bojxona organlari bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikning so'zsiz tartibda undirilishini bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash to'g'risida to'lovchiga talabnoma yubormagan holda amalga oshiradi.

349-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penya

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun to'lovchi tomonidan penya to'lanadi. Penya, bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik summasini istisno etganda, uni undirish bo'yicha majburiy choralar, shuningdek bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun boshqa javobgarlik choralari qo'llanilishidan qat'i nazar, to'lanadi.

(349-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

To'lovchining penyani to'lash bo'yicha majburiyati bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelgan kundan e'tiboran paydo bo'ladi hamda bojxona to'lovlari va penyani to'lash bo'yicha qarzdorlik amalda to'langan kunda tugatiladi.

Penyaning foiz stavkasi uni to'lash bo'yicha majburiyat bajarilmagan har bir kalendar kun uchun bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik summasining shu paytda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng miqdorida hisoblanadi.

(349-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Penyaning umumiy summasi bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikning miqdoridan oshmasligi kerak.

Penyani to'lash, undirish va qaytarish ushbu Kodeksning 46, 48 va 49-boblarida bojxona to'lovlarini to'lash va qaytarish hamda bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni undirishga nisbatan nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

350-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni undirish

To'lovchi tomonidan e'tiroz mavjud bo'lgan, qo'shib hisoblangan bojxona to'lovlarini undirish sudning bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori asosida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni undirish sud tartibida amalga oshiriladi, bundan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno.

To'lovchi bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lashni bojxona organiga yozma yoki elektron shaklda xabar yuborib, quyidagi hollarda olti oy davomida teng ulushlarda amalga oshirishga haqli:

bojxona to'lovlari qo'shib hisoblanganda, agar to'lovchi bojxona organining qaroriga rozi bo'lsa — bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash to'g'risidagi talabnoma olingan kundan e'tiboran;

to'lovchining tashabbusi bilan bojxona to'lovlari qo'shib hisoblanganda — tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish shakli rasmiylashtirilgan kundan e'tiboran.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, bojxona to'lovlari to'lanmagan tovarlarga nisbatan undiruvni qaratish bojxona to'lovlarini to'lash to'g'risidagi talabnomani yubormasdan yoki bunday yuborishga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni, shuningdek penyani to'lash to'lovchi tomonidan bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan dastlabki pul mablag'lari yoxud ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlari hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

351-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lovchining bank hisobvaraqlarida turgan pul mablag'lari hisobidan undirish

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lovchining bank hisobvaraqlarida turgan pul mablag'lari hisobidan undirish bojxona organi tomonidan bankka pul mablag'larining so'zsiz tartibda undirilishi to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasini yuborish orqali amalga oshiriladi.

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikning summasini o'tkazish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasi quyidagilar to'lanmagan taqdirda bojxona organi tomonidan besh ish kunidan kechiktirmay qo'yiladi:

bojxona to'lovlarini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash muddati tugagach, bojxona to'lovlari to'lanmaganda;

ushbu Kodeks 350-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda to'lovchida e'tiroz mavjud bo'lmagan qo'shib hisoblangan bojxona to'lovlari to'lanmaganda;

tovarlarning bojxona nazorati ostida bo'lishiga doir talablar buzilgan holda yo'qotilgan yoxud foydalanilgan yoki berib yuborilgan tovarlar bo'yicha hisoblangan bojxona to'lovlari to'lanmaganda;

(351-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

ushbu Kodeksning 66-moddasida nazarda tutilgan muddatlarda davriy bojxona to'lovlari to'lanmaganda.

To'lovchining hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatayotgan bank bojxona organining bojxona to'lovlarini undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasini qonunchilikda belgilangan navbat tartibida bajaradi.

(351-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

352-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lovchining mol-mulkini realizatsiya qilishdan tushgan pul mablag'lari hisobidan undirish

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lovchining mol-mulkini realizatsiya qilishdan tushgan pul mablag'lari hisobidan undirish uning hisobvaraqlarida bojxona organining inkasso topshiriqnomasi qo'yilgan paytdan e'tiboran olti oydan ko'proq muddatda pul mablag'lari bo'lmagan taqdirda qo'llaniladi.

Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni to'lash hisobiga undiruvni mol-mulkka qaratish bojxona organining da'vo arizasiga asosan sud tartibida amalga oshiriladi, bundan undiruvni bojxona organiga garov narsasi sifatida berilgan mol-mulkka qaratish bojxona organi va garovga qo'yuvchi o'rtasidagi shartnoma shartlariga qarab amalga oshiriladigan hollar mustasno.

3521-modda. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni umidsiz deb e'tirof etish

Majburiyatning sud qaroriga ko'ra tugatilganligi oqibatida yoxud qarzdor to'lovga qobiliyatsiz bo'lganligi, tugatilganligi yoki vafot etganligi oqibatida to'lanishi mumkin bo'lmagan bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorlik umidsiz qarz deb hisoblanadi.

(3521-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 21 fevraldagi O'RQ-911-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son)

Bojxona organlarining qaroriga ko'ra bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlik quyidagi hollarda umidsiz qarz deb e'tirof etiladi:

1) yuridik shaxs tugatilganda — uning bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzining o'z mol-mulki yetarli emasligi va (yoki) qarzdorlikni qonunchilikda belgilangan doirada va tartibda ushbu yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) tomonidan uzish mumkin bo'lmaganligi sababli uzilmay qolgan qismi bo'yicha;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bankrot deb e'tirof etilganda — bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzning qarzdorning mol-mulki yetarli emasligi sababli uzilmay qolgan qismi bo'yicha;

3) jismoniy shaxs vafot etganda yoki jismoniy shaxs vafot etgan deb e'lon qilinganda yoxud jismoniy shaxs bankrot deb topilganda — uning bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzining o'z mol-mulki yetarli emasligi sababli, shu jumladan meros davlat mulkiga o'tgan taqdirda uzilmay qolgan qismi bo'yicha;

(3521-modda ikkinchi qismning 3-bandi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 21 fevraldagi O'RQ-911-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son)

4) chet el yuridik shaxsi soliq organidan hisobdan chiqarilganda — uning bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorligining doimiy muassasaning mol-mulki yetarli emasligi hamda O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan yuridik shaxs tomonidan qarzdorlikni qonunchilikda belgilangan doirada va tartibda uzish mumkin bo'lmaganligi sababli uzilmay qolgan qismi bo'yicha. Undirilishi umidsiz deb e'tirof etilgan mazkur qarzdorlik ushbu chet el yuridik shaxsi soliq organida qaytadan hisobga qo'yilganda tiklanishi lozim.

Undirilishi umidsiz deb e'tirof etilgan bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qarzdorlikni hisobdan chiqarish tartibi va ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

(3521-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

49-bob. Bojxona to'lovlari summalarini qaytarish

353-modda. Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan summadan oshadigan miqdorda bojxona to'lovlari sifatida to'langan yoki undirilgan pul mablag'larining summalari ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlari summalari hisoblanadi.

(353-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalari shunday to'lovlar to'langan yoxud undirilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida qaytarilishi yoki dastlabki pul mablag'lari hisobiga o'tkazilishi lozim, bundan ushbu moddaning uchinchi va to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan hollar mustasno.

Eng ko'p qulaylik berish rejimi yoki erkin savdo rejimi qo'llanilgan (tiklangan) taqdirda, ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalari ushbu to'lovlar to'langan yoki undirilgan paytdan e'tiboran bir yil ichida, bojxona organiga lozim darajada rasmiylashtirilgan tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikatni taqdim etish sharti bilan qaytarilishi yoxud dastlabki pul mablag'lari hisobiga o'tkazilishi kerak.

Qaytarilishi reeksport va reimport bojxona rejimlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak bo'lgan ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summasini qaytarish ushbu Kodeksning 35 va 59-moddalarida belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi lozim.

Tovarlarni bojxona to'lovlari to'lanishini nazarda tutuvchi bojxona rejimiga joylashtirish sanasi ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlari summalarining to'lanish yoki undirilish paytidir.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

to'lovchi tomonidan ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlari summalarini qaytarish to'g'risida ariza berilganda;

bojxona to'lovlari summalarining ortiqcha to'langanligi yoki undirilganligi fakti aniqlanganda.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summasi bojxona organlari tomonidan quyidagi hollarda qaytarilmaydi, agar:

uni qaytarish to'g'risidagi ariza ushbu moddaning ikkinchi — to'rtinchi qismlarida belgilangan tegishli muddatlar tugaganidan keyin berilgan bo'lsa;

uning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining yigirma foizidan oshmasa.

(353-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan

kuchga kiradi)

354-modda. Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish shartlari

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlarining summalari quyidagi hollarda dastlabki pul mablag'lari hisobiga o'tkaziladi yoki bojxona organlari tomonidan to'lovchiga qaytarib beriladi:

tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritilishi munosabati bilan bojxona to'lovlari summalari qayta hisoblanganda;

agar bojxona rejimi shartlarida ilgari to'langan bojxona to'lovlari summalarini qaytarish nazarda tutilgan bo'lsa;

agar tovarning bojxona to'lovlarini to'lash ularni hisoblab chiqarishning belgilangan tartibini buzgan holda amalga oshirilgan bo'lsa;

bojxona to'lovlarining stavkalari o'zgargan bo'lsa;

bojxona hududiga olib kirilgan tovarga nisbatan bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyoz tiklangan bo'lsa;

agar bojxona to'lovlari to'langan tovarlar bojxona nazorati ostida yo'q qilinishi lozim bo'lsa;

egasi bojxona organi bo'lgan bojxona ombori tugatilishi munosabati bilan tovarlar berilayotganda saqlash uchun to'langan bojxona yig'imlari summalarining bir qismi qaytarilganda;

bojxona to'lovlarini hisoblashda ortiqcha to'lovga olib kelgan texnik xatoliklar aniqlanganda.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalari qonunchilikka muvofiq boshqa hollarda ham qaytarib berilishi mumkin.

(354-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona organining xatosi tufayli ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlari summalarini qaytarish ustuvor tartibda amalga oshiriladi.

(354-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

355-modda. Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish to'g'risidagi ariza

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish to'g'risidagi ariza shaxsiy g'azna hisobvarag'iga ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlari kiritilgan bojxona organiga topshiriladi. To'lovchi bojxona organiga ariza bilan birga ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish huquqini yuzaga keltiruvchi holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi.

356-modda. Bojxona organining ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish to'g'risidagi qarori

Bojxona organi ariza kelib tushgan va zarur hujjatlar taqdim etilgan kunning ertasidan e'tiboran o'n ish kuni ichida to'lovchining ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish to'g'risidagi arizasiga ko'ra qaror qabul qiladi.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish to'g'risidagi arizada va taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning bojxona organi tomonidan qo'shimcha tekshiruvini amalga oshirish zarurati tug'ilganda, arizani ko'rib chiqish o'n ish kunidan oshmaydigan muddatga uzaytiriladi.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda bojxona organi arizachini yozma shaklda xabardor qiladi. Yozma xabardan keyin arizachi bojxona organi bilan birga o'zaro hisob-kitoblarni taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

Bojxona organi ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda arizachini qabul qilingan qaror haqida rad etishning asoslantirilgan sabablarini ko'rsatgan holda yozma shaklda xabardor qiladi.

357-modda. Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish tartib-taomili

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona rasmiylashtiruvida avval hisoblangan bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish mazkur summalarni quyidagi tartibda o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi:

to'lovchining arizada ko'rsatilgan hisobvarag'iga;

ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarda, bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga;

to'lov amalga oshirilgan valyutada;

dastlabki pul mablag'lari hisobiga;

bojxona organlari oldidagi boshqa majburiyat bo'yicha bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash uchun.

To'lovchida bojxona to'lovlarini, shuningdek penyani yoki foizlarni to'lash bo'yicha qarzdorlik bo'lgan taqdirda, bojxona organi qarzdorlikni to'lovchining roziligi bilan ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlari summasi hisobidan to'lanishini amalga oshiradi. Bunda ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summasi to'lovchiga ushbu qarzdorlik miqdoridagi bojxona to'lovlarini, penyani yoki foizlarni to'lash bo'yicha qarzdorlik chegirib tashlangan holda qaytariladi.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalari qaytarilayotganda ular uchun foizlar to'lanmaydi va qaytarilayotgan to'lov summasi indeksatsiyalanmaydi.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish bojxona to'lovlari turi bo'yicha bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan, tovarlari bojxona jihatidan rasmiylashtirilgan boshqa to'lovchilarning mablag'laridan va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lardan amalga oshiriladi.

50-bob. Tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash

358-modda. Tovar ishlab chiqarilgan mamlakat

Tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki ushbu bobda belgilangan talablarga muvofiq yetarli darajada qayta ishlangan mamlakat tovar ishlab chiqarilgan mamlakat hisoblanadi. Bir guruh mamlakatlar, mamlakatlarning bojxona ittifoqlari, mintaqa va (yoki), tovar ishlab chiqarilgan joyni aniqlash maqsadi ajratib ko'rsatishni taqozo etsa, biror mamlakatning muayyan qismi tovar ishlab chiqarilgan mamlakat deb hisoblanishi mumkin.

359-modda. Muayyan mamlakatda to'liq ishlab chiqarilgan tovarlar

Quyidagi tovarlar muayyan mamlakatda to'liq ishlab chiqarilgan deb hisoblanadi:

1) uning hududidan, hududiy suvlaridan, qit'a shelfidan yoki dengiz tubidan qazib olingan foydali qazilmalar, agar mamlakat ushbu yer qa'ri boyliklarini qidirish va qazib olish uchun mutlaq huquqqa ega bo'lsa;

2) mamlakat hududida yetishtirilgan yoki yig'ib olingan o'simlik mahsulotlari;

3) mamlakatda tug'ilgan va parvarish qilingan tirik hayvonlar;

4) mamlakatda yetishtirilgan o'simlik mahsulotlaridan va hayvonlardan olingan mahsulot;

5) mamlakatda tayyorlangan ovchilik, baliqchilik va dengiz ovi mahsuloti;

6) mamlakat kemalarida yoki ijaraga olgan (fraxt qilgan) kemalarida jahon okeanida ovlangan va (yoki) tayyorlangan dengiz ovi mahsuloti;

7) mamlakatda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish yoki boshqa operatsiyalarning mahsuli bo'lgan ikkilamchi xom ashyo va chiqindilar;

8) mamlakatga tegishli bo'lgan yoki u ijaraga olgan kosmik kemalarda ochiq koinotdan olingan yuqori texnologiyalar mahsuloti;

9) mamlakatda ushbu moddada ko'rsatilgan mahsulotdangina ishlab chiqarilgan tovarlar.

360-modda. Tovarni yetarli darajada qayta ishlash mezonlari

Agar tovarni ishlab chiqarishda ikki yoki undan ortiq mamlakat ishtirok etayotgan bo'lsa, tovarning ishlab chiqarilgan joyi yetarli darajada qayta ishlash mezonlariga muvofiq aniqlanadi.

Tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash uchun tovarni yetarli darajada qayta ishlashning quyidagi mezonlaridan biri qo'llaniladi:

tovarni muayyan mamlakatda qayta ishlash yoki tayyorlash bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish natijasida uning O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasidagi o'rni dastlabki to'rtta belgisining istalgan biri darajasida o'zgarishi;

advalor ulush qoidasi — foydalanilgan materiallarning va (yoki) qo'shilgan qiymatning foizli ulushi yakuniy mahsulotning narxida qayd etilgan belgilangan ulushiga yetganda tovar qiymatining o'zgarishi.

Quyidagilar tovarning yetarli darajada qayta ishlanganligi mezonlariga javob bermaydi:

saqlash yoki tashish vaqtida tovarlarning but saqlanishini ta'minlash bo'yicha operatsiyalar;

tovarlarni sotishga va tashishga tayyorlash operatsiyalari (tovar turkumini maydalash, tovarlarni jo'natishni tashkil etish, saralash, qaytadan o'rash va boshqalar);

oddiy yig'uv operatsiyalari;

tovarlarni (tarkibiy qismlarni) aralashtirib hosil qilingan mahsulotga unga dastlabki tarkibidan jiddiy farqlantiradigan xususiyatlarni bermaslik;

ushbu qismning ikkinchi — beshinchi xatboshilarida ko'rsatilgan operatsiyalarning ikkitasini yoki undan ortig'ini bir vaqtda amalga oshirish;

chorva mollarini so'yish.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan tovarning yetarli darajada qayta ishlanganligi mezonlarining qo'llanilish xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

(360-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

361-modda. Tovarlarni turkumlab yetkazishda ular ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash

Ishlab chiqarish yoki transport sharoitlariga ko'ra tovarlarni bitta turkum qilib jo'natishning imkoni bo'lmaganligi sababli ular bo'lib-bo'lib yoki yig'ilmagan holda bir necha turkumda yetkazib berilsa, shuningdek bir turkum tovar noto'g'ri taqsimlanishi natijasida bir necha turkumga bo'lingan bo'lsa, tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlashda bunday tovarlar deklarantning xohishiga ko'ra yagona tovar deb qaralishi kerak. Ushbu qoidaning qo'llanilish sharti quyidagilardan iborat:

bo'laklarga bo'lingan yoki yig'ilmagan tovarning bir necha turkumga taqsimlanganligini bunday taqsimlash sabablarini, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi bo'yicha tovarlarning kodlarini, har bir turkumga kiradigan tovarlar qiymati va tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni ko'rsatgan holda har bir turkumning batafsil tasnifini bojxona organiga oldindan yozma ravishda ma'lum qilish;

tovar bir necha turkumga noto'g'ri taqsimlanganligining hujjatlar bilan tasdiqlanganligi;

barcha turkumdagi tovarlarning bitta mamlakatdan bitta yetkazib beruvchi orqali yetkazib berilganligi;

tovarlarning barcha turkumlari bitta bojxona organi orqali olib kirilganligi;

barcha turkumdagi tovarlarning kontraktda (shartnomada, bitimda) ko'rsatilgan muddat ichida yetkazib berilganligi.

362-modda. Tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlashdagi o'ziga xos xususiyatlar

Tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlashda ularni ishlab chiqarish yoki qayta ishlash uchun foydalaniladigan energiya, mashinalar, uskunalar va asboblarning qayerda ishlab chiqarilganligi hisobga olinmaydi.

Mashinalar, uskunalar, apparatlarda yoki transport vositalarida foydalanish uchun mo'ljallangan buyumlar, ehtiyot qismlar hamda asboblar, basharti ushbu buyumlar, ehtiyot qismlar hamda asboblar kuzatuv hujjati sifatida ilova qilingan texnik pasportda, texnik formulyarda va boshqa texnik hujjatlarda ko'rsatilgan to'plamga hamda miqdorga muvofiq holda o'sha mashinalar, uskunalar, apparatlar yoki transport vositalari bilan bir to'plamda

olib kirilsa va sotilsa, mazkur mashinalar, uskunalar, apparatlar yoki transport vositalari ishlab chiqarilgan mamlakatda ishlab chiqarilgan deb hisoblanadi.

Bojxona hududiga uchinchi mamlakatlardan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududlaridan olib kiriladigan tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

(362-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning o'rovi tovarning o'zi kabi o'sha mamlakatda ishlab chiqarilgan deb hisoblanadi, bundan o'rovi tovardan alohida deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan hollar mustasno. Bunday hollarda o'rov ishlab chiqarilgan mamlakat tovar ishlab chiqarilgan mamlakatdan alohida aniqlanadi.

363-modda. Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat

Tovarning muayyan mamlakatda ishlab chiqarilganligi tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat bilan tasdiqlanadi.

Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat tovarning muayyan mamlakatda ishlab chiqarilganligini tasdiqlaydigan, eksport yoki reeksport qiluvchi mamlakatda belgilangan tartib va shaklga muvofiq vakolatli organ tomonidan berilgan, shu jumladan elektron shaklda berilgan hujjatdir.

Tovarlarni bojxona hududidan olib chiqishda tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat, agar mazkur sertifikat kontrakt (shartnoma, bitim) shartlariga, tovar olib kiriladigan mamlakatning milliy qoidalariga ko'ra zarur bo'lsa yoki ko'rsatilgan sertifikatning mavjudligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek eksport qiluvchining talabiga ko'ra zarur bo'lsa, qonunchilikka muvofiq sertifikat berishga vakolatli bo'lgan organ tomonidan beriladi.

(363-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

364-modda. Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikatni taqdim etish

Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan bojxona deklaratsiyasi va boshqa hujjatlar bilan bir vaqtda taqdim etiladi. Sertifikat yo'qolgan taqdirda uni bergan organ tomonidan rasmiy ravishda tasdiqlangan dublikati qabul qilinadi.

Tovarni bojxona hududiga olib kirishda tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat quyidagi hollarda majburiy tartibda taqdim etiladi:

O'zbekiston Respublikasi tarif preferensiyalari beradigan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga;

muayyan mamlakatdan olib kirilishi miqdoriy cheklovlar (kvotalar) yoki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning boshqa choralari orqali boshqarib turiladigan tovarlarga;

bojxona rasmiylashtiruvi uchun taqdim etiladigan hujjatlarda tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda yoxud tovarlarning kelib chiqishi to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlar deklaratsiya qilinayotganligiga bojxona organida asoslar mavjud bo'lganda;

agar bu talab O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan bo'lsa.

(364-modda ikkinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat yoki undagi ma'lumotlarning, shu jumladan tovar ishlab chiqarilgan mamlakat haqidagi ma'lumotlarning to'g'riligiga shubha tug'ilsa, bojxona organi qo'shimcha yoki aniqlik kiritadigan ma'lumot berishni so'rab ushbu sertifikatni bergan organlarga yoki sertifikatda tovar ishlab chiqarilgan mamlakat sifatida ko'rsatilgan mamlakatning vakolatli tashkilotlariga murojaat qilishi mumkin.

Ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan hollarda, lozim darajada rasmiylashtirilgan tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat yoki so'ralgan ma'lumotlar taqdim etilmaguniga qadar tovar muayyan mamlakatda ishlab chiqarilgan deb hisoblanmaydi.

Bojxona organlarida tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat blanklari namunalari, tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikatni tasdiqlash va berishga vakolatli bo'lgan organlar muhrlarining izlari va shaxslarning imzolari mavjudligi O'zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo zonasini tashkil etuvchi yoki O'zbekiston Respublikasi tomonidan erkin savdo rejimi o'rnatilgan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikatni bojxona organlari tomonidan qabul qilish shartidir.

365-modda. Tovarni bojxona hududiga olib kirishni uning kelib chiqishi asosida rad etish

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq tovarlari bojxona hududiga olib kirilishi mumkin bo'lmagan mamlakatda ishlab chiqarilganligiga asoslar mavjud bo'lgan taqdirda bojxona organi tovarni bojxona hududiga olib kirishni rad etishi mumkin.

(365-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

366-modda. Tovarni kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat mavjud bo'lmagan taqdirda chiqarib yuborish

Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikatning taqdim etilmaganligi tovarni chiqarib yuborishni rad etish uchun asos bo'lmaydi.

Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat mavjud bo'lmaganda yoki ushbu sertifikatning va (yoki) unda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga shubha tug'ilganda tovarga nisbatan bojxona bojining ikki baravar oshirilgan stavkasi qo'llaniladi, bundan ushbu Kodeksning 365-moddasida nazarda tutilgan hol mustasno.

Tovarlar bojxona to'lovlari to'lanishini nazarda tutuvchi bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan e'tiboran bir yildan kechiktirmay bojxona organiga lozim darajada rasmiylashtirilgan kelib chiqish to'g'risidagi sertifikat taqdim etilgan taqdirda tovarlarga eng ko'p qulaylik berish rejimi yoki erkin savdo rejimi qo'llanilishi yoki qayta tiklanishi mumkin. Bunday holda bojxona to'lovlarining to'langan summalarini qaytarish ushbu Kodeksning 49-bobiga muvofiq amalga oshiriladi.

51-bob. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi

367-modda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasining asosiy qoidalari

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi tovarlarning tizimlashtirilgan ro'yxati bo'lib, undan tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish maqsadida foydalaniladi va u tovarning raqamli kodli belgilanishini, uning nomini, o'lchov birliklarini hamda izohlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi Umumjahon bojxona tashkilotining Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimiga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi belgilangan tartibda joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi tashqi savdoni hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa turlarini tarif va notarif tartibga solish choralarini amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo bojxona statistikasini yuritish uchun qo'llaniladi.

368-modda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasini yuritish

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasini yuritish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasining andaza nusxasini hamda unga doir sharhlarni ishlab chiqish va saqlab turish;

2) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasining, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasiga doir sharhlarning va uni talqin etish bo'yicha tasnifiy yechimlarning nashr etilishini ta'minlash;

3) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasining xalqaro asosiga doir o'zgartish va qo'shimchalarni, mazkur asosni talqin etishga doir xalqaro tushuntirishlarni hamda qarorlarni kuzatib borish;

4) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga o'zgartish va qo'shimchalarni ishlab chiqish, kiritish, shu jumladan bu o'zgartish va qo'shimchalarni mazkur nomenklaturaning xalqaro asosiga muvofiq ishlab chiqish, kiritish to'g'risida takliflar tayyorlash;

5) tovarlarning kodlarini kichik subpozitsiyalar darajasida aniqlashtirish;

6) ayrim tovarlarni tasniflash bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va e'lon qilish.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasini yuritish O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

(368-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

369-modda. Tovarlarni tasniflash

Tovarlarni tasniflash:

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasini talqin etishning asosiy qoidalariga;

tasniflashning har qanday darajasidagi kichik subpozitsiyalarga doir izohlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovarlarni tasniflashda Umumjahon bojxona tashkilotining Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimiga, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga va O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga doir tushuntirishlar tovar kodini uning xususiyatlari bo'yicha aniqlashtirish imkonini beradigan qo'shimcha material sifatida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasining bir xil talqin etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organi ayrim turdagi tovarlarni tasniflash bo'yicha qarorni chop etadi.

Bojxona rasmiylashtiruvida tovarlar noto'g'ri tasniflanganligi aniqlangan taqdirda bojxona organi tovarlarni tasniflashni mustaqil amalga oshiradi va ularning tasnifi bo'yicha qaror qabul qiladi.

Bojxona organlarining tovarlarni bojxona maqsadlarida tasniflash bo'yicha qarorlari majburiydir.

Bojxona organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

52-bob. Dastlabki qarorlar

370-modda. Tovarlarning tasniflanishi bo'yicha dastlabki qarorni qabul qilish

Bojxona organlari tovarlarning tasniflanishiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq dastlabki qaror qabul qilishi mumkin.

Bojxona organlari tovarlarning kelib chiqish mamlakatini va tovarlar uchun to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari miqdorini aniqlashga doir dastlabki qarorni qonunchilikda belgilangan tartibda qabul qilish huquqiga ega.

Dastlabki qaror bojxona organlari uchun majburiydir.

Dastlabki qarorning shakli O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

(370-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

371-modda. Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qaror qabul qilish to'g'risida so'rov

Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qaror qabul qilish to'g'risidagi so'rovda (bundan buyon matnda so'rov deb yuritiladi) tovarlarning to'liq tijorat nomi, firma nomi, asosiy texnik, tijorat tavsiflari va tovarni bir ma'noda tasniflash imkonini beruvchi boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Zarur hollarda, mahsulotning fotosuratlari, rasmlari, chizmalari, pasportlari hamda ushbu dastlabki qarorni qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar va hujjatlar taqdim etiladi.

Yuridik shaxsdan kelib tushadigan so'rov tashkilot rahbari tomonidan familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi ko'rsatilgan holda imzolangan hamda tashkilot joylashgan yer to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Jismoniy shaxsdan kelib tushadigan so'rov ushbu shaxs tomonidan imzolangan va uning yashash manzili haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

So'rov bojxona organiga kelib tushgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida ko'rib chiqiladi.

Arizachi tomonidan ma'lumotlar, hujjatlar va materiallar tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qaror qabul qilish uchun to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilgan taqdirda, bojxona organi dastlabki qarorni qabul qilish to'g'risida bojxona organiga ariza berilgan kundan e'tiboran yigirma kalendar kun ichida qo'shimcha ma'lumotlarni, hujjatlarni va materiallarni berish zarurligi to'g'risida arizachini xabardor qiladi. Bunda aynan qanday qo'shimcha ma'lumotlar, hujjatlar va materiallarni taqdim etish zarurligi ko'rsatilishi shart.

Qo'shimcha ma'lumotlar, hujjatlar va materiallar arizachi xabardor qilingan kundan e'tiboran oltmish kalendar kun ichida taqdim etilishi lozim. Agar ma'lumotlar, hujjatlar va materiallar belgilangan muddatda taqdim etilmagan bo'lsa, tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qaror qabul qilish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqmasdan qoldiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi bo'yicha tovarning kodini aniqlash borasida nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan hollarda va ularni hal etish qiyin bo'lganda, bojxona organi tovarlarning namunalarini yoki nusxalarini hamda tegishli hujjatlarni Umumjahon bojxona tashkilotiga tegishli tekshirishlar yoki sinovlar o'tkazish uchun yuborishi mumkin. Bunda tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qaror bojxona organi tomonidan o'z so'roviga javob olinganidan keyin qabul qilinadi.

Bojxona organi tegishli qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida arizachini tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qaror qabul qilinganligi to'g'risida xabardor qilishi kerak.

So'rovning rad etilishi uni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabablar bartaraf etilgan taqdirda arizachining dastlabki qarorni qabul qilish to'g'risida qayta murojaat etishiga to'sqinlik qilmaydi.

372-modda. Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorning amal qilish muddati

Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qaror, agar u o'zgartirilgan, qaytarib olingan yoki bekor qilingan bo'lmasa, qabul qilingan kunidan e'tiboran bir yil ichida amal qiladi. Ushbu muddat tugagach, dastlabki qaror o'z kuchini yo'qotadi, bu manfaatdor shaxsning yangi dastlabki qaror berish to'g'risidagi so'rov bilan murojaat etishiga to'sqinlik qilmaydi.

373-modda. Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorni o'zgartirish, qaytarib olish yoki bekor qilish

Bojxona organlari tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorni o'zgartirish, qaytarib olish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorni o'zgartirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi o'zgartirilganda;

dastlabki qarorni qabul qilishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va xatolar aniqlanganda.

Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorning o'zgarishi shu qarorda ko'rsatilgan muddatda kuchga kiradi.

Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorning shartlariga amal qilinmagan taqdirda u qaytarib olinadi.

Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorni qaytarib olish to'g'risidagi qaror tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorning o'zgarishi e'lon qilinganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmay qabul qilinishi kerak va bir vaqtda kuchga kiradi.

Agar tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qaror arizachi tomonidan taqdim etilgan to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar asosida qabul qilingan bo'lsa, bunday qaror bekor qilinadi.

Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorni bekor qilish to'g'risidagi qaror dastlabki qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorni o'zgartirish, qaytarib olish yoki bekor qilish to'g'risidagi qaror dastlabki qaror berilgan shaxsga qaror qabul qilingan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay yozma shaklda yuboriladi.

374-modda. Dastlabki qarorlarning oshkoraligi. Tovarlarni tasniflash bo'yicha berilgan dastlabki qarorlarning reyestrini yuritish

Tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorlar ochiq axborot bo'lib, barcha yuridik va jismoniy shaxslarga ularning yozma so'rovlariga ko'ra hech bir cheklovlarsiz taqdim etilishi kerak, bundan tijorat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir bo'lgan axborot mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Tovarlarni tasniflash bo'yicha berilgan dastlabki qarorlarning reyestrini yuritadi va uning davriy ravishda e'lon qilinishini ta'minlaydi.

IX bo'lim. Bojxona statistikasi. Bojxona ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish

53-bob. Bojxona organlari tomonidan bojxona statistikasini yuritish

375-modda. Bojxona statistikasi

Bojxona organlari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan uslubiyot va tartibga muvofiq bojxona statistikasini yuritadi va shakllantiradi.

Bojxona statistikasi ma'lumotlaridan bojxona organlari tomonidan bojxona maqsadlari va bojxona organlarining zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi.

Bojxona statistikasini yuritish uchun shaxslar tomonidan ushbu Kodeksga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bojxona organlariga taqdim etiladigan hujjatlar hamda ma'lumotlardan, shuningdek bojxona organlari ixtiyoridagi hujjatlar va ma'lumotlardan foydalaniladi.

Bojxona organlari davlat, tijorat, bank sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni o'z ichiga olgan bojxona statistikasi ma'lumotlarini oshkor etmasligi shart, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

(375-moddaning uchinchi va to'rtinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Bojxona statistikasi tashqi savdo bojxona statistikasi va maxsus bojxona statistikasiga bo'linadi.

376-modda. Tashqi savdo bojxona statistikasi

Tashqi savdo bojxona statistikasi O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo tovar aylanmasi bo'yicha uning miqdori va qiymati ifodalangan, tizimlashtirilgan ma'lumotlar yig'indisidan iboratdir.

Tashqi savdo bojxona statistikasining asosiy vazifalari davlat organlarini O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo tovar aylanmasining holati to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga bojxona to'lovlarining tushishini nazorat qilish, valyuta nazoratini va O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalar amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat.

377-modda. Maxsus bojxona statistikasi

Maxsus bojxona statistikasi bojxona organlari faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha tizimlashtirilgan, tashqi savdo bojxona statistikasini yuritish bilan bog'liq bo'lmagan ma'lumotlar yig'indisidan iboratdir.

Maxsus bojxona statistikasi bojxona organlarining faoliyatini o'rganish, boshqaruvini tashkil etish va ushbu faoliyatni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash uchun yuritiladi.

54-bob. Bojxona ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

378-modda. Bojxona ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Bojxona ishi, qoida tariqasida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida amalga oshiriladi.

Yuridik yoki jismoniy shaxslar, shu jumladan chet ellik shaxslar bojxona ishida boshqa davlat organlarining axborot tizimlari bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi bojxona organlarining axborot tizimlaridan foydalanishi mumkin.

Bojxona ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish axborot xavfsizligi talablariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

379-modda. Bojxona ishida foydalaniladigan axborot resurslari

Bojxona ishida foydalaniladigan axborot resurslari bojxona organlarining axborot tizimlarida yaratiladigan, ishlov beriladigan va to'plab boriladigan ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olgan hujjatlashtirilgan axborotning tashkil etilgan majmuidir.

Bojxona organlarining ixtiyorida bo'lgan axborot resurslari ochiqdir va ulardan hamma erkin foydalanishi mumkin, bundan ulardagi axborotdan foydalanish qonunchilikka muvofiq cheklangan hollar mustasno.

(379-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

55-bob. Axborot va maslahat berish

380-modda. Bojxona to'g'risidagi qonunchilik to'g'risida axborot berish

Bojxona organlari umumjahon Internet tarmog'idagi o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan bojxona to'g'risidagi qonunchilikka doir axborotdan shaxslarning moneliksiz foydalanishini ta'minlaydi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilik haqida axborot berish boshqa usul orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

(380-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

381-modda. Bojxona organlarining vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha maslahat berish

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari manfaatdor shaxslarga bojxona ishi masalalari va bojxona organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalar yuzasidan maslahat beradi.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan maslahat berish bojxona organlari joylashgan yerda va ularning ish vaqtida amalga oshiriladi.

Bojxona organlari tomonidan maslahat berish og'zaki, elektron yoxud yozma shaklda bepul amalga oshiriladi.

Maslahat berishda manfaatdor shaxslarga taqdim etilgan axborot tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona operatsiyalari amalga oshirilayotganda bojxona organlari tomonidan qaror qabul qilish yoki harakatni bajarish uchun asos bo'lmaydi.

56-bob. Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish

382-modda. Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish borasida bojxona organlari tomonidan ko'riladigan choralar

Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish choralarini ko'radi.

Bojxona hududiga olib kiriladigan va ushbu hududdan olib chiqiladigan, shuningdek bojxona nazorati ostida turgan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarning himoya qilinishini ta'minlash uchun bojxona organlari:

(382-modda ikkinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 16 yanvardagi O'RQ-896-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024 y., 03/24/896/0037-son)

intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarning buzilganlik belgilari mavjud bo'lgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turishi;

intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish to'g'risidagi qarorni bekor qilishi mumkin.

3821-modda. Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritilgan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha bojxona organlarining harakatlari

Bojxona organlari olib kirilayotgan yoki olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonida Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritilgan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlar buzilganligi belgilarini aniqlagan taqdirda:

huquq egasini bu haqda bir ish kuni ichida xabardor qiladi;

xabardor qilingan sanadan e'tiboran bir ish kuni ichida huquq egasidan ariza kelib tushgan taqdirda — ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha ushbu Kodeksning 382-moddasiga muvofiq choralar ko'radi;

huquq egalaridan ariza bojxona organlariga kelib tushmagan taqdirda — tovarni ushbu Kodeksga muvofiq chiqarib yuborishni amalga oshiradi.

Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritilgan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarning buzilganligi belgilari tovarlarning bojxona nazorati shakllari qo'llanilgan holdagi bojxona rasmiylashtiruvi chog'idagi xavfni boshqarish tizimi natijalariga ko'ra aniqlanadi.

(3821-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

3822-modda. Bojxona organlarining intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan tovarlarning bojxona nazoratini amalga oshirishdagi qo'shimcha huquqlari

Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarning buzilganligi belgilari mavjud bo'lgan tovarlar aniqlanganda bojxona organlari Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritilmagan intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda, huquq egasining intellektual mulk

ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish to'g'risidagi arizasisiz to'xtatib turishga haqli.

Tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish va bekor qilish ushbu moddaga muvofiq bojxona organi rahbarining yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning ko'rsatmasiga asosan amalga oshiriladi.

Bojxona organlari qo'shimcha huquqlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organining davlat reyestridagi O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan tovar belgilari ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanadi.

Tovarlarni chiqarib yuborish ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq to'xtatib turilgan taqdirda, bojxona organlari tomonidan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarning buzilganligi belgilari mavjud bo'lgan tovarlar aniqlanganda huquq egasini yoki uning vakolatli vakilini va deklarantni xabardor qilish yuzasidan barcha zarur choralar ko'riladi.

Bojxona organlari intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish maqsadida tovar belgisining huquq egasi to'g'risidagi ma'lumotlarni (nomi, manzili, telefon raqami, pochta manzili) aniqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organiga so'rov yuboradi.

So'rovda himoya qilish choralari tatbiq etilayotgan tovarlar to'g'risidagi axborot ko'rsatiladi.

Bojxona organlari va O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organi huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining manzilini aniqlash va uni xabardor qilish uchun yigirma to'rt soat ichida barcha zarur choralarni ko'radi.

Bojxona organlari tomonidan yigirma to'rt soat ichida huquq egasi yoki uning vakolatli vakili to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoni bo'lmagan taqdirda, tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish bekor qilinadi va tovarlarni chiqarib yuborish ushbu Kodeksga muvofiq amalga oshiriladi.

Intellektual mulk ob'yektining O'zbekiston Respublikasidagi huquq egasi yoki uning vakolatli vakili to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlangan taqdirda ularga xabar yuboriladi, shuningdek tovarlarni chiqarib yuborish uch ish kuniga to'xtatib turiladi.

Agar mazkur muddat ichida huquq egasi yoki uning vakolatli vakili bojxona organiga:

tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish muddatini o'n ish kunigacha uzaytirish to'g'risida ariza bermaganda;

tovarlarning chiqarib yuborilishini to'xtatib turishni bekor qilish haqida ariza berganda, bojxona organlari ushbu Kodeksga muvofiq tovarlarni chiqarib yuborishni amalga oshiradi.

Agar ushbu moddaning sakkizinchi qismida ko'rsatilgan muddatda bojxona organlariga huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi arizasi kelib tushgan bo'lsa, ularni chiqarib yuborish dastlabki tarzda to'xtatib turilgan sanadan e'tiboran o'n ish kuniga qadar to'xtatib turiladi. Bunda huquq egasi yoki uning vakolatli vakili o'n ish kuni ichida quyidagilarni bojxona organiga taqdim etishi kerak:

1) intellektual mulk ob'yektiga bo'lgan huquqlar buzilganligi haqidagi ish bo'yicha sudning ishni sudda ko'rish tayinlanganligi to'g'risidagi ajrimi;

2) tovarga nisbatan intellektual mulk ob'yektiga bo'lgan huquqlar buzilganligi holati mavjud emasligi to'g'risida sud tomonidan qaror qabul qilingan taqdirda, deklarantga va boshqa shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararning, shuningdek bojxona organlari tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarning o'rnini qoplash bo'yicha majburiyat. Bunda mulkiy zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi majburiyatda har bir intellektual mulk ob'yekti bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdoridagi pul mablag'lari tegishli bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi;

3) ushbu Kodeksning 385-moddasida belgilangan tartibda intellektual mulk ob'yektlarini Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar.

Huquq egasi yoki uning vakolatli vakili intellektual mulk ob'yektiga bo'lgan huquqlar buzilganligi to'g'risidagi ishni sudda ko'rish tayinlanganligi haqidagi sud qarorini bojxona organlariga tovarlarni chiqarib yuborish dastlabki tarzda to'xtatib turilgan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida taqdim etgan taqdirda, mazkur muddat huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining iltimosnomasiga ko'ra uzaytirilishi, lekin ko'pi bilan o'n ish kuniga uzaytirilishi mumkin, bundan sudning qarorida ko'rsatilgan boshqa muddatlar mustasno.

Ushbu moddada belgilangan talablar tovarlarni chiqarib yuborish dastlabki tarzda to'xtatib turilgan kundan e'tiboran huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan bajarilmagan taqdirda, tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish bekor qilinadi hamda ularni chiqarib yuborish ushbu Kodeksga muvofiq tiklanadi. Bunda deklarantning va bojxona organlarining tovarlarni chiqarib yuborishni o'n ish kuniga to'xtatib turish bo'yicha xarajatlarining o'rnini huquq egasi yoki uning vakolatli vakili qoplaydi.

(3822-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

383-modda. Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rilmaydigan tovarlar

Bojxona organlari:

1) jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlar uchun, shu jumladan ularning manziliga xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan;

2) bojxona tranziti bojxona rejimiga muvofiq;

3) diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari, xorijiy davlatlarning boshqa rasmiy vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar, ushbu vakolatxonalar, muassasalar va tashkilotlarning xodimlari tomonidan rasmiy va shaxsiy foydalanish uchun;

4) insonparvarlik yordami va texnik ko'mak sifatida bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rmaydi.

384-modda. Intellektual mulk ob'yektiga bo'lgan mutlaq huquqlar egasi

Intellektual mulk ob'yektiga bo'lgan mutlaq huquqlarga ega shaxs yoki uning vakolatli vakili intellektual mulk ob'yektiga bo'lgan mutlaq huquq egasi (huquq egasi) bo'ladi.

385-modda. Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritish uchun ariza

Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritish to'g'risidagi ariza huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan elektron shaklda bojxona organlarining axborot tizimi orqali bojxona organiga beriladi.

(385-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritish to'g'risidagi arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

huquq egasi yoki uning vakolatli vakili to'g'risidagi, uning nomini, rekvizitlarini, shuningdek, agar mavjud bo'lsa, elektron pochta manzilini ko'rsatgan holda;

huquq egasi yoki uning vakolatli vakili himoya qilish to'g'risida murojaat etayotgan intellektual mulk ob'yektining tavsifi;

vakolatli organ tomonidan berilgan intellektual mulk ob'yektiga bo'lgan huquqlarning amal qilish muddati haqidagi;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi kodi va intellektual mulk ob'yektini o'z ichiga olgan tovarning nomi to'g'risidagi;

intellektual mulk ob'yektini ishlab chiqaruvchi haqidagi (nomi, manzili, telefon raqami, pochta manzili);

(385-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar to'g'risidagi;

(385-modda ikkinchi qismining yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

intellektual mulk ob'yekti Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga qaysi muddatga kiritilayotgan bo'lsa, o'sha muddat haqidagi, lekin bu muddat intellektual mulk ob'yekti ushbu reyestrga kiritilgan kundan e'tiboran uch yildan ko'p bo'lmasligi kerak;

himoya qilinishi uchun ariza berilayotgan intellektual mulk ob'yektlari mavjud bo'lgan tovarlarning tavsifi (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, mahsulotlarning pasportlari va boshqa ma'lumotlar).

Agar Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritish to'g'risidagi ariza vakil tomonidan berilsa, ushbu arizaga vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat ham ilova qilinadi.

Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritish to'g'risidagi arizaga intellektual mulk ob'yektiga bo'lgan huquqlarning mavjudligi va mansubligini tasdiqlovchi mavjud hujjatlarning (patentning, guvohnomaning, litsenziya shartnomasining yoki boshqa hujjatlarning) huquq egasi tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxalari ilova qilinadi.

Huquq egasi yoki uning vakolatli vakili Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritilganidan keyin intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarning himoya qilinishini ta'minlash uchun intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarini

himoya qilib bojxona organlariga bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish bo'yicha choralar ko'rilishi uchun murojaat qilishi mumkin.

386-modda. Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritish uchun arizani ko'rib chiqish

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritish uchun arizani u kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatda ko'rib chiqadi va mazkur reyestrga kiritish to'g'risida yoki kiritishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

Huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi vakolatli organlardan taqdim etilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi qo'shimcha axborot va hujjatlarni so'rab olishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi huquq egasiga yoki uning vakolatli vakiliga Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritilganligi to'g'risida yoki kiritish rad etilganligi haqida, rad etilishi sabablarini asoslantirgan holda xabar yuboradi.

387-modda. Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestrini yuritish

Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar qo'llanilishi to'g'risida qaror qabul qilingan intellektual mulk ob'yektlari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestrini yuritadi va keyinchalik uni doimiy ravishda yangilab borgan holda o'z rasmiy veb-saytida vaqti-vaqti bilan e'lon qiladi.

Intellektual mulk ob'yektlari quyidagi hollarda Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestridan chiqarilishi kerak:

huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining reyestrdan chiqarilish to'g'risidagi murojaatiga ko'ra;

ushbu Kodeksning 385-moddasida ko'rsatilgan hujjatlardagi noto'g'ri ma'lumotlar bojxona organi tomonidan aniqlanganda;

intellektual mulk ob'yektining huquqiy muhofazasi belgilangan tartibda tugatilganda;

intellektual mulk ob'yekti Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestriga kiritilgan kundan e'tiboran uch yil o'tgach;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Apellyatsiya kengashining qarori asosida.

(387-modda uchinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 5 oktyabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020 y., 03/20/640/1348-son)

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi huquq egasini yoki uning vakolatli vakilini intellektual mulk ob'yektlari Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestridan chiqarilganligi to'g'risida uch ish kuni ichida yozma shaklda xabardor qiladi.

Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestrini yuritish tartibi va shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

388-modda. Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish to'g'risidagi ariza

Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish to'g'risidagi ariza huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan bojxona organlariga beriladi.

Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish to'g'risidagi arizada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

himoya qilinishi uchun ariza berilayotgan, intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan tovarlarning tavsifi;

huquq egasining fikricha, uning intellektual mulk ob'yektiga bo'lgan huquqlarini buzayotgan tovarlarning, bojxona organlari bunday tovarlarni aniqlay olishi uchun yetarlicha batafsil tavsifi, agar huquq egasi yoki uning vakolatli vakili shunday ma'lumotlarga ega bo'lsa;

taxmin qilinayotgan huquqbuzarlikni aniqlashga ko'maklashadigan har qanday boshqa axborot (eksport qiluvchi, import qiluvchi yoki yukni qabul qiluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar).

Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish to'g'risidagi arizaga huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining tovarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish tufayli deklarantga yetkazilishi mumkin bo'lgan mulkiy zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi yozma shakldagi majburiyati ilova qilinadi.

Mulkiy zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi majburiyatda har bir intellektual mulk ob'yekti uchun bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdoridagi mablag'lar tegishli bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

(388-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

389-modda. Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish

Bojxona organi intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqadi va tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish to'g'risida yoki asoslantirilgan sabablarni ko'rsatgan holda uni rad etish haqida uch ish kuni ichida qaror qabul qiladi, bu haqda huquq egasini yoki uning vakolatli vakilini xabardor qiladi.

(389-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha choralar ko'rishni rad etish to'g'risidagi qaror ushbu bobga muvofiq huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim qilingan, shuningdek ushbu Kodeksning 388-moddasida belgilangan talablarga rioya etilmagan taqdirda qabul qilinadi.

390-modda. Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlar buzilganligining belgilari bo'lgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish

Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlar buzilganligining belgilari bo'lgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish ushbu Kodeksning 385 va 388-moddalarida nazarda tutilgan shartlarga rioya etgan holda bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi. Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlar buzilganligining belgilari bo'lgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining sud organlariga murojaat qilishi va sudning ishni sudda ko'rish tayinlanganligi to'g'risidagi ajrimini bojxona organlariga taqdim etish maqsadida amalga oshiriladi.

Bojxona organi deklarantni va huquq egasini yoki uning vakolatli vakilini tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish sabablari va muddatlari to'g'risida zudlik bilan xabardor qiladi.

Huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish natijasida deklarantga yetkazilgan zarar uchun, agar sud intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquq buzilganligi to'g'risida qaror chiqarmasa, belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarning buzilganligi belgilari mavjud bo'lgan tovarlarni chiqarib yuborish o'n ish kuniga qadar to'xtatib turilgan taqdirda, bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kiritilgan pul mablag'larining o'ttiz foizi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining maxsus jamg'armasiga o'tkaziladi.

(390-modda O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

391-modda. Intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan tovarlarning namunalari va nusxalarini tanlab olish

Huquq egasi, uning vakolatli vakili yoki deklarant intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan qaysi tovarlarga nisbatan chiqarib yuborilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, o'sha tovarlarning namunalari va nusxalarini bojxona nazorati ostida tanlab olishi, ularni tekshirishni amalga oshirishi, shuningdek ko'zdan kechirishi, fotosuratga olishi yoki shunday tovarlarni boshqacha tarzda qayd etishi mumkin.

392-modda. Intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish muddati

Huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining arizasiga ko'ra, bojxona organlari intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turishni ularni chiqarib yuborishni to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga amalga oshiradi.

Agar huquq egasi yoki uning vakolatli vakili sudning ishni sudda ko'rish tayinlanganligi to'g'risidagi ajrimini bojxona organlariga taqdim etgan bo'lsa, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan muddat huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining so'roviga ko'ra uzaytirilishi, lekin ko'pi bilan o'n ish kuniga uzaytirilishi mumkin.

Sudning tovarlarni olib qo'yish, xatlash yoxud da'voni ta'minlashning boshqa choralarini qo'llash to'g'risidagi ajrimi (qarori) ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan muddatda huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan taqdim etilgan taqdirda,

tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish sudning ajrimiga (qaroriga) muvofiq amalga oshiriladi.

393-modda. Intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish to'g'risidagi qarorni bekor qilish

Intellektual mulk ob'yektlarini o'z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda bekor qilinadi:

amal qilish muddati tugagach;

Bojxona organiga huquq egasidan yoki uning vakolatli vakilidan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish to'g'risidagi qarorni bekor qilish haqida ariza kelib tushganda;

(393-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O'RQ-913-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son — 2024 yil 28 maydan kuchga kiradi)

intellektual mulk ob'yekti ushbu Kodeks 387-moddasining uchinchi qismiga muvofiq Intellektual mulk ob'yektlarining bojxona reyestridan chiqarilganda;

sudning tovarlarni olib qo'yish, xatlash yoxud da'voni ta'minlashning boshqa choralarini qo'llash to'g'risidagi ajrimi (qarori) ushbu Kodeks 392-moddasining ikkinchi qismida belgilangan muddatda huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan taqdim etilmaganda.

Tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror bekor qilingan taqdirda tovarlarni chiqarib yuborish ushbu Kodeksga muvofiq tiklanadi.

X bo'lim. Chet ellik shaxslarning ayrim toifalari uchun bojxona imtiyozlari

57-bob. Chet davlatlarning vakolatxonalari va ularning xodimlari uchun bojxona imtiyozlari

394-modda. Chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalari uchun bojxona imtiyozlari

Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi diplomatik vakolatxonalari bojxona chegarasidan olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya etgan taqdirda vakolatxonalar va muassasalarning rasmiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni bojxona to'lovlaridan ozod etilgan holda bojxona hududiga olib kirishlari va ushbu hududdan olib chiqishlari mumkin, bundan saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazganlik uchun bojxona yig'imlari mustasno.

395-modda. Chet davlat diplomatik vakolatxonasining diplomatik agenti uchun bojxona imtiyozlari

Diplomatik vakolatxonaning diplomatik agentlari (diplomatik vakolatxonaning boshlig'i va a'zolari), shuningdek ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan oila a'zolari o'zlarining shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni, shu jumladan ro'zg'orni dastlab ta'minlash uchun kerakli bo'lgan tovarlarni bojxona chegarasidan bojxona to'lovlaridan ozod etilgan va olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya qilgan holda, bojxona hududiga olib kirishlari va ushbu hududdan olib chiqishlari mumkin, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'imlari mustasno.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarning shaxsiy bagaji unda shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallanmagan tovarlar yoki bojxona hududiga olib kirilishi yoxud bu hududdan olib chiqilishi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida yoki xalqaro shartnomalarida taqiqlangan yoxud karantin qoidalari va boshqa maxsus qoidalar bilan tartibga solinadigan tovarlar bor deb taxmin qilish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda bojxona ko'rigidan ozod etilmaydi. Bojxona ko'rigi diplomatik agent yoki uning vakolatli vakili ishtirokida o'tkaziladi.

(395-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

396-modda. Chet davlat diplomatik vakolatxonasining ma'muriy-texnik xodimlari uchun bojxona imtiyozlari

Chet davlat diplomatik vakolatxonasining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, ro'zg'orni dastlab ta'minlash uchun kerakli bo'lgan tovarlarni bojxona to'lovlari to'lanishidan ozod qilingan holda bojxona hududiga olib kirishi mumkin, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'imlari mustasno.

397-modda. Diplomatik agentlarga beriladigan bojxona imtiyozlarining chet davlat diplomatik vakolatxonasining ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga tatbiq etilishi

Chet davlat diplomatik vakolatxonasining ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan oila a'zolariga har bir chet davlat bilan tuzilgan maxsus kelishuv asosida va shu davlat bilan munosabatlardagi o'zaro hamjihatlik prinsipidan kelib chiqqan holda, ushbu Kodeksning 395-moddasiga muvofiq diplomatik agentlarga beriladigan bojxona imtiyozlari tatbiq etilishi mumkin.

398-modda. Chet davlatlarning konsullik muassasalari va ularning xodimlari uchun bojxona imtiyozlari

Chet davlatning konsullik muassasalariga va konsullik muassasalarining mansabdor shaxslariga, shuningdek ularning oila a'zolariga chet davlatning diplomatik vakolatxonalari hamda diplomatik vakolatxonalarining diplomatik agentlari uchun ushbu bobda nazarda tutilgan bojxona imtiyozlari beriladi. Chet davlat konsullik muassasasining boshqa xodimlariga (konsullik xizmatchilariga, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga), shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan oila a'zolariga nisbatan har bir chet davlat bilan tuzilgan maxsus kelishuv asosida va shu davlat bilan munosabatlardagi o'zaro hamjihatlik prinsipidan kelib chiqqan holda chet davlat diplomatik vakolatxonasining tegishli xodimlariga (ma'muriy-texnik xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga) ushbu bobda beriladigan bojxona imtiyozlari tatbiq etilishi mumkin.

399-modda. Chet davlatlarning diplomatik pochtasini va konsullik pochta qoplarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish

Diplomatik pochtani va konsullik pochta qoplarini o'z ichiga olgan joylar ushbu joylarning xususiyatini ko'rsatadigan ko'zga tashlanuvchi tashqi belgilarga ega bo'lishi kerak.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan chet davlatlarning diplomatik pochta va konsullik pochta qoplari ochilishi ham, ushlab turilishi ham mumkin emas. Konsullik pochta qopida ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilmagan narsalar bor deb gumon qilish uchun jiddiy asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, bojxona organi bojxona organining mansabdor shaxslari ishtirokida tegishli chet davlatning vakolatli shaxslari tomonidan konsullik pochta qopi ochilishini talab qilishga haqli. Pochta qopini ochishdan bosh tortilgan taqdirda konsullik pochta qopi jo'natilgan joyiga qaytarib yuboriladi.

Diplomatik pochtada faqat diplomatik hujjatlar va rasmiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlar, konsullik pochta qopida esa, faqat rasmiy xat-xabarlar va faqat rasmiy foydalanish uchun mo'ljallangan hujjatlar yoki tovarlar bo'lishi kerak.

58-bob. Chet ellik boshqa shaxslar uchun bojxona imtiyozlari

400-modda. Chet davlatlarning diplomatik va konsullik kuryerlari uchun bojxona imtiyozlari

Chet davlatlarning diplomatik va konsullik kuryerlari o'z shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni o'zaro kelishuv asosida bojxona ko'rigidan o'tkazishdan va bojxona to'lovlari to'lanishidan ozod etilgan holda bojxona hududiga olib kirishi va ushbu hududdan olib chiqishi mumkin, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki

bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'imlari mustasno.

401-modda. Chet davlatlarning vakillari va delegatsiyalari a'zolari uchun bojxona imtiyozlari

Davlatlararo muzokaralarda, xalqaro konferensiyalar va kengashlarda qatnashish uchun yoki boshqa rasmiy topshiriqlar bilan O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan chet davlat vakillariga, parlament va hukumat delegatsiyalari a'zolariga, shuningdek o'zaro kelishuv asosida chet davlat delegatsiyalarining a'zolariga chet davlat diplomatik vakolatxonasining diplomatik agentlari uchun ushbu bo'limda nazarda tutilgan bojxona imtiyozlari beriladi. Xuddi shunday imtiyozlar mazkur shaxslarga hamroh bo'lib kelgan oila a'zolariga ham beriladi.

402-modda. Bojxona hududi orqali tranzit tarzida o'tadigan diplomatik agentlar, konsullik mansabdor shaxslari, chet davlatlarning vakillari va delegatsiya a'zolari uchun bojxona imtiyozlari

Chet davlatning diplomatik agentlariga va konsullik mansabdor shaxslariga, ularning oila a'zolariga, shuningdek ushbu Kodeksning 401-moddasida ko'rsatilgan shaxslarga bojxona hududidan tranzit tarzida o'tayotganda chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining diplomatik agentlari uchun nazarda tutilgan bojxona imtiyozlari beriladi.

403-modda. Xalqaro hukumatlararo va hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar, ular huzuridagi chet davlatlar vakolatxonalari, shuningdek ularning xodimlari uchun bojxona imtiyozlari

Xalqaro hukumatlararo va hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar, ular huzuridagi chet davlatlar vakolatxonalari, shuningdek ushbu tashkilotlar hamda vakolatxonalarning xodimlari va ularning oila a'zolari uchun bojxona imtiyozlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilanadi.

59-bob. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari hamda ularning xodimlari uchun bojxona imtiyozlari

404-modda. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari uchun bojxona imtiyozlari

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari bunday vakolatxonalar va muassasalar tomonidan rasmiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlarni (avtotransport vositalari bundan mustasno) bojxona chegarasi orqali olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya qilgan, bojxona to'lovlari to'lanishidan ozod etilgan holda O'zbekiston Respublikasiga olib kiradi va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqadi, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'imlari mustasno.

405-modda. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonasining diplomatik agentlari va konsullik muassasalarining

konsullik mansabdor shaxslari uchun bojxona imtiyozlari

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonasining diplomatik agentlari va konsullik muassasalarining konsullik mansabdor shaxslari (diplomatik vakolatxonaning boshlig'i va a'zolari), shuningdek ular bilan birga yashaydigan oila a'zolari o'z shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni, shu jumladan ro'zg'orni dastlabki ta'minlash uchun kerakli bo'lgan tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya qilgan, bojxona to'lovlari to'lanishidan ozod etilgan holda olib chiqadi va xizmat safari yakunlanganidan keyin shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlarni (avtotransport vositalari bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasiga olib kiradi, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'imlari mustasno.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarning shaxsiy bagaji unda shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallanmagan tovarlar yoki olib kirilishi va olib chiqilishi qonunchilikda taqiqlangan yoxud karantin qoidalari va boshqa maxsus qoidalar bilan tartibga solinadigan tovarlar bor deb taxmin qilish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda bojxona ko'rigidan o'tkazilishi mumkin.

(405-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

406-modda. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonasining va konsullik muassasasining ma'muriy-texnik xodimlari uchun bojxona imtiyozlari

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonasining va konsullik muassasasining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari o'z shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni, shu jumladan ro'zg'orni dastlabki ta'minlash uchun kerakli bo'lgan tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya qilgan, bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etilgan holda olib chiqadi va xizmat safari yakunlanganidan keyin shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlarni (avtotransport vositalari bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasiga olib kiradi, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'imlari mustasno.

XI bo'lim. Nazorat ostida yetkazib berish

407-modda. Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni, prekursorlarni va boshqa ashyolarni nazorat ostida yetkazib berish

Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini, psixotrop moddalarni, prekursorlarni va boshqa ashyolarni bojxona chegarasi orqali nazorat ostida yetkazib berish tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning ijozati hamda nazorati ostida bojxona hududiga ularni olib kirish, ushbu hududdan olib chiqish yoki olib kirilgan ashyolarni undan olib o'tishga yo'l qo'yiladigan tezkor-qidiruv tadbiridir.

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar, prekursorlar va boshqa ashyolar xalqaro qonunga xilof muomalada bo'lishining oldini olish, shuningdek bunday muomalada ishtirok etayotgan shaxslarni aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar har bir alohida holda chet davlatlarning vakolatli organlari bilan kelishuvlarga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida nazorat ostida yetkazib berish usulidan foydalanadi, ya'ni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritilgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarning, shuningdek boshqa ashyolarning o'z nazorati ostida bojxona hududiga olib kirilishiga, bu hududdan olib chiqilishiga yoki tranzit tarzida olib o'tilishiga yo'l qo'yadi.

Nazorat ostida yetkazib berish usuli jinoyat sodir etish quroli yoki vositasi bo'lgan boshqa ashyolarga yoxud jinoiy yo'l bilan topilgan ashyolarga nisbatan o'zi bilan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etish kontrabanda deb hisoblanuvchi ashyolarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Nazorat ostida yetkazib berish usulidan foydalanish to'g'risidagi qaror qonunchilikda belgilangan tartibda har bir alohida holda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ tomonidan qabul qilinadi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar bojxona organlari bilan kelishilgan holda tovarlarni nazorat ostida yetkazib berishni amalga oshiradi.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan giyohvandlik vositalari, ularning analoglarini, psixotrop moddalarni, prekursorlarni va boshqa ashyolarni nazorat ostida yetkazib berish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishi qo'zg'atilmaydi.

Nazorat ostida yetkazib berishni amalga oshiruvchi organ rahbari qabul qilingan qaror haqida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini darhol xabardor qiladi.

(407-modda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

408-modda. Nazorat ostida yetkazib berish amalga oshirilayotganda bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini, psixotrop moddalarni, prekursorlarni va boshqa ashyolarni olib qo'yish yoki almashtirish

(408-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan, erkin realizatsiya qilish taqiqlangan yoki muomalasiga qonunchilikka muvofiq litsenziya yoki ruxsatnoma asosida yo'l qo'yiladigan giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini, psixotrop moddalar, prekursorlar va boshqa ashyolar nazorat ostida yetkazib berilayotganda bu tovarlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda to'liq yoki qisman olib qo'yilishi yoki almashtirilishi mumkin.

(408-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

Odamlarning sog'lig'i, atrof muhit uchun katta xavf tug'diradigan yoxud ommaviy qirg'in quroli tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ashyolar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda almashtirilishi kerak.

409-modda. Nazorat ostida tovar yetkazib berish usuli qo'llanilganda musodara qilingan pul mablag'lari va boshqa mol-mulkni tasarruf etish

O'zbekiston Respublikasining va chet davlatlarning sudlari tomonidan ochish va chek qo'yish paytida nazorat ostida tovar yetkazib berish usuli qo'llanilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha musodara qilingan pul mablag'lari, shuningdek bunda musodara qilingan mol-mulkni sotishdan tushgan pul mablag'lari bojxona organlari va boshqa vakolatli organlari mazkur usulni qo'llashda ishtirok etgan davlatlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va chet davlatlarning vakolatli organlari o'rtasidagi kelishuvga muvofiq taqsimlanadi.

XI1 bo'lim. Bojxona organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish

4091-modda. Shikoyat qilish huquqi

Vakolatli shaxslar bojxona organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan ushbu Kodeksda hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikka yoki boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan, bojxona organlarining bir yoki bir nechta jismoniy yoki yuridik shaxsga qaratilgan, yuridik ahamiyatga molik muayyan harakatlarni sodir etishga doir ko'rsatmasi mavjud bo'lgan hujjat bojxona organining normativ xususiyatga ega bo'lmagan qarori deb e'tirof etiladi.

4092-modda. Shikoyat berish tartibi va muddatlari

Bojxona organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi bojxona organiga shikoyat qilish bojxona to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bojxona organlarining tekshiruvlar va bojxona auditi natijalari yuzasidan qabul qilingan qarorlari ustidan yuqori turuvchi bojxona organiga shikoyat shaxs o'z huquqlari buzilganligi to'g'risida bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan paytdan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay berilishi mumkin.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan muddat uzrli sababga ko'ra o'tkazib yuborilgan taqdirda, ushbu muddat shikoyat berayotgan shaxsning iltimosnomasi bo'yicha yuqori turuvchi bojxona organi tomonidan tiklanishi mumkin.

4093-modda. Shikoyatning shakli va mazmuni

Shikoyat va unga ilova qilinadigan hujjatlar yozma yoki elektron tarzda yuborilishi mumkin.

Shikoyatda quyidagilar ko'rsatiladi:

1) shikoyat berilayotgan bojxona organining nomi;

2) shikoyat berayotgan jismoniy shaxsning (uning vakilining) familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi yoki yuridik shaxsning nomi va manzili;

3) shikoyatdagi e'tirozlarni asoslantiruvchi holatlar;

4) ilova qilingan hujjatlar ro'yxati (mavjud bo'lgan taqdirda);

5) shikoyat berayotgan shaxsning talablari;

6) shikoyat berilgan sana.

Shikoyatda telefon raqamlari, elektron pochta manzillari va shikoyatni o'z vaqtida ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin.

Shikoyat uni bergan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Shikoyat shaxsning vakolatli vakili tomonidan berilgan taqdirda, shikoyatga ushbu vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

4094-modda. Shikoyatni ko'rib chiqishni rad etish

Bojxona organi quyidagi hollarda shikoyatni ko'rib chiqishni rad etadi:

shikoyat ushbu Kodeksda belgilangan shikoyat berish muddati tugaganidan keyin berilganda va uni tiklash to'g'risidagi iltimosnoma mavjud bo'lmaganda;

shikoyat ushbu Kodeksning 4093-moddasida belgilangan talablarga mos bo'lmaganda;

shikoyat bergan shaxsdan shikoyatni to'liq yoki qisman chaqirib olish to'g'risidagi ariza shikoyat bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar kelib tushganda;

shikoyat bunga vakolatli bo'lmagan shaxs tomonidan berilganda;

ilgari aynan o'sha asoslar bo'yicha shikoyat berilganda;

shikoyat qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida yoki sudga berilganda.

Shikoyatni ko'rib chiqayotgan bojxona organi shikoyat olingan yoxud shikoyatni to'liq yoki qisman chaqirib olish to'g'risidagi ariza olingan kundan e'tiboran besh kun ichida shikoyatni to'liq yoki qisman ko'rmasdan qoldirish haqida qaror qabul qiladi.

Qabul qilingan qaror to'g'risida shikoyat bergan shaxsga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida yozma shaklda xabar qilinadi.

Ushbu modda birinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan hollarda, bojxona organining shikoyatni ko'rib chiqishni rad etishi shaxsning ushbu Kodeksning 4092-moddasida belgilangan muddat doirasida takroran shikoyat berish yoki sudga murojaat qilish huquqini istisno etmaydi.

4095-modda. Shikoyatni ko'rib chiqish tartibi

Shikoyat bergan shaxs o'z dalillarini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlarni shikoyatni ko'rib chiqish jarayonida shikoyat bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar taqdim etishga haqli.

Shikoyatni ko'rib chiqayotgan bojxona organi o'z tashabbusiga ko'ra yoki murojaat qiluvchi shaxsning iltimosnomasiga ko'ra shikoyatni eshitishni tashkil etishi mumkin.

Bojxona organi shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha shikoyat ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'n besh kalendar kuni ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshiruv o'tkazish, qo'shimcha hujjatlarni talab qilib olish zarur bo'lgan taqdirda esa bir oyga qadar bo'lgan muddatda asoslantirilgan qaror chiqaradi.

4096-modda. Shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qaror chiqarish

Bojxona organi shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasini tashkil etadi.

Apellyatsiya komissiyasining tarkibi va shikoyatni ko'rib chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldirish to'g'risida;

ustidan shikoyat qilingan qarorga o'zgartirishlar kiritish haqida;

qarorni bekor qilish va, zarur hollarda, yangi qaror qabul qilish to'g'risida;

bojxona organlari mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb e'tirof etish va ishning mohiyati bo'yicha qaror chiqarish haqida.

Apellyatsiya komissiyasining qarori shikoyat bergan shaxsga uch kun ichida yozma shaklda yuboriladi yoki topshiriladi, ko'chirma nusxasi esa tegishli bojxona organiga yuboriladi.

Apellyatsiya komissiyasining ushbu Kodeksda belgilangan asosda va tartibda chiqarilgan qarori bojxona organlari tomonidan ijro etilishi shart.

4097-modda. Bojxona organiga yoki sudga shikoyat berish oqibatlari

Bojxona organlarining qarorlari, ushbu organlar mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga berilgan shikoyatlar qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va hal etiladi.

Ariza sudga berilgan taqdirda, bojxona organi qarorining shikoyat qilinayotgan qismini ijro etish ariza sud tomonidan ish yurituvga qabul qilingan kundan e'tiboran va sudning qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar to'xtatib turiladi.

(XI1 bo'lim O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 fevraldagi O'RQ-748-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son — 2022 yil 3 maydan kuchga kiradi)

XII bo'lim. Yakunlovchi qoidalar

410-modda. Bojxona organlarining bayrog'i va farqlash belgisi

Bojxona organlari va ular ixtiyoridagi daryo kemalari o'z bayrog'iga ega bo'ladi. Bojxona organlarining avtotransport vositalari hamda havo kemalari farqlash belgisiga ega bo'ladi.

Bayroq va farqlash belgisi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

411-modda. Nizolarni hal etish

Bojxona ishi sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

(411-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

412-modda. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

(412-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 3(I)-son, 31-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son, 27.07.2018 y., 03/18/488/1579-son, 04.10.2018 y., 03/18/494/1992-son, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son, 05.09.2019 y., 03/19/564/3690-son, 23.10.2019 y., 03/19/572/3943-son, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son; 05.10.2020 y., 03/20/640/1348-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 15.10.2021 y., 03/21/722/0960-son; 02.02.2022 y., 03/22/748/0086-son; 27.07.2022 y., 03/22/785/0679-son; 31.12.2022 y., 03/22/812/1145-son; 28.12.2023 y., 03/23/890/0981-son; 29.12.2023 y., 03/23/891/0989-son; 16.01.2024 y., 03/24/896/0037-son; 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son; 27.02.2024 y., 03/24/913/0158-son; 10.10.2024 y.,